**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, haqiqatdan keyingi davrda yolgʻon haqiqatni ifodalashning toʻgʻriligi orqali taqlid qiladi, yaʼni, qabul qiluvchi pozitsiyadan olingan maʼlumotni haqiqatning toʻgʻri aks etishi deb hisoblagan narsaga koʻproq yoki kamroq yaqinroq baholaydi. Dialog bilimlarni dogmatizatsiya qilishning oldini olishga yordam beradi; u haqiqat pozitsiyasini qaytarilmas tarzda himoya qiladi, uning yangi olingan bilimlarga tegishliligini inkor etadi. Buning oʻrniga, haqiqatdan keyingi davrda dialogik muvoqot rasmiylashtiriladi: u dialogning rasmiy atributlariga ega, ammo dialogiklikning muhim xususiyatlaridan mahrum. Post-haqiqatning tarqalishi sharoitida dialog oʻzining hisobiga oʻzini ifoda etish, koʻpincha, tashviqotga asoslangan hikoyalarni eʼlon qilish, faqat obyektiv voqelikka taqlid qiladigan yangi voqealarni oʻrnatish uchun xizmat qiladi. Bunday dialog kommunikativ aktning predmeti va mazmunini tushunishga hech qanday eʼtibor qaratmasdan, fikrlar xilma-xilligini aks ettiruvchi simulyator sifatida namoyon boʻladi. Shu nuqtayi nazardan, keyingi tadqiqotlar uchun haqiqatdan keyingi davrda siyosiy nutqning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish juda muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

- (1). Butyrina M. (2020). Mediafeiky: zamakh na diisnist v epokhu postpravdy. In Aktualni trendy suchasnoho komunikativnoho prostoru: kolektivna monohrafiia [Media fakes: an attack on reality in the post-truth era]. Dnipro: Hrani, 13–25 p.
- (2). Высоцкий А.Ю. (2018). Постправда: концептуальные и прагматические аспекты [Post-truth: conceptual and praxeological dimensions]. Hrani, 21 (10), 127-132. URL: <https://doi.org/10.15421/1718138> (last accessed: 21.02.2023).
- (3). Злочевска М.В. (2009). Концептуальное измерение философии диалогизма [Conceptual dimension of dialogism philosophy]. Вестник НТУУ “КПИ”. Философия. Психология. Педагогика, 1 (25), 32–35 p.
- (4). Kopets L.V., Hordiienko V.I. (2012). Dialohichni komunikativni praktyky ta yikhni evrystychnyi potentsial: rezultaty doslidzhennia [Dialogic communicative practices and their heuristic potential: research results]. Naukovi zapysky NaUKMA. Pedagogichni, psikhologichni nauky ta sotsialna robota, 136, 53–58 p.
- (5). Sternichuk V.B. (2012). Teoriia dialohizmu: filosofsko-empyrychnyi vymir [Theory of dialogism: philosophical and empirical dimension]. Naukovyi visnyk Volynskoho natsionalnoho universytetu imeni Lesi Ukrainky. Filologichni nauky. Literaturoznavstvo, 13 (238), c. 118–122.
- (6). Trebin M.P., Chernyshova T.O. (2021). Borotba za svidomist liudei v epokhu postpravdy [The struggle for people’s consciousness in the post-truth era]. Visnyk NLUU imeni Yaroslava Mudroho. Seriya: Filosofiia, filosofiia prava, politolohiia, sotsiolohiia, 3 (50), 153–171. URL: <https://doi.org/10.21564/2663-5704.50.235224> last accessed: 09.03.2023).
- (7). Drotianko L.H., Abova M.A., Poda T.A., Ordenov S.S. (2020). Filosofiia dialohu v komunikativnykh praktykakh informatsiinoho suspilstva [Philosophy of dialogue in communicative practices of the information society]. In Sotsialni komunikatsii informatsiinoho suspilstva: teoretychni ta prykladni aspekty; A.H.Hudmaniana, S. M.Yahodzinskoho. (Eds.). Kyiv: Talkom, 8–27 c.
- (8). Shashkova L.O., Zlochevska M.V. (2011). Dialohichni vymir humanitarnoho znannia [Dialogic dimension of humanitarian knowledge]. Monohrafiia. Kyiv, Vydavnychiy dim “Profesional”.
- (9). Shoria T.H. (2020). Postpravda yak realist devalvovanoi kultury v epokhu kryzy suchasnoi demokratsii [Post-truth as a reality of devalued culture in the era of crisis of modern democracy.]. Visnyk Natsionalnoho aviatsiinoho universytetu. Seriya: Filosofiia. Kulturolohiia, 1, 114–121 c.
- (10). Camacho J.M.M. (2017). La erade la posverdad, la posveracidad y la charlataneria [The era of post-truth, post-truth and quackery]. Palabra. Febrero. 648, 56–59 p.
- (11). Keys R. (2004). The Post-Truth Era: Dishonesty and Deception in Contemporary Life. New York St. Martin’s Press.
- (12). Post-truth. (2023). Oxford Learner’s Dictionaries. URL: <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/post-truth?q=post-truth> (last accessed: 12.02.2023).
- (13). Viner K. (2016). How technology disrupted the truth. The Guardian, 12 Jul, 2016. URL: <https://www.theguardian.com/media/2016/jul/12/how-technology-disrupted-the-truth> (last accessed: 28.03.2023).
- (14). Word of the Year 2016. URL: <https://languages.oup.com/word-of-the-year/2016/> (дата звернення: 11.01.2023).

**Kurbanbayeva Ulbosin Jumagʻaliyevna (Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI tayanch doktoranti;  
e-mail: [ulbosin2616@gmail.com](mailto:ulbosin2616@gmail.com))**

#### **MAMLAKATIMIZDA OROLBOʻYI MINTAQASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA AMALIY ISHLARNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI**

*Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda ekologik muammolarning oqibatlarini bartaraf etish masalalari, ekologik xavfsizlikni va barqarorlikni taʼminlash davlat siyosati darajasida ekanligi bayon qilingan.*

*Shuningdek, mintaqamizdagi ekologik muammolarga xalqaro hamjamiyatning e'tibori, birgalikda olib borilayotgan ishlar, xalqaro hamkorlik va uning ahamiyati ko'rsatib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ekologiya, ekologik muammo, Orol fojiasi, ekologik huquq, ekologik strategiya.*

**Курбанбаева Улбосын Жумагалиевна** (докторант НГПИ имени Ажинияза;

e-mail: [ulbosin2616@gmail.com](mailto:ulbosin2616@gmail.com))

## **СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРАКТИКИ РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ПРИАРАЛЬЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ**

**Аннотация.** *В статье отмечается, что вопросы ликвидации последствий экологических проблем в нашей стране, обеспечения экологической безопасности и устойчивости поднимается на уровень государственной политики. Также отмечается внимание международного сообщества к экологическим проблемам нашего региона, указываются предпринимаемые совместные усилия, международное сотрудничество по вопросу и его значение.*

**Ключевые слова:** *экология, экологическая проблема, кризис Аральского моря, экологическое право, экологическая стратегия.*

**Kurbanbaeva Ulbosin Jumagaliyevna** (doctoral student NSPI named after Ajiniyaz;

e-mail: [ulbosin2616@gmail.com](mailto:ulbosin2616@gmail.com))

## **SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF PRACTICAL WORK IN SOLVING ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN THE ARAL REGION IN OUR COUNTRY**

**Annotation.** *The article notes that the issues of eliminating the consequences of environmental problems in our country, ensuring environmental safety and sustainability are at the level of state policy. The attention of the international community to the environmental problems of our region, joint efforts, international cooperation and its importance are also noted.*

**Key words:** *ecology, ecological problem, Aral Sea crisis, environmental law, environmental strategy.*

**Kirish.** Orol dengizining qurishi va uning natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz nafaqat mintaqahning tabiiy muhitiga, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu muammo nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy va falsafiy jihatdan ham tahlil qilinishi kerak. Ekologik muammolar hozirgi kunda eng dolzarb va global muammo hisoblanadi. Chunki ilm-fan, texnika taraqqiyoti asri va bunda ishlab chiqarishning ko'payishi, buning oqibatida tabiatga zararli chiqindilarning chiqishi, havoning ifloslanishiga, iqlim o'zgarishlariga olib kelmoqda. Bu aholi salomatligiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ushbu tahlilda O'zbekistonning Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolarni hal qilish amaliyotini o'rganish uchun ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar qo'llaniladi. Bunga quyidagilar kiradi. O'zbekistonning ekologiya siyosatining tarixiy tahlili; inqirozni hal qilishning turli yondashuvlarini tahlil qilish; ushbu yondashuvlarning samaradorligi va ijtimoiy-falsafiy oqibatlarini baholash ko'zda tutiladi.

Mamlakatimizda inson va uning haq-huquqlari eng oliy qadriyat hisoblanadi. Davlatimiz bosh qomusi va qabul qilinayotgan qonun hujjatlari fuqolarning manfaatlarin ko'zlagan holda, ularga munosib turmush sharoitini yaratish maqsadida qabul qilinadi va ularning ijrosi tegishli tashkilotlar tomonidan nazorat qilinadi. Inson umri davomida tabiat bilan chambarchas bog'liqlikda umir kechirar ekan, albatta atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrab-avaylash to'g'risidagi qonun hujjatlari inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz bosh qomusida ham ekologik huquqlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ekologik muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq masalalar qonunchligimiz va davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar va strategiyalarda o'z ifodasini topgan.

**Natijalar va muhokama.** Ekologik muammolar jamiyatning tabiiy resurslarga bo'lgan talabining keskin ortishi bilan tabiatning ushbu resurslarni shakllantirish imkoniyatlarining cheklanganligi o'rtasidagi ziddiyatni anglatadi.

Orolbo'yidagi ekologik muammolar ijtimoiy va iqtisodiy hayotga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Orol dengizining yo'q bo'lib ketishi ko'plab mahalliy aholining asosiy daromad manbayiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Tuproqning sho'rlanishi qishloq xo'jaligi yerlarining katta qismini ham yaroqsiz holga keltirdi. Bu ishsizlik, qashshoqlik va aholi salomatligining yomonlashuviga olib keldi.

O'zbekistondagi Orolbo'yidagi ekologik muammolar mahalliy aholi va atrof-muhit uchun eng keskin va jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilish amaliyoti ham ekologik, ham ijtimoiy jihatlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Orolbo'yining ekologik muammolarini hal etishda ijtimoiy omil muhim o'rin tutadi. Bu hudud aholisi chuchuk suv manbalarining yo'qolishi,

tuproqning shoʻrlanishi va qishloq xoʻjaligi mahsuldorligining pasayishi bilan bogʻliq jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu, oʻz navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sifatining umumiy yomonlashuviga olib keladi.

Oʻzbekiston hukumati Orol dengizi muammosini hal etish boʻyicha suvni tejash choralarini joriy etish, baliqchilik kompleksini tiklash, choʻl va yerlarni koʻkalamzorlashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Orolboʻyi mintaqasida ekologik xavfsizligini taʼminlashning siyosiy-huquqiy asoslari murakkab va koʻp qirrali masaladir. Bu asoslar bir necha darajadagi choralar, qonunlar, xalqaro bitimlar va dasturlarni oʻz ichiga oladi.

Orol muammosi ham milliy, ham mintaqaviy va ham jahonshumul muammodir. Shuning uchun ham Orol boʻyidagi ekologik oqibatlarini bartaraf etish, Orol dengizini qutqarish boʻyicha birgalikda chora-tadbirlarni amalga oshirish mintaqalararo hamkorlik doirasida alohida ahamiyatga ega [1;371-b.]. Quyida Orolboʻyi mintaqasidagi ekologik xavfsizlikni taʼminlashning asosiy siyosiy-huquqiy asoslarini: milliy qonunchilikda, siyosiy dasturlar va strategiyalarda, xalqaro hamkorlik va bitimlar, davlat idoralari va tashliktarlari, fuqarolik jamiyati va NNTlarning oʻrnini tashkil etadi.

Milliy qonunchilikdaga nazar tashlasak, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida quyidagicha belgilangan: “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati toʻgʻrisidagi ishonchli axborotga ega boʻlish huquqiga ega. ...Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolboʻyi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasida choralar koʻradi” [3].

Bundan koʻrishimiz mumkin, Orolboʻyi mintaqasining ekologik tomondan himoya qilish eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonun ekologik xavfsizlikni taʼminlash, tabiiy resurslarni asrash va ekologik muammolarni bartaraf etish uchun asosiy huquqiy meʼyorlarni belgilaydi. “Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad: inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlarini yoʻlida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish; ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish; ekologiya xavfsizligini taʼminlash” hisoblanadi (3).

Orolboʻyi mintaqasi rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlat dasturlari qabul qilingan boʻlib, bu dastur Orol dengizi inqirozi bilan bogʻliq muammolarni hal qilish va mintaqaning barqaror rivojlanishini taʼminlashga qaratilgan hisoblanadi.

Siyosiy dasturlar va strategiyalar milliy va mintaqaviy rivojlanish strategiyalar qabul qilindi. Orol dengizi qurishi bilan bogʻliq boʻlgan falokatlar hozirgi avlodgagina emas, kelgusi avlodlar va butun insoniyat uchun oʻta xavfli va xatarlidir. Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish va Orolboʻyi hududini rivojlantirish boʻyicha 2013–2017-yillarga moʻljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida 500 tadan ortiq loyiha amalga oshirildi. Ularning yarmidan koʻpi milliy loyihalardir [1;371-b.]. Shuningdek, “2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi”, bu strategiya, ekologik barqarorlikni taʼminlash va ekologik muammolarni hal qilish boʻyicha chora-tadbirlarni belgilaydi.

“Oʻzbekiston–2030” strategiyasida atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha islohotlarga alohida eʼtibor qaratilgan. Orolboʻyi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy taʼsirini yumshatish bandi keltirilgan [4].

Orolni qutqarish xalqaro jamgʻarmasi (OQXJ) 1993-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining qarori bilan tashkil topgan [5;67-b.].

Elimizda bu ofatchilik boshlangandan beri Orolning atrofida tabiiy muhitni va dengizning oʻzini saqlab qolishga bogʻliq uch strategiya, yaʼni uch yoʻl paydo boʻldi. Birinchisi, arolni toʻliq qay-ta tiklash, ikkinchisi, uning taʼsirini yumshatish, uchinchisi, unga koʻnikish, yaʼni adaptatsiya strategiyalari... Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Orol masalasini yechishning toʻrtinchi strategik yoʻlini dunyo hamjamiyatiga taqdim qildi. Bu strategiyaning maʼnosi boʻyicha Orol ofatchiligidan qutulish uchun Orolning oʻzi bilan yakkama-yakka kurashish, oʻzimizning elimizning xalqaro Orolni qutqarish fondi bilan dunyo jamoatchiligining kuchi bilan Orolni qurib qolgan yuzasin oʻsimliklar bilan qoplab, tuzli toʻzonni bartaraf etish va “Yashil iqtisodiyotni” tashkil qilish, xalq xoʻjaligini rivojlantirish [6;5-b.].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 20-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtirok etib, mazkur sammitda Orol fojiasi aks ettirilgan xaritani namoyish etdi.

2018–2021-yillarda Orolbo‘yi hududini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi qabul qilindi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Orolbo‘yi mintaqasi uchuun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida trast fondini tashkil etish borasidagi tashabbusini ilgari surdi, bu BMT tomonidan qo‘llab-quvvatlandi [1;371-b.].

«Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risida»gi maxsus rezolutsiya ham 2021-yilda qabul qilindi. Bu ham ekologik inqirozning oldini olishdagi muhim chora-tadbirlardan hisoblanadi. Mahalliy hokimiyat organlari mintaqaviy ekologik dasturlarni amalga oshirish va nazorat qilish bilan shug‘ullanadi. Ekologik NNTlar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari ham ekologik muammolarni hal qilishda davlatga yordam beradi va aholining ekologik savodxonligini oshirishda faol ishtirok etadi.

**Xulosa.** Orolbo‘yi mintaqasida ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha amalga oshirilgan amaliy ishlar nafaqat tabiiy muhitni yaxshilash, balki ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda ijtimoiy va falsafiy tahlil inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni tiklash, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Orolbo‘yida ekologik muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ekotizimlarni tiklash, suv resurslarini tiklash, aholini tabiiy resurslardan oqilona foydalanish usullariga o‘rgatish va ekologik muammodan xabardorlikni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Yuqoridagi asoslar Orolbo‘yi mintaqasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu asoslar orqali mintaqadagi ekologik muammolarni samarali hal qilish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash mumkin. Shuningdek, davlat dasturlarini va xalqaro hamkorlikda qabul qilingan strategiyalar samardorligini oshirishda davlat idoralari mahalliy hokimiyat organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki nihoyatda muhim. Aslida, Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi xalqning salomatligini saqlash va ularning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirish bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (references):

- (1). J.Tulenov, K.Tulenova, G.Tulenova. Falsafa. Darslik, Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2022, 424 bet.
- (2). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145> (last accessed: 08.0702024)
- (3). O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-107115>
- (4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>
- (5). O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma‘ruza: O‘zbekiston. Barqaror rivojlanish xalqaro instituti. URL: <https://www.iisd.org/system/files/2024-03/uzbekistan-state-of-the-environment-uz.pdf>
- (6). Ж.Базарбаев. Арал дағдарысын сапластырыўдың жаңа стратегиясы. “Пим һәм јәмийет”. №4. 2018. ISSN 2010-720x
- (7). <https://president.uz/oz/lists/view/3845>

**Rajabov O‘tkirjon Xursanaliyevich (Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi; e-mail: rajabov77@mail.ru)**

#### KONSENSUS MADANIYATINING IJTIMOIIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Maqolada konsensus madaniyatining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari tahlil etilgan. Jamiyatda konsensus madaniyatini shakllantirish va yanada kuchaytirishning omillari, xususiyatlari va natijalari ko‘rsatib o‘tilgan. Konsensusning tarkibiy elementlari bo‘lgan maslahatlashish, hamjihatlik va birdamlikning ijtimoiy ahamiyati yoritib berilgan. Konsensus madaniyatiga erishish orqali radikalizm va egoizm kabi salbiy oqimlarga qarshi kurashish bo‘yicha taklif-mulohazalar bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** konsensus, qadriyat, madaniyat, munosabat, egoizm, tartib-intizom, ijtimoiylashuv, ziddiyat, hamjihatlik, birdamlik.*

**Раджабов Уткирджон Хурсаналиевич (самостоятельный соискатель Ферганского государственного университета; e-mail: rajabov\_77@mail.ru)**

#### СОЦИО-ФИЛОСОФСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОНСЕНСУСНОЙ КУЛЬТУРЫ

***Аннотация.** В данной статье анализируются социально-философские особенности консенсусной культуры. Показаны факторы, характеристики и результаты формирования и дальнейшего укрепления культуры согласия в обществе. Подчеркивается социальная значимость консульта-*

ций, солидарности и сотрудничества, которые являются структурными элементами консенсуса. Сделаны предложения по борьбе с негативными течениями, такими как радикализм и эгоизм, путем достижения культуры консенсуса.

**Ключевые слова:** консенсус, ценность, культура, отношение, эгоизм, дисциплина, социализация, конфликт, сплоченность, солидарность.

**Rajabov Utkirjon Khursanaliyevich (Independent Researcher at Fergana State University;  
e-mail: rajabov77@mail.ru)**

## **SOCIO-PHILOSOPHICAL CHARACTERISTICS OF CONSENSUS CULTURE**

**Annotation.** This article analyzes the socio-philosophical features of consensus culture. The factors, characteristics and results of the formation and further strengthening of a culture of consensus in society are examined. The social importance of consultation, solidarity, and cooperation, which are the structural elements of consensus, is highlighted. Proposals are made to combat negative currents, such as radicalism and egoism, by fostering a culture of consensus.

**Key words:** consensus, value, culture, attitude, egoism, discipline, socialization, conflict, cohesion, solidarity.

**Kirish.** Inson o‘z hayoti davomida boshqa insonlar bilan munosabatga kirashadi va bu munosabatlar tartib-intizom, kelishuv, o‘zaro hurmat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Inson munosabatlarni shakllantirish jarayonida atrof-muhitni o‘zlashtiradi. O‘zlashtirish jarayonida tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirib borishi natijasida uning madaniy qiyofasi yaratiladi.

Mazkur munosabatlar jarayonida insonlar bir-biri bilan kelishish holatiga duch keladi va bu kelishuv natijasida jamiyatda tinchlik, tartib-intizm mustahkamlanadi. Ta’kidlash joizki, konsensusning tamoyildan madaniyatga aylanishida aynan jamiyat a’zolarining dunyoqarashi va xatti-harakatlari muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Ingliz etnografi Eduard Taylor ta’kidlaganidek, madaniyat insonning axloqi, kuch-qudrati, baxt-saodat taraqiy etishiga bir vaqtning o‘zida ko‘maklashish maqsadida alohida shaxs va butun jamiyatning yuksak darajada tashkil qilinishi yo‘li bilan insoniyatning kamol topishidir. Shuningdek, konsensus jarayonida ikki tomondan ham tajribali maslahatchilarning bo‘lishi va maslahatga rioya etishi umumiy kelishuvdagi samaradorlikni ta’minlaydi. Masalan, tasavvuf falsafasida bu murid misolida tushuntiriladi. Ya’ni, murid – maqsadga intiluvchi odam. Muridning asosiy xislati niyozmandlik, talabgor bo‘lish, murshidi komil yetganini tutib, aytganlariga so‘zsiz rioya qilishdir. Pirsiz soliq manzilga yetolmaydi. Toki biro rahnamolik qilib, yo‘l ko‘rsatmasa, mushkuli oson bo‘lmaydi. [1] Konsensusga erishishda murid kabi xislatlarga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Konsensusga erishishda maslahatlashish muhim komponent bo‘lib, tomonlar roziligiga erishishda tajribali kishilarning fikrlarini inobatga olish nafaqat konsensusning balki, demokratik prinsiplardan ham biri hisoblanadi. Amir Temurning ta’kidlashicha, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozim. [2].

Maslahatning o‘z o‘rnida va xalq manfaatini ko‘zlab berilishi uning samaradorligini yanada oshiradi. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida bir voqeani keltirib, xalq manfaatini o‘ylamagan holda berilgan maslahatning oqibatini keltiradi. “Sulton Ali mirzoning onasi Zuxrabegi og‘a bilmasligidan va beaqlligidan maxfiy Shayboniyxong‘a kishi yuborur, bu mazmun bilakim, Shayboniyxon ani olur bo‘lsa, o‘g‘li Shayboniyxong‘a Samarqandni bergay. Bu ra’ydan Abu-Yusuf arg‘unning xabari bor ekandur, balki bu ra’yni ko‘rsatguchi o‘shul g‘addor ekandur” [3]. Bu tarixiy voqea bemaslahat ishning xalq uchun qanchalik og‘ir oqibatlarga olib kelishiga yaqqol misoldir.

Maslahatlashuv masalasi Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asarining 129-bobi (“Mushovarat haqida”)da ko‘rsatiladi. Asarda Hasan basriy (r.a.)dan quyidagi rivoyat keltiriladi: “U kishi qaysi bir jamoat (biror ishda) boshqa kishilardan maslahat so‘rasa, albatta, ularning ko‘ngli eng yaxshi fikrga yo‘l olgan bo‘ladi”, dedilar: “ularning ishi o‘rtasida maslahat bilan bo‘ladi” degan oyatini o‘qidilar [4].

Abu Nasr Forobiyning ta’kidlashicha, odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadidagi kishilar jamoasi fazilatli jamoadir [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Konsensus madaniyatini tadqiq etishda kuzatish va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanib tadqiq etish mavzu mohiyatini to‘liq ochib berishda samara beradi. Ma’lumki, empirik tadqiqot – aniq hodisalarni, eksperimentni kuzatish va o‘rganish, shuningdek, eksperimental tadqiqot

natijalarini umumlashtirish, tasniflash va tavsiflash, ularni insonning amaliy faoliyatiga tatbiq etuvchi tadqiqot usuli hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, konsensusga erishish va madaniyat shaklida namoyon bo'lishida ikki tomon xatti-harakatlari xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlar asosida munosabatga kirishishini o'rganish kerak. Shundan kelib chiqib, konsensusga erishilganda amaliyotga tatbiq etish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Konsensusga madaniyati tarkibida boshqa fuqarolar bilanning fikri va munosabatini o'rganish muhim o'rin egallaydi. "Kengashlik ish tarqamas", "Yetti o'lchab – bir kes", "Bir bolaga yetti mahalla – ota ona" kabi maqollarning zamirida maslahatlashish jarayoni aks etadi. Yuqoridagi tahlillarda konsensus madaniyatining tarkibiy elementlari yoritildi.

Shu bilan birgalikda, konsensusning tub mohiyatida umumiy rozilik va hamjihatlik turadi. Mazkur ikki omil insonlarning o'zaro birlashtirish bilan birga tinch-totuvligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'lumki, biror hududga dushman hujum qilmoqchi bo'lsa, o'sha yerdagi insonlarning bir-biri bilan kelishmasligi yoki adovati – eng yaxshi dushman uchun asosiy qurollardan biri hisoblanadi. Mazkur holat A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qahramonlardan biri Yusufbek hoji tilidan to'la ochib berilgan. "Birodarlar! O'rus o'z ichimizdan chiqadurg'an fitna-fasodni kutib, darbozimiz tegida qo'r to'kib yotibdir. Shunday mashhar kabi bir kunda biz chin yovg'a beradigan kuchimizni o'z qo'limiz bilan o'ldirsak, sen falon deb qirilishaq holimiz nima bo'ladir. Bu to'g'risida ham fikr qilg'uchimiz bormi? Mana, birodarlar! Siz o'z qipchog'ingiz uchun qabr qazig'an fursatda, sizga ikkinchilar tobut chopadir" [6].

Mazkur fikrlar xalq farovonligi va tinchligini ta'minlashda ichki ziddiyatlarni bartaraf etish, fuqarolar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikda harakat qilish kerakligini ko'rsatib turibdi. Romanda bu fikrlarga qo'shilmaslik va qipchoqlarni qirg'in qilish natijasida ichki nizo va ziddiyatlarni kuchayib ketishiga olib keladi. Bu omillar oxir-oqibat Markaziy Osiyoni yov bosib olishi bilan yakunlanadi.

Ingliz yangi davr falsafasining yorqin vakili Tomas Gobbs fikricha, bu ziddiyatlarning oldini olish va tabiiy jarayonlardan ijtimoiy holatga o'tish o'zaro kelishuv, "shartnoma" asosida amalga oshadi [7]. Jamiyat a'zolariga har bir vazifa shartnoma shaklida belgilab berilishi natijasida fuqaro aniq va mexanistik tarzda harakatlanadi. Mazkur shartnomada uning uchun taqiqlangan xatti-harakatlari belgilanishi jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Konsensus madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyat a'zolarida hamjihatlik, birdamlik, o'z vazifasini o'z o'rnini va vaqtida bajarish, o'z manfaati bilan birga boshqa fuqarolarning manfaati bilan hisoblashish, tartib-intizomga rioya etish kabi madaniyatning tarkibiy qismlari shakllantiriladi.

Konsensus madaniyatini shakllantirish va yanada kuchaytirishda quyidagi takliflarni bildiramiz:

–maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulot vaqtini 50 foiz qismini ijtimoiylashuv jarayonlari (o'zaro hurmat, tartib-intizomga rioya etish, navbat kutish, boshqa fuqarolarni manfaati bilan hisoblashish)ni o'rgatishga ajratish;

–umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy mashg'ulotlar davomida "inson qadrini ulug'lash", "insonni e'zozlash" tamoyillaridan kelib chiqib, maslahatlashish, yoshi ulug' insonlarga yuksak hurmat ko'rsatish kabi insoniy fazilatlarini yanada kuchaytirish;

–mahalla fuqarolar yig'inlarida maslahat beruvchi komissiyalar faoliyatini yanada kuchaytirish va ularni oilalarni mustahkamlashdagi rolini yanada oshirish.

Konsensus madaniyatini shakllantirish orqali fuqarolarni radikalizm, egoizm kabi salbiy oqimlar ta'siriga tushib qolishning oldi olinadi. Bu esa fuqarolar o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlab, jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Komilov N. "Tasavvuf". Toshkent, "Movarounnahr" – "O'zbekiston", 2009, 24-bet.
- (2). Amir Temur. "Temur tuzuklari". Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991, 15-bet.
- (3). Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". Toshkent, "Ijod-press", 2020, 111-bet.
- (4). Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. www.ziyouz.com kutubxonasi. 2007, 44-bet.
- (5). Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., "Yangi asr avlodi", 2018, 286-bet.
- (6). Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar". Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2018, 302-bet.
- (7). Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R., Qobulniyozova G., Ro'zmatova G. "Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi" (XVII–XX asrlar). O'quv qo'llanma, Toshkent, "Sharq", 2002, 19-bet.

Nadirov Khurshid Hamza ugli (Leading Specialist of the Department of Financing of Agro-Industrial Enterprises of the JSCB "Agrobank"; nadirov.khurshid@mail.ru)

### FOREIGN DIRECT INVESTMENT EFFECT ON THE ENVIRONMENT OF THE DEVELOPING ASIAN COUNTRIES

**Annotation.** *Countering the challenges and threats associated with climate change is one of the most difficult tasks for experts, environmentalists, scientists, politicians and governments around the world. The article describes foreign direct investment effect on the environment of the developing Asian countries.*

**Key words:** *Foreign direct investment (FDI), carbon dioxide (CO<sub>2</sub>), pollution haven hypothesis (PHH), environmental kuznets curve (EKC), environmental pollution, causality effect.*

Nadirov Xurshid Hamza o'g'li ("Agrobank" ATB Agrosanoat majmuasi korxonalarini moliyalashtirish departamenti yetakchi mutaxassisi; nadirov.khurshid@mail.ru)

### TO'G'RIDAN TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING RIVOJLANAYOTGAN OSIYO MAMLAKATLARI ATROF-MUHITIGA TA'SIRI

**Annotatsiya.** *Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar va tahdidlarga qarshi kurashish butun dunyo bo'ylab ekspertlar, ekologlar, olimlar, siyosatchilar va hukumatlar uchun eng qiyin vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ekologiyaga ta'sir darajasi rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlari misolida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, karbonat angidrid, ifloslanish boshpanasi gipotezasi, ekologik Kuznets egri chizig'i, ekologiya ifloslanishi, sabab-oqibat ta'siri.*

Нади́ров Ху́ршид Ха́мза у́гли (Ведущий специалист департамента финансирования предприятий агропромышленного комплекса АКБ "Агробанк"; nadirov.khurshid@mail.ru)

### ВЛИЯНИЕ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН АЗИИ

**Аннотация.** *Противодействие вызовам и угрозам, связанным с изменением климата, является одной из сложнейших задач для экспертов, экологов, ученых, политиков, и правительств во всем мире. В статье освещен уровень воздействия прямых иностранных инвестиций на окружающую среду на примере развивающихся стран Азии.*

**Ключевые слова:** *прямые иностранные инвестиции, углекислый газ, гипотеза о загрязненном убежище, экологическая кривая Кузнеця, загрязнение окружающей среды, эффект причинности.*

**Introduction.** Countering the challenges and threats associated with climate change is one of the most difficult tasks for experts, environmentalists, scientists, politicians and governments around the world.

The Pollution Haven Hypothesis (PHH) implies that under free trade, transnational companies (TNCs) move production, which pollutes the environment intensively, to developing countries. It is important to note that such practices can have negative consequences for the environment and human health. There are several factors that can contribute to the emergence of such a theory [1]:

- Weak environmental policy and regulation: Some countries may have less stringent environmental regulations and policies, making them attractive to companies wishing to avoid high environmental standards or penalties in their country.

- Cheap resources and low labour costs: Countries with low resource costs and low labour costs can attract companies that want to reduce their costs and produce goods or services using cheap or polluting production processes.


- Lack of or insufficient implementation of international agreements: Some countries may not ratify or effectively implement international environmental agreements, which allows companies to avoid liability and transfer pollution to other countries.

The environmental theory of the Environmental Kuznets Curve (EKC) suggests that there is a non-linear relationship between the level of economic development and the level of environmental pollution [2]. According to Kuznets' ecological theory, at the initial stage of economic development, the level of environmental pollution is usually low. However, as incomes rise and industrialization increases, pollution levels begin to increase, peaking at a certain level of development. After that, the level of pollution decreases with increasing incomes and the development of the economy.

The concept of EKC is presented in figure 1.



**Figure 1. Inverted U-shaped EKC.**



Source: [https://www.researchgate.net/figure/Environmental-Kuznets-Curve\\_fig1\\_333990972](https://www.researchgate.net/figure/Environmental-Kuznets-Curve_fig1_333990972)

**Literature review.** The Pollution Haven Hypothesis is a burning issue in the international regional economy. However, there is a different point of view on the impact of globalization processes on the environment. Chinese researchers L.Wang and S.Jun argue in their article that there is a direct link between foreign investment in the economy and environmental pollution (L.Wang and S.Jun, 2022). Direct investment in the country's economy testifies to the inflow of money supply and, accordingly, the global processes taking place in the economy. The researchers reject the hypothesis, arguing that direct investment in the economy contributes not so much to the deterioration of the environment as to its improvement. Wang and Jun take China as an example. They argue that foreign direct investment does not necessarily lead to environmental degradation, but, on the contrary, under certain conditions, contributes to reducing the amount of pollutants in the host country [3].

Frankel, J., and Rose, A.K. investigated the relationship between environmental policies and international trade (Frankel, J., and Rose, A.K, 2005). The results demonstrate that stringent environmental policies do not necessarily lead to reduced trade flows, challenging the idea that countries with stricter regulations become less competitive in attracting FDI [4].

The article emphasizes the significance of taking into account multiple factors that can impact the form of the Environmental Kuznets Curve (EKC), including technological advancements, industrial composition, and environmental policies. It also discusses the role of data quality and measurement issues in empirical analyses of the EKC.

**Data and methodology.** To evaluate model, panel data is used for 14 developing Asian countries for the period from 2002 to 2020. These are Bangladesh, Bhutan, Brunei Darussalam, Cambodia, Fiji, Indonesia, Malaysia, Maldives, Myanmar, Nepal, Philippines, Sri Lanka, Thailand and Vietnam. The full data used for the analyses in the thesis statement is taken from World Bank database [6].

Typically, panel data are used to account for temporal and cross-country differences. For our regression model, most relevant independent variables as economic growth, FDI inflows, renewable energy consumption, consumption expenditure, population growth, manufacturing, fossil fuel consumption, corruption index is used to study the relationship with CO<sub>2</sub> emissions.

As a result, the following equation is considered:

$$\ln CO_{2it} = \alpha_0 + \alpha_1 \ln GDP_{it} + \alpha_2 \ln GDP_{it}^2 + \alpha_3 \ln FDI_{it} + \alpha_4 \ln FDI_{it}^2 + \alpha_5 \ln Fossil_{it} + \alpha_6 \ln Consump_{it} + \alpha_7 \ln Manu_{it} + \alpha_8 \ln Popgrow_{it} + \alpha_9 \ln Renew_{it} + \alpha_{10} \ln Corrup_{it} + \alpha_{13} \ln Renew_{it} + \mu_1 + \varepsilon_{it}$$

Where i – spatial data; t – time series;  $\alpha_0$  is a constant; ( $\alpha_1 \dots \alpha_5$ ) – coefficients;  $\mu_1$  is the country fixed effects to control for time-invariant country-specific factors;  $\varepsilon_{it}$  is the error; ln is the natural logarithm of the variables;

Economic growth stimulates intensive energy use, which leads to an increase in CO<sub>2</sub> emissions and rising GDP rates are seen as the main cause of the pollution problem. It is necessary to understand how to reduce emissions while maintaining the pace of economic growth [7].

Our empirical study is based on equation 1 and focuses on the FDI effect and causality among the other variables. On this way, we need to check a few tests to reach the causal relationship. Initially, cross sectional dependence test should be conducted to find cross-sectional dependence in error terms. At the next stage, we can regress our model to take long-run estimates by using the necessary method of regression.

Finally, we can test panel causality test between variables using Granger causality and Dumitrescu-Hurlin methods.


**Analysis and Results.** The model was evaluated using the FMOLS method in the Stata 18 econometric package. For a sample of all countries, with an increase in the share of FDI 1%, carbon dioxide emissions will increase by 0.298%. With an increase in GDP per capita by 1%, carbon dioxide emissions will increase by 0.389%. The hypothesis of an inverted U-shaped function of the dependence of the level of pollution on the level of income (the environmental Kuznets curve) is confirmed [4].

The results suggest that as the share of FDI inflows in GDP increases, CO<sub>2</sub> emissions increase. In countries with economies in transition and in developing countries, as a result of an increase in the share of FDI in GDP, emissions increase more than in developed countries. This can be explained by the interest of foreign companies in countries with economies in transition and developing countries, on the one hand, and the weak level of development of legislation and enforcement of laws in these countries, on the other hand. In addition, for developing countries, the hypothesis of the existence of an ecological Kuznets curve, which reflects the dependence of the level of GDP and CO<sub>2</sub> emissions, is confirmed.

The level of control over corruption leads to lower CO<sub>2</sub> emissions. The significant effect of this indicator is probably associated with the development of environmental legislation and the use of strict mechanisms to control the implementation of laws. As populations grow, so does carbon dioxide emissions, especially in developing countries [5].

Furthermore, the significance of the economic freedom index's impact on carbon emissions is also highlighted in Table 8. The estimated long-term elasticities range from 1.02 to 5.45, with the preferred FMOLS model indicating an elasticity of 1.03. This suggests that, on average, a one percentage increase or decrease in the economic freedom index will lead to a corresponding increase or decrease in per capita CO<sub>2</sub> emissions by 1.03 percent. The negative effect of consumption on pollution suggests a scenario where changes in consumption patterns, technologies, or policies lead to more sustainable and environmentally friendly consumption choices. In such cases, it is possible for consumption expenditures to have a negative effect on CO<sub>2</sub> emissions.

**Figure 2. Summary of long-run causality test.**



As figure 3 shows, there is unidirectional relationship between FDI and CO<sub>2</sub>. However, GDP illustrates bi-directional relationship with both CO<sub>2</sub> and FDI according to Granger causality test of 1 % significance level. Additionally, renewable energy consumption, fossil fuel consumption and corruption index demonstrate direct effect and indirect effect on CO<sub>2</sub> through FDI. The negative effect of corruption index is connected with rescaling of the index from 0 to 1. The closer the index to 1, the smaller corruption rates in an economy.

**Conclusions.** This study analyses the impact of foreign direct investment inflows and economic growth on environmental change in selected Asian countries. The study also assesses the fulfilment of the Pollution Haven Hypothesis and looks at the impact of energy consumption, manufacturing, population growth, consumption expenditures and institutional indices on environmental degradation.

To achieve these goals, the study used data from 2002 to 2020 for selected developing Asian countries. Various methods of econometric analysis have been applied to assess the dynamic impact of FDI and economic growth on environmental change. In addition, a study of the PHH hypothesis was carried out and the impact of energy consumption, manufacturing, population growth, consumption expenditures and institutional indices on the state of the environment was studied.

A panel cointegration approach based on FMOLS was used to assess long-term relationships between variables. The data obtained clearly indicate the confirmation of the PHH hypothesis in Asian countries in 2002–2020. It was found that economic growth plays an important role in environmental degradation in the initial period, when countries are at a lower level of economic development. In this period, the intensity of resource use and emissions of pollutants is usually high, and this can lead to environmental degradation. However, with increasing economic growth and development of the country, there is a change in this effect. After reaching a certain level of economic development, there comes a turning point when economic growth begins to be accompanied by an improvement in the quality of the environment. This may be due to improved technology, more efficient use of resources, and the adoption of stricter environmental regulations and standards.

It is important to note that this effect is not automatic and requires active action on the part of governments, the business sector and society as a whole to adopt environmentally responsible practices and policies. This highlights the need to develop and implement sustainable strategies that combine economic growth and environmental protection.

It has been found that FDI inflows are positively associated with CO<sub>2</sub> emissions and, accordingly, contribute to environmental degradation. This means that companies are looking for a “safe haven” in host countries to relocate their polluting-intensive businesses against the backdrop of lax environmental regulations. The data obtained indicate that the PHH hypothesis for Asian countries is confirmed in the long term. Energy consumption is a major contributor to CO<sub>2</sub> emissions and environmental degradation, as it is the main production need of industry to achieve the required goals. The coefficients for energy consumption, manufacturing, population growth, consumption expenditures and institutional indices in the long term turn out to be significant, and this indicator affects the deterioration of the environment.

The results of the study provide some recommendations for sustainable development and environmental conservation in Asian countries. Firstly, governments must take joint action and develop policies to reduce CO<sub>2</sub> emissions. One effective tool is the imposition of carbon prices, such as taxes or market mechanisms. This can encourage companies and industries to reduce emissions and use cleaner technologies. The carbon pricing approach has already been shown to be effective in reducing CO<sub>2</sub> emissions across countries. Secondly, governments must develop and implement policies that stimulate economic growth along with environmental improvements. It is necessary to strive for innovative development, the introduction of environmentally friendly technologies and the attraction of environmentally responsible investments. This will achieve balanced growth that takes into account the needs of the economy and environmental protection. Thirdly, in order to reduce environmental pollution resulting from the growth of energy consumption, the use of clean and renewable energy sources should be encouraged. It is necessary to support the development of hydropower, wind power, solar power and other energy efficient technologies. It is also important to stimulate innovation and technological development in these areas to ensure the transition to cleaner energy sources.

In general, the development and implementation of policies based on cooperation between countries and the active involvement of the business sector and society play a key role in balancing economic growth and environmental protection.

#### References:

- (1). Bokpin G.A. (2017). Foreign Direct Investment and Environmental Sustainability in Africa: The Role of Institutions and Governance. *Research in International Business and Finance*. Vol. 39, p. 239–247.
- (2). The Guardian. “Vietnam blames toxic waste water from steel plant for mass fish deaths”.
- (3). Statistical Review of World Energy 2021, 70th edition.
- (4). L.Wang and S.Jun (2022). The impact of foreign direct investment on China’s carbon emission sufficiency through energy intensity and low-carbon city pilot policy.
- (5). David I. Stern. The Environmental Kuznets Curve after 25 years. *Journal of Bioeconomics* volume 19, pages 7–28.
- (6). Frankel, J., and Rose, A.K. Is trade good or bad for the environment? Sorting out the causality. *The Review of Economics and Statistics*, 2005, vol. 87, issue 1, p. 85–91.
- (7). Zhang, C., Zhou, X. Does foreign direct investment lead to lower CO<sub>2</sub> emissions? Evidence from a regional analysis in China. *Renew. Sustain. Energy Rev.* 2016, 58, p. 943–951.
- (8). M.Pesaran and R.Smith. Estimating long-run relationships from dynamic heterogeneous panels. *Journal of econometrics*, Volume 68, Issue 1, July 1995, pages 7;9–113.

**Bekchanov Davron Alisher ugli (Advisor to the Director for Foreign Economic Affairs of the publishing and printing house "Uzbekistan"; feaipduzbekistan@gmail.com)**

## **STRATEGIC ANALYSIS OF THE PROSPECTS OF UZBEKISTAN'S FOREIGN TRADE RELATIONS**

**Annotation.** *Uzbekistan, a landlocked country in Central Asia, has been increasingly active in enhancing its foreign trade relations since gaining independence from the Soviet Union in 1991. The nation's strategic location, abundant natural resources, and ambitious economic reforms have positioned it as a pivotal player in regional and global trade dynamics. This article delves into the key aspects of Uzbekistan's foreign trade relations, highlighting its primary trade partners, major exports and imports, and the government's strategies to boost trade and economic growth.*

**Key words:** *currency liberalization, foreign economic and political relations, customs, tax incentives, exports, imports, business environment, diversification of trading partners, tourism, agriculture, public-private partnership, special economic zones, investment promotion agencies.*

**Bekchanov Davron Alisher o'g'li ("O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha direktor maslahatchisi; feaipduzbekistan@gmail.com)**

### **O'ZBEKISTONNING TASHQI SAVDO ALOQALARI ISTIQBOLLARINING STRATEGIK TAHLILI**

**Annotatsiya.** *Markaziy Osiyoda dengizga chiqish imkoni bo'lmagan O'zbekiston 1991-yilda Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishganidan buyon tashqi savdo aloqalarini kengaytirishda tobora faollashib bormoqda. Mamlakatning strategik joylashuvi, mo'l-ko'l tabiiy resurslari va ulkan iqtisodiy islohotlar uni mintaqaviy va global savdo dinamikasida hal qiluvchi rol o'ynadi. Ushbu maqolada O'zbekiston tashqi savdo aloqalarining asosiy jihatlari, uning asosiy savdo hamkorlari, asosiy eksport va import, hukumatning savdo-iqtisodiy o'sishni oshirish strategiyasi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *valuta liberalizatsiyasi, tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalar, bojxona, soliq imtiyozlari, eksport, import, biznes muhit, savdo sheriklarini diversifikatsiya qilish, turizm, qishloq xo'jaligi, davlat-xususiy sheriklik, maxsus iqtisodiy zonalar, investitsiyalarni jalb qilish agentliklari.*

**Бекчанов Даврон Алишер углы (советник директора по внешне-экономическим вопросам издательско-полиграфического дома "Ўзбекистон"; feaipduzbekistan@gmail.com)**

### **СТРАТЕГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРСПЕКТИВ ВНЕШНЕТОРГОВЫХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА**

**Аннотация.** *Узбекистан, страна Центральной Азии, не имеющая выхода к морю, с момента обретения независимости от Советского Союза в 1991 году проявляет все большую активность в укреплении своих внешнеторговых связей. Стратегическое расположение страны, богатые природные ресурсы и широкомасштабные экономические реформы сделали ее ключевым партнером в динамике региональной и глобальной торговли. В данной статье рассматриваются ключевые аспекты внешнеторговых отношений Узбекистана, освещаются его основные торговые партнеры, основные виды экспорта и импорта, а также стратегии правительства по стимулированию торговли и экономического роста.*

**Ключевые слова:** *валютная либерализация, внешнеэкономические и политические отношения, таможня, налоговые льготы, экспорт, импорт, бизнес-среда, диверсификация торговых партнеров, туризм, сельское хозяйство, государственно-частное партнерство, особые экономические зоны, агентства по привлечению инвестиций.*

In the early years of independence, Uzbekistan adopted a cautious approach to economic reforms, maintaining a state-controlled economy. However, significant changes have been observed since the mid-2010s, particularly under President Shavkat Mirziyoev's administration. Mirziyoev, who took office in 2016, initiated a series of comprehensive economic reforms aimed at liberalizing the economy, improving the business climate, and enhancing foreign trade relations. These reforms include currency liberalization, reduction of trade barriers, and modernization of infrastructure.

Uzbekistan's export portfolio is diverse, with key exports including:

- **Natural Gas:** One of Uzbekistan's most significant exports, natural gas is primarily sold to neighboring countries and China.

- **Gold:** As one of the world's largest producers of gold, Uzbekistan exports significant quantities to various global markets.

- **Cotton:** Traditionally known as a major cotton producer, Uzbekistan continues to export cotton and cotton products.

- **Fruits and Vegetables:** The country's favorable climate enables it to produce and export a variety of fruits and vegetables, particularly to Russia and other CIS countries.

- **Textiles:** The textile industry has seen substantial growth, with Uzbek textiles finding markets in Europe, Turkey, and other regions.

On the import side, Uzbekistan primarily imports:

- **Machinery and Equipment:** Essential for the modernization of its industrial and agricultural sectors, machinery and equipment are major imports.

- **Vehicles and Spare Parts:** With a growing automotive industry and consumer market, Uzbekistan imports vehicles and related parts.

- **Chemicals and Pharmaceuticals:** These are crucial for the country's agriculture and healthcare sectors.

- **Food Products:** While Uzbekistan is a major producer of certain agricultural goods, it still imports various food products to meet domestic demand.

Uzbekistan's government is actively pursuing policies to enhance its trade relations and economic integration with the global economy. Key initiatives include:

- **Trade Liberalization:** Continued efforts to reduce tariffs, eliminate trade barriers, and simplify customs procedures.

- **Infrastructure Development:** Significant investments in transport and logistics infrastructure, including railways, highways, and international airports, to facilitate trade.

- **Regional Cooperation:** Active participation in regional organizations such as the CIS, SCO, and the Eurasian Economic Union (EAEU) to boost trade and economic cooperation.

- **Diversification of Trade Partners:** Efforts to expand trade relations beyond traditional partners, targeting markets in South Asia, the Middle East, and Africa.

Uzbekistan's foreign trade relations have evolved significantly over the past few decades, marked by increased diversification and strategic partnerships. With ongoing economic reforms and a proactive trade policy, Uzbekistan is poised to enhance its role in regional and global trade. The future looks promising as the country continues to leverage its strategic location, natural resources, and reform momentum to achieve sustained economic growth and integration into the global economy.

In recent years, Uzbekistan has experienced significant transformations in its foreign trade relations, driven by extensive economic reforms, strategic partnerships, and an active pursuit of regional and global integration.

Under President Shavkat Mirziyoyev, who assumed office in 2016, Uzbekistan has embarked on a series of bold economic reforms aimed at liberalizing the economy and enhancing its global trade footprint. Key reforms include:

1. **Currency Liberalization:** The government allowed the free conversion of the Uzbek som, making it easier for foreign investors and traders to engage with the Uzbek market.

2. **Reduction of Trade Barriers:** Efforts to lower tariffs, remove non-tariff barriers, and streamline customs procedures have significantly improved trade facilitation.

3. **Improvement in Business Environment:** Reforms targeting the business environment, including simplifying business registration and strengthening property rights, have attracted foreign investment.

In recent years, Uzbekistan has made significant strides in reforming its economy and expanding its foreign trade relations. The proactive policies of the Mirziyoyev administration have positioned Uzbekistan as an increasingly important player in regional and global trade. With ongoing reforms, strategic infrastructure investments, and a focus on diversifying trade partners, Uzbekistan is well on its way to achieving sustained economic growth and deeper integration into the global economy. The future looks promising as the country continues to capitalize on its strategic location, abundant resources, and reform momentum.

Investments play a crucial role in shaping Uzbekistan's foreign trade relations. Over recent years, the country has actively sought to attract foreign direct investment (FDI) to stimulate economic growth, modernize infrastructure, and enhance its global trade profile. Several key sectors in Uzbekistan have attracted substantial foreign investment, each playing a vital role in enhancing the country's trade capabilities:

1. **Energy and Natural Resources:** Investments in natural gas, oil, and mining sectors are critical, given Uzbekistan's rich natural resource base. Projects in these sectors not only boost exports but also support domestic energy needs.

2. **Infrastructure:** Significant investments in transport infrastructure, including roads, railways, and airports, aim to improve logistics and trade efficiency. Enhanced infrastructure is vital for facilitating both domestic and international trade.

3. **Agriculture and Agro-processing:** Investments in modernizing agriculture and developing agro-processing facilities help increase the value of agricultural exports. Advanced agricultural practices and technologies enhance productivity and quality.

4. **Textiles and Apparel:** The textile sector, historically significant, has seen increased investment to modernize facilities and expand production capacity. Investments here support exports to Europe, Turkey, and other markets.

5. **Tourism:** The tourism sector has gained attention with investments in hospitality, heritage sites, and marketing initiatives. Developing tourism infrastructure boosts foreign exchange earnings and creates jobs.

The Uzbek government has implemented several initiatives to create an attractive investment climate, recognizing the critical role of FDI in economic development:

1. **Liberalization of Economic Policies:** Measures such as currency liberalization, tax incentives, and simplified business registration processes aim to make Uzbekistan more appealing to foreign investors.

2. **Legal and Regulatory Reforms:** Strengthening property rights, enhancing legal protections for investors, and reducing bureaucratic red tape are key steps taken to build investor confidence.

3. **Public-Private Partnerships (PPPs):** Encouraging PPPs to leverage private investment for public infrastructure projects, thereby improving efficiency and effectiveness in project implementation.

4. **Special Economic Zones (SEZs):** Establishing SEZs with favorable tax regimes, modern infrastructure, and streamlined regulatory frameworks to attract investments in targeted sectors.

5. **Investment Promotion Agencies:** Enhancing the role of agencies such as the Uzbekistan Investment Promotion Agency (UZIPA) to actively engage with potential investors and provide comprehensive support.

Investments have a profound impact on Uzbekistan's foreign trade by:

1. **Boosting Export Capacity:** Investments in key sectors increase production capacity, improve product quality, and enhance the competitiveness of Uzbek goods in international markets.

2. **Diversifying the Economy:** Attracting investments in various sectors reduces dependence on traditional exports like natural gas and cotton, promoting a more diversified and resilient economy.

3. **Enhancing Infrastructure:** Improved transport and logistics infrastructure facilitates smoother trade flows, reduces costs, and enhances connectivity with global markets.

4. **Creating Jobs and Skills Development:** Investments create employment opportunities and foster skill development, contributing to a more productive and capable workforce.

Investments play a pivotal role in shaping Uzbekistan's foreign trade relations, driving economic growth, and enhancing global integration. By attracting diverse foreign investments, Uzbekistan is modernizing its infrastructure, expanding export capacities, and diversifying its economy. The government's proactive reforms and strategic initiatives continue to foster an investor-friendly environment, ensuring that investments contribute significantly to the country's trade and economic aspirations. As Uzbekistan continues on this trajectory, the role of investments will remain central to its vision of becoming a key player in regional and global trade.

#### References:

- (1). Alexey Kireev. International Economics. Part one. Moscow. International relationships. 2000.
- (2). Scientific and Practical Journal The market, money and credit, 12/2012.
- (3). World economy. O.V.Kornienko. M., "Peter", 2010.
- (4). World economy trends over 100 years. Edited by I.S.Queen. M., "The economist", 2010.

#### Internet resources:

- (1). <https://cabar.asia/en/uzbekistan>
- (2). [Uzbekistan: Economic Performance and Domestic Challenges \(specialeurasia.com\)](http://specialeurasia.com)
- (3). [Внешнеэкономическая \(экспортная\) деятельность Узбекистана: возможности и трудности | Статья в журнале «Молодой ученый» \(moluch.ru\)](http://moluch.ru)
- (4). [Международные внешнеэкономические связи республики Узбекистан и перспективы их развития | Экономика и инновационные технологии \(inlibrary.uz\)](http://inlibrary.uz)

Madaminov Abduraxmon (Qoraqalpoq DU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası dotsenti, f.f.n.;  
e-mail: madaminov.abduraxman@mail.ru)

### SINTAKTIK BIRLIKLARNING TRANSFORMATSIYA USULI ORQALI IFODALANISHI

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada transformatsiya metodining chet tillarda o‘rganilishi va turkiy tillarga tatbiq qilinishi keng yoritilgan. Transformatsiya metodi yordamida o‘zbek adabiy tilidagi so‘z birikmalari va gaplarning derivatsiya usullari haqida fikr yuritiladi va ularning sintaktik qonuniyatlari asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** adyunksiya, transformatsiya, derivatsiya, kontominatsiya, konversiya, kompressiya, leksikalizatsiya, premutatsiya, ellipsis, substantivatsiya.

Мадаминов А. (доцент кафедры узбекского языкознания Каракалпакского государственного университета, к.ф.н.; e-mail: madaminov.abduraxman@mail.ru)

### ВЫРАЖЕНИЕ СИНТАКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ МЕТОДОМ ТРАНСФОРМАЦИИ

*Аннотация.* В данной статье широко освещено изучение метода трансформации в иностранных языках и его применение к турецким языкам. С помощью метода трансформации рассматриваются способы образования словосочетаний и предложений в узбекском литературном языке и обосновываются их синтаксические закономерности.

**Ключевые слова:** адъюнкция, трансформация, деривация, контоминация, конверсия, компрессия, лексикализация, премутация, эллипсис, субстантивация.

Madaminov A. (docent of Uzbek Linguistics Department of Karakalpak State University, f.f.n.;  
e-mail: madaminov.abduraxman@mail.ru)

### EXPRESSION OF SYNTACTIC UNITS USING TRANSFORMATION METHOD

*Annotation.* In this article, the study of the transformation method in foreign languages and its application to Turkish languages are widely covered. With the help of the transformation method, the derivation methods of phrases and sentences in the Uzbek literary language are discussed and their syntactic regularities are justified.

**Key words:** accession, transformation, derivation, contomination, conversion, compression, lexicalization, premutation, ellipsis, substantivization.

Taqrizchi f.f.d., professor Mambet Qudaybergenov

**Kirish (Introduction).** Transformatsiya metodi srtuktur tilshunoslikda keng qo‘llanilib kelayotgan usullardan biridir. Turkiy tillarda ham bu metod qadimdan mavjud bo‘lib, lekin sintaktik birliklar doirasida kam o‘rganilgan. Demak, so‘z birikmalari va gaplarning transformatsiya metodi orqali qayta yasalishini o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Transformatsiya metodi, dastlab, deskriptiv lingvistika nazariyotchilaridan biri Z.S.Xerris tomonidan tavsiya qilingan. Keyinchalik, uning shogirdi A.Xomskiy tomonidan rivojlantirildi va mazkur g‘oyalar asosida transformatsion grammatika shakllandi (10;94-b.). Natijada mazkur yo‘nalish L.S.Barxudarov, E.V.Paducheva va boshqa olimlar tomonidan sintaktik butunliklar doirasida o‘rganildi (2;10-b.). Tilda transformatsiya atamasi lotincha *transformatio* – *qayta tuzish* degan ma‘noni anglatadi (1;480-b.). Bu metodga ko‘ra, asosiy sintaktik qurilma til qonun-qoidalari asosida o‘zgartirilib, ikkinchi bir sintaktik qurilmani hosil qiladi. Masalan: *Bahor keldi* – *bahorning kelishi* kabi. Bu jarayonni professor J.B.Bo‘ronov: “Asos, yadro strukturaga tayanib, ikkilamchi struktura yoki namuna tiklash usulini transformatsiya”, deb hisoblaydi. U transformatsiyaning quyidagi uchta turini ko‘rsatadi: 1) sodda gap qurilishini saqlagan transformatsiya; 2) sodda gaplarni nominallashtirish so‘z birikmasiga aylantiruvchi transformatsiya; 3) sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantiruvchi transformatsiya kabi (4;39–70-b.). Sodda gap qurilishini saqlagan transformatsiya usulida gap qisman o‘zgartirilsa, sodda gaplarni nominativlashgan so‘z birikmasiga aylantiruvchi transformatsiyada quyidagicha o‘zgarish yuz beradi. Masalan: *Qish boshlandi* (sodda gap) – *qishning boshlanishi* (so‘z birikmasi) kabi. Bunday transformatsion jarayon uchun professor A.Nurmonov ta’kidlaganidek: “yadro gap, transformatsiya qoidasi va hosila gap tushunchalarini tasavvur qilish muhim ahamiyatga egadir” (11;97-b.). Chunki Z.Xerrisning fikricha, transkripsiyada bir gap ikkinchi gapga shunday o‘girilishi kerakki, unda asos gap va hosila gap orasidagi leksemalar tarkibi va mazmunida tafvut bo‘lmasligi kerak. Ammo sintaktik birliklar transformatsiyasi jarayonida o‘rin almashtirish, qo‘shish, qisqartirish va ellipsis kabi holatlar yuz berishi mumkin. Masalan: *Bahor keldi* – *Keldi bahor* (permutatsiya); *Men o‘qidim* – *O‘qidim* (ellipsis) kabi. Ayrim birikmalar

qismlarining qayta yasaliishi natijasida yangi birikmalar hosil bo'ladi. Masalan: *Erga tegmoq va turmushga chiqmoq* iboralari yig'indisidan *erga chiqmoq* iborasi hosil bo'lgan. Shuningdek, ikkita sodda gapning o'zaro birikishi orqali: *Havo dim. Azim chinorlarning barglari qilt etmaydi.* – *Havo dim bo'lgach, azim chinorlarning barglari qilt etmaydi.* Hatto, til taraqqiyoti qonunlariga ko'ra, sintaktik birliklar tarkibidagi ortiqcha unsurlarni qisqartirish natijasida kompressiya (tejamkorlik) holati ham yuzaga keladi. Masalan: *zig'irning poyasi* (so'z birikmasi) – *zig'irpoya* (qo'shma so'z); *derazaga taqiladigan parda* (murakkab so'z birikmasi) – *derazaning pardasi* // *deraza parda* (sodda so'z birikmasi) – *darparda* (qo'shma so'z) kabi. Bu holat qo'shma gaplar doirasida ham yuz beradi: *Men kelsam, sen yo'q ekansan* – *Kelsam, yo'q ekansan* kabi.

**Tadqiqotning metodologiyasi (Research Methodology).** Abu Nasr Forobiyning "Fanlar tasnifi haqidagi so'z" asarida so'z birikmalarini o'rganish qonuniyatlariga alohida ahamiyat beriladi. Unda so'z birikmalari va uning qoidalari haqidagi fan bo'limlarida sintaktik birliklarni o'rganishga alohida mavzular ajratilgan (9;11–12-b.). Tilshunoslikning keyingi barcha taraqqiyot bosqichlarida so'z birikmalari va gap qonuniyatlarini o'rganish takomillashtirilib kelmoqda. Mana shunday yo'nalishlardan biri sintaktik birliklarning transformatsiya metodi asosida yasaliishini o'rganishga qaratilgan. Sobiq sho'rolar davridagi formal-funksional tilshunoslikda sintaktik birliklar struktur – semantik jihatdan keng o'rganildi. Istiqoldan keyin esa o'zbek tilshunosligiga jahon andozalari asosidagi yangi-yangi yo'nalishlar kirib kela boshladi. Mana shunday yo'nalishlardan biri transformatsiya metodi hisoblanadi. Turkiy tillarda, jumladan, ozarbayjon tilida M.Sh.Sheraliyev, qoraqalpoq tilida N.A.Baskakov, balqar tilida N.K.Dmitriyev kabi yetuk olimlarning tadqiqotlarida transformatsiya usuli keng o'rganildi (3;104-b.). Shuningdek, turkiy tillarning tarixiy-qiyosiy grammatikasida E.V.Severtyan, N.Z.Gadjiyeva, B.A.Serebrennikov, E.A.Gruninalar tomonidan alohida o'rganildi (5;94–106-b.). O'zbek tilshunosligida sodda va qo'shma gaplar transformatsiyasiga oid qarashlar A.N.Kononov, A.G'ulomov, G'Abdurahmanov, M.Asqarovalar tomonidan, struktur yo'nalishda professor N.Q.Turniyozovning ilmiy ishlarida atroflicha bayon qilingan (7;8;12;13).

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Professor N.A.Baskakov ta'kidlaganidek, "hozirgi turkiy tillarda istagan gapni birikmaga transformatsiya qilish mumkin va u istagan yoyiq gap bo'lagi vazifasida keladi". Gap birikmaga transformatsiya qilingani kabi, aksincha, birikma ham gapga transformatsiya qilinadi (3;103-b.).

M.Irisqulovning "Tilshunoslikka kirish" asarida bu metod eng zamonaviy, eng qulay metodlardan biri sifatida ko'rsatiladi. U transformatsiya qoidalari quyidagi uch turga ajratadi: birinchi qoidaga asosan, oddiy gapni SBlariga aylantirish: *Qush sayrayapti – qushning sayrashi*; ikkinchi qoidaga binoan, gap tarkibiga o'zgartirishlar kiritish (so'z qo'shilishi, so'z tushib qolishi, o'rin almashinishi) va uchinchi qoidaga ko'ra esa, elementar gaplar qo'shma gapga aylantiriladi (6;195–197-b.). Masalan: *Bulut keldi. Yomg'ir yog'di* sodda gaplar – *Bulut keldi va yomg'ir yog'di* // *Bulut kelgach, yomg'ir yog'di* tarzida qo'shma gaplarga aylantirilishi mumkin. Mana shu xususiyatlariga ko'ra transformatsiya metodi boshqa metodlardan ancha faol sanaladi. Uning bir tomoni sintaktik derivatsiya usullari bilan bog'liq holda amalga oshadi. Predikativ sintagmalar transformatsiyasi bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan S.Mahmatqulov ularning bir nechta turlari va kesimi fe'l bilan ifodalangan predikativ sintagmalarning qanday usullar bilan transformatsiya qilinishi haqida atroflicha ma'lumot beradi (8;27–30-b.). Demak, predikativ sintagmalar turli gap bo'laklari vazifasida keladigan sintaktik qurilmalar bo'lib, asosan, murakkab so'z birikmalarining tobe qismi tarkibida keladi. Hozirgacha turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilshunosligida bunday sintaktik qurilmalar turlicha tahlil qilinib kelindi. Ayniqsa, ularning transformatsiyasi masalasi alohida o'rganishni taqozo qiladi. Chunki ularning alohida o'z subyektiga ega bo'lgan bir guruhi tarixan gapning birikmaga transformatsiyasi asosida vujudga kelishi bilan bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. Masalan, *Bahor keldi va kunlar isiy boshladi* – *Bahor kelgach, kunlar isiy boshladi*. Bunday predikativ qolipdagi sintagmalar sodda va murakkab shakllarda uchraydi. Ular sintaktik birliklar derivatsiya jarayonida qayta yasalsa, transformatsiya usulida mazmunan mushtarak birliklar qayta yasaladi. Ravshanki, professor N.Turniyozovning qayd qilishicha: "transformatsiya hodisasi ma'no tushunchasi bilan bevosita bog'lanadi, zotan, muayyan bir tushuncha – struktura asosida shakllangan sintaktik qurilmalar mazmunan mushtarak bo'lgandagina transformatsiya vujudga keladi" (11;87-b.). Xullas, so'z birikmalari derivatsiyasi ham yuqorida ta'kidlangan usullar yordamida yuzaga keladigan jarayon bo'lib, ular ham til taraqqiyotining turli qonuniyatlarini qamrab oladi. Masalan, sintaktik derivatsiyaning kontaminatsiya usulida ikkita gap mazmunan birlashtiriladi. Masalan: Uning kasalini yashirishdi. Qishloqdagi qarindoshlariga ham aytishmadi. – Uning kasalini qishloqdagi qarindoshlaridan ham yashirishdi. Shuningdek, konversiya usulida berilgan gaplar tarkibidagi grammatik vositalar o'zgartiriladi, lekin gap mazmuniga putur yetkazilmaydi: *Gulchehra opasidan bunday gaplarni sira kutmagan edi* (O'.U.). – *Opasi Gulchehraga undan sira kutmagan gaplarni aytdi* kabi. Bu gaplar transformatsiyasi



jarayonida quyidagi o'zgarishlarga uchraganligini ko'ramiz. Birinchi gapdagi ega hosila gapda to'ldiruvchi, birinchi gapdagi to'ldiruvchi esa hosila gapda ega vazifasini bajarib kelmoqda.

Demak, sintaktik transformatsiya jarayonida gaplar shaklan va mazmunan o'zgarishga uchraydilar. Bazan ohang yordamida ham gap mazmunini o'zgartirish mumkin. Masalan: U maktabda ishlaydi – U maktabda ishlaydi(mi)? – U maktabda ishlamaydi. Mazkur gaplar shaklan deyarli bir xil, ammo mazmunan bir-biridan farq qiladi. Bu tarzda gaplarning mazmunan farqlanishi ichki va tashqi kompressiyalarga olib keladi. Agar kompressiyaga olinayotgan hodisa gap ichida bo'lsa, bu ichki kompressiya hisoblanadi: Men qishloqda yashayman – Qishloqda yashayman. Bu tarzda ixchamlashish murakkab qo'shma gaplar doirasida ham uchraydi. Masalan, Qarasam, qaramaysan, qaramasam, qaraysan kabi. Tashqi kompressiya hodisasi, ko'pincha, dialogik nutqda ko'p uchraydi: Shanba kuni kinoga boramizmi yoki teatrqa? – Teatrqa, dedi o'quvchilar.

Bulardan tashqari, professor A.Nurmonovning qayd qilishicha, sintaktik birliklar transformatsiyasida quyidagi qoidalarga ham amal qilinadi: 1) o'rin almashtirish – *permutatsiya* usuli bilan: Bahor keldi – Keldi bahor; 2) *substitutsiya* – usulida yadro gap tarkibidagi bir elementni o'zaro munosabatida bo'lgan boshqasi bilan almashtirish mumkin: Men uning nima xohlashini bilaman – Men buni bilaman; 3) *adunksiya* yadro gap tarkibiga boshqa so'zlarni qo'shish orqali: Men o'qidim – Men bu kitobni o'qidim; 4) Yadro gap tarkibidagi ayrim so'zlarning tushib qolishi yoki *ellipsis* hodisasi (10;98-b.): Men keldim – Keldim. kabi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)** Transformatsiya jarayoni sintaktik birliklarning qayta yasalanishini, so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplar tarkibining grammatik qurilishini aniqlashga yordam beradi. Mazkur tadqiqotda o'zbek tilidagi so'z birikmalari va gaplarning derivatsiya usullari yordamida qayta yasalanish qonuniyatlari ochib berildi. Lekin bu yo'nalish o'zbek tilshunosligida kam yoritilgan sohalaridan biri bo'lib, kelajakda yanada chuqur o'rganishni taqozo qiladigan eng dolzarb masalalardan biri sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966, 480 с.
- (2). Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. М., “Высшая школа”, 1966, с. 25 – 28.
- (3). Баскаков Н.А. Историко-типологическая характеристика структуры тюркских языков. М., 1975, с. 104.
- (4). Бўронов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1973, 39–80-бетлар.
- (5). Гаджиева Н.З., Серебренников Б.А. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Синтаксис. М., “Наука”, 1986, с. 94 –161.
- (6). Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992, 195 бет.
- (7). Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.–Л., 1960.
- (8). Махматкулов С. Ўзбек тилида предикатив синтагманинг трансформацияси. Тошкент, “Университет”, 1998.
- (9). Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent. 2002, 10–12-бетлар.
- (10). Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Toshkent, “Akademnashr”, 2010, 94–100-бетлар.
- (11). Падучева Е.В. О семантике синтаксиса. Материалы к трансформационной грамматике русского языка. М., “Наука”, 1975, с. 5.
- (12). Турниязов Н.К., Хайруллаев Х. Структур синтаксиси асослари. Тошкент, 2009, 87-бет.
- (13). Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, “Nodirabegim”, 2020, 256-бет.
- (14). Хомский Н. Синтаксические структуры. Новое в лингвистике. Вып. 2, М., 1962, с. 412.

**Zarmasov Shahboz Shahriddin o'g'li (Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi;**

**e-mail: shakhbozzarmasov1993@mail.ru)**

#### **KOMMUNIKATIV MULOQOTNI MODELLASHTIRISH TAMOYILLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kommunikativ muloqot modellari haqida so'z boradi. Muloqot lisoniy va nolisoniy imkoniyatlarning u yoki bu moddiy shaklda voqelanishi bo'lib, milliy-madaniy, etik-estetik, ijtimoiy, tarixiy, falsafiy va lingvistik omillarning murakkab sistemasidir. Maqolada muloqot verbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so'zsiz, nolisoniy vositalar orqali reallashuvi, bu jarayonda “nutqiy vaziyat-nutqiy xabar-nutqiy maqsad-nutqiy ta'sir” sxemasidagi tashqi omillar hamda lisoniy (harf-to-

vush, bo'g'in, so'z, so'z birikmasi, gap) va nolisoniy (milliy-etnik, madaniy, kinetik) vositalar umumlashmasidagi ichki omillar tahlil qilinadi. Tilshunos olimlarning bu xususdagi fikrlariga munosabat bildiriladi va ularga tayangan holda lisoniy va nolisoniy modellar hamkorligidagi kommunikativ muloqotning umumlashma milliy modellari tavsiya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** modellashtirish, milliy model, paradigma, konsept, muloqot, kommunikatsiya, funktsionallashuv, nutqiy maqsad, nutqiy xabar, nutqiy vaziyat, nutqiy ta'sir, kinetik vositalar, lisoniy model, nolisoniy model.

Zarmasov Shahboz Shahridin ўғли (so'nskatel' Andijan'skogo gosudar'stvennogo universiteta;  
e-mail: shakhbozzarmasov1993@mail.ru)

#### ПРИНЦИПЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОГО ДИАЛОГА

**Аннотация.** Статья посвящена моделям коммуникативной коммуникации. Коммуникация – это проявление языковых и неязыковых возможностей в той или иной материальной форме и представляет собой сложную систему национально-культурных, этико-эстетических, социальных, исторических, философских и языковых факторов. В статье указывается, что общение реализуется вербально, то есть с помощью слов, языковых средств, а также с помощью невербальных, невербальных средств посредством внешние факторов по схеме «речевая ситуация – речевое сообщение – речевая цель – речевой эффект» и анализируются лингвистические (буква-звук, слог, слово, словосочетание, предложение) и неязыковые (национально-этнические, культурные, кинетические) факторы. Высказаны мнения лингвистов по этому поводу и на их основе рекомендованы обобщенные национальные модели коммуникации при взаимодействии языковых и неязыковых моделей.

**Ключевые слова:** моделирование, национальная модель, парадигма, концепт, диалог, общение, функционализация, речевая цель, речевое сообщение, речевая ситуация, речевой эффект, кинетические средства, лингвистическая модель, неязыковая модель.

Zarmasov Shahbaz Shahridin ugli (Researcher of Andijan State University;  
e-mail: shakhbozzarmasov1993@mail.ru)

#### PRINCIPLES OF MODELING COMMUNICATIVE DIALOGUE

**Annotation.** This article is about communication models. Communication is the manifestation of linguistic and non-linguistic possibilities in one or another material form and is a complex system of national-cultural, ethical-aesthetic, social, historical, philosophical and linguistic factors. In the article, communication is realized verbally, that is, through words, linguistic means, and through non-verbal means, in this process external factors in the scheme “speech situation-speech message-speech goal-speech effect” and linguistic (letter -sound, syllable, word, phrase, sentence) and non-linguistic (national-ethnic, cultural, kinetic) factors are analyzed. The opinions of linguists in this regard are expressed and, based on them, generalized national models of communicative interaction with the cooperation of linguistic and non-linguistic models are recommended.

**Key words:** modeling, national model, paradigm, concept, dialogue, communication, functionalization, speech goal, speech message, speech situation, speech effect, kinetic means, linguistic model, non-verbal model.

**Kirish (Introduction).** So'nggi yillarda tilni jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o'rganish, til va nutq dielektikasini “olam–inson–til–nutq” kesishmasida tadqiq etish, tilni insondan, insonni tildan ajratmagan holda kommunikativ paradigma sifatida talqin etishga doir tadqiqot ishlari ko'paymoqda, xususan, kommunikativ muloqot jarayoniga qayta baholash mezoni asosida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, lisoniy birliklarning nutqda yashash shart-sharoitlarini nolisoniy ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog'liq holda o'rganish, serqirra muloqot jarayoni tabiatini belgilovchi xilma-xil omillarning o'zaro uyg'unlashish shart-sharoitlarini aniqlash, ijtimoiy nutq tabiati hamda o'zaro fikr almashinishi, aloqa munosabat jarayonining tadqiqi ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Muloqot shaxsning ijtimoiy birlik sifatida o'zligini namoyon qilish shakli bo'lib, uni jamiyat a'zolarining o'zaro aloqa-aralashuviz (axborot berishsiz va axborot olishsiz) tasavvur etib bo'lmaydi. Muloqot jarayonida so'zlovchi ham, tinglovchi ham o'zligini – saviyasini, madaniyatini, bilimini, hatto dinini, mafkura-yu ijtimoiy mansubligini namoyon qilishi xususida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Nizomiy, Rudakiy kabi sharq mutafakkirlari qimmatli fikrlarni bayon qilganlar.

Amerikalik olim K.Shennon tashqi olam haqidagi ma'lumotlarning insonga uzatilishini *manba* → *uzatuvchi* → *kanal*<sup>1</sup> → *priyomnik* → *axborotni oluvchi* sxemasida bayon qiladi [6;45-b.]. A.Rahimov ushbu sxemani kommunikatsiya jarayonining modeli sifatida izohlaydi [1;18-b.]. Muloqot jarayonini modellashtirishda K.Shennon va A.Rahimov muloqotning lisoniy omillariga, Sh.Safarov, G.Toirova va U.Rahimov nolisoniy omillariga e'tibor qaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bevosita kuzatishda berilgan tashqi olam haqidagi ma'lumotlar insonning bosh miya qobig'ida modellar ko'rinishida saqlanadi, aks etadi va qayta ishlanadi: ular o'zaro solishtiriladi, birlamchi belgilar ajratib olinadi, umumlashtiriladi, ikkilamchi belgilari inkor etiladi, xususiy belgilarni kuzatish orqali umumiy xulosa chiqariladi, funkcionallashuv vaqtida esa turli variantlarda nutq ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu jarayon nihoyatda murakkab va serqirra bo'lib, eshitish organi havoning tebranishini qabul qiladi, signalni bosh miya qobig'iga jo'natish uchun uzluksiz impulslarni kodlashtiradi. Birinchi bosqichda inson miyadagi obrazlar va tushunchalar tovushlar kombinatsiyasida moddiy qobiqqa ega bo'ladi, "tovush modeli" shakllanadi, axborotni solishtirish natijasida bosh miyada yangi kod – so'z kodi kodlashtiriladi, keyingi bosqichda – birikmalar kodlashtiriladi [3;19-b.]. Shundan so'ng muloqot algoritmitiga ko'ra, nutqiy akt modeli yaratiladi. Nutqiy akt modeli til va nutq dialektikasi asosida tuziladi. U.Rahimov kommunikativ muloqot unsurlarini tadqiq etish modelini o'zida mujassam etgan paradigmani konseptologik paradigma deb, muloqotda nutqiy akti belgilab oladi.

Ma'lumki, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi biror fakt, voqea-hodisa, jarayon haqidagi oddiy xabar bayoni nutqiy akti tashkil qiladi. G.Toirovaning fikricha, "nutqiy akt lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichdan iborat. Kommunikativ muloqotni bajarishimiz lokutiv faoliyat, muloqotning nima maqsadda nutqqa yuzaga chiqishi (muloqot maqsadi) illokutiv faoliyat, yuqoridagi faoliyatlar natijasida tinglovchiga ta'sir qilish perlokutiv faoliyatdir" [2;27–31-b.]. Demak, shaxs muloqotga kirishar ekan, uning oldida ma'lum bir maqsad turadi. Ana shu maqsadi yo'lida suhbatdoshining ongiga, his-tuyg'ulariga va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazadi.

Sh.Safarov va G.Toirova "so'zlovchi va tinglovchining o'zaro bir-biriga ta'siri ta'minlangandagina muloqot samarali bo'ladi" deb hisoblaydi va nutqiy muloqotning umumiy modelini sxema ko'rinishida beradi [5;30-b.]. Ushbu sxemaga ko'ra, muloqotda har ikkala taraf ham faol bo'lishi talab etiladi. So'zlovchi o'z faoliyati bilan tinglovchiga ta'sir ko'rsatishi, bu ta'sirdan ilhomlangan tinglovchi ma'lum bir faoliyat turidan boshqa ko'rinishga o'zgaradi, jonli muloqotni yuzaga keltiradi.

Muloqotda so'zlovchi va tinglovchining bir-birini tushunishi va anglashi faqat ular uchun umumiy asos mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun lison qanchalik ijtimoiy, so'zlovchi va tinglovchi uchun umumiy, majburiy bo'lsa, nutq ham ular uchun shunday umumiy, majburiy va ijtimoiy bo'ladi [5;13-b.]. Ya'ni suhbatdoshlarning maqsadi umumiylikka ega bo'lishi kerak. Maqsadning umumiyligi so'zlovchi o'z harakatini tinglovchiga moslashtirishi, tinglovchi esa so'zlovchining saviyasini bilishi va uni tinglashga tayyor bo'lishi kerak.

G.Toirovaning nutqiy akt bosqichlari haqidagi fikrlariga tayangan holda U.Rahimov "nutqiy akt "xabar+maqsad+ta'sir" modeli asosida reallashadi va turli xil konseptlarni hosil qiladi", degan xulosaga keladi va bu jarayonda nutqiy vaziyatni ham hisobga olishning muhimligini ta'kidlaydi. U aynan nutqiy vaziyat nutq xabar, nutqiy maqsad va nutqiy ta'sirning yuzaga kelishida asosiy omil ekanligini, ularning birgalikdagi butunligi nutqiy algoritmi tashkil etishini aytadi va *nutqiy vaziyat+nutqiy xabar+nutqiy maqsad+nutqiy ta'sir* sxemasi asosida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot algoritmining  $N^V+N^X+N^M+N^T=N^A$  modelini tavsiya qiladi. Shuningdek, u  $K = \frac{NV+NX+NM+NT}{NA}$  tenglamasini tuzadi va uni konseptning matematik ko'rinishi sifatida baholaydi. Ko'rinadiki, tenglamaning mahrajida *nutqiy akt*, suratida *nutqiy vaziyat+nutqiy xabar+nutqiy maqsad+nutqiy ta'sir* qo'shilmasi konseptni tashkil etmoqda.

**Tahlil va natijalar (Analys and results).** Insonlarning kommunikatsiyaga kirishuv jarayoni ma'lum sxema asosida amalga oshadi va bu sxema funkcionallashuv (*xabarning bir individumdan boshqasiga yetkazilishi va qabul qilinishi*)ning umumiy modelini aks ettiradi. Biroq tashqi olam haqidagi ma'lumotlarning inson bosh miyasiga uzatilishi, qayta ishlanishi va ulardan nutqiy vaziyat va nutqiy maqsadga muvofiq kombinatsiyalar ajratib olingandan keyingina nutqda reallashishini unutmashlik kerak. Shu ma'noda biz ham kommunikativ muloqot (funkcionallashuv)ning "*manba* → *kanal* → *kommunikator* → *kanal* → *nutqiy vaziyat+nutqiy xabar+nutqiy maqsad+nutqiy ta'sir* ← *adresat*" paradigmasi hamda [**M** → **k**<sup>+</sup> →

<sup>1</sup> Kanal – axborot beriluvchi, uzatiluvchi muhit, sharoit.

$K^T \rightarrow k^+ \rightarrow Nv + Nx + Nm + Nt \leftarrow A^T$  yoki  $[M \rightarrow k^+ \rightarrow K^T \rightarrow k^+ \rightarrow Na \leftarrow A^T]$  milliy modelini tavsiya qilishni joiz deb topdik.

Bu yerda  $[M]$  – tashqi olam haqidagi hamda tafakkur eksprementidan o‘tgan axborot;  $[k^+]$  – kanal, bu – axborotni qabul qilish va uzatish usullari, vositalari, ya’ni axborot yozma va og‘zaki shaklda verbal va noverbal vositalar orqali uzatilishi mumkin;  $[K^T]$  – tashqi olam haqidagi axborotni tinglovchiga uzatuvchi shaxs (*kommunikator*), axborot to‘g‘ridan to‘g‘ri uzatilmasdan, nutqiy vaziyat va maqsadga muvofiq lashtiriladi;  $[Na]$  – nutqiy akt, kommunikatorlar o‘rtasidagi oddiy xabar bayonidir ( $[Nv]$  – nutqiy vaziyat;  $[Nx]$  – nutqiy xabar;  $[Nm]$  – nutqiy maqsad;  $[Nt]$  – nutqiy ta’sir, jonli muloqotda kommunikantlarning o‘zaro munosabati nutqiy ta’sirlashishni ta’minlaydi);  $[A^T]$  – kommunikatoridan axborotni oluvchi shaxs (*adresat*), u axborotni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilmaydi, uni tafakkur eksprementidan o‘tkazadi, analiz qiladi. Muloqot jarayonida kommunikantlarning integrativ munosabati nutqiy akt (nutqiy vaziyat, nutqiy xabar, nutqiy maqsad, nutqiy ta’sir)da umumlashtiriladi. Ko‘ringanidek, ushbu milliy modellarda yuqorida qayd etilgan tilshunoslar tomonidan tavsiya etilgan modellarning umumlashmasi sifatida yuzaga chiqmoqda. Shu ma’nodan har qanday aloqa-almashuv jarayoni mazkur milliy modellarda voqelanadi.

Tilshunoslikka oid manbalarda muloqot lisoniy vositalarning kichigidan kattasiga, bosqichma-bosqich u yoki bu moddiy shaklda reallashuvi sifatida talqin qilinadi. Bu borada S.Kasnelsonga tayanish mumkin: “avval bo‘g‘inlar, keyin so‘z qismlari, so‘ngra so‘z birikmasi va oxirida gap hosil qilinganidek, nutq ham ana shunday kichik va birin-ketin keluvchi qismlardan iborat [5;31-b.]. S.Kasnelsonning nutq reallashuvi haqidagi fikri tilshunoslar tomonidan tan olinadi, biroq bu xususda psixologlar boshqa fikrdalar: muloqot stereotiplar asosida shakllanadi, bu jarayonda nutqning voqelanishida tovushdan – bo‘g‘inga, bo‘g‘indan – so‘zga, so‘zdan – so‘z birikmasiga, so‘z birikmasidan – gapga emas, balki muloqot uchun oddiy bo‘lgan muloqot quyma shtamplariga murojaat qilinadi [5;33-b.]. Aynan mana shunday shtamplar yoki stereotiplarni tilshunoslikda nutqiy modellar sifatida talqin qilish mumkin.

Muayyan holatda ma’lum bir axborotni tinglovchiga yetkazish lisoniy omillardan tashqari, ko‘plab nolisoniy omillar – nutq sharoiti, vositasi, muloqot jarayoni, so‘zlovchi va tinglovchining kontakt va distant holati, ularning psixologik ahvoli, bir-biriga munosabati, milliy-madaniy, yosh, jins kabilar bilan bog‘liq. Masalan, biz birovga salom berar ekanmiz, odob nuqtayi nazaridan qo‘lni ko‘ksimizga qo‘yib, boshni sal egib, ta’zimga yaqin harakat qilib salomlashamiz. Bosh kiyimini yechib salomlashish rus xalqiga, qo‘l kaftlarini bir-biriga jipslashtirgan holda salomlashish hind xalqiga xos. Demak, nutqni ham lisoniy, ham etik-etnografik (lingvomadaniy) xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etish muloqotning lisoniy modelini hamda nolisoniy (etik-etnografik) modelini keltirib chiqaradi. Yuqoridagi misollar o‘zbek, rus va hind xalqlarida salomlashishning etik-etnografik milliy modelidir. Biroq kommunikativ muloqotda lisoniy va nolisoniy modellarning voqelanishi bir-biridan uzilgan holda amalga oshirilmaydi. Demak, shaxslarning muloqotini modellashtirishda ularning lingvomadaniy xususiyatlarini e’tiborga olish ham muhim.

Sh.Safarov, G.Toirova nutqiy jarayonda lisoniy va nolisoniy vositalarning hamkorlikda ishlashini aytib, bu hamkorlikni turli misollar orqali tushuntirib o‘tadi [5;22-23-b.]. Ular lisoniy va nolisoniy paradigmalarni muloqot paradigmasiga birlashtiradi. Demak, ushbu maqolada biz tomonimizdan muloqot paradigmasi sifatida tavsiya etilayotgan milliy modelning nutqda turli variantlarda reallashuvi lisoniy va nolisoniy modellar hamkorligida amalga oshadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation).** Muloqot verbal, ya’ni so‘z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so‘zsiz, nolisoniy vositalar (imo-ishora, har xil belgi, noshona, ramz, simvollar) orqali amalga oshadi. Muloqotni faoliyat va o‘ziga xos bir sistema sifatida tushunish uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat ekanligini sharhlashni talab qiladi. Demak, nutqiy muloqot milliy-madaniy, etik-estetik, ijtimoiy, tarixiy, falsafiy va lingvistik omillarning murakkab sistemasidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

- [1]. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. Toshkent, “Akademnashr”, 2011, 160 bet; 18-bet.
- [2]. Toirova G. Pragmalingvistika. O‘quv lug‘ati. Toshkent, “Akademnashr”, 2016, 31-bet.
- [3]. Амосов Н.М. Моделирование мышления и психики. Киев, 1965; Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. Toshkent, “Akademnashr”, 2011, 160 bet; 19-bet.
- [4]. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. Тошкент, “Шарк”, 2005, 168 бет; 10-bet.
- [5]. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Самарқанд, СамДЧТИ, 2007, 39 бет; 30-bet.
- [6]. Эко У. Отсутствующая структура. Введение в семиологию. М., “Петрополис”, 1998, с. 45.

**Rzamuratova Zlixa Quvatbaevna (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston Respublikasi Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining tayanch doktoranti, Nukus; @zlixarzamuratova)**  
**TURKIY TILLARDA GENDER MUAMMOSIGA OID TADQIQOTLAR**

***Annotatsiya.** Bu maqolada turkiy tillar tilshunosligida gender muammosining shakllanishi va tadqiq etilishi haqida so‘z boradi. Gender masalasini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilib, o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan qozoq, o‘zbek va qoraqalpoq olimlarining tadqiqotlari tahlil qilindi. Genderologiyaning fanlararo aloqadorligi va genderning lisoniy xususiyatlarining o‘ziga xosligi genderolog olimlarning tadqiqotlari natijasida namoyon bo‘lmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** gender, lingvokulturologiya, pragmatika, stereotip, ayollar nutqi, muloqot shakllari, feminizm.*

**ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ГЕНДЕРНОЙ ПРОБЛЕМЕ В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ**

***Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос о формировании и исследовании гендерной проблемы в лингвистике тюркских языков. Проанализированы исследования казахских, узбекских и каракалпакских ученых, которые исследовали вопрос гендера с точки зрения лингвистики и высказали собственные суждения. Междисциплинарность гендерологии и уникальность языковых особенностей гендера показаны в результате исследований гендерологов.*

***Ключевые слова:** гендер, лингвокультурология, прагматика, стереотип, женская речь, формы общения, феминизм.*

**STUDIES ON THE GENDER PROBLEM IN TURKIC LANGUAGES**

***Annotation.** This article talks about the formation and research of the gender problem in the linguistics of Turkic languages. The researches of Kazakh, Uzbek and Karakalpak scientists who analyzed the issue of gender from the point of view of linguistics and expressed their opinions were analyzed. The interdisciplinarity of genderology and the uniqueness of the linguistic features of gender are shown as a result of the researches of gender scientists.*

***Key words:** gender, linguistic culture, pragmatics, stereotype, women’s speech, forms of communication, feminism.*

**Kirish.** Hozirgi rivojlangan davrimizda inson faktori va atrof-muhitning o‘zaro bog‘liqlik masalasi va uning tadqiq etilishi fanlararo barcha sohalarini birlashtirmoqda. Bu kabi tadqiqotlarning asosiy xususiyati – til orqali insonni anglash. Til va genderning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish tarixi eski davrlarga borib taqaladi. Qadimdan ayol-qizlar va erkaklarning harakatlarida, o‘zini tutishida va boshqa xususiyatlarida alohida farqlar bo‘lgan. Tarix ilmida bu kabi masalalar va etnosning boshqa xususiyatlari ham tadqiq etilib, allaqachon samarali xulosalar qilingan. Lekin genderning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish hozirgi kunda ahamiyatli muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Tilshunoslik tarixida til va jinsning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etish ikki davrga ajratiladi. Ularning birinchisi – biologik determenistik, ikkinchisi – genderologik tadqiqotlar. Tilshunoslikning pragmatika, sotsiolingvistika singari sohalar bilan birgalikda o‘rganilishi, erkaklar va ayollarning jamiyatta shakllangan odatiy rollarining xususiyatlarini inobatga olgan holda, lingvistik yangi tadqiqotlar olib borishga sabab bo‘ldi.

**Adabiyotlar tahlili.** Qadimda XVII asrdan boshlab erkak va ayollarning so‘zlashuvdagi farqlar haqida ma’lumotlar keltirila boshlaydi. Ammo tadqiqotlar bu davrda to‘g‘ridan to‘g‘ri olib borilmasdan erkaklar va ayollarning lisoniy xususiyatlariga quyidagicha ta’rif berilgan: erkaklarning tili – tilning umumiy, to‘g‘ri, asosiy formasi sifatida qaraladi, ayollar tili esa me’yordan tashqaridagi “og‘gan” forma sifatida ko‘rinadi [1;33-b.].

Jahon tilshunosligidagi gender lingvistikaning turli xil xususiyatlarini o‘zida mujassamlantirgan tadqiqotlardan so‘ng turkiy tillarda ham genderga oid tadqiqotlar soni ortdi. Turkiy tillarda, xususan, qozoq tilshunosligida gender masalalarini o‘rganish bo‘yicha B.Hasan o‘g‘li, G.Shoqim, G.Mamayeva, Z.Sabitova, Q.Janatayev, A.Boyg‘utova singari olimlarning tadqiqotlarini alohida aytish joiz. Ayniqsa, qozoq tilini o‘zlashtirishdagi gender farqlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan B.Hasan o‘g‘lining mehnatlari alohida. U gender muammosining rivojlanish bosqichlari va toifalarini, qozoq tilidagi mashhur so‘z ustalarining ijodlaridagi gender farqlarni ochib berdi va qozoq tilidagi gender xususiyatlarni tahlil qildi [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu mavzuni yoritish jarayonida sinxron tahlil, distributiv va davriy-qiyosiy metodlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Olima Guljon Shoqim gender masalasi bo‘yicha kompleks ma’lumotlar berishga harakat qilmoqda. U tadqiqotlarida gender muammolari va uning xususiyatlari to‘g‘risida har taraflama fikr

bildirgan [3]. U gender lingvistikasining o'ziga xosliklari, tushunchalari va bosqichlari, shuningdek, aynan qozoq tilidagi yo'nalishlari, gender toifalari, konseptlar va stereotiplar masalalarini tahlil qildi.

O'zbek madaniyatida XIX asrlardan boshlab "ayol" mavzusiga oid qarashlar o'zgarib boshladi. Bular o'zbek adabiyotidagi Dilshod Barno va Anbar Otinlarning asarlari tadqiqi bilan bog'liq edi. O'zbek tilshunos olimlaridan: Sh.Iskandarova [4], I.To'xtasinov [5], G.Ataxanova [6], A.Morozova [7], F.Musayeva [8] singari olimlar o'zbek tilida gender muammosi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ularning tadqiqotlarida frazeologik birliklar tizimida gender komponentlarining etimologiyasi, erkak va ayollarning gender xususiyatlari doirasidagi gender rollari, shaxsning yoshi bilan bog'liq gender xususiyatlar tahlil qilingan.

Sh.Iskandarovaning "O'zbek nutqi odatini o'rganishning muloqot shakllari" mavzusidagi dissertatsiya ishi, "O'zbek tili leksikasi mazmunli maydon sifatida o'rganish" [9] mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida muloqot shakllarining ayollar va erkaklar orasidagi farqi va ularning leksikonida qo'llaniluvchi so'zlarning farqi haqida so'z boradi.

F.Musayeva "O'zbek tilida biologik jinsni inglizchaga tarjima qilishning leksik-semantik usuli" nomli maqolasida erkak va ayol jinsining ma'nosini tushuntiruvchi leksemalar haqida ma'lumot beradi. S.Kurbanovaning "Tilshunoslikdagi gender tadqiqotlari" nomli maqolasi [10], N.Yuldashovaning "Xorijiy adabiyotlarni o'rganishda gender jihatlari", Sh.Sultonovaning "Badiiy asarlarda ayollar nutqining ta'sirchanligini ifodalash vositalari" nomli maqolalarida gender stereotiplari, badiiy asarlarda ayollar nutqining emotsional farqi va boshqa xususiyatlari tahlil qilindi [11].

Bundan tashqari, N.Bekmuhamedovaning "Tanishuv e'lonlarida uchraydigan inson stereotiplarining gender jihatlari xususida", B.Yo'ldoshev va K.Rajabovalarning "Shaxs tavsifi uchun qo'llaniladigan zoonimlarning gender xususiyatlariga doir, M.Isayevaning "Badiiy dialogik nutqda ko'rib chiqiladigan ba'zi vulgarizmlarning gender xususiyatlari haqida" nomli maqolalarida gender stereotiplari, zoonimlar, vulgarizmlardagi gender farqlar muammosi muhokama qilinadi [12].

Gender lingvistikasiga doir qoraqalpoq tilshunosligida alohida tadqiqotlar hali olib borilmagan. Ammo bu muammoni mujassamlantiruvchi ba'zi maqolalar mavjud. Xususan, Sh.Abdinazimov, Z.Davletmuratova, G.Usenova, L.Seytjanova, D.Kurbanbayeva, F.To'rebayeva, A.Sagindikovalarning gender masalasiga oid maqolalari chop etildi.

Sh.Abdinazimovning "Ayol" leksemasi to'g'risidagi maqolasida "Ayol" so'zining etimologiyasi [13], Z.Davletmuratova ayollar va erkaklar o'rtasida tug'ishganlik atamaları orasidagi farqlarni [14], G.Usenova, L.Seytjanovalarning ilmiy maqolasida "Ona" konseptining lingvokulturologik tahlili [15], D.Kurbanbayevaning maqolasida genderlektlarni grammatik va leksik-semantik ifodalash muammolari [16], F.To'rebayeva gender muammosining tadqiqi, A.Sagindikova esa hikoyalardagi gender farqlarini tahlil qildi [17]. Bu ilmiy izlanishlar ko'p qirrali gender muammosining kichik bir qismidir.

**Xulosa.** Olima G.Ergasheva nomzodlik dissertatsiyasida: "Gender xususiyatlarini o'rganish mamlatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, chunki gender muammosi insonni hurmat qilish, o'zini anglash, inson huquqlarini inkor etmaslik kabi muhim masalalarni anglatadi" [18], deya gender lingvistikasining bugungi kundagi ahamiyatini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, hozirgi kunda yangi bosqichga ko'tarilgan gender tilshunosligining har bir yo'nalishini, toifalarini va turli xil xususiyatlarini tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Bu borada maxsus tadqiqotlar yuritayotgan qozoq tilshunoslaridan biri B.Hasan o'g'li: "Gender omlining ko'rinishi tilning barcha sohalariga ta'sir qiladi" [19:287-b.], degan edi. Uning fikriga qo'shilgan holda, gender stereotiplardagi, gender rollari va konseptlardagi farqlarni, shuningdek, genderlektlarning tilshunoslikning har bir sohasidagi xususiyatlarini alohida tahlil qilish hozirgi turkiy tillar uchun, asosan, bu muammo alohida tadqiq e'tilishi lozim bo'lgan qoraqalpoq tilshunosligi uchun ahamiyatli vazifalardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1) .Кирилина А. Гендер: лингвистические аспекты (монография). Москва, 1999, с. 33.
- (2) .Хасанулы Б. Проблемы развития гендерных исследований в казахском языкознании и вопросы женского языка. Язык и культура: функционирование и взаимодействие: материалы международной конференции. Шымкент, 2003, с. 47–58; Қазақ тіл білімінде гендерлік бағытты қалыптастырудың өзекті мәселелері. Психолінгвистика және әлеуметтік тіл білімі: қазіргі күйі және болашағы. Халықаралық конференция материалдары. Алматы, 2003, 284–288-бб; Жұбановтың гендерлік жіктелімдер жөніндегі пайымдаулары. «Жұбанов тағылымы»: халықаралық ғылыми-практикалық конференция материалдары. Ақтөбе, 2005, 15–24-бб. Гендерлік лингвистика және Мәшһүр Жүсіп Көпейұлы шығармашылығының гендерлік сыны. Сборник мате-

риалов международной научно-практической конференции. Павлодар, ПГУ им. С.Торайгырова, 2005, 264–276-бб.

(3) .Шоқым Г. Гендерлик лингвистика негиздери. «Экономика баспасы», Алматы, 2012.

(4) . Искандарова Ш. Ўзбек нутқи одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанл. канд....дисс. автореф., Самарқанд, 1993.

(5) .Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Ташкент, УзГУМЯ, 2011.

(6) .Атаханова Г.Ш. Номинации «возраст человека» в когнитивно-прагматическом и лингвокультурологическом аспектах (на материале англ. языка). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Ташкент, 2006.

(7) .Морозова А.А. Лингвокогнитивное содержание гендерных стереотипов женственности и мужественности (на материале испанского языка). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Самарқанд, СамГИИЯ, 2011.

(8) .Мусаева Ф. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши. Ўзбек тили фил.фан. фалс.докт. (PhD) дисс.автореф., Тошкент, 2019.

(9) . Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фанл. докт....дисс. автореф., Тошкент, 1999.

(10) .Qurbonova M., Boymirzaeva S. Tilshunoslikda gender tadqiqotlar. O‘zbek tilshunosligi mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko‘zgasida (ilmiy maqolalar to‘plami), 2011.

(11) .Yuldashova N. Гендерные аспекты при изучении зарубежной литературы; Sultonova Sh. «Badiiy asarlarda ayollar nutqining ta’sirchanligini ifodalash vositalari. «Jahon adabiyoti» fanini o‘qitishning dolzarb muammolari». Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2011.

(12) .Bekmuhamedova N. Tanishuv e’lonlarida uchraydigan xulq stereotiplarining gender aspekti xususida; Yo‘ldoshev B., Rajabova K. Shaxs tavsifi uchun qo‘llanuvchi zoonimlarning gender xususiyatlariga doir; Isayeva M. Badiiy dialogik nutqda qo‘llanuvchi ba’zi vulgarizmlarning gender xususiyatlari haqida. «Tilshunoslikning dolzarb masalalari» (ilmiy maqolalar to‘plami, VI kitob), 2013.

(13) .Абдиназимов Ш. «Хаял» сөзи ҳаққинда. Вестник КГУ им. Бердаха, № 4, 2015, с. 104–106.

(14) .Даўлетмуратова З. Ана тәрәпинә байланыслы туўысқанлық атамалар. Вестник КГУ им. Бердаха. № 4, 2016, с. 123–125.

(15) .G.Usenova., L.Seytjanova. The concept “mother/ana” in proverbs of the karakalpak language. “Ilim hám jámiyet”, № 4, 2016.

(16) .Курбанбаева Д. Инглис хэм карақалпақ тилинде gender/жыныс (ер-хаял) түсиниклериниң грамматикалық хэм лексика-семантикалық билдирилиўи. “Ilim hám jámiyet”, № 2, 2019.

(17) .Торбаева Ф. Тил билиминде гендер мәселесиниң үйренилиўи. Вестник КГУ им.Бердаха, №3, 2021, 294–295-бетлер; Сагиндикова А. Карақалпақ тилиндеги нақыл-мақаллардың гендерлик сыпаты. Карақалпақ филологиясының мәселелери. Нөкис, «Илим», 2023.

(18) .Эргашева Г. Турли тизимли тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар. Филол. фанл. докт....дисс. автореф., 2017.

(19) .Хасанулы Б. Қазақ тил билиминде гендерлик бағытты қалыптастырыўдың өзекти мәселелери. Психоллингвистика және әлеўметтик тил билими: қазирги күйи және болашағы. Халықаралық конференция материалдары, Алматы, 2003, 287-бет.

Egamberdiyeva Gulchiroy Esan qizi (NDPI tayanch doktoranti; egamberdiyevagulchiroy330@gmail.com)  
OYDIN HOJIYEVA IJODIDA TUSH MOTIVI

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek adabiyotida tush motivining o'rni, o'rganilish tarixiga atroflicha nazar solinib, shu asosda shoira Oydin Hojiyeva ijodida tush motivining tutgan o'rni, badiiy-estetik vazifalari misollar asosida tahlil qilingan. O'rganishlar jarayonida shoira she'rlarida qo'llanilgan tush motivlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** motiv, tush, folklor, she'riyat, sarob, sujet, tadqiq, ifoda, badiiy-estetik, vazifa, ma'no, tasavvur, tasvir, ramz.

Эгамбердиевой Гульчирой Эсановна (докторант Навоийского государственного педагогического института; egamberdiyevagulchiroy330@gmail.com)

#### МОТИВ МЕЧТЫ В ТВОРЧЕСТВЕ АЙДЫН ХАДЖИЕВОЙ

**Аннотация.** В статье исследуется роль мотива сна в узбекской литературе, история его изучения и на основе этого рассматривается роль мотива сна в творчестве поэтессы Айдын Хаджиевой, его художественно-эстетический характер, анализируются функции на основе примеров. В ходе исследования были выявлены идейно-художественные особенности мотивов сновидения, используемых в стихотворениях поэтессы.

**Ключевые слова:** мотив, мечта, фольклор, поэзия, мираж, предмет, исследование, выражение, художественно-эстетическое, задача, смысл, воображение, образ, символ.

Egamberdieva Gulchiray Esan kizi (Doctoral student of Navoi State Pedagogical Institute; egamberdiyevagulchiroy330@gmail.com)

#### A DREAM MOTIF IN THE WORK OF AYDIN HAJIEVA

**Annotation.** In the article, the role of the dream motive in Uzbek literature, the history of its study is taken into account, and on the basis of this, the role of the dream motive in the work of the poet Aydin Hajieva, its artistic and aesthetic functions are analyzed on the basis of examples. In the course of studies, the ideological and artistic features of the dream motifs used in the poet's poems were revealed.

**Key words:** motive, dream, folklore, poetry, mirage, subject, research, expression, artistic-aesthetic, task, meaning, imagination, image, symbol.

**Kirish.** Tush motivi adabiyotimizda chuqur tarixga ega. Uning ildizlari xalq og'zaki ijodidan boshlanib, mumtoz adabiyot davri, qolaversa, ma'rifatchilik, jadid adabiyoti va bugungi zamonaviy adabiy asarlar tarkibida ham davom etib kelmoqda. Motivga sujetni tashkil etuvchi asosiy unsurlardan biri sifatida qaralganda ayrim asarlarni, xususan, tush motivi ishtirok etgan asarlarni ularsiz tasavvur etish mushkul. Jumladan, epik asarlar qurilishida ularning o'rni muhim. Boisi, epik asarlarda ma'lum bir voqea, sujet tizimi mavjud bo'ladi va ular tarkibidagi motivlar bir butunlikda asar tuzilishida katta rol o'ynaydi. Biroq lirik asarlarda ham an'anaviy motivlar mavjudligi va ularning o'ziga xos yuk tashishini ko'rishimiz mumkin. Biz quyida shoira Oydin Hojiyeva ijodida tush motivining o'rni nechog'li ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr yuritamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Avvalambor, adabiyotda tush motivining o'rganilishi to'g'risida gapirish joiz. Tush istilohi ilmiy jihatdan keng o'rganilgan bo'lib, badiiy ijoddagi o'rni Murtazoyev, X. Safarova, M.Narziqulova kabi boshqa olimlarning tadqiqotlari alohida e'tiborni tortadi. Sh.Istamovanning "Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari" ilmiy dissertatsiyasida esa tushning badiiy asarda bajargan vazifasiga urg'u beriladi. Bu sohada J.Eshonqulning "O'zbek folklorida tush motivi va uning badiiy talqinlari" nomi ostida qilgan ilmiy ishlari eng yirik izlanishlardandir. Shuningdek, A.Umarovanning "Tush motivining zamonaviy hikoyalardagi stilizatsiyasi", O.Avaznazarovning "Lison ut-tayr"da tush motivi" tadqiqotlari bu boradagi izlanishlarning davomi bo'ldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Epik asarlarda tush motivi asar qurilishi va kompozitsiyasida muhim o'rin tutadi. U asar voqealarini olg'a siljituvchi tugun yo kulminatsion nuqta bo'lib kelishi mumkin. Lirik asar tizimli sujet unsurlaridan xoli bo'lsa-da, unda tush motivining o'ziga xos badiiy-estetik vazifasi mavjud. U muallif ichki kechinmalarining tilmochi yoxud she'r lirik qahramoni dunyoqarashi, o'y-xayollari, tasavvurlarini ifodalovchi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, tadqiq manbayiga olingan Oydin Hojiyeva she'rlarida ham tush motivining faolligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sababi etib shoiraning aksariyat she'rlari folklor asarlaridan ilhomlanib, xalqona ohanglarda yozilganligida deb belgilash mumkin. Bunda biz kuzatish va tahlil qilish yo'llarini asos qilib olamiz.



**Tahlil va natijalar.** Biz quyida shoironing go‘zal yoz kechalaridagi tabiat tasviriga bag‘ishlangan she‘rlaridan parcha keltiramiz:

*Majnuntollar shirin uyquda,  
Ertaklarin tush ko‘rar bu choq.  
Chiroqlarning soyasi suvda –  
Yonayotgan sham kabi porloq. [7;39-b.]*

Majnuntollarning shirin uyquda bo‘lib, ertaklarni tush ko‘rishi tasviri bekorga keltirilmaydi. Bu shabaddali, farahbaxsh, sokin va ayni damda nurli, oydin yoz kechalarining ramzi. Bilamizki, ertaklarning barisi ham qahramonlarning murod-maqсадiga yetib, huzur-halovat topishlari – yaxshilik bilan yakun topadi. Shoira ham tinch va go‘zal diyorda, ana shunday huzurli yoz kechalarida, insoniyatning go‘yo majnuntollar kabi shirin ertaklarni tush ko‘rib yotgan bir pallasida shodlik qalami bilan baxt suratini chizayotganidan shukronaga to‘lgan qalb hislarini qog‘ozga tushirmoqda. Kim bilsin, ayni shunday damlarda oshiqlar tushlarida o‘zlarining sevgilisi haqida xayol surmoqdadir. Shoironing boshqa bir she‘rida shunday tasvirga duch kelamiz:

*Bahor kelar, kuz chalar hushtak,  
Qish keladi egni-boshi qor.  
Chala qolgan sehrli tushdek  
Xayolimdan ketmas u dildor. [7;64-b.]*

Biz, odatda, tushlarimiz nihoyasiga yetmasdan ug‘onib qolamiz. Ushbu parcha lirik qahramoni uchun ham yorini ko‘rgan bir oni shirin tushdek o‘tib ketgan. Bunda tush butun bir umrni, bahor, yoz, qish esa umr fasllari hamda unda bo‘ladigan yaxshi-yomon kunlarni ifodalab kelgan. Bahor –yorini ko‘rib sevib qolgan mas‘ud damlarni ifodalasa, qish –yorni yo‘qotgan hijronli daqiqalar ramzi. Inson yomon tushdan cho‘chib uyg‘onganidek, yorini yo‘qotgan oshiq uchun qish uning shirin sehrli tushini chala qoldirgan iztirobli qo‘rqinch kabidir.

Albatta, dunyoni, insonlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi asosiy rishta ular orasidagi mehr-muhabbat tuyg‘usidir. Uningsiz bu hayot rangsiz, ma‘nosiz bir suratga aylanib qoladi.

*Biz bilan bu olam qushga aylanur,  
Bo‘laylik dunyoning ikki qanoti.  
Olamning borligi tushga aylanur,  
Shu aziz tuyg‘uni qo‘ysak yo‘qotib. [7;66-b.]*

Folklor asarlarida, odatda, qahramonlarning kelajak taqdiri ularga tushlar vositasida bashorat qilina-di. Ammo bugun ilm-fan rivoji tushlarning haqiqatdan yiroq ekanligi, ularning inson ongida mavjud tushuncha va tasavvurlarning aralash holda namoyon bo‘lishi deya baholaydi. Shu boisdan insonlar tushni aslida sarob deya, hayot haqiqatidan tashqaridagi hodisa sifatida bilishadi. Yuqoridagi parchada ham shoira mehr-muhabbat tuyg‘ulari bilan inson qush kabi yuksak manzillarga parvoz eta olishi, har narsada qodir bo‘la olishi, aksincha, bu muqaddas tuyg‘uni yo‘qotib qo‘ysak, butun olam, hayot va undagi mazmunning ham uyg‘onganda topolmaydigan tush kabi sarobga aylanishini aytib o‘tadi.

“Ba‘zilar tushni, umuman, tan olmaydi. Ba‘zilar esa hamma narsani tushga bog‘lab qo‘yadi. Islomda esa uning haqiqati o‘rganilib, shariat asosida ish yuritiladi va hukm chiqariladi.

Ulamolar tushni uch turga bo‘ladilar:

1. Allohdan bo‘lgan ilhomiy tushlar. Ularga ushbu suradagi tushlar misol bo‘ladi. Shuningdek, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning ko‘rgan tushlari ham shu turdagi tushlardan hisoblanadi. Ma‘lumki, Payg‘ambarliklarining dastlabki olti oyida ko‘rgan tushlari xuddi tong yog‘usidek aniqlik bilan voqelikda ham takrorlanib turgan. Yana solih insonlarning ko‘rgan tushlari ham ilhomiy tushlar sirasiga kiradi.

2. Bir inson hayotida bo‘lib o‘tgan narsalarni xotirlab, esga olib, so‘ng uxlagandan keyin o‘sha narsalarning tushga kirishi. Bu tushning e‘tibori yo‘q.

3. Shayton ta‘siri ostida ko‘riladigan alg‘ov-dalg‘ov tushlar. Buning ham hech qanday e‘tibori yo‘q. Shunday ekan, har bir ko‘rgan tushni e‘tiborga olib, ta‘birini axtarishga targ‘ib qilish ham yo‘q.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarining birida: “Agar birortangiz o‘zi yaxshi ko‘rgan narsasini tushida ko‘rsa, boshqalarga aytsin. Yomon ko‘radigan narsasini tushida ko‘rsa, chap tomoniga (yelkasiga) uch marta tuflasini hamda boshqa tomonga yonboshlab olsin. Allohdan uning yomonligidan saqlashini so‘rasin. Birovga bu tushni aytmasin. Shunda bu tush unga zarar qilmaydi”, deganlar.

Qur'onda zikr qilinganidek, tushlarni ta'bir qilish joiz. Lekin tushni har qanday inson ta'bir qilaverishi mumkin emas. Ta'bir qilish uchun Qur'oni karim va Sunnati Nabaviyning ta'limini olgan bo'lishi hamda shular asosida ta'bir qilishi shart bo'ladi".<sup>1</sup>

Shoira ham bir she'rida ta'biri yo'q, aniqrog'I, ta'birga ehtiyoji yo'q – ta'biri ahamiyatga ega bo'lma-gan ba'zi tushlarni qalamga oladi:

*Qaytib kelmas qushlarga o'xshab,  
Ta'biri yo'q tushlarga o'xshab,  
Oqibatsiz xeshlarga o'xshab,  
Sen qaylarda eding, shodligim!* [7;68-b.]

Parchada baxt-u shodlik qaytib kelmas qushlar – sadoqatsiz, ta'biri yo'q tushlar – xosiyatsiz, oqibat-siz xeshlar – vafosiz yaqinlar timsoliga o'xshatilmoqda. Shoira shodlikni ta'biri yo'q tushga o'xshatar ekan, hayotining yuqorida ulamolar ajratgan 2-va 3-tur tushlar kabi ma'nosiz damlarida unga muhtoj bo'lgani haqida yozadi.

Boshqa bir she'rida shoira onasini xotirlar ekan, uni tushiga yashirganligini aytadi:

*Sizni yerga berganim yo'q,  
Tushlarimga yashirdim.  
Qor ko'ylakli, qo'lda urchuq –  
Qishlarimga yashirdim.* [7;84-b.]

Insonlar ko'zi ochiq paytda ko'rolmagan kishi yo narsalarini ko'p o'ylayverganidan ularni ko'z yum-ganda, ya'ni uxlaganda tushida ko'rishi mumkin. Shu bois ham shoira eng aziz insoni – onasini o'ngida, ya'ni hayotida yo'qotib qo'ygan bo'lsa-da, uni tushida ko'ra olishi haqida "tushlarimga yashirdim" deb yo-zadi. Tabiiyki, vafot etgan insonni tushdan boshqa joyda hech qanaqasiga ko'rishning imkoni yo'q. Shu jihatdan olib qaralganda tush motivining she'rdagi badiiy-estetik vazifasi beqiyos.

Shoira bir paytlar otxonaga aylantirilgan hazrati Bahouddin ziyoratgohidagi quduqdan suv icha turib yozgan she'rida shunday deydi:

*Oxurlarda otlar kishnar,  
Arpa-kishmish bersalar.  
Evriladi chinga tushlar  
Tillo-kumush bersalar.* [7;135-b.]

She'riy parcha Sobiq Ittifoq davrida qilingan eng tuban ishlardan biri haqida. O'sha paytlar xalqni bir umrga o'ziga tobe qilib saqlab qolish uchun uning o'zligi, g'ururi, milliy va diniy qadriyatlari poymol etilgan. Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband ziyoratgohining otxonaga aylantiril-gani ham ana shunday maqsadni ko'zlagan edi. Mustaqillik sharofati bilan, shoira atganidek, tushlar chinga aylandi-yu, muqaddas qadamjo qayta ziyoratgohga aylantirildi. Xalqning azaliy orzulari, milliy qadriyatlari tiklandi.

Istiqlol yurtimizda har bir insonga o'zi xohlagan dinga e'tiqod qilish imkonini berdi. Shoira bir she'-rida muborak ramazon oyining laylatul qadr kechasi haqida yozadi:

*Yaratganga yig'lab aytdim salovat,  
Oydan, yulduzlardan xushxabar esdi.  
Qadr kechasidan tilab saodat,  
Tushlarimda gulixayrilar o'sdi.* [7;176-b.]

Ramazon oyi, xususan, laylatul qadr kechasida Olloh va payg'ambarga aytgan salovatlari, qilgan duo va tilovatlari Yaratganning dargohida qabul bo'lib, boshi uzra xayr-u saxovat nuri bo'lib yog'ilishi haqida tushlari unga xabar berganligini aytadi. E'tibor bersak, tushlarida o'sgan gulixayri (boshqa gul emas)dagi "xayr" so'zi uning hayotida xayrli va barokatli hodisalarning bo'lishiga ishora qilmoqda. Islom va iymonga, Ollohga ishonch tush motivi orqali ochib berilgan. Shoira ijodida bunday she'rlar talaygina. U iymon to'la qalbi bilan Ollohga tavakkul qilar ekan, hayotining har vaqt yaxshiliklarga to'lib borishiga chin qalbdan ixlos qiladi.

*Nechakim jannatiy tushlar,  
Bashoratlar ko'rarmen goh.  
Siniq bu ko'nglimi xushlar  
Ishoratlar ko'rarmen goh.* [7;190-b.]

---

<sup>1</sup> A.Tojiddinov. Islomda tushga bo'lgan munosabat. O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi, 2018.

Shoira ko'rayotgan jannatiy tushlari uning hayotida xushxabarlarga ishora ekanligini ta'kidlaydi. Demak, shoira ijodida tushda bo'lgan hodisalarga ishonish, ulardan yaxshi bir ta'bir qidirish ruhi ustuvor ekan. Har neni yaxshilikka yo'ygan, tushlaridan-da yaxshilik qidirgan shoira bir she'rida yori uchun shirin tushga aylanishi haqida yozadi:

*Alvido, ketarman qush bo'lib,  
Huvillab qolar uy misli qishki bog'.*  
*Eng shirin, eng yorqin tush bo'lib  
Kechalar yashayman hayotingda men.* [7;199-b.]

Bir vaqtlar onasining hayotdan ko'z yumgani haqida uning tushga aylanganini yozgan shoira endi vaqti soati kelib o'zining ham yaqin insonlari hayotida faqatgina tush bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Tush bo'lganda ham eng shirin, eng yorqin tush. Boisi butun hayotini pok qalb, toza vijdon bilan yashab o'tgan shoira ismiga monand Oydin hayot kechirdi va yaqinlari xotirasida ham ana shunday oydin va yorqin xotiralar qoldirdi. Albatta, butun umrlik halol hayotni birgina "yorqin tush" birikmasi orqali ifodalashda tush motivining o'rni beqiyos.

Mustaqillik yillarida yozilgan "O'zbekistonga faxriya" she'rida istiqloq sharofati bilan xalq ozodlik nashidasini surib, xotirjam va osuda yashay boshlaganini "tinch tushlar ko'rish" bilan ifodalaydi:

*Yuzing qizil bo'ldi saltanat ichra,  
Dovrug'ing shoyon yuz mamlakat ichra.*  
*Sen uyqung buzilmay, tinch tushlar ko'rding,  
Bir o'g'ling bedorxob aziyat ichra.* [7;201-b.]

Shoira "yuzing qizil bo'ldi" jumlasini bilan xalqning yurtboshimizga bildirgan ishonchi oqlangani, ya'ni, yuzi yorug' bo'lgani, endi vatanimiz dovrug'i butun dunyo bo'ylab yoyilishi va ko'plar tinchgina yurtda, ko'ngli xotirjam orom olib, osuda tushlar ko'rayotgan bir paytda bunday sharafli ishlarni bajargan bedorxob tunlari uxlamay aziyat chekkan bir inson ham mamlakat rahbaridir. Bugungacha tunlari tinch tushlar ko'rishimizda o'tgan va hozirgi yurt otalarining xizmatlari hisobsiz.

Shoira ijodida "shirin tushlar" birikmasining yana bir ma'no ifodalashiga duch kelamiz:

*O'n to'rt kunlik oyday farishta paytim,  
Shirin tushlarimni suvlarga aytdim.*  
*Hay bo'z bolaligim, qalandar baytim,  
Quralay ko'zlarda chaqnagan nozim.* [7;223-b.]

Bundagi "shirin tushlar" orzular ma'nosini ifodalagan. Tushini suvga aytmoq iborasi esa o'ylagan orzulariga yetolmaslik ma'nosini bermoqda. Shoira oilada besh qiz bo'lganligini, biroq ikki opasi vafot etganligini yoza turib, opalari qatorida bolalikning beg'ubor, shirin tushlari – orzularidan ham ayrilganidan o'kinadi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adabiyotshunoslik ilmida motivlarning, xususan, tush motivining o'rni beqiyos. "Alpomish" dostonida qahramonlarning kelajak taqdiri tush vositasida ularga yetkaziladi. Shu jihatdan olib qaralganda, dostonni tush motivisiz tasavvur etolmaymiz. Biz yuqorida tahlilga tortgan shoira Oydin Hojiyeva ijodida ham tushning muhim ahamiyat kasb etishini ayrim parchalar misolida kuzatdik. Kuzatishlarimiz natijasida shu ma'lum bo'ldiki, shoira she'rlarida qo'llanilgan tush motivlari uning qalb oynasi sifatida ichki kechinmalari, tuyg'ularini ifodalovchi vositadir. Biror-bir o'rinda shoira tush vositasida qo'rqinch yoki yomon xabarni aytganini kuzatmadik. Shoira qaysidir bir go'zal xotirasini, qalbidan kechgan ezgu niyatlarini, kelajakka bo'lgan sobit ishonchini, Olloh uning taqdiriga yozgan xayrli bashoratlarini birgina tush motivi orqali ifodalaydi. Bunda shoira ham go'zallik va ezgulikka oshufta qalbi, ham so'z qo'llash mahorati, ham tush motivi bajargan badiiy-estetik vazifa yorqin namoyon bo'lgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., Navoiy universiteti, 2018.
- (2). Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. T., "Akademnashr", 2013.
- (3). Jabbor Eshonqul. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. T., "Fan", 2011.
- (4). O'rinboyeva M. Folklorida motiv tushunchasi. International conference on educational innovations and applied sciences. 2022, p. 36–38.
- (5). Umarova A. Tush motivining zamonaviy hikoyalardagi stilizatsiyasi. Multidisciplinary scientific journal. 2023, p. 58–61.
- (6). Solijonov Y., Qo'chqarov O'. Adabiyotda motivning o'rganilish tarixi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023, p. 1017–1023.
- (7). Oydin Hojiyeva. Shom shu'lalari. T., "Sharq", 2010.

**Annotatsiya.** Zahiriddin Muhammad Bobur fiqh ilmi borasida keng ma'lumotga ega bo'lib qolmasdan, balki chuqur tasnif etishga qodir salohiyat egasi bo'lgan. U ko'plab fazilatlar sohibi bo'lishi bilan birga, Xoja Ubaydulloh Ahrorning fors tilida nasrda yozgan "Validiya" asarini she'riy usulda o'zbek tiliga 243 bayt qilib tarjima qilgan. Ushbu maqolada Boburning "Risolayi volidiya" tarjima asari, uning yozilish tarixi, qo'lyozma nusxalari, turkcha tarjimalari, asar yuzasidan dunyo boburshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, Hoja Ahror Valiy, "Validiya", "Risolayi volidiya", "Mubayyin", tarjimashunoslik, fiqh, islomshunoslik, devon, qo'lyozma.

#### ТРУД «РИСОЛАИ ВОЛИДИЯ» И ЕГО ИССЛЕДОВАНИЕ

**Аннотация.** Захириддин Мухаммад Бабур не только обладал широкими познаниями в области юриспруденции, но и обладал способностью систематизировать представленное. Обладая талантом, он перевел на узбекский язык персидский труд Ходжи Убайдуллы Ахрора «Рисолаи валидия» из 243 стихов. В данной статье изучаются переводческое произведение Бабур «Рисолаи валидия», его история, рукописные копии, турецкие переводы, а также научные исследования, проводимые в мировом бабуроведении относительно этого произведения.

**Ключевые слова:** Захириддин Мухаммад Бабур, Хаджа Ахрор Вали, «Валидия», «Рисолаи Валидия», «Мубайин», переводоведение, юриспруденция, исламоведение, диван, рукопись.

#### THE WORK "RISOLAYI VOLIDIYA" AND ITS STUDY

**Annotation.** Zahiriddin Muhammad Babur not only had a wide knowledge of jurisprudence, but also had the ability to make deep classifications. Along with having many virtues, he translated Khoja Ubaidullah Ahror's Persian work "Validiya" into Uzbek in 243 verses. In this article, Babur's translation work "Risolayi volidiya", its history, manuscript copies, Turkish translations, and scientific research conducted in the world Babur studies regarding the work are studied.

**Key words:** Zahiriddin Muhammad Babur, Haja Ahror Vali, "Validiya", "Risalayi Volidiya", "Mubayyin", translation studies, jurisprudence, Islamic studies, divan, manuscript.

**Kirish (Introduction).** Zahiriddin Muhammad Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur so'fiy – Hoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi. Umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, "Boburnoma" asarida Bobur Hoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizliqdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi. Xullas, Bobur bir umr shariatpanoh hukmdor bo'lib yashaganligini o'z asarlari va boshqa tarixiy manbalardan bilish mumkin. Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin fi tavorixi xavoqin» (Sultonlar nasablari va xonqonlar tarixi) nomli tarixiy asari ma'lumotlariga qaraganda, Zahiriddin Muhammad ismini Xoja Ubaydulloh Ahror qo'ygan bo'lib, sharhi quyidagicha keltiriladi: Zahiri dini Muhammad – Muhammad dinining tayanchi posboni, demakdir. Bobur babr (sher) sifat, sherdek degan ma'noga molikdir. Darhaqiqat, u ismi jismiga monand, umri davomida komil musulmon sifatida sunniylikning hanafiylik mazhabiga sodiq bo'lib keldi. Bobur fiqh ilmi borasida keng ma'lumotga ega bo'lib qolmasdan, balki chuqur tasnif etishga qodir salohiyat egasi bo'lgan. «Risolayi volidiya» va «Mubayyin» asarlari orqali farzandlar bilishi lozim bo'lgan imon, namoz, ro'za, zakot haj masalalarini she'riy usulda butun qonuniyatlari bilan bayon etganki, bular barcha zamonlar uchun ahamiyatlidir.

Boburning, ayniqsa, Xoja Ubaydulloh Ahror va ularning farzandu nevaralariga hurmat-e'tibori katta bo'lgan. Xoja nevaralaridan ikki kishi Bobur xizmatida bo'lgan. Ayniqsa, Xoja Kalonning Bobur bilan qadrdonligi bir umrlik xizmati bilan izohlanadi. Bobur Xoja Ubaydulloh Ahrorning fors tilida nasrda yozilgan "Validiya" asarini she'riy usulda o'zbek tiliga jami 243 bayt qilib tarjima qilgan.

Xoja Ubaydulloh "Validiya" asarini otalarining tavsiyalari bilan yozgan:

*Otasi qilgan uchun taklife,*

*Qildi oning otig'a ta'lif.*

Bobur ota sifatida bu asardagi ota tilidan farzandga aytilgan diniy-tasavvufiy o'g'itlarni o'z farzandlariga yetkazish uchun ushbu kitobni nazmda ona tiliga o'g'irgan. Nega nasrda emas? Chunki nazmni xotirada saqlash imkoni kattadir. Qolaversa, nazmning hurmat va e'tibori nasrga nisbatan juda yuqori hisoblangan. Bobur "Risolayi volidiya" asarini tarjima qilishni boshlash va oxiriga yetkazish sababini "Boburnoma"da shunday bayon etadi (matn tabdili): "Juma kuni, o'zining yigirma uchinchisida badanimda isitma zo'hir bo'ldi. Shunday bo'ldiki, juma namozini masjidida qiynalib o'qidim. Ertasiga peshin namozini ehtiyot

yuzasidan kitobxonada biroz muddatdan so'ng o'qidim. Indini, yakshanba kuni yana isitmam chiqdi, ozroq titradim. Seshanba kechasi, safar oyining yigirma yettinchisida hazrat Xoja Ubaydullohning "Volidiya" risolasini nazm qilmoq fikri ko'nglimga keldi. Hazratning ruhiga iltijo qilib, ko'nglimdan kechirdimki: agar bu manzuma hazratga ma'qul bo'lsa, xuddi "Qasidayi Burda"ning qasidasi ma'qul bo'lib, sohibi falaj kasalidan xalos bo'lgani singari, men ham bu xastalikdan forig' bo'lsam, nazmim qabul qilinganiga shu dalil bo'lardi. Ushbu niyat bilan... risolani nazm etishga kirishdim. O'sha kechaning o'zida o'n uch bayt yozdim. Xuddi atayin kelishilgandek, har kuni o'n baytdan kam bitilmas edi. Darvoqe', bir kungina bu ish qilinmadi. O'tgan yili va balki har gal bu xastalikka chalinganimda, aqalli bir oy, qirq kun og'rirdim. Tangri inoyati bilan, hazratning himmatidan, payshanba kuni, oyning yigirma to'qqizinchisida birozgina isitmaladim, keyin mutlaqo tuzalib ketdim. Shanba kuni, rabi ulavval oyining sakkizinchisida risola so'zlarini she'rga solish nihoyasiga yetdi...". Shu tariqa, Bobur buyuk podshoh, dilbar shaxs, sohib devon shoir, «Boburnoma» ijodkori, yirik nazariyotchi olim kabi fazilatlar sohibi bo'lishi bilan birga, yetuk tarjimon ekanligini ham amalda isbotlab beradi. "Volidiya" risolasi inson ixtiyori va faoliyatini Oллоh bilan bog'lash, unigina zikr etish, so'zi ("Qur'on")ni yodlash va aytishni tavsiya etuvchi, insonning hayotiy faoliyati, yeb-ichish, maishatda o'rtachalikka chorlovchi pandnoma, nasihatnomadir. Shuning uchun ham garchand asar she'rga solingan bo'lsa-da, matnda asosiy diqqat shoirona sehrsozlik emas, balki Xoja nasihatlarini kitobxonga aniq yetkazishga qaratiladi.

Oллоh hamdidan:

*Til aning hamdida qosirdur, bil,*

*Bil, aning hamdida qosirdur til.*

Bu risola Xoja Ahrorning volidi – otasi Xoja Mahmud xohishi bilan yozilganligi va muxtasar – ixcham bo'lganligi sababli «Volidiya» (otaga bag'ishlangan) nomi bilan atalgan. Asarda axloq-odob, insonning o'zini tanishi, faqru fano masalalaridan so'z yuritilib, ko'p kishilar uni o'qiganlar. Jumladan, Alisher Navoiyning «Xamsat ul-mutahayyirin»ida yozishicha, u Abdurahmon Jomiy huzurida ko'pgina boshqa kitoblar qatori bu risolani ham o'qiganini ta'kidlaydi: «Yana hazrati Xoja Ubaydullohning otalari ishorati bila bitilgan risolalaridur, ham faqr ham fano tariqidakim, oz o'g'ulga bu davlat muyassar bo'lub erkinkim, ota amri bila bu nav' shoyista xizmat qilmish bo'lg'ay» [3;61-b.]. Shundan so'ng bu risolaga murojaat qilganlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Shoir 1528-yilda bu nasriy asarni o'zbek tiliga o'girib, 243 baytlik manzumaga aylantirdi. Bu risola to'g'risida afg'onistonlik olim Sh.Yorqin shunday yozadi: «Temuriylar va O'rta Osiyo so'fiylarining pir va murshidi Xoja Ahrorning «Volidiya» nomli nasriy risolasini Bobur she'riy tarzda o'zbek tiliga o'girdi. Bu risolaning mavzui inson zohiri va botinini pokiza qilmoqdan iborat bo'lib, Abul Fazl Allomiy uni «ma'rifat dengizining durdonasi», deb biladi» [12;14-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Boburshunoslik sohasida dastlab, «Risolayi volidiya» haqida fikr yuritgan olim F.Ko'pruluzoda hisoblanadi. Olim bu haqda «Risole-i Vâldiye Tercümesi» [8;113–124-b.] nomli maqolasida so'z yuritadi. «Risolayi volidiya»ni ilk bor turkchaga tarjima qilgan turk olimi Y.Bilol asarni oddiy uch ruknli ramal (foilatun – foilatun-foilun)da yozilganligini qayd etadi. Y.Bilol risola haqidagi fikrlarini Istanbul va Rampur qo'lyozma nusxalariga tayangan holda izohlaydi. U bu haqda shunday yozadi: «...243 baytdan iborat ushbu asar u qadar e'tiborga loyiq badiiy qimmatga ega bo'lmasa-da, unda Boburning bor iste'dodi va e'tiqodi namoyon bo'lgan. Xuddi shunday fikrni «Mubayyin» haqida ham aytish mumkin. Har ikkala asar ham Boburshohning fiqhga qiziqqanligi va sobit xanafiy ekanligini ko'rsatadi» [11;18-b.].

"Risoloyi volidiya" asari hozirgi kunda Turkiyaning Istanbul universiteti kutubxonasida 3743 raqami ostida saqlanuvchi "Bobur devoni" tarkibidan joy olgan. Ushbu qo'lyozma asosida Y.Bilol 1995-yilda "Bobur devoni" turkcha nashrini e'lon qilgan. Olim ushbu tarjima kitobida "Bobur devoni"dan so'ng "Risolayi volidiya" asarining tarjimasini beradi. Shu nusxa asosida S.Hasanov 2004-yili asarning faksimilesi va kirill alifbosidagi matnini nashr qiladi. Asarning yana bir qo'lyozmasi Boburnig 1528–1529-yillarda Hindistonda yaratgan lirik she'rlarini jamlab tuzgan devoni "Hind devoni" tarkibidan o'rin olgan bo'lib, u bugungi kunda Rampur kutubxonasida saqlanadi. Mazkur devon tarkibida bir nechta kichik masnaviylar, g'azal, ruboiy, fard janriga mansub asarlar bilan bir qatorda "Volidiya" tarjimasini ham kiritilgan. Adabiyotshunos va adib M.Kenjabekov tomonidan 2004-yilda "Dunyoning murshidi" nomi ostida "Risolayi volidiya" nazmiy tarjimasining qisqacha sharhi chop etilgan. "Risolayi volidiya" asari, shuningdek, M.Kenjabek tomonidan 2022-yilda nashr etilgan Zahiriddin Muhammad Bobur Kulliyoti (2022)ning 1-jildidan ham o'rin olgan. "Kulliyat"da risola zarur izohlar bilan boyitilgan holda, orasida kelgan Qur'on karim oyatlari asl arabiy shakli bilan birga tarjimasini berilgan. Kitobdagi sharh va izohlar kitobxonlarga va mutaxassislarga risola mohiyatini aniq va batafsil anglash uchun xizmat qiladi.

“Risolai volidiya” haqida S.Hasanov, R.Vohidov, H.Qudratillayev, V.Rahmonov, T.Seyhan, R. Askar, I.Adizova singari adabiyotshunos olimlar tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarida ham so’z boradi. Jumladan, S.Hasanovning “Sharq durdonalari” (1991), R.Vohidovning “Biz bilgan va bilmagan Bobur” (1999) nomli risolasida, I.Adizovanning “Bobur tafakurida mavjlangan daryo” (2023) monografiyasida Boburning ushbu asari va shoirning diniy-falsafiy qarashlari mohiyatiga diqqat qaratiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va tavsifiy tahlil tadqiqot metodlari qo’llanilgan. “Risolayi volidiya” asarining o’zbekcha turkcha nashrlari qiyosiy planda o’rganilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** “Risolayi volidiya” asarining S.Hasanov tomonidan amalga oshirilgan o’zbekcha nashri, shuningdek, turk olimlari Y.Bilol (1995) va A.Bilkan (2001) tomonidan e’lon qilingan turkcha nashrlari tahlil etilgan. Bundan tashqari, “Risolayi volidiya” haqidagi tarixiy va ilmiy-nazariy qarashlar «Boburnoma», «Bobur devoni», «Mubayyin» asarlari va boshqa tarixiy va ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. F.Ko’prulu, R.R.Arat, H.Boyir, S.Azimjanova, S.Hasanov, A.Alparslan, R.Askar, R.Kuriyenov, T.Seyhan, A.Bilkan va boshqa boburshunos olimlarning risolaga oid ilmiy tadqiqot ishlari o’rganilgan.

Turk olimi Y.Bilol «Risolayi volidiya» asarining Istanbul va Rampur nusxalarini o’zaro qiyoslagan holda tadqiqot olib borar ekan, har ikki nusxadagi farqlarni tarjimada birma-bir izohini keltiradi. Uning fikricha, ushbu nusxalardagi farqlar ko’proq tovushlar tizimi bilan bog’liq. Masalan, R/4b tutkay, Ü/6a tutgay, yoki bir so’zning turli xilda yozilishi: Ü/10a-tutmaklik, Ü/10a-tutmaglik kabi. Olim risolani o’rganish jarayonida Bobur devonining Istanbul qo’lyozma nusxasining 7/b, ya’ni «Risolayi volidiyya» tarjimasida kelgan quyidagi fardi

*Xatti sunbul qaddi sarv u yuzi gul,*

*Ko’zi maxmur o’zi mast u so’zi mul.*

qo’lyozmaning 92/b sahifasida ham, ya’ni «Devon»da ham takror kelganligini aniqlaydi. Bundan xulosa shuki, yuqorida keltirilgan fard ham risolada, ham devonda uchraydi. Shuningdek, Y.Bilol «Risolai volidiya»ning R qo’lyozmasining 2b, 6a sahifasida kelgan she’rlarning vazni buzilganligini ko’rsatadi [11; 97-b.].

Turk adabiyotida «Risolayi volidiya» asarining tarjima qilinishi va o’rganilishida Fatih universitetining fan va adabiyot fakulteti dotsenti Ali Fuad Bilkanning ham alohida o’rni bor. Olim 2001-yilda «Risolayi volidiya» asarini Y.Bilol nashridan farqli ravishda turkchaga tarjima qiladi [4]. A.F.Bilkan risola borasida ko’pdan beri tadqiqot olib borgan. U «Risolayi volidiya» yuzasidan qator maqolalar e’lon qilgan [3;6-b.]. A.F.Bilkanning risolaga doir tadqiqot ishlarda F.Ko’pruluning ta’siri sezilib turadi. Umuman olganda, turkiy xalqlar adabiyotida ushbu risola haqida olib borilgan tadqiqotning ko’lami kengdir.

Ta’kidlaganimizdek, “Risolayi volidiya” tarjimasida Bobur devonining nusxalari qatoriga kiradi. Istanbul universiteti kutubxonasidagi Holis afandi nusxasining matni Fuad Koprülü tomonidan nashr etilgan. Rampur nusxasidagi matn Denison Ross tomonidan (1910), Parij nusxasi Samoylovich tomonidan nashr etilgan (Akün. 1991:400). Ali Fuat Bilkan (2001)da Denison Ross tomonidan chop etilgan nashrda yetishmayotgan masalalarni to’ldirish uchun Rampur nusxasini ham o’rgangan. Bobur devonining Rampur nusxasidan o’rin olgan “Risolayi volidiya” va boshqa she’rlari Y.Bilol nashrida mavjud. Biroq Rampur nusxasida, shuningdek, Y.Bilol asariga kiritilmagan 6 ta forscha bayt, 1 ta forscha matla’ va bir bayt A.Bilkan (2001) tarjimasidan o’rin olgan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, “Risolayi volidiya” asari xususida izchil tadqiqotlar olib borilyapti. Bugunga qadar asar ikki marta turk tilida tarjima qilingan. Asar haqida qator maqola va monografik asarlar yozilgan. Bu borarda ayniqsa, o’zbek, turk, ozarbayjonlik olimlar tomonidan bajarilgan ishlarning ko’lami kengdir. Ammo asarning o’rganilishi lozim bo’lgan jihatlari anchagina. Risolaning mazmun-mohiyatini chuqur o’zlashtirish, o’ziga xosligi, tarjimon mahorati kabi masalalarni tadqiq etish mumtoz va tasavvuf adabiyotining ko’plab muammolariga yechim topilishiga asos beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- (1). Adizova I. Bobur tafakkurida mavjlangan daryo [matn]. Monografiya, Toshkent, “Bookmany Print”, 2023, 156-bet.
- (2). Akün, Ömer Faruk (1991). “Bâbü’r Sanatkâr ve Fikir Adamı Yönü”. İslâm Ansiklopedisi, c. 4, İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı Yay. 396–400 c.
- (3). Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik, 14-tom, 61-bet.
- (4). Bilkan Ali Fuat. «Babür’ün Risâle-i Vâlidîyye Tercümesi», İstanbul, 2001, s. 17.

- (5). Bilkan Ali Fuat. Hindistan'da Gelişen Türk Edebiyatı, Kültür Bak. Yay, Ankara, 1998.
- (6). Bilkan Ali Fuat. «Babür'ün Risâle-i Vâlidîyye Tercümesi Adlı Eseri», Bilig, sayı, 8, K1ş, s. 105–111, 1999.
- (7). Gazi Zahirüddin Muhammed Babur (1987). Vekayi Babur'un Hâtırâtı. C.II.Çev. R.R.Arat. Ankara, Türk Tarih Kurumu Yay.
- (8). Köprülü Fuad. «Risâle-i Vâlidîyye Tercümesi». Millî Tetebbular Mecmuası, c. I, İstanbul, 1915, s. 113–124.
- (9). Köprülü, Fuat (1979). «Babur». İslâm Ansiklopedisi. C. 2. İstanbul: Millî Eğitim Basımevi. 180–187-c.
- (10). Tosun, Necdet (2012). «Ubeydullah Ahrâr». İslâm Ansiklopedisi. C. 42. İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı Yay, s. 19–20.
- (11). Yücel Bilâl. Babür Dîvânı, Atatürk Kültür Merkezi Yay. Ankara, 1995, 18 c.
- (12). Bobur, Zahiriddin Muhammad. «Boburnoma». Toshkent, 2002.

**Merganovna Aidaxon Bumatova (Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti  
ilmiy tadqiqotchisi, PhD; e-mail: aidabumatova@gmail.com)  
HOFIZ G'AZALLARIDAGI MUHTASIB OBRAZINING UMUMIY XUXUSIYATLARI**

**Annatsiya.** Hofiz Sheroziy g'azallari o'zining nihoyatda go'zal va betakror obrazlar tizimiga ega-  
ligi bilan mashhur. Bu obrazlar Hofiz tomonidan yaratilgan emas, ular musulmon sharqi mumtoz adabiyoti  
uchun azaldan xos bo'lgan. Ammo Hofizning dahosi bilan, xususan, muhtasib, zohid, so'fiy, shayx, muftiy  
kabi obrazlar yangi talqin qabul qildi. Hofiz ularning vositasida jamiyatning vijdoni bo'lgan kishilarning  
illatlarini ochib tashladi. Mazkur tadqiqot Hofizning riyokor din peshvolarining asl yuzini jamiyatga ochiq  
namoyon qilishi masalasiga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Hofiz Sheroziy, mumtoz she'riyat, g'azal, bayt, poetik til, obraz, rind, may, muhtasib,  
zohid, so'fiy, shayx, muftiy, riyokorlik, Amir Muboriziddin.

**ОБЩИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОБРАЗА МУХТАСИБА В ГАЗЕЛЯХ ХАФИЗА**

**Аннотация.** Газели Хафиза Ширази известны своей чрезвычайно красивой и неповторимой  
системой образов. Эти образы не были созданы Хафизом, они издавна характерны для классичес-  
кой литературы мусульманского Востока. Однако благодаря гению Хофиза такие образы, как мух-  
тасиб, аскет, суфий, шейх и муфтий, получили новое толкование. Посредством этих образов Хо-  
физ раскрыл пороки людей, которые считались совестью общества. Данное исследование посвяще-  
но вопросу о том, как Хафиз открыл обществу истинное лицо лицемерных религиозных лидеров.

**Ключевые слова:** Хафиз Ширази, классическая поэзия, газель, бейт, поэтический язык, образ,  
рind, вино, мухтасиб, затворник, суфий, шейх, муфтий, лицемерие, Эмир Мубаризиддин.

**GENERAL CHARACTERISTICS OF THE IMAGE OF MUKHTASIB IN HAFIZ'S GAZELLES**

**Annotation.** The gazelles of Hafiz Shirazi are famous for their exceptionally beautiful and unique  
system of imagery. These images were not created by Hafiz; they had long been characteristic of classical  
literature in the Muslim East. However, thanks to Hafiz's genius, images such as the mukhtasib, ascetic,  
Sufi, sheikh and mufti received new interpretations. Through these images, Hafiz exposed the vices of those  
considered the conscience of society. This study is dedicated to how Hafiz revealed the true face of hypoc-  
ritical religious leaders to society.

**Key words:** Hafiz Shirazi, classical poetry, gazelle, couplet, poetic language, image, rind – liber-  
tine, wine, mukhtasib, ascetic, Sufi, sheikh, mufti, hypocrisy, Amir Mobarazeddin.

**Kirish.** Hofiz Sheroziy o'zi yashagan davrining ijtimoiy muammolari-yu og'riq tishlariga ijodida  
ko'p marotaba murojaat qilgan. Xususan, uning lirikasida butun bir guruh vakillari borki, ular, aslida, jami-  
yatning vijdoni va oynasi bo'lishi lozim esa-da, o'zlarining xulqlari va nafslariga qulliklari bilan shoirning  
nafratiga duchor bo'lgan bir guruhga aylanganlar. Bu guruhga o'zlariga dinni niqob qilib olgan va xalqning  
ishonchiga kirib, ulardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalangan muhtasib, so'fiy, voiz, mulla  
va zohid obrazlari jamlangan. Ular qatnashgan birorta ham g'azalda shoir ularga yaxshi baho bergan emas.  
Shu bilan birga, shoirning g'azaliyotida eng ko'p tanqidga uchragan obraz sifatida muhtasib obrazini ko'r-  
satish mumkin [5]. Shoir devonidan o'rin olgan va muhtasib obrazi ishtirok etgan barcha g'azallar muhta-  
sibni butunlay negativ obraz sifatida talqin qiladi. Aslida, muhtasib faoliyatining markazida savdo-sotiq-  
ning halolligi va bozordagi tosh-tarozining to'g'riligini hamda shariat qonunlariga rioya etilishini nazorat  
qilish kirgan. Tartib-qoidalar buzilgan hollarda, muhtasiblar o'sha joyning o'zidayoq jinoyatchini jazolash  
huquqiga ega bo'lishgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** «Encyclopaedia Iranica» [8] Hofizning hayoti va uning davridagi  
notinch siyosiy va ijtimoiy sharoitlar kontekstini keltiradi, bu ma'lumotlarni o'rganib, shoirning diniy va

siyosiy yetakchilarga nisbatan tanqidiy qarashlarini tushunish mumkin. “Interpreting the Ghazals of Hafez” muallifi Priscilla Souzek Hofiz dini ikkiyuzlamachilikni tanqid qilish uchun qanday qilib kinoya va satiradan foydalanganini o‘rganadi. “The Green Sea of Heaven: Fifty Ghazals from the Diwan-i Hafiz-i Shirazi” [7] Elizabet Grey tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, shoirning diniy dogma va ikkiyuzlamachilikdan nafatlanligini ta’kidlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot Hofiz Sheroziyning g‘azallarida keltirilgan ikkiyuzlamachi diniy ulamolarning obrazlarini qiyosiy va kontestual tahlil yordamida ochib berishga qaratilgan. Masalani chuqurroq ochib berish maqsadida tarixiy tahlil metodi ham qo‘llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Hofiz g‘azallarida qattiq tanqid qilgan muhtasib obrazi Muzaffariylar sulolasi asoschisi Amir Muboriziddin Muhammad prototipidir. Eron yerlarini Shayx Abu Is‘hoq boshqargan davrlarda, Amir Muboriziddin Kirmon va Yazdning hokimi bo‘lgan edi [9]. Amir Abu Is‘hoq tarixga tanti va ko‘ngilxushliklarni, ayniqsa, musiqa va ichkilikni sevgan inson sifatida kirgan. Uning hukmronligi davrida aholi ham nisbatan erkin va ochiq hayot kechirgani ma’lum. O‘z hokimiyatini kengaytirish maqsadida u Amir Muboriziddinning yerlarini bosib olish uchun yurish qiladi. Ammo janglarda sobitqadamlik qila olmagani uchun ko‘p askarlarini yo‘qotadi va o‘z shahriga qaytib, uning ma’lum bir vaqt davomida Amir Muboriziddin tomonidan qamal qilinishiga sabab bo‘ladi.

Sheroz qamalda bo‘lganida, Amir Abu Is‘hoq muammolarni unutish uchun mayxo‘rlik va maishatga berilib, kunlarini o‘tkazadi [6]. Voqealardan xabardor bo‘lgan xalq noroziliklaridan foydalangan hamda Amir Abu Is‘hoqning axloqidan qoniqmagan ba’zi bir diniy ulamolar Amir Muboriziddin bilan til biriktirishib, unga Sheroz darvozalarini ochib berishadi. Yoshligida mayxo‘rlikni butkul ado qilgan va ko‘ngilxushliklarga berilgan Amir Muboriziddin Muhammad umrining bir pallasida qilgan gunohlariga tavba qilib, Islom dini arkonlarini qattiq tutishga kirishgan hukmdor sifatida nom qozonadi. Amir Abu Is‘hoqning butunlay aksi bo‘lgan Amir Muboriziddin o‘zining yangi yerlarini aynan diniy ulamolar vositasida boshqarishni boshlaydi. U Sherozni qo‘lga olgach, shahar aholisining ko‘pchiligi uni xudojo‘y avliyo sifatida qabul qiladi, natijada o‘z hukmronligining avvalida xalq uni qo‘llab-quvvatlaydi [5].

Aslida, Amir Muboriziddin Muhammad tarixga o‘ta qonxo‘r, shavqat bilmas va jaxldor zolim sifatida kirgan. Uning bunday fe‘lidan o‘z oila a‘zolari ham doimo qo‘rquv ostida yashashgan. Amir Muboriziddin musiqa tinglash, ko‘ngilxushlik qilish va may ichishni qat’iyan man etadi. Uning davrida mayxonalar bekilib, mast holda qo‘lga olingan kishilar qattiq jazolangan. Amir Muboriziddin Muhammad shahar aholisining doimiy ravishda masjidlarga borishi va voizlarning jannat va do‘zax haqidagi tinimsiz va‘zlarini tinglashlarini, Qur‘on oyatlarini qiroat qilishlarini qattiq talab qiladi. Tarixchilarning fikricha, aynan shu kabi qattiqqo‘llik ma’lum bir vaqtdan so‘ngra insonlar orasida ikkiyuzlamachilik va riyokorlikning keng tarqalishiga olib keladi. Ya’ni, bir tomondan shohning qahridan qo‘rqqan aholi o‘zini sipo va o‘ta dindor qilib ko‘rsatish maqsadida botinan shariat talablariga qat’iy rioya qilsalar, zohiran bunaqangi hayot ko‘pchilik uchun o‘ta og‘ir va zerikarli bo‘lgani uchun ham yashirincha man qilingan ishlarga beriladilar.

Hofiz uchun o‘zining homiysi bo‘lmish Amir Abu Is‘hoq davri ozodlik va farovonlik davri bo‘lgan. Hofiz Amir Muboriziddin Muhammad va unga ergashib, xalqni ezgan ulamolarni o‘zining baytlarida qattiq qoralagan. Xususan, Hofizning quyidagi baytida riyokorlik qoralangan:

ولى باش خوش و کن رندی و خور می حافظا	Ey Hofiz, may ich, rindlik qil va xursand bo‘lgin, ammo –
را قرآن دگران چون مکن تزویر دام [2;9-b.]	Boshqalar kabi Qur‘on bilan o‘zgalarni aldab, riyokorlik qilma

O‘z kunlarini Qur‘on qiroatida o‘tkazgan Amir Muboriziddin huzuriga u o‘rnatgan qattiq diniy qoidalarini buzganlikda ayblangan jinoyatchi keltirilganda, Amir bir muddat uning kallasini olish uchun to‘xtab, keyin yana qiroatida davom etishga odatlangani manbalarda saqlanib qolgan [3]. Mazkur baytda Amir Muboriziddinning shaxsiga oid aynan shu xususiyatga sha’ma bor deb hisoblanadi.

Hofizning nazaridagi gunohi kabira riyokorlik bo‘lib, boshqa biror-bir gunoh u kabi og‘ir bo‘la olmaydi [8]. Sharob ichish, safo qilib yurish va hayotdan xohlaganini olish kabi amallar Amir Muboriziddin tomonidan o‘ta qattiq jazolangan. Hofizning boshqa bir g‘azali maqta’sida quyidagi bayt keltiriladi:

محتسب و مفتی و حافظ و شیخ که خور می	May ichgin chunki shayx-u, Hofiz-u, mufti-yu, muhtasib
میکنند تزویر همه بنگری نیک چون [2;200-b.]	Agar e’tibor qilib qarasang, ularning bari riyokordirlar.

Yoki:



می خور که صد گناه ز اغیار در حجاب	May ichgin, chunki hijobdagi dushmanning ming gunohidan
کنند ریا و روی به که طاعتی ز بهتر [2;196-b.]	Riyokorlik bilan qilingan taqvo og'irroqdir.

Shu bilan birga, u kabi din peshvolari o'z xulqlari bilan Hofiz nazarida ikkiyuzlamachi bo'lganlar. Hofizning shayx, so'fi va zohid kabi insonlarni rindlarga qarshi qo'ygani ham aynan shundan kelib chiqadi. Hofiz uchun qalbi nihoyatda xunuk bo'lgan bu kishilar, inson qilishi mumkin bo'lgan gunohlarni qilishadi, ammo o'z kirdikorlarini din va Qur'onxonlik ortiga yashirishadi. Hofizning nazarida, ularning tillariyu-amallari, siyratlariyu-suratlari tamoman farq qiladi. Xususan, Hofizning quyidagi baytiga nazar tashlasak:

میکنند منیر و محراب در جلوه کاین واعظان	Mehrob-u minbarlarda ulug'vor turadigan voizlar
میکنند دیگر کار آن میروند خلوت به چون	Xilvatga chiqishlari bilan mutlaqo teskari ishlarni qiladilar.
باز پرس مجلس دانشمند ز دارم مشکلی	Menda bir qiyin savol borki, majlisdagi donishmandlardan yana bir so'ra-chi,
میکنند کمتر توبه چرا فرمایان توبه [2;199-b.]	Tavba qilishga buyuruvchilarning o'zlari nega juda kam tavba qiladilar.

Shoironing uslubi bevosita Qur'on ta'sirida shakllangan [9]. Hofiz she'rlarida irfon, axloq va umumiybashariy mavzular jamlangan. Ularda chuqur taqvonning ikkiyuzlamachilik bilan kurashi aks ettirilgan. Yuzaki qaraganda, yengil-yelpi va noshar'iy munosabatlarni targ'ib qiluvchi ko'ringan baytlarda, aslida, tasavvufiy ishq ifodasining metafora va alluziyalarini ko'rish mumkin. Xalqni jannat sari yetaklash bahonasida ularni dindand bezdirgan ulamolarning yasama dindorligini tanqid qilishu, mayxo'r oshiqning chin muhabbatga yetishishi yo'lidagi sargardonliklari bu kabi g'azallarning asosiy mavzusidir.

میخورد شبیه لقمه چون که بین شهر صوفی	Shaharning so'fisiga qara, shubhali luqmani yeganidan
علف خوش حیوان آن باد دراز پاردمش [2;296-b.]	Pardomi uzunlashibdi u ishtahasi karnay hayvonning.

**Xulosa va takliflar.** Hofizning g'azallaridagi din peshvolari va taqvodorlar sinfiga mansub bo'lgan muhtasib, imom, zohid va va'zxon obrazlari, odatda ularga qarshi qo'yilgan rind, do'st, yor va oshiq obrazlarining orasidagi munosabatlarni tushunishda, shoir yashagan davri realiyalarni tushunish muhimdir. Masalan, shoir tomonidan muttasil tanqid va kulgu ostiga olingan muhtasib obrazini olsak. Muhtasib faoliyatining markazida savdo-sotiqning halolligi va bozordagi tosh-tarozining to'g'riligini nazorat qilish kirgan. Hofiz devonida uchraydigan muhtasib obrazining deyarli barchasi uchun Amir Muboriziddin prototip qilib olingan. Bu kabi diniy ulamolarni tanqid qilganlik uchun hayotlik davrida ham, o'limidan keyin ham ular tomonidan kofirlikda ayblangan shoir, bu kabi kishilarning qilmishlari jamiyat uchun naqadar zararli va qaltis ekanini juda yaxshi tushungan. Fikrimizcha, u o'zining g'azallaridagi isyoni orqali atrofdagilarning bu kabi riyokor kimsalarning domiga tushib qolmaslikka chaqirgan. Hofizning bu mavzudagi g'azallarini tarjima qilishda yoki qilingan tarjimalarni tahlilga tortish jarayonida ham, masalaning bu tomonni yodda tutish lozimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Davis, D. *Faces of Love: Hafez and the Poets of Shiraz*. London, 2013.
- (2). Divān-e Hāfez (qazalhā). E.Habibi, H.Farroukh, Sh.Bakshaie, 2015.
- (3). Limbert J. Shiraz in the Age of Hafiz: The Glory of a Medieval Persian City, by.
- (4). Meisami, J., Structure and Meaning in Medieval Arabic and Persian Poetry. 2003.
- (5). Meisami, J., "Persona and Generic Conventions in Medieval Persian Lyric". 1990, p. 125–151.
- (6). Meisami, Julie Scott. *Medieval Persian Court Poetry*. Princeton, 1987.
- (7). <https://irandoostan.com/articles/hafez-persian-poet-biography-poems-hafezieh;>
- (8). <https://iranicaonline.org/articles/hafez-ii;>
- (9). <https://iranonline.com/articles/hafez;>

To'rayeva Sadoqat Qahramon qizi (Urganch davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek tili ta'lim yo'nalishi talabasi)

#### XURSHID DAVRON LIRIKASIDA VATAN MAVZUSI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taniqli shoir Xurshid Davron she'riyatidagi Vatan mavzusi xususida fikr yuritiladi. Vatan mavzusini yoritishdagi shoir mahorati aniq misollar yordamida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy obraz, Vatan, erk, ozodlik, ona yurt, daholar yurti, bolalikni eslash tasviri, va-tanparvarlik, mehnatsevar xalq, burch.

## ТЕМА РОДИНЫ В ЛИРИКЕ ХУРШИДА ДАВРОНА

**Аннотация.** В данной статье рассматривается тема Родины в лирике известного поэта Хуршида Даврона. Мастерство поэта в освещении темы Родины раскрывается с помощью конкретных примеров.

**Ключевые слова:** художественный образ, Родина, свобода, земля гениев, образ воспоминаний о детстве, патриотизм, трудолюбивый народ, долг.

### KHURSHID DAVRAN'S LYRICAL THEME IS THE MOTHERLAND

**Annotation.** This article discusses the theme of the Motherland in the poetry of the famous poet Khurshid Davran. The poet's skill in covering the theme of the homeland is revealed with the help of specific examples.

**Key words:** artistic image, Motherland, liberty, freedom, land of geniuses, image of remembering childhood, patriotism, hardworking people, duty.

**Kirish.** Vatan mavzusi hamisha yetakchi mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ushbu badiiy asarlar bizda milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini yanada kuchaytirdi. "Jahon talablariga javob berayotgan she'riyatimiz yurtdoshlarimiz qalbida ezgulikka intilish hissini kuchaytirdi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining A.Oripov, E.Vohidov, R.Parfi, Sh.Rahmon, U.Azim, X.Davron, M.Kenjabek, S.Sayid singari namoyondalari ijodi eldoshlarimizni ezgu amallarga, hayotsevarlikka ruhlantirib kelmoqda".<sup>1</sup>

Ana shunday zabardast adabiyot vakillaridan biri nazm, nasr va dramaturgiya sohasida barakali ijod qilib kelayotgan Xurshid Davron hisoblanadi. Uning she'rlarida vatanparvarlik, ozodlik va milliy g'urur tuyg'ulari yetakchilik qiladi. Buning asosiy sababi shoir tug'ilganida hali yurtimiz mustaqillikka erishmagan edi va u ozodlik uchun kurashlar ichida ulg'aydi. Shunday ekan, Xurshid Davron she'riyatida vatanparvarlik g'oyasining ulug'lanishi bejiz emas.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Vatan haqida gap ketar ekan, fikrlar oqimini to'xtatishning iloji yo'q. Xurshid Davron she'riyatida Vatan mavzusi xususida Qozoqboy Yo'ldoshev,<sup>2</sup> No'mon Rahimjonov,<sup>3</sup> Ulug'bek Hamdamlarning<sup>4</sup> ilmiy maqolalarida ba'zi fikrlar bildirilgan. Biroq ularning hech birida Vatan mavzusi to'laqonli yoritilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xurshid Davron she'riyatida Vatan mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Va unda shoir Vatan tarixiga nazar tashlash yo'sinidan ham foydalanadi. Mavzuni o'rganish jarayonida struktural tahlil usuli hamda qiyosiy-tipologik tasniflash kabi metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Vatan! Uni tarannum etmagan, kuylamagan ijodkor topilmasa kerak. Chunki ijodkor uchun o'zi tug'ilib o'sgan maskani – Vatanini kuylashdek sharaflil va zavqli baxt bo'lmaydi. Shoir esa bu baxt, quvonchning qog'ozda yoki kitoblarda bo'lishini xohlamaydi, aksincha, dilida saqlashini aytib o'tadi. Hatto Vatanning qayerda joylashganligi ham ahamiyatsiz u bilan birga nafas olsa, bas.

*Dilingizda bo'lsin quvonchi, g'ami,*

*Kitoblarda emas, qog'ozda emas.*

*Bo'zda yashaysizmi, Buxorodami,*

*Siz bilan barobar u olsin nafas.*<sup>5</sup>

Vatan mavzusida yozilgan asarlarning tub mohiyati bir bo'lsa-da, lekin ularning hech biri bir-biriga o'xshamaydi. Shu o'rinda Xurshid Davron ijodida asosiy o'rinlarda turuvchi Vatan mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo'bo'lganligi bois ulardagi obraz yorqin va ta'sirchan deyishimiz mumkin.

Shoir she'rlarida turli xil obrazlarni keltirish orqali biror manzara chizadi va bizni hayratga soladi. Masalan, ushbu satrlarni o'qib bolaligimiz esimizga tushadi. Yoshligimizda belanchakda onamiz allasini tinglar ekanmiz, musiqiy ohang yordamida Vatan tuyg'usini, unga bo'lgan mehr tuyg'usini qalbimizga joylaydi.

*Bolangizni belab qo'yning tush payti,*

*Tollar belanchakni uchirsin ko'kka.*

*Ammo siz boshida allalar ayting,*

<sup>1</sup> Ulug'ov A. She'r – ko'ngilning so'zdagi aksi. "Sharq yulduzi", 2021, 3-son.

<sup>2</sup> Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006.

<sup>3</sup> Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent, "Fan", 2007.

<sup>4</sup> Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. T., 2012.

<sup>5</sup> Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986, 132-bet

*Vatan tuyg'usini soling yurakka.<sup>1</sup>*

Vatanni onaga qiyoslashadi. Shuning uchun ham "ona-Vatan" deya ulug'lashadi. Vatanga muhabbat - onaga muhabbat kabi muqaddas va oliy tuyg'u. Har kim o'zi tug'ilib o'sgan yurtini sevadi, ardoqlaydi va dunyoda qancha yurt bo'lmasin baribir o'zining Vatani go'zal hamda takrorlanmas deb biladi. O'zga yurtlar qanchalik jannatmisol bo'lmasin, baribir, o'z Vatanimizni sog'inamiz, qo'msaymiz. Dono xalqimiz aytganidek, "O'z uying - o'lan to'shaging". Shoir ham dunyo kezib ko'plab yurtlar ko'rganini, ammo o'zining Vatani kabi yurakka yaqin bo'lganini topolmaganini ta'kidlaydi.

*Dunyo kezib go'zal- go'zal yurtlar ko'rdim,  
Jannatmonand o'lkalarda hayron yurdim,  
Ammo sendek yuragimga aziz bo'lgan  
Biror yurtni topolmadim, ona yurtim!<sup>2</sup>*

Haqiqiy vatanparvar inson o'zi tug'ilib o'sgan joyning har bir qarich yerini, har bir zarrasini bor-yo'g'i bilan sevadi. Har bir zarrasining betakror ekanligini va unga o'xshashi hech qayerda yo'qligini anglab yetadi. Tarixda ham ana shunday yuksak va unutilmas nom qoldirganligiga alohida e'tibor qaratadi shoir.

*Men noningdan shirinroq non topolmadim,  
Men nomingdan azizroq nom topolmadim,  
Shoningdan ham yuksakroq shon topolmadim,  
Tarixlarda nomi yuksak, ona yurtim!<sup>3</sup>*

Vatan ona kabi mehribon va bag'rikeng, shuningdek, bizning Vatanimiz O'zbekiston ham. Yurtimiz o'z beshigida ko'plab alloma-yu daholarni, hatto dunyolarni ham allalagan. Bundan tashqari, har bir qalbi kemptik bolani bag'rida asrab-avaylab, o'z farzandidek katta qilgan. Shuning uchun ham shoir yurtimizni jonlar ichidagi jon deb ataydi.

*Beshigingda allalading dunyolarni,  
Dunyo ochgan necha-necha daholarni,  
Bolam deding yuraklari adolarni,  
Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.<sup>4</sup>*

"Vatan" so'zi har bir yurakda jo'sh urib turadi. Yurakdagi turli-tuman tuyg'ularni Vatan deb atab, o'xshatishlar qiladi. Shoir lirikasida hech kimda uchramaydigan va g'ayritabiiy tashbehlarni, qiyoslashlarni ko'rishimiz mumkin. Vatan xuddi qalbimizni o'z tafti bilan isituvchi, dunyoda yagona bo'lgan quyosh kabidir. Bundan tashqari shoir Vatanni inson kabi nafas olishini ham ta'kidlab o'tadi.

*Vatan - yurakdagi quvonch, qayg'u, shasht,  
Uni tirik saqlar yurakdagi sas.  
Vatan bamisoli quyoshga o'xshash,  
Vatan ham odamdek oladi nafas.<sup>5</sup>*

Qalbimiz tub-tubida hamisha Vatan yotadi. Uni entikib-entikib tilga olamiz. Vatanni quyoshga qiyoslar ekanmiz, u tirik bo'lsagina biz ham hayot bo'lamiz. Vatan so'zini qanchalar ko'p tilga olmaylik, hamisha u yuragimiz qa'rida yashovchi yagona va muqaddas so'z bo'lib qolaveradi.

*Bu quyosh bor ekan tirikdirman men,  
Bu ko'ngil entikib yana Vatan der.  
Qalbimning eng chuqur yerida yotgan  
Eng qutlug', yagona so'zim Vatandir.<sup>6</sup>*

Hammamiz bilamizki, o'zbek xalqi mehnatsevar xalq. Tinim bilmasdan mehnat qilib, yurtni bog'u bo'stonga aylantiradi. Yurtga kelayotgan turli xil ofat va balolarga ham har bir fuqarosi o'z ko'ksini qalqon kabi tutadi va himoya qiladi. Shuning uchun ham ular o'ziga bek, o'ziga sulton xalqdir.

*Qo'li qadoq dehqon elim, sulton elim,  
Ko'ksi yurtga doim balogardon elim,*

<sup>1</sup> Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986, 132-bet

<sup>2</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/mustaqillik-bayrami-muborak-bolsin-2.html>

<sup>3</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/mustaqillik-bayrami-muborak-bolsin-2.html>

<sup>4</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/mustaqillik-bayrami-muborak-bolsin-2.html>

<sup>5</sup> Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986, 132-bet.

<sup>6</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/mustaqillik-bayrami-muborak-bolsin-2.html>

*O'z yurtiga sohibqiron, xoqon elim,  
Jonim ichra jonimdursan, O'zbekiston.<sup>1</sup>*

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni ayta olamanki, har bir insonning Vatani o'ziga qadrlidir. Shoir uchun uning har bir hovuch tuprog'i ko'ziga to'rtiyodir. Xurshid Davron she'rlarini o'qir ekanmiz, Vatanni his qilish va uni qadrlash kabi tuyg'ular qalbimizda jo'sh uradi. "Vatanni sevmoq iymondandir" deganlaridek, shoir ham Vatanga bo'lgan mehrini, muhabbatini va sevgisini she'rlarining har bir misrasiga jo qildi. Bu aziz va muqaddas Vatan siz-u bizlarga kecha yoki bugun bunyod etilmagan. Bu muqaddas Vatan buyuk ajdodlardan avlodlarga merosdir. Shuning uchun Vatan taraqqiyoti yo'lida ozmi, ko'pmi qo'ldan kelgancha o'z hissamizni qo'shish barchamizning burchimizdir. Xurshid Davron she'rlaridagi har bir misra, har bir so'z bu burchni eslatib turadi desak, adashmagan bo'lamiz.

Shoir ijodidagi Vatan timsoli takrorlanmas va go'zal bo'lganligi bois har bir kitobxon yoshning qalbidan joy olgan. Adabiyotimizda ana shunday Vatanni ulug'lovchi she'rlar bor ekan, yosh avlod faxr va g'urur, Vatan hissi bilan kamol topadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Ulug'ov A. She'r – ko'ngilning so'zdagi aksi. "Sharq yulduzi", 2021, 3-son.
- (2). Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
- (3). <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/mustaqillik-bayrami-muborak-bolsin-2.html>
- (4). Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Toshkent, "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2006.
- (5) Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent, "Fan", 2007.
- (6). Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. T., 2012.

**Tokimbetova Gulbaxor Abatbayevna (Qoraqalpoq davlat universiteti "Qoraqalpoq adabiyoti" kafedrasida dotsenti (PhD); [gulbaxartokimbetova@gmail.com](mailto:gulbaxartokimbetova@gmail.com))**

#### **XIX ASR QORAQALPOQ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MUMTOZ JANRLAR POETIKASI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr qoraqalpoq poeziyasi xalq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixidan ayri holda o'rganilgan. Mazkur ilmiy izlanishlarda XIX asr qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyot bosqichlari, shoirlarning ijodiy individualligi va badiiy mahorati kabi masalalar ilmiy asoslanadi. XIX asr qoraqalpoq she'riyati va ularda qo'llanilgan tasviriy ifodalar, badiiy san'atlar, til va uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, qoraqalpoq yozma adabiyoti taraqqiyotida Sharq adabiyoti ta'siri masalasi alohida e'tiborga olinadi. Xulosa qilib aytganimizda, XIX asr qoraqalpoq lirikasining badiiy-estetik ahamiyati hozirgi adabiyotshunoslik ilmining mavjud yutuqlari asosida Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh shoir ijodi misolida tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** badiiy mahorat, til, uslub, ijodiy idividuallik, to'lg'ov, doston, lirik qahramon, lirik xarakter, lirik syujet, lirik konflikt, hissiy ta'sirchanlik.

**Токимбетова Гулбахор Абатбаевна (Каракалпакский государственный университет, доцент кафедры каракалпакской литературы (PhD); [gulbaxartokimbetova@gmail.com](mailto:gulbaxartokimbetova@gmail.com))**

#### **ПОЭТИКА КЛАССИЧЕСКИХ ЖАНРОВ В КАРАКАЛПАКСКОМ ЛИТЕРАТУРЕ XIX ВЕКА**

**Аннотация.** В данной статье исследуется каракалпакская поэзия XIX века отдельно от социально-экономической, политической и культурной истории народа. В этих научных исследованиях были научно обоснованы такие вопросы, как этапы развития каракалпакской литературы XIX века, творческая индивидуальность поэтов, художественное мастерство. Изучается каракалпакская поэзия XIX века и использованные в ней средства изобразительной выразительности, языковые и стилистические особенности. Также особое внимание уделяется влиянию восточной литературы на развитие каракалпакской письменной литературы. В заключение на основе современных достижений литературоведения описывается художественно-эстетическое значение каракалпакской лирики XIX века на примере творчества поэтов Кунходжи, Ажинияза, Бердаха, Утеша.

**Ключевые слова:** художественное мастерство, язык, стиль, творческая индивидуальность, сюжет, эпос, лирический герой, лирический персонаж, лирический сюжет, лирический конфликт, эмоциональное воздействие.

<sup>1</sup> <https://kh-davron.uz/ijod/sherlar/mustaqillik-bayrami-muborak-bolsin-2.html>

**Takimbetova Gulbakhar Abatbaevna (PhD, docent of the Department Karakalpak literature,  
KSU named after Berdak: gulbaxartokimbetova@gmail.com)**

## **POETICS OF CLASSICAL GENRES 19<sup>th</sup> CENTURY KARAKALPAK LITERATURE**

**Annotation.** *In this article, the Karakalpak poetry of the 19<sup>th</sup> century is studied without regard to the socio-economic, political and cultural history of the people. In these scientific researches, such issues as the stages of development of Karakalpak literature of the 19<sup>th</sup> century, creative individuality and artistic skills of poets are scientifically grounded. Karakalpak poetry of the 19<sup>th</sup> century and the visual expressions used in them, artistic arts, language and stylistic features are studied. Also, special attention is paid to the influence of Eastern literature on the development of Karakalpak written literature. In conclusion, the artistic and aesthetic significance of the Karakalpak lyrics of the 19<sup>th</sup> century was researched on the basis of today's achievements of literary studies on the example of the poets Kunkhoda, Ajiniyaz, Berdakh, Utesh.*

**Key words:** *artistic skill, language, style, creative individuality, plot, epic, lyrical hero, lyrical character, lyrical plot, lyrical conflict, emotional impact.*

**Kirish (Introduction).** XIX asr qoraqalpoq adabiyoti xalq ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy hayoti tasvirida folklor san'ati o'rniga rang-barang janrlardagi yozma adabiyot shakllandi. Bu esa, o'z navbatida, hayotni ijtimoiy munosabatlar bilangina emas, balki qalb tug'yoni bilan tasvirlash imkoniyati vujudga keldi. Bu borada, albatta, lirik janrlar har taraflama rivoj topdi. Qoraqalpoq og'zaki ijodining qator janrlari: doston, to'lg'ov, shuningdek, an'ana va dasturlarda inson istaklarini ifodalavchi she'rlar, qayg'u va istirob kabi tuyg'ular xalq dardi sifatida talqin qilindi. XIX asrga kelib, badiiy ijoddagi bu xususiyatlar xalq merosiga aylangan holda mazkur davrda ijod qilgan shoirlar poeziyasida individual lirik subyekt yordamida beriladi. Qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotini tasvirlagan mumtoz ijodkorlar Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh asarlarida falsafiy g'oyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Mumtoz shoirimiz Berdaq o'z asarlarida xalq ahvolini anglagan holda mavjud jamiyatni oqillik bilan boshqarilsa, uning turmushi farovonlashishi xususida ko'p yozgan. Shoir poeziyasini kuzatar ekanmiz, unda mehnatkash xalq manfaati yetakchi mavzuni tashkil etgan. U o'zi tanlagan yo'ldan hech qaytgani holda, doimo xalq taqdiri, adolat, erk ilinjida yashadi. XIX asr qoraqalpoq poeziyasini xalqijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixidan ayri holda o'rganish mumkin emas. Chunki yuqorida qayd etganimizdek, bu davr poeziyasi, asosan, jamiyat siyosiy jarayonlari tasviriga bag'ishlangan. Davr lirikasida iztirob va zamonadan nolish yetakchi mavzu bo'lgan. Shuningdek, XIX asr qoraqalpoq adabiyoti tarixida ayni davr muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq va O'tesh kabi adabiyot namoyandalari katta maydonga chiqdilar. Ular yaratgan adabiy meros yozma adabiyotning eng yaxshi namunalari sifatida e'tirof etildi. Mazkur shoirlar ijodi buyicha tekstologik va tarixiy-filologik tadqiqotlar olib borilgan holda munosib baho berildi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Bu xususida adabiyotshunos olim, professor Q.Jarimbetov "Ijodiy individuallikka xos lirik xususiyatlar (individual lirik qahramon, lirik xarakter, lirik syujet, lirik konflikt, hissiy ta'sirchanlik va h.k.) XIX asar qoraqalpoq mumtoz lirikasida butun murakkabligi bilan namoyon bo'ldi" [1;26-b.], deya ta'kidlaydi. Shuningdek, olimning o'z xulosalarida XIX asrda lirik janrlar yuzasidan hozirgacha aniq xulosalar yuqligi, bu davrda lirik janrlarining vujudga kelishi va taraqqiyotiga yetarli ahamiyat berilmaganini e'tirof etadi. Xususan, professor Q.Jarimbetov tadqiqotida XIX asr qoraqalpoq lirikasi janriy xususiyatlari va tasniflanib, shakl va mazmun jihatdan guruhlariga ajratib o'rganilishi tadqiqot obyekti bo'ldi.

Qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotini tasvirlagan mumtoz ijodkorlar Ko'nxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh asarlarida falsafiy g'oyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. XIX asr shoirlari ijodini kuzatganimizda, ular bir qadar demokratik g'oyalarga yo'g'rilganligini ko'ramiz. Ijodkorlar o'tkir qalamlari bilan xalq ijtimoiy hayoti, shu davr voqeligini adabiyotda aks ettirdi. Berdaq shoir ijodini tarixiy aspektida tadqiq qilgan olim M.Tileumuratov: "Berdaq merosi, yozma va boshqa materiallar asosida puxta taqqoslab ko'rish tarixshunos olimlarga avval bo'lmagan XVII–XVIII asr voqealarining sirini bir qancha oydinlashtiradi" [2;180-b.], deb yozadi. Olimning bu fikrlari XIX asr adabiyoti tarixini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Berdaqning har bir she'ri qoraqalpoq xalqining siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy turmushi bilan aloqada bo'lgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'zbek va qoraqalpoq mumtoz adabiyotini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ilmiy tizimga solindi va mumtoz poetika masalalari ilk marta qiyosiy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va ayrim manbalarni o'rganishda tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** XIX asr qoraqalpoq shoirlari aksariyat she'rlarida tarixiy qiyin davrlar o'zining badiiy in'ikosini topadi. Bu borada Berdaq qalamiga mansub quyidagi satrlar alohida ahamiyat kasb etadi:

*Birazlar ash, birazlar toq,  
Toq adamtning qayg'isi joq,  
Ash adamtning uyqisi joq,  
Ani toqlar bilgen yemes.*

“Bolg'an yemes”

*Adamg'a miyrimisiz jálladlar, jawlar,  
Xalqti jilatqan ataliq, xanlar,  
Basqa awir qayg'i salg'an zalımlar,  
Kózlerime julan-shayan kórindi” [3;19-45-b.]. “Kórindi”*

Bu she'rlarda xalqning og'ir hayoti, davrning adolatsizligi, zulm va zo'ravonlik masalalari tasvirlanadi. Ko'rinadiki, mumtoz shoirlarning bunday she'rlariga she'rlariga ijtimoiy-tarixiy pozitsiyada munosabatda bo'lish lozim bo'ladi. XIX asr adabiyot namoyandalariga xos sifatlar xalq iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini tasvirlagan holda davrga xos murakkab vaziyatlar real ifoda qilinadi. Bu xususida N.Davqarayev, I. Sag'itov, M.Nurmuhammedov, N.Japaqov, A.Karimov, B.Ismailov, H.Hamidov, A.Paxratdinov, A.Murtazayev, K.Mambetov, A.Pirnazarov, Q.Bayniyazov, B.Qalimbetov, B.Qurbanbayev, K.Qurambayev, Q.Jarimbetov, I.Uteuliyev, B.Genjemuratov, S.Matekeyev, Q.Turdibayev singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Mazkur ilmiy izlanishlarda XIX asr qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyot bosqichlari, shoirlarning ijodiy individualligi va badiiy mahorati kabi masalar ilmiy asoslanadi. Xususan, professor Q.Jarimbetov tadqiqotida XIX asr qoraqalpoq lirikasi janriy xususiyatlari va tasniflanib, shakl va mazmun jihatdan guruhlarga ajratib o'rganiladi. Shu davr ijodkorlari lirikasida, asosan, zamondan nolish mavzusiga bee'tibor bo'lmaganligi qator misollar asosida tahlil qilinadi.

Rus adabiyotshunos olimi V.G.Belinskiy ta'kidlaganidek, “Adabiyot olamining ilk namunalari va faoliyatchilari hech qachon unutilmaydi. Ular dong'i, iste'dod darajasi, adabiyotga qo'shgan hissasi ko'ra tarixdan beg'araz joy oladi [4;39-b.]. Shu ma'noda, qoraqalpoq adabiyotshunosligining dastlabki boslovchisi Najim Davqarayevdir. Olim milliy adabiyotshunoslik tarixini yaratish, madaniyatimiz meroslarni to'plash, muayyan tizimga solish borasida kattailmiy ishlarni amalga oshirdi. Zero, N.Davqarayev xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma adabiyotshunosligimiz tarixini yaratgan yirik olimdir. Uning ilk yirik tadqiqoti 1946-yilda e'lon qilingan “XIX asrda qoraqalpoq adabiyoti” tadqiqotidir. Mazkur ishda olim xalq ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tarixiy voqelik, XIX asr adabiyot taraqqiyot tamoyillarini Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq va O'tesh shoirlar ijodi misolida keng yoritib bergan. Keyinchalik, bu kitobning qayta ishlangan va to'ldirilgan III jildlik nashri “Qoraqalpoq adabiyoti tarixidan ocherklar” nomi bilan e'lon qilindi.

Ta'kidlash lozimki, N.Davqarayevning mazkur tadqiqotigacha XIX asr qoraqalpoq shoirlari ijodiy merosi to'liq jamlanib, nashr etilmagan edi. Uch jilddan iborat kitob “Revolutsiyagacha bo'lgan davr qoraqalpoq adabiyoti” va “Qoraqalpoq sovet adabiyoti” bo'limlaridan tarkib topdi. Taniqli adabiyotshunos, tanqidchi S.Axmetov to'g'ri ta'kidlaganidek, “Najim Davqarayevning ko'p sonli tadqiqotlari revolutsiyagacha bo'lgan davr qoraqalpoq adabiyoti tarixini qamrab oladi. Bularni ixcham shakldagi qoraqalpoq adabiyoti tarixi kursi deyish mumkin. Xarakterli jihati shuki, N.Davqarayev adabiy jarayonni o'rganir ekan, muayyan asar ijodkori yoki u yashab ijod etgan ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy vaziyatni keng tahlil qiladi. Shunday qilib, ularda har bir asar ijtimoiy-tarixiy muhitning badiiy ifodasi ekanligi aniq namoyon bo'ladi” [5; 127-b.].

“Bu davrda Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qabulda bosmadin chiqqan kitoblar qoraqalpoq xalqida ham keng tarqala boshladi. Bulardan, “Yusuf va Zulayho”, “Oshiq G'arib”, “Zaykal Arab”, “Oshiq Hamro”, “Hurliqo”, “Sayotxon-Hamro” kabi Sharq xalqlari ishqi dostonlari bilan bir qatorda, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Hofiz, Maxtumquli singari mumtoz adabiyot namoyandalari asarlari qoraqalpoq xalqi hayotiga kirib keldi. N.Davqarayevning “Mavjud tarixiy vaziyat XIX asr birinchi yarmi qoraqalpoq adabiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Til, badiiy shakl, uslub tomonlama adabiyotda iz qoldirdi” [6;32-b.], degan fikrlari qoraqalpoq adabiyotshunosligining kelajakdagi vazifalarini belgilab berdi. Haqiqatan ham, yuqorida atab o'tilgan shoirlar va ular asarlarining XIX asr qoraqalpoq shoirlari ijodiga ta'siri kuchli bo'ldi. Bu masala haqida taniqli sharqshunos olim, akademik H.Hamidov [7;8-b.] tadqiqotlari muhim manba vazifasini bajaradi. N. Davqarayev tadqiqotlarida esa qoraqalpoq mumtoz adabiyoti taraqqiyoti, yozma adabiyot manbalari va ularning ilmiy-nazariy tahliliga bag'ishlanadi. XIX asr qoraqalpoq she'riyati va ularda qo'llanilgan tasviriy ifo-

dalar, badiiy san'atlar, til va uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, qoraqalpoq yozma adabiyoti taraqqiyotida Sharq adabiyoti ta'siri masalasi alohi e'tiborga olinadi.

N.Davqarayev izlanishlarida Berdaq ijodi shoir yashagan davr tarixiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayoti bilan aloqadorlikda o'rganilgan. "Berdaq poeziyasining asosiy motivi – qoraqalpoq xalqi ijtimoiy hayotini tasvirlash, mashaqqatli turmushini aks ettirish", deb belgilaydi. Shuningdek, bunday ruhdagi asarlar sirasiga "Bo'lgan emas", "Bu yil", "Ko'rindi", "Teskari qaytgan", "Soliq", "Zamonda", "Yaxshiroq", "Menga kerak", "Xalq uchun", "Yoz kelarmu?", "Ho'kizim", "Chig'irim", "Olti qiz", "Qush", "Hojam", "To'yda" she'rlarini kiritadi. Shoirning "Kelin", "O'ylanma" she'rlari hamda "Ahmoq podsho" poemasini xotin-qizlar ozodligi, jamiyatdagi o'rni tasviriga bag'ishlangan asarlar sifatida baholaydi. Bu borada "Berdaq xotin-qizlar ozodligi, ularning erkaklar bilan teng huquqli ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa, o'z navbatida, shoirning yuksak insonparvar shoir ekanligini ko'rsatadi" [8;129-b.], degan xulosaga keladi. Haqiqatdan ham, yuqorida atab o'tilgan shoirlar va ular asarlarining XIX asr qoraqalpoq shoirlari ijodiga ta'siri kuchli bo'ldi. Bu masala haqida taniqli sharqshunos olim, akademik H.Hamidov tadqiqotlari muhim manba vazifasini bajaradi. N.Davqarayev tadqiqotlarida esa qoraqalpoq mumtoz adabiyoti taraqqiyoti, yozma adabiy manbalari va ularning ilmiy-nazariy tahliliga bag'ishlanadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** XIX asr qoraqalpoq she'riyati va ularda qo'lanilgan tasviriy ifodalar, badiiy san'atlar, til va uslubiy xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, qoraqalpoq yozma adabiyoti taraqqiyotida Sharq adabiyoti ta'siri masalasi alohi e'tiborga olinadi. Huloqa qilib aytganimizda, XIX asr qoraqalpoq lirikasining badiiy-estetik ahamiyati hozirgi adabiyotshunoslik ilmining mavjud yutuqlari asosida Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh shoir ijodi misolida tadqiq qilingan. Shuningdek, XIX asr qoraqalpoq lirikasi xalq og'zaki ijodi hamda XIV–XVIII asrlar qoraqalpoq jirov-shoirlari faoliyati va ijodiy merosi bilan aloqadorlikda munosabat bildirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- (1). Jarimbetov Q. XIX asr qoraqalpoq lirikasini janrlig qasbiyatlari ham rawajlanish tarixi. Nókis, "Bilim", 2004, 26-bet.
- (2). Kollektiv. Berdaq haqqida so'z. Adabiy kritikaliq maqalalar. Nókis, "Qaraqalpaqstan", 1987, 180-bet.
- (3). Berdaq. Saylandi shig'armalari. Nókis, "Qaraqalpaqstan", 1997, 19–45-betler.
- (4). Белинский В.Г. Собрание сочинений в 3-х томах, том II, Москва, 1948, с. 39.
- (5). Axmetov S. Qaraqalpaq adabiy sinfi, Nókis, "Qaraqalpaqstan", 1993, 127-bet.
- (6). Davqarayev N. Shig'armalarini toliq jynag'i, 3 tom, Nókis, "Qaraqalpaqstan", 1979, 32-bet.
- (7). Hamidiy H. Shig'is tillerindegi jazba derekler ham XIX asr qaraqalpaq shayirlari. Nókis, "Qaraqalpaqstan", 1991, 8-bet.

Atayeva Maloxat Isakovna (Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi)

**SAMARALI BOSHQARUV QARORINI QABUL QILISHDA TA‘LIM LOGISTIKASIGA BO‘LGAN EHTIYOJ**

**Аннотация.** *Maqolada axborotlarni boshqarish va ulardan ehtiyoj doirasida foydalanish orqali ta‘lim logistikasini har qanday tashkilotlarning boshqaruv funksiyalariga ta‘sir qila olishi, ya‘ni, ta‘lim tashkilotini rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat, shuningdek, “bilim” oqimini, kadrlar oqimini, moliyaviy va axborot oqimini samarali boshqarish ta‘lim tashkiloti rahbarining asosiy vazifasiga aylanishi kerakligi va boshqaruv qarorini qabul qilish uchun ham ta‘lim logistikasiga ehtiyoj sezilayotganligi kabi muammolar o‘rganilgan.*

**Калит so‘zlar:** *fan va texnologiya, optimallashtirish tamoyillari, tashkilotlarning boshqaruv funksiyalari, ta‘lim tashkilotini rejalashtirish, axborot oqimi, ta‘limni iqtisodiy tizimlarga yaqinlashtirish.*

Атаева Малахат Исаковна (преподаватель кафедры методики начального образования Ургенчского государственного университета)

**НЕОБХОДИМОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ЛОГИСТИКИ В ПРИНЯТИИ ЭФФЕКТИВНЫХ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ**

**Аннотация.** *В статье рассматривается возможность образовательной логистики влиять на функции управления любой организации, т.е. планирование, организацию, мотивацию и контроль образовательной организации, а также поток «знаний», кадровый поток, такие вопросы, как эффективное управление финансовыми и информационными потоками, которые должны стать основной задачей руководителя образовательной организации, изучена необходимость образовательной логистики для принятия управленческих решений.*

**Ключевые слова:** *наука и техника, методы оптимизации, управленческие функции организации, планирование в образовательной организации, получение информации, сближение образования с экономическими системами.*

Atayeva Malakhat Isakovna (Teacher of the Department of Primary Education Methodology of Urgench State University)

**THE NEED FOR EDUCATIONAL LOGISTICS IN EFFECTIVE MANAGEMENT DECISION-MAKING**

**Annotation.** *In the article, the ability of educational logistics to influence the management functions of any organizations, i.e. planning, organization, motivation and control of the educational organization, as well as the flow of “knowledge”, personnel flow, issues such as the fact that the effective management of financial and information flow should become the main task of the head of the educational organization, and the need for educational logistics to make management decisions have been studied.*

**Key words:** *science and technology, optimization principles, management functions of organizations, educational organization planning, information flow, bringing education closer to economic systems.*

**Kirish (Introduction).** Pedagogik logistika, pedagogik innovatsiyalar logistikasi sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan bir qancha mutaxassislarining aytishicha, bilimlar tezlik bilan yangilanib, eski bilimlarga ehtiyoj sezilmaydi, bu, albatta, mutaxassislarni tez-tez o‘qitib, o‘rganib, izlanishlar olib borib, bilimlarini oshirishni talab qilmoqda. Natijada yangi ixtirolar vujudga keladi va ijtimoiy hayotagi har qanday og‘irliklar orta qoladi. Demak, axborot oqimlari ham tezlashadi va ularni ma‘lum ma‘noda boshqarishga ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Bunday paytda barcha sohalarda, pedagogika, ayniqsa, pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish sohasida ham aynan logistikaga ehtiyoj sezilmoqda.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha pedagogik innovatsiyalar logistikasi asosida o‘qituvchilar tajriba almashinuv amaliyotini takomillashtirish orqali ta‘lim xizmatlari muammolari, ta‘limda innovatsiyalarni qo‘llash, ta‘limni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda marketing tizimidan foydalanish, ta‘limda biznes jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash, yuksaltirish kabilar bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun ham muhimdir.

Logistika keng qamrovli tushuncha. U iqtisodiy tizimlarda moddiy, pul oqimlarini boshqarish, shuningdek, hamroh bo‘lgan axborot oqimlarini boshqarish va ularni optimallashtirish fani sifatida belgilanadi. Logistika tushunchasi doirasida ta‘lim sohasida ham anchagina sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Lo-



gistika ta'lim tizimida aynan kadrlar bilimni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Ta'lim tizimi logistikasida to'plangan bilim aniq mahsulot hisoblanadi.

Ayni vaqtda ta'lim logistikaning aniq ta'rifi yo'q, masalan, V.A.Denisenko ta'lim funksiyalarini va jarayonlarini tashkil etish va o'z-o'zini tashkil etishning fan va texnologiyasi sifatida faqat "ta'lim logistikasi" tushunchasidan foydalanadi. Y.V.Krupnov esa ta'lim logistikasini, umuman, ta'lim faoliyati samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan ta'lim funksiya (pozitsiya)lari va jarayonlarini tashkil etish va birgalikda tashkil etish fan va texnologiyasi sifatida belgilaydi (2;43–48-b.). Ushbu ikkala tushuncha bir-birini to'ldiradi: ta'lim logistikasi ta'limdagi ilmiy tushunchalarni, fan va texnologiyaning birgalikda ta'lim samaradorligini rivojlantiradi, sifatini ta'minlashga ko'maklashadi.

N.V.Shevchenkoning fikricha, ta'lim logistikasi tushunchasi ta'lim tizimlari va tuzilmalarida jarayonlarni optimallashtirish tamoyillari majmuyi sifatida tushuniladi. Ta'lim logistikasi bu bozor talablariga muvofiq, ta'lim makonida bilimlar oqimini tashkil etish, rejalashtirish, nazorat qilish va monitoring qilishdir.

Demak, mutaxassislarning fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bilimlar shu darajada tez yangilanib bormoqdaki, natijada oldingi bilimlarga hojat qolmaydi va bu ta'lim tizimida to'xtovsiz mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash zaruriyatini paydo qilmoqda. Jamiyatdagi yangi ixtirolar, olamshumul fan yutuqlari turmush sharoitini yaxshilashga, ishlab chiqarishdagi qiyinchilik bilan amalga oshiriladigan ishlarni oson va yengil bajarishga imkon yaratmoqda. Bundan tashqari, kishilarni bir-birlari bilan muloqotlarini tezlashtirish, axborot oqimlarini boshqarish, ularni optimallashtirish, kam kuch sarflab, ko'p foyda olishga ko'maklashuvchi soha ham aynan logistika sohasining yutuqlaridir.

Ta'lim logistikasi aynan o'qituvchi uchun xizmat qiluvchi soha desak, yangilishmaymiz, negaki, shu soha vakillari barcha yo'nalishlardagi malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridagi tinglovchilarni sifat jihatdan yuqori yoki aksincha, past ko'rsatkichlari uchun javobgar mutaxassislardir. O'qituvchilar har doim harakatchan bo'lib, o'z bilimni boyitish ustida ishlashga, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezganliklari uchun ham imkoniyat izlaydilar va bu o'z-o'zidan o'qituvchilarning qiyinchiliklarini o'rganish monitoringi asosida tizimli malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini sifatli tashkil etishni taqozo qiladi. Shuning uchun ham ta'lim tashkilotlari rahbarlarining o'zlari vakolatlari doirasida o'qituvchilarning qiyinchiliklarini o'rganish monitoringini tuzishga shart-sharoitlar yaratib berishi kerak. Ta'lim tashkilotlari rahbarlariga bunday vakolatlarni berish ta'lim tizimini rivojlantirishga keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Hammamizga ma'lumki, ta'lim xizmatlari muammolari, ta'limda innovatsiyalarni qo'llash, ta'limni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda marketing tizimidan foydalanish, ta'limda biznes jarayonlarni boshqarish kabilar ta'lim xizmatlari bozorida ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini ta'minlovchi yuqori sifatli ta'lim mahsulotini shakllantirishga yo'naltiradi.

To'g'ri, bugungi kunda ta'lim logistikasi ta'lim tashkilotini boshqarish uchun asos sifatida qaralmayapti. Lekin ta'lim logistikasi har qanday tashkilotlarning boshqaruv funksiyalariga ta'sir qiladi: ta'lim tashkilotini rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat. Bugungi kunda ta'lim logistikasi ta'lim tashkilotini boshqarishga asos bo'lishi uchun "bilim" oqimini, kadrlar oqimini, moliyaviy va axborot oqimini samarali boshqarish ta'lim tashkiloti rahbarining asosiy vazifasiga aylanishi kerak. Tashkilot rahbarlarining "o'z vaqtida" samarali boshqaruv qarorini qabul qilish uchun ham ta'lim logistikasiga ehtiyoj bor.

Aytish joizki, bugun axborot oqimi tezlashmoqda. Ushbu axborotlarni boshqarish va ulardan ehtiyoj doirasida foydalanish, shuningdek, ularni zarur doiralrga vaqtida uzatishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa yetarli miqdorda, yuqori sifatli, raqobatbardosh, eng kam xarajat faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu ta'lim sifatini oshirish, ta'limning global makonda obro'sini oshirish uchun zarur. Shunga mos ravishda yuqori sifatli ta'lim yetishib chiqarayotgan kadrlarning sifatli bilimiga olib keladi, bu esa kelajakda davlat farovonligiga ta'sir qiladi.

Asosan, boshqaruv qarorlariga ilmiy asoslangan, bir-biri bilan aloqador, yakdil, huquq va javobgarlik doirasida, aniq va to'g'ri yo'nalishga ega, vaqt bo'yicha aniq, tezkor va samarali bo'lishi kerak, degan talablar qo'yiladi. Ushbu talablar doirasida qarorlar qabul qilinadi. Albatta, har bir ma'lumot o'rganilishi, atroflicha tahlil qilinishi shart. Buning uchun boshqaruvchiga yordam beruvchi mutaxassislardan savodlikgina emas, balki ongliklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik ham talab qilinadi. Demak, bu mulohazalar o'qituvchining psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik, tibbiyot bo'yicha umumiy bilimlarini boyitish, doimiy ravishda yangilanish zarurati bilan bog'liq. Buni qanday amalga oshirish mumkinligi bo'yicha ko'plab variantlar mavjud: bosma ommaviy axborot vositalarida ilmiy nashrlar, ochiq manbalarda ma'lumotlarni joylashtirish (kasbiy fanlar bo'yicha internet saytlari, kasbiy mahorat tanlovlari, malaka oshirish kurs-

lari, mahorat darslari va boshqalar). Ularning barchasi axborotni uzatishning yagona mexanizmi – bilim almashinuvini o‘z ichiga oladi.

Shunga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchilarning dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantira olishi, ochiq ma‘lumotlarga tanqidiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatish kerak. Buning uchun, albatta, unga bu sohada bilim kerak. Boshqacha aytganda, bugungi kunda o‘qituvchiga faqat fan bilimi yetarli emas. Bugungi o‘quvchilarga global makonda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam berish uchun o‘qituvchidan tashqariga chiqish muhimdir. Ya‘ni, dunyoda har kuni yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bu imkoniyatlardan faqat o‘z vaqtidagina foydalanish mumkin. Chunki nafaqat zamon tezlashmoqda, balki, olimlarimiz vaqt ham tezlashayotganligini isbotlab bermoqdalar.

Ta‘limda ma‘lum fan, texnologiyalarni samarali tashkillashtirish hamda biri bir xil parallel doirasidagi fanlar yoki har bir sinflarda bir xil fan bo‘yicha dasturlar va darsliklarning kombinatsiyasini aniqlash ta‘lim logistikasi mohiyatini anglatadi. Nafaqat bir xillikdan, balki zamonaviy, xalqaro standartlar talablariga javob bera oladigan, milliylikni, xalqona xususiyatlarni ham o‘zida mujassam qilgan fan dasturlari va darsliklarni ishlab chiqish zamon talabi sifatida qabul qilish muhimdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida shunday deyilgan: “...maktab ta‘limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish”. Aynana shu qonun doirasida amaldagi ilmiy, ilmiy-metodik ishlarni o‘rganish, tajriba-sinov ishlarni olib borish va ularni turli fikrlar doirasida o‘rganishni nazorati va ularni amaliy faoliyatini rejalashtirishni, shuningdek, yo‘lga qo‘yishga ta‘lim logistikasi amaliy ko‘mak bera oladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, boshqaruv nuqtayi nazaridan ta‘limni iqtisodiy tizimlarga yaqinlashtirish mumkin bo‘ladi, bu esa, o‘z navbatida, rivojlanish va ta‘lim uchun mablag‘lardan samarasiz foydalanish xavfini kamaytirishga imkon beradi (2;43–48-b.).

Har bir ishning o‘z bahosi bor. Bu baho, albatta, uning qamrovini, sifatini, natijasini va o‘z-o‘zidan ma‘lumki, qanchalik zarur ekanligi bilan ham belgilanadi. Bu borada ta‘lim logistikasi doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar o‘z vaqti bilan amaliy natijalar beradi va sohaning rivojlanishi jamiyat qonuniyatlari bilan bog‘liqligi o‘z isbotini topadi; jamiyatdagi barcha sohalaridagi ishlarning samarali rivojlanishi tezlashadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** “2022–2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta‘limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq [1] bir nechta bandlar keltirigan. Aynan bu qonun doirasida (“...maktab ta‘limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish [1]) amaldagi ilmiy, ilmiy-metodik ishlarni o‘rganish, tajriba-sinov ishlarni olib borish va ularni turli fikrlar doirasida o‘rganishni nazorati va ularni amaliy faoliyatini rejalashtirishni, shuningdek, yo‘lga qo‘yishga ta‘lim logistikasi amaliy ko‘mak bera oladi.

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Trofimova Oksana Aleksandrovnaning pedagogik tadqiqotlarida hozirgi vaqtda pedagogik logistikada har xil pedagogik oqimlar (uskunalar oqimi, sog‘liqni saqlash oqimi va boshqalar) mavjudligi keltiriladi. Ammo tadqiqot uchun quyidagi turlar qiziqish uyg‘otishi keltirib o‘tilgan:

1. Bilim ishlab chiqarish kabi aloqalarni o‘z ichiga olgan bilimlar oqimi ta‘limda eskirgan bilimlarni olib tashlash va bilimlarni tarqatish tana maydoni.

2. Ikki bo‘shliqdan iborat o‘rganish oqimi: yuqori va maktab, shu jumladan, professional. Bu bilan asosiy muammo oqim – yagona ta‘lim makonini yaratish [2;43–48-b.].

Bundan tashqari, logistika sohasini o‘rganish borasida ham bir qancha asarlarga murojaat qilishimiz mumkin. Ayniqsa, moddiy ishlab chiqarish bo‘yicha logistika sohasining ahamiyatli jihatlarini o‘rganish uchun ...Asarida aniq ma‘lumot va formulalar mavjud. Jumladan, ...Haqiqiy logistik tizimlarni faoliyat yuritishi ham bu tizimlar ichida va ham ularning atrof-muhit bilan munosabatlarida murakkab aloqalar mavjudligi bilan ta‘riflanadi. Bunday sharoitlarda tizimni faoliyat yuritishining asosiy maqsadlari va ularning oldiga qo‘yilayotgan talablarni hisobga olmasdan xususiy qarorlarni qabul qilish yetarli bo‘lmasli-

gi, hatto xato bolishi mumkin. Tizimli yondashish qat'iy metodologik konsepsiya ko'rinishida bo'lm aydi. U idrok etish konsepsiyalarining o'ziga xos tamoyillarining yig'indisi bo'lib, unga rioya qilish belgilangan tartibda aniq tadqiqotlarni ko'zlashga imkon beradi. Logistik tizimlarni shakllantirishda tizimli yondashishlarning quyidagi tamoyillarini hisobga olish kerak [4].

Pedagogika fanlari nomzodi Sklyarova Natalya Yurevnaning Rossiya Federatsiyasidagi ta'lim sifatini logistika boshqaruvi tarkibiy qismlarining roli va funksiyalari o'qitishni tashkil etishda va uning sifatini oshirishda ishonchli qayta aloqani yaratish orqali ochib bergan, jumladan, mintaqaviy ta'limni boshqarish tizimida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablariga mos keladigan natijalarni olish uchun mustaqil (tashqi) nazorat, monitoring va ta'lim yutuqlarini diagnostika qilishning obyektiv ma'lumotlarini tizimli tahlil qilish zarur [3] bo'lishini chizmalar bilan tahlil qilib bergan.

Pedagogika fanlari doktori, dotsent, professor Danilov Sergey Vyacheslavovich klaster yondashi-shiga asoslangan pedagogik innovatsiyalar logistikasi bo'yicha ilmiy ish olib borgan va bir necha g'oyalarni ilgari surgan. Innovatsiyalarning butun hayotiy sikli davomida harakatlanish mexanizmi "logistika" tushunchasi bilan tavsiflanadi, bu turli tizimlarda resurslar harakatini boshqarish nazariyasi va amaliyotiga taalluqlidir. Ilmiy jihatdan logistika bunday boshqaruv metodologiyasini taklif qiladi. Amaliy ma'noda u tashkilotdagi jarayonlarning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish va oqimlarni (har qanday resurslarning yo'naltirilgan harakati) boshqarishning universal vositasi sifatida namoyon bo'ladi [5].

Pedagogik innovatsiyalarni samarali maqsadlarga yo'naltirish borasidagi maqolamda bugungi kunda ko'pgina oliy ta'lim muassasalari rahbarlarini qanday qilib moslashuvchan, tanqidiy fikrlaydigan, yangi (innovatsion) sharoitlarda ishlashga, yangi texnologiyalarni yo'lga qo'yishga, bilimlarni amaliyotda qo'llashga tayyor bo'lgan mutaxassisni tayyorlash, shu bilan birga, ular bilan qanday shug'ullanish masalasi turibdi. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli moslashuvchan professional faoliyatni amalga oshirish, o'quv jarayonini butun tashkil etish, o'quv dasturlarini loyihalashni ham qayta ko'rib chiqish kerakligini innovatsiyalar logistikasi bo'yicha olimlar fikrini o'rganish natijalari asosida ilgari surdik (7).

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bugungi kunda amaldagi ilmiy, ilmiy-metodik ishlarni o'rganish, tajriba-sinov ishlarni olib borish va ularni turli fikrlar doirasida o'rganishni nazorati va ularni amaliy faoliyatini rejalashtirishni, shuningdek, yo'lga qo'yishga ta'lim logistikasi amaliy ko'mak bera oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, boshqaruv nuqtayi nazaridan ta'limni iqtisodiy tizimlarga yaqinlashtirish mumkin bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, rivojlanish va ta'lim uchun mablag'lardan samarasiz foydalanish xavfini kamaytirishga imkon beradi.

Trofimova Oksana Aleksandrovna, Sklyarova Natalya Yurevna, N.Y.Efremova, Q.A.Dadaboyev, Danilov Sergey Vyacheslavovich, Nosov Aleksandr Leonidovich kabi olimlarning tadqiqot ishlari ushbu maqolada boshqaruv logistikasi nuqtayi nazaridan o'rganildi va ayrim xulosalarni o'rta tashlashga turki bo'ldi. Shuningdek, o'rganilishi muhim bo'lgan muammolarni ham ilgari surish uchun amaliy natijalarni berdi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ta'lim logistikasi, pedagogik innovatsiyalar logistikasi nazariy tushunchasi respublikamizda yangi o'rganilayotgan sohalardan biri, bo'lsa-da, bu borada bir qator olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar va bu hozirgacha davom qilmoqda.

Iqtisodiyot fanlari doktori Nosov Aleksandr Leonidovich ta'biri bilan aytganda, logistika konsepsiyasini boshqaruvning ma'lum bir sohasidan shunday o'zgartirish ma'lum bir sohadagi harakatlar ketma-ketligi doirasiga material oqimida sodir bo'ladigan ommaviy jarayonlarda mavjud vaqt va sayohat bilan izohlashimiz mumkin. Olimning aytishicha, logistika qoidalarini ishlab chiqishda biz kadrlar logistikasiga yo'nalishimiz va shu doirada fikr almashishimiz mumkin.

Biz bilamizki, bilim logistikasi, o'quv logistikasi, o'quv jarayoni logistikasi, pedagogik logistika tushunchalari keng qamrovli tushunchalar. Bulardan aynan bilim logistikasi, pedagogik logistika haqida o'zining maqolamda atroflicha tushunchalarni keltirganman.

Logistika yondashuvining tubdan farqi shundaki, axborot oqimini boshqarishning alohida bo'g'inlari tashqi muhitdagi o'zgarishlarga (bu holda, ta'lim tizimidan tashqari baholash natijalariga) javob berishga qodir bo'lgan yagona logistika tizimiga birlashtirilgan. Nazorat va baholash faoliyatini o'qituvchilardan mustaqil ravishda ishlab chiqish rasmiy emas, balki imkon beradi [3].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ta'lim sohasidagi boshqaruv tizimini sifatli va samarali yo'lga qo'yishda ham boshqaruv logistikasining roli bo'lishi muhimdir.

Har bir ishning o'z bahosi bor. Bu baho, albatta, uning qamrovini, sifatini, natijasini, o'z-o'zidan ma'lumki, qanchalik zarur ekanligi bilan ham belgilanadi. Bu borada ta'lim logistikasi doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar o'z vaqti bilan amaliy natijalar beradi va sohaning rivojlanishi jamiyat qo-

nuniyatlari bilan bog'liqligi o'z isbotini topadi, jamiyatdagi barcha sohalaridagi ishlarning samarali rivojlaniishi tezlashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 11.05.2022 PF-134.
- (2). Трофимова Оксана Александровна. "Логистический подход к системе управления в сфере образования". "Образование и наука", 2010, № 10 (78), с. 43–48.
- (3). Ефремова Н.Ф. Логистическое управление качеством обучения. Сборник трудов XXXII международных психолого-педагогических чтений «Развитие личности в образовательных системах». - Ростов-на-Дону, 2013, с. 175–181.
- (4). Q.A.Dadaboyev. Logistika. Toshkent, «Iqtisod – Moliya», 2007.
- (5). Данилов Сергей Вячеславович. Логистика педагогических инноваций на основе кластерного подхода. Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора педагогических наук. Саратов, 2021.
- (6). Носов А.Л. Касб-хунар таълими муҳитида логистиканинг ўрни. Илмий-методик электрон "Концепция" журналы, 2013, т. 11, с. 56–63.
- (7). Atayeva Malakhat Isakovna. Directing pedagogical innovations to effective goals. The American journal of social science and education innovations (ISSN-2689-0811) 30-04-2024. Volume 06, p. 52–54.

### **Turumbetova Aygul Yusupbaevna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti "Gumanitar va ijtimoiy fanlarni masofadan o'qitish" kafedrasida stajyor o'qituvchisi) MATN TAHLILIGA OID MUSTAQIL ISHLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING O'QUV-BILUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Maqolada ta'lim-tarbiya sohasi, zamonaviy metodika, o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishi, matn yaratish ko'nikmasi, asar matni ustida ishlash turlari haqida bayon qilingan. Shuningdek, maqolada boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida badiiy asar ustida ishlashning o'ziga xos talablari, ular muayyan metodik yondashuvlarni taqozo etishi tasvirlangan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, mustaqil ishlar, metodika, motivatsiya, o'qitish, matn tahlili.

#### **ФОРМИРОВАНИЕ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ САМОСТОЯТЕЛЬНУЮ РАБОТУ НАД АНАЛИЗОМ ТЕКСТА**

**Аннотация.** В статье рассмотрена сфера образования, современная методика формирования учебной мотивации учащихся, умения создавать текст, виды работы над текстом произведения. Также в статье описаны специфические требования работы над художественным произведением в процессе начального литературного образования, которые требуют определенных методических подходов.

**Ключевые слова:** начальный класс, самостоятельные работы, методика, мотивация, чтение, анализ текста.

#### **FORMATION OF LEARNING MOTIVATION OF STUDENTS THROUGH INDEPENDENT WORK ON TEXT ANALYSIS**

**Annotation.** The article examines the field of education, modern methods, the formation of students' educational motivation, the ability to create a text, and types of work on the text of a work. Also, the article describes the specific requirements of working on an artistic work in the process of primary literary education, which require certain methodological approaches.

**Key words:** primary class, independent work, methodology, motivation, reading, text analysis.

**Kirish.** Ta'lim-tarbiya sohasida erishilayotgan so'nggi yutuqlar boshlang'ich adabiy ta'lim mazmuniga ham o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda. Shunga bog'liq holda, asarni idrok qilishga yo'naltiruvchi mustaqil ishlarni tashkil etishning zamonaviy metodikasi o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir topshiriqlar ustida ishlash yo'llarini taqozo etmoqda. Asar g'oyasi va obrazlarning xarakter xususiyatlarini tushunishlarida o'quvchilarning mustaqilligi, faolligini oshirish, matn ustida ishlashda turfa xil topshiriqlardan hamda multimedia vositalaridan foydalanishni talab qiladi. XX asrning 60-yillarida yaratilgan "O'qitish" fanidan o'quv dasturlari va darsliklarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga doir muayyan talablar belgilangan. O'qitish fani mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan talablar aniqlashtirilgan. Keyinchalik, mazmuni va metodik apparati hayotga yaqinlashtirilgan o'quv dasturlari va darsliklar yaratildi.

Globalashuv davri talablari uzluksiz ta'lim sohasidagi ko'plab o'zgarishlarga keng yo'l ochdi. Chunki, 2021-yilda yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Milliy o'quv dasturi" qabul qilindi.

Ularda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida yangi avlod darsliklari yaratildi. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari qatori o'quv fanlari mazmuni asosida tegishli kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etdi. O'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantiradigan mustaqil ishlardan biri matn ustida ishlashdir. Bu borada T.Ziyodova ona tili darslarida o'quvchilarning matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishi N.Bekniyazova boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida matn yaratishga o'rgatish metodikasi, Sh.Sariyev boshlang'ich sinflar o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish muammosini tadqiq qilganlar.

So'nggi yillarda boshlang'ich ta'limda o'qish darslari samaradorligini oshirish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, H.Bakiyeva, Sh.Sariyev, G.Mamatova, Sh.Boltayeva, L.Muminova kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish jarayonlarini shakllantirish, badiiy matnni ustida ishlash, xalqaro baholash dasturlariga mos holda topshiriqlar tizimini takomillashtirish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish muammosi tadqiq etildi. Tadqiqotlarni turli muammolar – boshlang'ich adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlash, bunda o'quv-biluv motivatsiyasi rivojiga badiiy matn ustidagi ishlar bilan bog'liq muayyan yondashuvlarni birlashtirish maqsadi mujassamligini ko'rish mumkin [1].

Ma'lumki, boshlang'ich adabiy ta'lim jarayonida badiiy asar ustida ishlashning o'ziga xos talablari mavjud bo'lib, ular muayyan metodik yondashuvlarni taqozo etadi. Asar ustida ishlashning muhim qismlaridan sanalgan tahlil va o'qish o'zaro izchillik va bog'liqlikda amalga oshiriladi. O'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasi shakllanishida asarning asosiy g'oyasi, mavzusi, obrazlar tizimi, syujet chizig'i, kompozitsiyasi va badiiy ifoda vositalarini tushuntirish alohida o'ringa ega. Bu jihatlar o'quv-biluv motivlari takomiliga xizmat qiladi. Badiiy matn ustida ishlash bilan bog'liq mustaqil ishlarni o'tkazish jarayonida bolalarning yosh xususiyatlari, hayotiy kuzatishlari va tajribasiga asoslanish asar mohiyatining chuqur idrok etilishi asosiy omillardan biridir. Badiiy asar matni ustida ishlash orqali o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini yanada faollashtirish, atrof-muhit, jamiyat hayotiga xos bilimlarni chuqur o'zlashtirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlantirishga ham zamin yaratiladi. Asar matni ustida ishlashda o'qituvchi tahlilning asosiy bosqichlari, psixologik asoslari, o'quvchilarning o'zlashtirish xususiyatlarini ham nazarda tutishi zarur. Tahlilga doir darslarda badiiy asarlarning mushtarak yoki jihatlarini ajrata bilish, ijodkorning hayotiy voqealarni tasvirlash mahorati va obrazlarni yaratishdagi uslubini aniqlashi hamda adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish asosida asar mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini tushunish sari qadam qo'yadi. Bunga ma'lum vaqt oralig'ida bosqichma-bochqich erishiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** O'quvchilarni maktabgacha ta'limdan boshlab matn ustida ishlashga tayyorlab borish ularda kichikligidan badiiy asarni adabiy-estetik tahlil qilish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich tarkib toptirishni ko'zda tutadi. Binobarin, badiiy asarni tahlil qilish ijodkorning asarni yaratish vaqtidagi ruhiyati, kechinmalarini his qilish, uning tuyg'ulariga sherik bo'lishni ham taqozo etadi. Badiiy asar matni ustida ishlashni o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasi rivojiga yo'naltirish ularga asarda tasvirlangan voqealarga nisbatan muallif maqsadini anglash, ilgari surilgan g'oya va muammolarni aniqlash masalasini ko'ndalang qo'yadi. Tadqiqotchi Sh.Sariyevning fikricha, "Matn ustida ishlash jarayonida asar voqealari yuzasidan og'zaki tasvirlash, qiyoslab hikoyalar tuzish, adabiy qahramonlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvorlarini tavsiflash nutq o'stirishning muhim vositasi sanaladi. Bu jarayonda o'quvchilarda matnda ifodalangan jarayon, hodisa, shaxs yoki uning xatti-harakatiga nisbatan munosabat shakllanadi. Yaxshining nima uchun yaxshiligini, yomonning nima uchun yomonligini, asar qahramonlarining qilgan ishlarining to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn tahlilining asosiy vazifasidir [2].

Asar matni ustida ishlashda dastlab o'quvchilar e'tibori uning mavzusiga qaratiladi, chunki mavzu ko'pincha sarlavhada aks etadi. Har xil hajmdagi matn umumiy mavzuviy yaxlitlikka ega bo'ladi. Darslikda badiiy asarlardan olingan har bir o'quv matnining mavzu jihatidan bir butunligi sezilib turadi. Asar matniga xos tashqi xususiyatlardan yana biri uning sarlavhasidir. Sarlavha qo'yishda asosiy mazmundan kelib chiqiladi. Asosiy mazmun, ko'pincha, birinchi gapda aks etadi. Shunga qaramay, matnning asosiy mazmunini ajratish ham, unga sarlavha qo'yish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Sarlavhaning qo'yilishida har xillik bo'lgani kabi, turli sintaktik qurilmalar qo'llanilganligi sababli ham ularning tushunilishida ham muayyan darajalanish mavjudligi kuzatiladi. Demak, sarlavhaning anglanish darajasi mazmunga ko'ra paydo bo'ladigan assotsiatsiyaga chambarchas bog'liq. Bu esa matn qismlaridan biri bo'lgan sarlavhalar bilan ishlashda oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida rejalashtirib ish ko'rishni taqozo etadi.

Badiiy asar matn ustida ishlash, avvalo, uning nutq vositasi ekanligini bilish, shu asosda uning tuzilishi va mazmuni haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Zero, axborotlashuv davrida

boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlarini savodli va ta'sirchan ifodalay olishlarida ularga shu bilimlar doirasida o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning asar matni ustida ishlash ko'nikmalarini ularga kashf etish zavqini tuydirish, asar qahramonlariga tirik inson nuqtayi nazaridan qarash kabi adabiy ta'lim tamoyillari asosida yondashishni talab etadi. O'qish darslarida o'quvchilarning mustaqil faoliyat yuritish, erkin fikrlash, nuqtai nazarlarini bayon etishda estetik asoslarning ustuvorligi tamoyiliga tayanish ijobiy natijalar beradi. Bunda o'quvchilar tayyor bilimlar orqali emas, balki kuzatishlariga tayanib adabiy hodisalarga munosabat bildirish, tahlil qilish asosida o'zi uchun kashf qilishga yo'naltiriladi. Bu borada metodist Q.Husanboevaning quyidagi fikrlari o'rindir: "Badiiy asarga uning muallifi tomonidan singdirilgan, darslik yaratuvchilari tomonidan ilg'angan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'quvchi o'zi uchun o'zi kashf etishi kerak. O'quvchiga asar qahramonlariga xos ma'naviy sifatlarni matn yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ko'magida kashf etish imkoni yaratilishi lozim. Kashf etish hamisha lazzatli, o'quvchilarga ham ana shu lazzatni tuyish imkonini berish kerak. Kashf etish lazzati o'quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi [3].

Tadqiqotimiz davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari, asosan, asar matni ustida ishlashda ushbu jarayonning mazmun-mohiyatini tushunib yetmasliklari, mazkur muammoga o'qituvchilarning o'zida tajribalar kamligi ma'lum bo'ldi. O'qituvchi o'quvchilardagi bu holatni bartaraf etmaguncha, matn mohiyatini, undagi jozibani idrok etishlari oson kechmaydi. O'qish darslaridagi faollik printsiplari matn tahlili chog'ida subyekt sifatida o'quvchining o'z nuqtayi nazarini ifodalashi, o'qituvchi bilan hamkorlikda faoliyat yuritishga intilishida ham ko'rinadi. Bu kabi jihatlarga jamoa bo'lib ishlash tarzida aks etadi. O'qituvchining vazifasi esa matndagi tasviriy ifodalar, sharhlash taqozo etadigan so'z va jumlar ustida ishlash usullarini tushuntirishdan iborat. O'quvchilar badiiy matn mohiyatini idrok etishlarida Blum taksonomiyasi darajalaridan foydalanish samarali bo'lib, ularning har biri ma'lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Amerikalik psixolog va pedagog B.Blum tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik maqsadlar taksonomiyasi o'quvchilarda bilimlarni tizimli holda o'rganish, tushunish, bir-biri bilan bog'lash va hayotda qo'llay olishga yo'naltirishi bilan ahamiyatlidir.

"Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi. U tafakkurni bilish qobiyaliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishda oltita darajaga ajratadi [4]. Shuni ta'kidlash joizki, avvalgi darsliklarda berilgan savol-topshiriqlarning aksariyat qismi, asosan, quyi darajadagi (bilish, tushunish, qo'llash) ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilgan. Matnni tushunish, idrok etish va hayot bilan bog'lashda esa yuqori darajadagi (analiz, sintez, baholash) ko'nikmalar zarur bo'ladi. Ularning har ikkisi bir-birini taqozo etadi. "Yuqori darajadagi ko'nikmalar, deydi bu borada Z.Mirzayeva, quyi darajadagi ko'nikmalarga qaraganda murakkabroq jarayonlarni o'z ichiga oladi va o'quvchilarda ularni shakllantirish uchun o'qituvchidan kreativ yondashuvlarni talab qiladi. Shu bilan birga, quyi darajadagi ko'nikmalarni shakllantirmasdan turib yuqori darajaga o'tish mumkin emas [5].

**Metodologiya.** Yangi avlod darsliklarini yaratishda aynan shu jihatlarga e'tibor qaratish o'quvchilarni xalqaro PIRLS yoki PISA dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlashga, eng muhimi, hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Quyi darajadagi ko'nikmalar:

*Bilish darajasi.* Eslash va takrorlashga asoslangan mazkur darajada o'quvchi o'rganayotgan o'quv fani doirasida atama, qoida, tushuncha va ma'lumotlarni biladi va ayta oladi.

*Tushunish darajasi.* Ushbu darajada o'quvchi ma'lumotni tushuntira oladi va boshqa shaklga sola biladi. Qoida, fakt, jadvaldagi ma'lumotlarni tushunadi. Ular asosida kelgusidagi natijalarni taxminiy tavsiflaydi.

*Qo'llash darajasi.* Bunda o'quvchi egallangan bilimlaridan yangi hayotiy vaziyatlarda to'g'ri foydalana oladi. *Yuqori darajadagi ko'nikmalar.* Tahlil darajasida o'quvchi o'rganayotgan obyektning qismlariga bo'ladi, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ajratadi, ularning ahamiyatini baholaydi. *Sintez darajasi.* Mazkur darajada o'quvchi ijodiy ishlarni bajaradi, bir qancha fanlardan o'zlashtirgan bilimlarini qo'llaydi, o'zi uchun yangi bilimlarni kashf qiladi, ta'limiy mahsulot (hikoya, uning yakuni, sujetga o'zgartirish kiritish kabi) yarata oladi. *Baholash darajasi.* Ushbu darajada o'quvchi voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay biladi. Xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini ajratadi, faktlar va baholovchi fikrlar o'rtasidagi tafavutni farqlaydi. O'qish darslarida Blum taksonomiyasining yuqori darajasiga mos savol-topshiriqlar tuzish biroz an'anaviylikdan chekinishni taqozo etadi.

**Muhokama.** Taksonomiya darajalaridan topshiriqlarni istalgan sinfga tatbiq etish mumkin, faqat savol-topshiriqlar o'quvchilar yoshi, psixologik xususiyatlari va hayotiy tajribasiga mos kelishini unutmazlik lozim. Masalan, 4-sinf o'qish darsida "Eng yaxshi meros" ertagini Blum taksonomiyasi darajalari aso-

sida o'rganishni fikrimizga misol qilish mumkin.

Bilish darajasidagi savollar quyidagicha: 1. Ertak qahramonlarining nomini aytib bering. 2. Asardagi voqealar qachon va qayerda bo'lib o'tadi? 3. Ertakdagi voqealarning ketma-ketligini ko'rsating. 4. Asar mazmunini so'zlab bering.

Tushunish darajasidagi savollar: 1. Ertak nima uchun shunday nomlanginini tushuntiring. 2. Asarda qanday muammo o'rta tashlangan? Muammo qanday yechim topdi? 3. Siz aka-ukalardagi qanday xususiyatlarni payqadingiz? Ularni qiyoslang. 4. To'ng' ich va o'rtan cha o'g' ilning hayotidagi murakkabliklar sababi nimada deb o'yladingiz? Aytib bering.

Qo'llash darajasidagi savollar: 1. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini bir-birini kimga almash-tirib ko'ring. Qanday o'zgarishlar bo'lishi mumkin? 2. Sujetni ma'lum joyidan o'zgartirib, asarni boshqa-cha yakunlang. 3. Tasavvur qiling, siz katta o'g' ilning o'rnidasiz? Ota gaplariga nisbatan qanday yo'l tutgan bo'ladingiz?

Analiz darajasidagi savollar: 1. Ertakning asosiy g'oyasini ifodalaydigan uchta so'z ayting. 2. Qahramonlarning asosiy xususiyatlari qaysi lavhalarda bo'rtib ko'rinishini toping. 3. Asarni qismlarga bo'ling va ularni nomlang.

Sintez darajasidagi savollar: 1. Ertak mazmuniga doir savollar tuzing. 2. Asardagi sizga yoqqan o'rinlarni daftaringizga ko'chirib yozing. 3. Agar ertakni sahnalashtirmoqchi bo'lsangiz, kenja o'g' ilga qanday libos tanlar edingiz? Nima uchun?

Baholash darajasidagi savollar: 1. Sizga ertakdagi qaysi voqea ma'qul bo'ldi? Nima uchun? 2. Asar-dagi qaysi qahramon bilan uchrashishni xohlar edingiz? Unga nimalar degingiz keladi? 3. Katta va o'rtan-cha o'g' il tabiatidagi kichik o'g' ildagi o'xshamagan xususiyatlarga kim yoki nima sababchi deb o'ylaysiz? Javobingizni asoslang.

Ma'lum bo'ladiki, Blum taksonomiyasi bilimlarni oddiydan murakkabga tomon ma'lum izchillikda o'rganishni va ularni noodatiy vaziyatlarda qo'llashga tayyorlashi bilan ham dolzarblik kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda asar tahlili maqol, topishmoq, tez aytish, masal, ertak, dostonlardan parchalar qatori ular-da tegishli maqsad bilan qo'llanilgan sifatlash, o'xshatish, jonlantirish kabi tasviriy ifodaviy vositalarni o'rganish orqali uyushtiriladi. "Badiiy asar matnini tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushuni-shi badiiy tasvir vositalarini bilishi kerak. Badiiy asar o'quvchilarga hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg' ularni o'rganish imkoniyatini taqdim etadi. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi [6].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, yangi avlod darsliklarini yaratishda aynan shu jihatlarga e'tibor qaratish o'quvchilarni xalqaro PIRLS yoki PISA dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlashga, eng muhimi, hayotiy ko'nikmalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Asar matni ustida ishlash emotsional jarayon bo'lib, adabiy ta'lim mazmuni kengayib murakkablashib borgan sari o'zlashtirishga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyati kuchaytirilishi lozim. Chunki o'quvchilarni asar matn ustida ishlashga qiziqitira olish o'quv fani mazmuni, o'qilayotgan badiiy asarni tushunish, anglash va idrok etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayoning haqiqiy ma'nodagi ijrochisiga aylantirish, bizningcha, o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga keng imkoniyat yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Ziyodova T.U. O'quvchilarda mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref., Toshkent, 2011, 29 bet.

(2). Bekniyazova N.I. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2012, 160 bet.

(3). Sariyev Sh. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasini takomillashtirish (1-2-sinf materiallari misolida). Ped. fan. dok. (PhD) ... diss., Toshkent, 2020, 144 bet.

(4). Sariyev Sh.U. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasini takomillashtirish (1-2-sinf materiallari misolida). Ped. fan. fals. dok. (PhD) ... diss., Toshkent, 2020, 29 bet.

(5). Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Jamoldinova Sh. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 25-bet.

(6). Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilish. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2008, 66-bet;132 bet.

(7). Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi: an'anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent, ToshDO'TAU, 2020. 86-bet.

(8). Bakiyeva H. 4-sinf o'qish darslarida adabiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish. Toshkent, "Nodirabegim", 2021, 6-bet.

**Rahmatova Barnogul Karimjonovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)**  
**IJODKOR TALABANING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATI VA UNI AMALGA OSHIRISH**  
**BOSQICHLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijodkor talabalar tadqiqot ishini qanday olib borishu, ilmiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va tadqiqot ishini aniq va xatolarsiz yakunlash uchun qanday usullardan foydalanish hamda ijodkor talabaning ilmiy tadqiqot faoliyati va uni amalga oshirish bosqichlari to'g'risidagi masalalar yoritib berilgan.

**Klit so'zlar:** ijodkor talaba, tadqiqot, izlanuvchanlik, bosqich, ilm, ta'lim, kasbiy rivojlanish, tadqiqot ishi, tanqidiy tadqiqot.

**Рахматова Барногул Каримжоновна (базовый докторант Бухарского государственного педагогического института)**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТВОРЧЕСКОГО СТУДЕНТА И**  
**ЭТАПЫ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ**

**Аннотация.** В данной статье описывается, как творческие студенты могут проводить исследование, развивать навыки работы с научными источниками и использовать методы для четкого и безошибочного выполнения научного изыскания, а также научно-исследовательская деятельность творческого студента и этапы ее реализации.

**Ключевые слова:** творческий студент, исследовательская деятельность, любознательность, сцена, наука, образование, повышение квалификации, научно-исследовательская работа, критические исследования.

**Rakhmatova Barnogul Karimjonovna (doctoral student at Bukhara State Pedagogical Institute)**

**RESEARCH ACTIVITY OF A CREATIVE STUDENT AND STAGES OF ITS**  
**IMPLEMENTATION**

**Annotation.** This article describes how creative students can conduct research, develop skills in working with scientific sources and use methods to accurately carry out research, as well as the research activities of a creative student and the stages of its implementation.

**Key words:** creative student, research activity, curiosity, stage, science, education, professional development, research work, critical studies.

**Kirish.** Ma'lumki, bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi globallashuv davrida xalqlarning ijtimoiy ongida fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirishga, ular qalbida yuksak harbiy vatanparvarlikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan [1].

Talabalarining ilmiy faoliyatida ilmiy tadqiqot ishlari muhim o'rin tutadi. Odatda, tadqiqot loyihalari talabalarga bilimlarini kengaytirishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga va kelajakdagi kasbiy martabaga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. Biroq tadqiqotni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun siz ma'lum ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'lishingiz kerak. Talabalarining tadqiqotchilik malakalarini oshirishning asosiy jihatlaridan biri mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirishdir. Talabalar faol ravishda ma'lumot izlashlari, gipotezalarni shakllantirishlari, tajribalar o'tkazishlari, natijalarni tahlil qilishlari va xulosalar chiqarishlari kerak. Yangi yondashuvlar va tadqiqot usullarini sinab ko'rishdan qo'rqmaslik kerak.

Yana bir muhim jihat—tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. Talabalar axborotni tahlil qilish, manbalarining ishonchligi va dolzarbligini baholash, qarama-qarshiliklarni va qarama-qarshi fikrlarni aniqlay olishlari kerak. Tanqidiy fikrlash talabalarga muammoga obyektiv qarashni rivojlantirishga va tadqiqotga chuqurroq yondashishga yordam beradi [2]. Shuningdek, tadqiqot ko'nikmalarini oshirish uchun talabalarining ilmiy manbalar bilan ishlay olishlari muhim ahamiyatga ega. Talabalar iqtibos tamoyillarini hisobga olishlari, adabiyotlarni to'g'ri tanlash va tahlil qilishlari, ekspert xulosalari va baholariga tayanishlari kerak.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tadqiqot tadqiqotchining ilmiy usullardan foydalanadigan muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha izlanish turidir. Erl Robert Babbi (amerikalik sotsiolog)ning so'zlariga ko'ra, "Tadqiqot bu boshqariladigan hodisani tavsiflash, tushuntirish va bashorat qilishda yordam beradigan tizimli yondashuv yoki izlanishdir". Har qanday tadqiqotning eng muhim jihatlaridan biri bu un-




dagi statistik ma'lumotlar yoki xulosalardir. Tinglovchilar uchun yanada ta'sirchan va tushunarli bo'lishi, tadqiqot ishidan to'g'ri xulosa chiqarish uchun tadqiqotchi izlanuvchanlik qobiliyatini oshirishi kerak [3].

Har qanday tadqiqotni amalga oshirayotganda, unga bosqichma-bosqich yondashish kerak. Tadqiqot ishi quyidagi ketma ketlikda amalga oshiriladi:

- muammoni aniqlash;
- muammoning mumkin bo'lgan yechimlari haqida fikr yuritish;
- dalillarni yaratish;
- dalillari tasdiqlovchi ma'lumotlar va faktlarni to'plash;
- tadqiqot ishini yakunlash.

Tadqiqotning asosiy maqsadi har bir tadqiqot ishidan ma'lum bir natijaga erishishdir. Tadqiqot ishi tegishli ma'lumotlar va tahlillar bilan tasdiqlangan ishonchli, dalillarga asoslangan natijalarni berishi kerak (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot turini o'tkazishning bosqichlari.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Inson faoliyati tabiatan reproduktiv, ijrochi yoki ijodiy bo'lishi mumkin. Reproaktiv faoliyat ijodiy faoliyatga turtki beradi, uning boshlanishi bo'ladi. Shuning uchun uni ta'limda qo'llashni nazar-pisand qilmaslik, mensimaslik noto'g'ri. Shu bilan birga, uni haddan tashqari keng qo'llash ham to'g'ri emas. Eng ma'quli, ularni boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llashdir. Jumladan:

a) muammoli bayon qilish metodi. Bu metodda o'qituvchi tomonidan mavzuning mazmuni muammoli tarzda bayon qilinadi. O'qituvchi mavzuning mazmunidan kelib chiqib, muammo qo'yib, uning yechimini ko'rsatadi. Bu metod talabalarni ijrochilikdan ijodkorlikka o'tishini ta'minlaydi. O'qitish jarayonining ma'lum bosqichlarida talabalar muammoli masalalarni mustaqil ravishda yecha olmaydilar. Shuning uchun o'qituvchining dars o'tish usulini kuzatib, shunday vaziyatlarda masalani qay tarzda yechishni, qanday qarorga kelishini o'rganadilar.

b) qisman ijodiy (evristik) metodlar. Bu metodda:

- bilim mustaqil ravishda egallanadi;

• o'qituvchi axborotni o'rganish yoki bilim egallashda turli metodlar yordamida mustaqil ishlashni tashkil etadi. O'qituvchi, talabalar mustaqil fikr yuritishadi masalan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilib taqsimlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rganishadi. Natijada talabalarda anglab yetilgan puxta bilim shakllanadi [5].

O'qituvchi-talabalar, ko'pincha, murakkab muammoni mustaqil hal qilisha olmaydi. Ularga o'qituvchi ko'mak beradi. O'qituvchi faoliyati o'qituvchi-o'qituvchi, o'qituvchi-o'qituvchi sxemasida amalga oshadi. Bilimlarning ma'lum bir qismini o'qituvchi beradi, qolgan qismini talabalar mustaqil o'rganishadi;

d) tadqiqiy metodlar. Bunday metod bilimni tadqiq etish jarayonida egallashni ko'zda tutadi. Maqsad – har qanday tadqiqotning maqsadi, ma'lumotlar ustida ishlash va barcha fikrlarni batafsil qamrab olishdir, bular axborotni to'plash, axborotni yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqotning tavsifiy maqsadi natijalarni tavsiflash, tushuntirish va tasdiqlashdan iborat (2-rasm).


Akademik sohalarida qo'llaniladigan asosiy tadqiqot turlari bir necha turlarga bo'linadi. Ular tuzilishi, yondashuvi va yozilish uslubi bir-biridan farq qiladi.

Sifatli tadqiqot – ushbu turdagi tadqiqot asosiy sabablar, motivlar va fikrlarni tushunish uchun o'tkaziladi. Sifatli tadqiqot muammolarni chuqurroq o'rganishga imkon beradi va farazlar yoki g'oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Sifatli tadqiqot usullarining qat'iy qoidalari mavjud emas [6].

Eng keng tarqalgan sifatli tadqiqot usullari:

- guruh muhokamasi;
- individual izlanishlar olib borish;

•tajriba joyida ishtirok etish va kuzatish.



2-rasm. Tadqiqot ishiga xos bo'lgan xususiyatlar.

Miqdoriy tadqiqotlar – statistik ma'lumotlar va raqamli ma'lumotlarga asoslanadi. Raqamli ma'lumotlar tadqiqot miqdorini aniqlash yoki ma'lumotlarni statistik ma'lumotlarga aylantirish orqali hosil bo'ladi. Ushbu turdagi tadqiqot fikrlar, xatti-harakatlar yoki axborotlarni aniqlashga yordam beradi. Tadqiqotlarda natija katta namuna asosida umumlashtiriladi. Miqdoriy tadqiqotda faktlarni ishlab chiqarish uchun ma'lumotlardan foydalanadi. Tadqiqotga jalb qilingan usullar sifatli tadqiqotlar bilan solishtirib yaratiladi. Ushbu turdagi tadqiqot usullariga quyidagilar kiradi: har xil turdagi so'rovlar, intervyu, onlayn so'rovlar, tizimli kuzatishlar va boshqalar.

Analitik tadqiqot tahliliy tadqiqotda tadqiqotchi ularning barchasini tahlil qilib, xulosa chiqargandan so'ng turli nuqtai nazarlar ko'rib chiqiladi. Analitik tadqiqot savol berishdan boshlanadi va keyin unga javob beradigan dalillarni topishdir. Ushbu turdagi tadqiqot turli xil tadqiqotlar yoki manbalardan to'plangan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shundan so'ng, har bir tadqiqotchi mavzu bo'yicha shaxsiy xulosa chiqarishi kerak. Analitik tadqiqotni o'zlashtirish uchun yaxshi tahliliy tadqiqot ko'nikmalariga ega bo'lishingiz kerak.

**Tahlil va natijalar.** Talaba akademik maqola yozish uchun tahliliy tadqiqot o'tkazayotganda, u betaraf bo'lishi kerak. U mavzuga tanqidiy ko'z bilan qarashi lozim bo'ladi. Tanqidiy tadqiqot fikringizni ko'rsatish uchun idealdir. Tanqidiy tadqiqot – tadqiqotning yana bir turi ishonarli tadqiqotdir. Ushbu turdagi tadqiqotda siz, birinchi navbatda, muammoni ikki xil jihatdan tasvirlab berishingiz kerak. Siz ijobiy va salbiy tomonlarini eslatib o'tishingiz kerak va keyin birini boshqasidan afzal ko'rish orqali xulosa qilishingiz kerak. Ishonchli tadqiqot olib borilganda, asosiy maqsad o'quvchini sizning nuqtai nazingiz bilan rozi qilishdir. Har bir tadqiqot turi har xil, "ishontiruvchi" so'zining o'zi kimnidir sizning bahsingizga qo'shilishga taklif qiladi.

Tanqidiy tadqiqot mantiqiy faktlar bilan bir qatorda, hissiy yondashuvni talab qiladi. Ushbu tadqiqotda tadqiqotchi dalillarni qo'llab-quvvatlaydi yoki unga qarshi chiqadi. Tadqiqotchi o'z dalillarini ba'zi mantiqiy faktlar bilan qo'llab-quvvatlashi kerak. Tadqiqot natijalari – tadqiqotchi, avvalo, vaziyatni tavsiflaydi, so'ngra sabab va oqibatlarini ko'rsatadi va yakunida xulosa chiqaradi. Ushbu turdagi tadqiqot maqolalari tadqiqot ishini yangi boshlaganlar uchundir.

Tadqiqot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- turli tadqiqot mavzularini keng o'rganish;
- tadqiqotda foydalanish uchun yozish uslubini tushunish;
- o'g'ri iqtibos va havolalar.

Eksperimental o'rganish – eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish uchun ma'lum bosqichlarni bajarish kerak. Bular: Tajriba o'tkazish, tajribani o'rtoqlashish, ma'lumotlarni taqdim etish va shu ma'lumotlar asosida turli xil xulosalar chiqarish [5].

Eksperimental tadqiqot o'tkazganingizda, ishni batafsil tasvirlab berishingiz kerak. Eksperimental tadqiqotlar asosan quyidagi fanlar bo'yicha olib boriladi: kimyo, biologiya, fizika, psixologiya va sotsiologiya. Nomidan ko'rinib turibdiki, bu turdagi tadqiqotlar tajribalarga asoslangan. Bu yerda tadqiqotchilar hodisani ma'lum harakatlar bilan tasvirlaydilar yoki bashorat qilishadi. Tadqiqotni muvaffaqiyatli yakunlash uchun ularga qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlar va tajriba tahlili kerak.

So'rovnomalarda tadqiqot ishini tuzatishda siz qilishingiz kerak bo'lgan usullar bular: so'rov o'tkazish, topilmalaringizni tahlil qilish va kerak bo'lmaganlarini olib tashlashdir.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, ilmiy tadqiqotlar qanday maqsadga qaratilganligi va ilmiy chuqurligi bo'yicha uch asosiy turga tasniflanadi: fundamental (nazariy), amaliy va tajriba, konstruktorlik ishlanmalari. Fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarilarning bajarilish jarayoni olti asosiy bosqichni, tajriba konstruktorlik ishlanmalari esa yetti bosqichni o'z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotning barcha turlari joriy etish bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning izlanuvchanlik qobiliyatini oshirish nafaqat ma'lum bilim va ko'nikmalardan to'g'ri foydalana olish, balki o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy darajani oshirishga doimiy intilishni ham talab qiladi. Mustaqillik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ilmiy manbalar bilan ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish talabalarning ilmiy ishda muvaffaqiyatga erishishiga va kelajak kasbiga tayyorlanishiga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Shermuhamedova N. Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishning ahamiyati. "ISFT", ilmiy-uslubiy jurnal, 1/2, 2024, 188–191 betlar.
- (2). Olimov, K.T., & Sh, T.Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), p. 67–70.
- (3). Тухтаева, З.Ш. (2011). Междисциплинарные связи и преемственность в профессиональном образовании. Профессиональное образование. "Столица", (9), с. 43–44.
- (4). Sh, T.Z., & Kh, S.K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJERT, 7(4), p. 258–261.
- (5). Sharifovna, T.Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), p. 44–49.
- (6). Rahmatova, B. (2023). Muhandis o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish usullari. "Молодые ученые", 1(15), p. 78–80.

**Xurramova Sanobar Mahmatmurodovna (Termiz davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi;  
Email: xuramovasanobar98@gmail.com)**

#### TALABALARNI TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya.** Maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati, yanada imkoniyatlarini kengaytirish va takomillashtirishning shart-sharoitlari, ularning usullari, yo'llari, oliy ta'lim muassasalarida talabalaridagi tanqidiy fikrlashni o'rgatish yo'llari va ta'lim jarayonini tashkil etishni rejalashtirish ishlari, shuningdek, talabalarning bo'sh vaqtlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish haqidagi ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, oliy o'quv yurtlari, talabalar, tanqidiy fikrlash, rivojlantirish, imkoniyat, kengaytirish, takomillashtirish, shart-sharoit, usul, yo'l, ta'minlash, baholash, faoliyat, integrativ, jarayon.

**Хуррамова Санобар Махматмуродовна (преподаватель Термезского государственного педагогического института; xuramovasanobar98@gmail.com)**

#### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** В статье рассматривается значение развития критического мышления у студентов высших учебных заведений, условия его дальнейшего расширения и совершенствования, их

методы, способы, способы обучения критическому мышлению студентов высших учебных заведений и организация учебного процесса в высших учебных заведениях. в статье подробно освещено планирование работы, а также информация по развитию критического мышления в свободное время студентов.

**Ключевые слова:** педагогика, вузы, студенты, критическое мышление, развитие, возможность, расширение, совершенствование, условия, метод, способ, обеспечение, оценка, деятельность, интегративный, процесс.

**Khurramova Sanobar Mahmatmurodovna (Teacher of Termiz State Pedagogical Institute;**

**Email: xuramovasanobar98@gmail.com)**

## **USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING CRITICAL THINKING OF STUDENTS**

**Annotation.** In the article, the importance of developing critical thinking in students of higher education institutions, the conditions for further expansion and improvement, their methods, ways, ways of teaching critical thinking in students in higher educational institutions and organization of the educational process are discussed in the article. planning work, as well as information on the development of critical thinking in students' free time is covered in detail.

**Key words:** pedagogy, higher educational institutions, students, critical thinking, development, opportunity, expansion, improvement, conditions, method, way, provision, evaluation, activity, integrative, process.

**Kirish (Introduction).** Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi zamonaviy ta'lim jarayonida o'qitish, ta'limni yangilash va uni modernizatsiya qilish, innovatsiyalar asosda rivojlantirish, talabalarning oldiga qo'ygan maqsad va murakkab vazifalarni amalga oshirish talabalarning zamonaviy ta'limni, kreativ va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni, har qanday sharoitda ham ko'p masuliyatni o'z zimmasiga oladi. Kuchli, intellektual salohiyati yuksak bilimli talabalarga, vatanparvar yoshlarga davlat va bugungi jamiyat boshqaruvida juda katta vazifalarni ishonib topshirmoqda [1].

Talabalarning oliy ta'lim muassasalarida o'qishlarini yanada kuchaytirish, va ilmiy pedagog yoshlarni tayyorlash salohiyatini oshirish eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarining nufuzini yanada oshirish, shaxsiy ta'lim maskanlarining sonini kengaytirish, yuqori malakali yoshlarni tortish va aloqasini oshirish shart bugungi kunda oliy ma'lumotga ega bo'lgan yoshlarni, yuksak darajali mutaxassislarni tayyorlab borilmoqda.

Pedagogika talabalarda asosiy tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogdan mahorat, qobiliyatni tashkil etish. Professorlarning, o'qituvchilarning eng asosiy yechim topishlari talaba-yoshlarga bilimlar berishdir. Talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammosini tadqiq etar ekanmiz, avvalo, pedagogik texnologiya, tanqidiy fikrlash tushunchalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishimiz lozimdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Pedagogik texnologiyalar ijtimoiy zaruriyat bo'lgani bois, avval, AQSHda XX asrning 30-yillarida ta'lim texnologiyasi qo'llanilib kelmoqda, shuningdek, ta'lim jarayonida vizial texnika-texnologiyalar va vositalaridan foydalanilgan. Ta'lim texnologiyasi so'zi hozir texnika o'quv vositalari asosida nisbatan qo'llanilmasdan, shuningdek, jahon pedagogikasida yangi yo'nalishlar va pedagogik texnologiyalarga asos solingan va ishlangan. Ushbu pedagogik texnologiyalarning asoschilari esa, D.Kratvol, N.Gronlund, B.Blum, J.Kerrol, L.Anderson, J.Bloklar bo'lgan edi.

Ta'lim jarayonida XX asrning 50-yillarida texnik vositalar uchun va ularni qo'llash ta'lim texnologiyasi yo'nalishni aniqlovchi omil, deb aytsa bo'ladi, eng katta e'tibor ta'lim oluvchilar safini oshirish, texnik vositalarning kuchini va imkoniyatlarini judayam takomillashtirish, axborot sig'imini ham oshirish, axborotlarni kuzatish va uzatish xizmatlar sifatli tashkil etilib, ta'lim olishni yanada ishlov berishini kengaytish lozim. Ayniqsa, 60-yillarining boshlarida ta'limni axborotlash va ta'lim paytini tashkil etish ta'lim texnologiyasi so'zining ma'nosi nima ekanini ochib tashlash sifatida ishlar boshlandi. Axborot ta'lim va bilim oluvchilarga aniq bilimlarning alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Shuningdek, 70–80-yillarda ta'lim texnologiyasi ta'lim va pedagogikaning nazariy bilimlar ekani tasdiqlanib, u judayam loyihalangan va biroz belgilangan maqsadlarga borish kafolatlovchi o'quv va ta'lim jarayonini va ta'limdagi axborot vositalari va texnologiyalarini ochib bergan.

Vaqt biroz o'zgarishida texnologiyalarni ishlatish darajasi ortib, mazmuni tegishlicha ko'plab o'zgarib bordi. 1979-yilda AQSHning va pedagogik texnologiyalarning va kommunikatsiyalar assotsiatsiyasi pedagogik texnologiyalar ma'nosi to'g'risidagi bahs-munozaralarga yakun yasab, ularning rasmiy ta'rifini aytib berdi: "Pedagogik texnologiya odamlarning g'oyalarini, bilimlarini o'zlashtirishi, ta'lim olishni reja-

lashtirish, ta'minlash, baholash va boshqarish faoliyatini tashkil etish vositalarini o'z ichiga qamrab olgan majmuaviy integrativ jarayondir" [3]. Hozirgi judayam paytda barcha pedagog- psixolog olimlar pedagogik texnologiyalarga berilgan eng mukammal ta'rif sifatida UNESKOning quyidagi ta'rifini tan olishadi: "Pedagogik texnologiya bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuaviy yondashuv usulidan foydalanishdir" [4].

Ta'lim texnologiyasining boshini ta'lim olish va oshirish va ta'lim oluvchilarni sharoitlarda moslash, hamda vaqtda loyihalashtirilayotgan o'quv oxirlariga erishishlarini boshqarish uchun jarayonni to'liq va aniq g'oyalari bajarildi. Bunday borib yondashishning asl mohiyati ta'lim va texnikani tizimlashtirishdan va uni vaqti rasmiylashtirilgan qismlari ichida tiniq va aniq zarralarga ajratish yordamida maksimal shakllantirish muhim.

Yuqoridagi mulohazalardan chiqib, fikr yuritadigan bo'lsak, aniq pedagogik texnologiyalarning predmeti va ko'rinishi ta'lim tizimini dalil keltirishdan oldin o'quv ishlab materiallarni tanlash joiz, ta'lim modelini tanlashdan oshlab amalga oshirishgacha jarayon, optimallik va samaradorlik bo'yicha baholanadi [5].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Muvofiqlashtirilgan tabiyatda zamonaviy ko'rgan pedagogik texnologiyalar bor. Talabalarning ta'lim va tarbiya ishini bajarishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga chiqishida zamonaviy kuchli pedagogik texnologiyalar tashkil etildi. Ta'lim texnologiyalari rivojlantiruvchi va zamonaviy ravnaq topuvchi. Talabalar bu texnologiyada shaxsining ijobiy aniq sifatlarini, ayrim toifa sohalardagi bilimlarini, ijodiy oddiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari olinadi. Bundan tashqari, xususiy, ya'ni, o'quv fanlari va muqobilchilik hamda mualliflikchilik zamonaviy va pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari mavjud.

Kreativ bu tadqiqotning xarakteriga aniq ega bo'lib, talabalarda birlamchi maqsadga qarab yo'naltirilgan shaxs ijodiy tafakkurni va tanqidiy fikrlashni tez va jadal rivojlantiradi. Inversion ham bu axborotlarni va turli tomondan o'rganish va o'rni almashtirish qobiliyatiga, xususiya ega bo'lib, tanqidiy fikrlash qator tizimini rivojlantiradi. Integrativning axborotlarni tashkil qiluvchi bir qator cheksiz ko'p kichik qismlarning ajralmas borligi, ularning deyarli yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to'g'ri xulosani aniqlashdan tashkil topgan [6]. Adaptiv ham aniq axborotlarni va ulardan foydalanish singari jarayonini o'rganish va o'rgatish uchun qulaylashtirish va moslashtirish asosida rejadagi kutilgan natijalarga erishish. Inkuziv va ta'lim o'qituvchi bilan talabalarning o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil qilish degani. Hozirda zamonaviy va pedagogik va texnologiyaning yuqorida aytilganlaridan ham tashqari, mutaxassislar tomonidan tajriba va sinovlar olib borilayotgan boshqa qanday yo'nalishlari uchraydi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Shu sababli uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish kerak. Zero, o'quvchi-talabalar dunyo axborotlarini saralashni bilishlari va nima muhim, nima muhim emasligini tanqidiy, ijodiy va samarali baholashni o'rganishlari muhim. Avvalo, axborotni yaxshi boshqarish va saralashni bilishlari uchun o'quvchi-talabalarda amaliy bilish qobiliyati, tanqidiy fikrlash malaka va ko'nikmalarini shakllantirishi kerak. Bu esa ularga tanqidiy fikrlash asosida axborot va g'oyalarni samarali saralash va tanlash imkoniyatini beradi, saralab olingan axborot va g'oyalarni to'g'rilashga olib keladi va ular amaliy harakat shakllariga aylantirilishi mumkin. Aniqroq qilib aytganda, ularning tanqidiy fikrlash odatlarga aylantirishlariga to'g'ri keladi. Biroq tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan shakllanmaydi. Foydali axborot va fikrlarni olish bo'yicha tajriba, malaka-ko'nikmalar hosil qilishlari kerak.

Tanqidiy tahlil jarayoni muntazam davom etishi shart tanqidiy fikrlash natijasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Bu narsa sodir bo'lishi uchun o'qituvchilar dars o'tishda beixtiyorlik va ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi kerak.

Xo'sh, tanqidiy fikrlashning o'zi nima? Uning ta'rifiga kelsak, turli xil fikrlar va baholashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, «tanqidiy fikrlash», «analitik fikrlash», «mantiqiy fikrlash», «ijodiy fikrlash» va boshqalar va biz bu so'zning etimologiyasini eslab, bunga qo'shilishimiz mumkin. «Tanqid» (yunoncha kritike – «baholash, tahlil qilish, muhokama qilish»), binobarin, «tanqidiy» – «baholash, tahlil qilish». Tanqidiy fikrlash (muqobil ravishda dogmatik) ijodiy, analitik va konstruktiv fikrlash sifatida tushunilishi mumkin. Pedagogik nuqtayi nazardan, biz uni faol va interaktiv bilish jarayoni sifatida ko'rib chiqamiz. Tanqidiy fikrlash – bu interaktiv, ijodiy, aks ettiruvchi fikrlash. Tanqidiy fikrlash o'z «men»ni tushunish va amalga oshirishni anglatadi obyektiv, mantiqiy, boshqa nuqtayi nazarlarni idrok etish.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, odam ham tanqidiy fikrlashda, u yoki va bu g'oyalari qatori bilan tanishtirib, ularni yanada amalga oshirishdagi muhim masala bo'lgan keyingi oqibatlarni ham keyin e'tiborga oladi. Odam bu ham keyingi g'oyalarni, avval va dastlab, ma'lum bir darajadagi ishonchsizlik oqibati bilan idrok va hal qiladi va qarama-qarshi nuqtayi nazarlar bilan yaqqol taqqoslaydi. Ularni asoslash va taqoslash uchun qo'shimcha va mulohazalar tizimidan ham keng foydalanadi va bular bilan o'z nuqtayi ham nazarini ishlab chiqadi. Tanqidiy fikrlash degani keng g'oya va imkoniyatlarni bir ijodkorlik bilan birga uyg'unlashuvi, konsepsiyalarini bir qayta qurishdek ancha murakkab jarayon. Faol va interaktiv kabi bilishning bir necha va nechta darajalarida ko'rishni bir vaqtda ro'y beradigan qilib jarayonda ham hisoblanadi. Tanqidiy fikrlaydigan shaxsga hech qanday turli hiylanayranglar va nosog'lom g'oyalari ta'sir qilmaydi, chunki u o'zining qat'iy shaxsiy qarashlariga ega bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Shodmonova Sh. Oliy o'quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (kasb ta'limi yo'nalishi misolida). Ped. fan. dok. ... diss., T., 2010, 340 bet.
- (2). Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss., T., 1993, 364 bet.
- (3). Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. Тошкент, 2017, 116-бет.
- (4). Silber K.H. Some implication all o f the history o f Educational Technology We're all in this together. In: J.W.Bro(wn and S.N.Brown. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado: Librares Unlimited, 1981, p. 21.
- (5). «Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusidagi seminar-trening materiallari. T., 2002, 31-bet.
- (6). S.Norboyeva. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish (metodik qo'llanma). Termiz, 2021, 19 bet.

**Ashirova Anorgul Ismoilovna (TATU Urganch filiali dotsenti; anorgul76@gmail.com),  
Quljanova Shukurjon Zaribovna (TATU Urganch filiali magistranti; quljanova83@mail.com),  
Allaberganov Suxrob Umid o'g'li (TATU Urganch filiali talabasi; suxrobxiva30@gmail.com)  
INKLUZIV TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI**

*Annotatsiya. Maqolada imkoniyati cheklangan yoshlarni oqitishda raqamli texnologilarning ta'lim tizimidagi o'rni, inkluziv ta'limda raqamlashtirish, ta'lim berish jarayonida sun'iy intellektni qo'llanilishi bo'yicha ilmiy va nazariy materiallar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: ta'limni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, inkluziv ta'lim, sun'iy intellekt, experiments with Google, Google Labs.*

**Аширова Аноргул Исмоиловна (доцент Ургенчского филиала ТАТУ; anorgul76@gmail.com),  
Кулжанова Шукуржон Зарибовна (магистрант Ургенчского филиала ТУИТ; kuljanova83@mail.com),  
Аллаберганов Сухроб Умид оглы (студент Ургенчского филиала ТУИТ; sukhrobhiva30@gmail.com)**

#### **ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

*Аннотация. В статье представлены научно-теоретические материалы о роли цифровых технологий в системе образования, цифровизации в инклюзивном образовании, использовании искусственного интеллекта в образовательном процессе.*

*Ключевые слова: цифровизация образования, цифровые технологии, инклюзивное образование, искусственный интеллект, эксперименты с Google, Google Labs.*

**Ashirova Anorgul Ismoilovna (docent of the Urgench branch TUIT, anorgul76@gmail.com),  
Quljanova Shukurjon Zaribovna (master student of the Urgench branch TUIT, kuljanova83@mail.com),  
Allaberganov Suxrob Umid oglu(student of the Urgench branch TUIT, sukhrobhiva30@gmail.com)**

#### **APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN INCLUSIVE EDUCATION**

*Annotation. The article presents scientific and theoretical materials on the role of digital technologists in the education system, digitalization in inclusive education, and the use of artificial intelligence in the educational process.*

*Key words: digitalization of education, digital technologies, inclusive education, artificial intelligence, experiments with Google, Google Labs.*

**Kirish (Introduction).** 2020-yil 23-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni qabul qilindi. Qonunda ta'lim olish shakllarida inkluziv ta'lim kiritildi. Inkluziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida

inkluziv ta'lim tashkil etilishidir. Dunyoning barcha mamlakatlarida va jamiyatning barcha ijtimoiy guruhlariida nogironlar bor, dunyoda ularning soni sezilarli o'sishda davom etmoqda.

Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o'quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o'quvchi ta'lim oladi. Hozirda O'zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inkluziv ta'lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inkluziv ta'limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda [3].

Inkluziv ta'lim – bu asosiy maktablarda alohida ehtiyojli bolalarni o'qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Inkluziv ta'lim – sog'lig'ida jiddiy muammolar bo'lmagan bolalar va eshitish, ko'rish, nutq, aql, xulq-atvor, tayanch-harakat va murakkab kasalliklarga chalingan bolalarni birgalikda o'qitish.

Inkluziv ta'lim (inglizcha inclusion – inkluzion, shu jumladan, ta'lim, birgalikda o'rganish) – jismoniy, ijtimoiy, hissiy, aqliy, lingvistik, intellektual va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar, har bir shaxsga umumiy o'rganish imkoniyati beriladigan ta'lim shakli. Inkluziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamситishlarni istisno qiladigan, barcha odamlarga teng munosabatni ta'minlaydigan, ammo maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun alohida sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Inkluziv ta'lim – bu barcha bolalarning turli xil ehtiyojlariga moslashish nuqtayi nazaridan, hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadigan umumiy ta'limning rivojlanish jarayoni, bu alohida ehtiyojli bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi [4].

Bugungi kunda inkluziv ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalalanish bo'yicha ko'plab psixologik va pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan, ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanilishi bo'yicha (G.A.Abumova, T.P.Gordienko, V.A.Kudinov, E.I.Yaroslavleva); ta'limda raqamli transformatsiya jarayonlarining ahamiyati (O.B.Akimova, A.S.Vavilova, Y.V.Koryakina, V.S.Moskaluk, E.A.Tsvetkova); inkluziv ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha (G.I.Aksenova, N.N.Dementieva, L.T.Zematova, Ch.M.Mirkarimova, E.V.Rudenko, F.R.Xaybullayeva)lar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Inkluziv ta'limning tamoyillari:

- insonning qiymati uning qobiliyatlari va yutuqlariga bog'liq emas;
- har bir inson his qilish va fikrlashga qodir;
- har kim muloqot qilish va tinglash huquqiga ega;
- barcha odamlar bir-biriga muhtoj;
- haqiqiy ta'lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin;
- barcha odamlar tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashi va do'stligiga muhtoj;
- barcha o'quvchilar uchun muvaffaqiyatsizlikka qaraganda, ular qila oladigan narsalarga erishish ehtimoli ko'proq;
- turli xillik inson hayotining barcha jabhalarini yaxshilaydi.

Inkluziv ta'lim tizimiga o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari kiradi. Uning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini inobatga olgan holda, bolalarni o'qitish va o'qitishda to'siqsiz muhit yaratishdir. Ushbu chora-tadbirlar majmuasi ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishini hamda o'qituvchilar va boshqa talabalar uchun ularning nogironligi bo'lgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Zamonaviy dunyoda o'qituvchi ko'p sondagi bolalarni o'qitishi, ta'lim va tarbiya berishi, ularning har birini bilim olish ehtiyojlari va qiziqishlariga mos faoliyat yuritishi kerak. Ayrim bolalarning o'quv dasturini o'zlashtirishida qo'shimcha o'qitishi, qo'shimcha metodik yordam berishi, alohida e'tibor berishi kerak bo'ladi. Raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt o'qitish jarayonini personallashtirish imkoniyatini beradi. Inkluziv ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash zarur, chunki sun'iy intellekt texnologiyalari o'qituvchi faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek, personallashtirilgan ta'lim ideal darajada o'quvchi ehtiyojlariga mos bo'lib, o'quvchini bilim olishini faollashtiradi, rivojlantiradi. O'qitish jarayoniga sun'iy intellektni qo'llash imkoniyati cheklangan o'quvchilarni va boshqa o'quvchilarni bir xil bilim olish imkoniyatini beradi.

Ko'zi ojiz o'quvchilarga tovush va ovozlarni yordamida, eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarga ovoz buyruqlarini matnga o'girishda, matnlar bilan ishlashda, tayanch harakat tizimida nuqsoni bor o'quvchilarga tezkor murojaat klavishalari orqali yordam beradi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Experiments with Google instrumentlar servisi (*experiments.withgoogle.com*) – Google kompaniyasi tomonidan yaratilgan bo‘lib, imkoniyati cheklangan bolalar ijodini rivojlantirish uchun instrumentlar kolleksiyasi yig‘ilgan. Bunda oquvchiga eng keraklisi veb kamera va internetga ulangan kompyuter yoki planshet zarur. Servisda ko‘p instrumentlarga murojaat bepul va servisda 1613 instrument mavjud (1-rasm).



**1-rasm. Experiments with Google instrumentlar servisi bosh sahifasi inkluziv ta'limda qo'llaniladigan ayrim instrumentlarni qarasak.**

1) klaviatura – oddiy musiqali klaviatura yuz, tana, sichqoncha va klavishalar yordamida o‘yin o‘ynashi mumkin. Bu instrument boshlang‘ich sinflarda musiqa darslarida qo‘llanilishi, tayyor melodiyaning tarqatma material yoki doskaga yozish yordamida amalga oshiriladi;

2) tovush – tovush yoki ko‘rish orqali chizish instrumenti, sichqoncha va klaviatura yordamida ham yasash mumkin;

3) tana sintezatori. Bu instrument sezish orqali tana harakatingizni tovushga aylantiradi. Beb kamerani ulab tanani turli qismlarini harakatlantirasiz, turli nota yoki tovush ishlab chiqadi.

Google Labs – bu yangi mahsulotlar va g‘oyalarni sinab ko‘rish va sinab ko‘rish uchun Google tomonidan taqdim etilgan platforma.

Ushbu innovatsion loyiha foydalanuvchilarga, keyinchalik, Googlening asosiy mahsulotlarida joriy etilishi mumkin bo‘lgan yangi texnologiyalar va funksiyalarni ishlab chiqishda ishtirok etish imkonini beradi. Google laboratoriyalarida unumdorlik va xavfsizlik vositalaridan tortib, o‘yinlar va o‘yin-kulgilargacha bo‘lgan keng ko‘lamli loyihalar mavjud. Google Labs’dagi har bir loyiha jiddiy sinovdan o‘tadi va foydalanuvchilardan fikr-mulohazalarni oladi, bu esa ishlab chiquvchilarga o‘z g‘oyalarni yaxshilash va takomillashtirish imkonini beradi.

Google Labs – innovatsiyalar va hamkorlik uchun ajoyib joy bo‘lib, u yerda har bir kishi kelajak texnologiyalarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin. Ushbu platforma orqali Google texnologik innovatsiyalar bo‘yicha yetakchi bo‘lib qolmoqda va foydalanuvchilarga yangi tajriba va yechimlarni taqdim etmoqda.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, inkluziv ta’limda sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llanilishi, raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy qilinishi O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish jadal sur‘atlarda olib borilayotganidan dalolat beradi. Ta’lim shakllari sifatida inkluziv ta’lim qabul qilinganligi ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligidan, shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida hech bir bola davlatimizning nazaridan chetda qolmaganligining isbotidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):**

- (1). Владимиров Н.М. Нейрообразование и проблемы субъектности инклюзии. “Специальное образование”, 2022, № 1 (65).
- (2). Мортикова Д.С. Инклюзивное образование в современном обществе. БМИК, 2020, № 5.
- (3). <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/talim-va-men/inklyuziv-talim-nima/>



(4). [https://uz24.uz/uz/articles/inklyuziv\\_talim](https://uz24.uz/uz/articles/inklyuziv_talim)

**Avezov Mardonbek Abdullayevich (Nukus davlat Pedagogika instituti “Informatika o‘qitish metodikasi” kafedrası assistent o‘qituvchisi; mardon8914@gmail.com)**

## **BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada malakaviy pedagogik amaliyotni to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, amaliyot jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash, talabalarni g‘oyaviy-siyosiy, aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy hamda estetik jihatdan tarbiyalashning birligini ta‘minlashga doir ko‘nikmalar shakllanishi masalasi ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** malakaviy amaliyot, kasbiy kompetensiya, multimediali elektron ta‘lim resurslari, malakaviy amaliyot dasturi va h.k.

### **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы правильной и эффективной организации квалифицированной педагогической практики, формирования профессиональных компетенций у будущих педагогов, анализируется проблема воспитания учащихся в процессе практики, формирование у них навыков обеспечения единства идейно-политического, умственного, нравственного, трудового, физического и эстетического воспитания.

**Ключевые слова:** квалификационная практика, профессиональная компетентность, мультимедийные электронного обучения, программа профессиональной практики и т.д.

### **THE ROLE AND IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL PRACTICE IN THE TRAINING OF FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS**

**Annotation.** This article covers the question of the formation of skills related to the correct and effective organization of qualification pedagogical practice, the formation of professional competencies in future teachers, the education of students in the process of practice, the unity of ideological-political, mental, moral, labor, physical and aesthetic education of students.

**Key words:** qualification practice, professional competence, multimedia e-learning resources, qualification practice program, etc.

**Kirish (Introduction).** Respublikamizda informatika va axborot texnologiyalari sohasini o‘rganish va o‘rgatishda asosiy qurol kompyuterlar va texnologiyalar bo‘lganligi sababli, ushbu sohani o‘rganishda amaliyotning o‘rni va ahamiyati beqiyos deb o‘ylaymiz. Shu sababli talabalarining pedagogik amaliyotlarda faol qatnashishini ta‘minlash muhim ahamiyatga egadir. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashning muhim bosqichlaridan biri pedagogik amaliyot sanaladi. Oliy ta‘lim muassasasi auditoriyasida egallangan nazariy bilimlar, malaka va ko‘nikmalar maxsus ta‘lim muassasalarida amaliyot davomida sinovdan o‘tkaziladi, rivojlantiriladi [1].

Pedagogik amaliyot talabalarining kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quv tarbiyaviy ishlarga kasbiy-pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ta‘lim ta‘limni tashkil etishda o‘quv jarayoni bilan birgalikda talaba-yoshlarning olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay bilishini tashkil etish ushun ishlab shiqarish muassasalari, ta‘lim-tarbiya maskanlari, bir so‘z bilan aytganda, tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha amaliyot o‘tkazishi va olgan bilimlarini mustaxkamlashi ushun tarmoq sohalar birlashtirildi. Ta‘lim ta‘limda amaliyotlarni tashkil etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [2].

Biz izlanishlarimiz davomida shunday muammo va kamshiliklarga duch keldik va bu muammo yechimi bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashda amaliyotlarini tashkil etish hamda o‘tkazishda dolzarbdir.

Ta‘lim muassasalarida malakaviy amaliyotlarni tashkil etish hamda o‘tkazishda mavjud muammolar va kamshiliklar tahlilini ko‘rib chiqaylik.

<b>Mavjud muammo va kamchiliklar</b>	<b>Muammoning yeshimi</b>
Malakaviy amaliyot mavzulari aks etgan o‘quv qo‘llanma va adabiyotlarning yetarli emasligi.	Raqamli texnologiyalar muhitida elektron darsliklar va raqamli uslubiy qo‘llanmalar yaratish.
Malakaviy amaliyot jarayonida har bir talaba ushun jihatdan hozirgi ishshi o‘rinlarning yetarli emasligi.	Malakaviy amaliyotni tashkil etishda tabaqalashtirish ya‘ni, amaliyot o‘tash tashkilotining moddiy-texnik im-

Malakaviy amaliyot mashg'ulotlarining mavzulariga mos jihozlarning yo'qligi.	koniyatini inobatga olib, kurslar kesimida amaliyot grafigini ishlab chiqish.
Mavjud jihozlarning hozirgi zamon talablariga javob bermasligi.	Mutasaddi tashkilot va tegishli davlat organlari bilan birgalikda dasturlar asosida moddiy-texnik bazani yangilash.
Malakaviy amaliyot mavzulari ish beruvshilarning talablariga mos kelmasligi.	Ish beruvshi tashkilot rahbariyati bilan muntazam davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish.
Ayrim mutaxassis kasblari bo'yicha malakaviy amaliyotni o'tkazish ushuni tizimda foydalanayotgan dasturlarning etarli emasligi.	Malaka talablari, namunaviy o'quv dasturlarini bugungi talablarga mos ravishda ishlab chiqish. Mutaxassislik fanlari bo'yicha IT bilimni rivojlantirishga e'tibor qaratish.
Ishlab shiqarish ta'limi ustalari va maxsus fan o'qituvchilarining bilim va malakalarini etarli darajada emasligi.	O'qituvshi-pedagoglarni malakasini oshirish, zamonaviy pedagogik va kompyuter texnologiyalarini talab darajasi bilishi.
Ish beruvshi tashkilot, muassasa va muassasalar bilan hamkorlik shartnomalari yo'qligi hamda hamkorlik ishlari yo'lga quyilmaganligi.	Malakaviy amaliyotni tashkil etishda tashkilotlar bilan kelishgan holda, moddiy-texnik imkoniyatni inobatga olib, guruh va kurslar kesimida tashkil etish.
Malakaviy amaliyot dasturidagi mavzular ishlab shiqarish, xizmat ko'rsatish va xususiy sektorlarda faoliyatiga mos kelmasligi kabi bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi.	Davlat xususiy sherikchilik va xususiy sektor tashkilotlarini bilan hamkorlikni ta'minlash va o'quv dasturlarini shunga mos ravishda integratsiyalashtirish.

**1-jadvalda mavjud muammolar va ularning yeshimlari tavsiya etilgan.**

Bundan tashqari, amaliyotlarni tashkil etishda, birinchi navbatda, moddiy-texnik baza hisoblanadi. Davlat dasturi bo'yicha hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar tizimli davom etmoqda. Bu ishlarni jadalashtirish zarur. Ushbu muammo va kamshiliklarni hal qilish bo'yicha tavsiya etilgan eshimlardagi faoliyatlar amalga oshirilsa, ta'lim muassasalarida ishlab shiqarish amaliyotlari samarasi yanada oshadi.

Bizga ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi bo'lajak kasb egalarida yuksak ahloqiy fazilatlarini shakllantirish, talabalarda ta'limga bo'lgan talabni faollashtirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini yuqori darajaga ko'tarishdan iborat. Shu sabab biz tomonimizdan tadqiqot davomida bo'lajak informatika o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish, innovatsion texnologiyalar va yangisha yondashuvlarni ta'limda qo'llash, ta'lim sifatini nazorat qilish muammosi bo'yicha pedagog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy va nazariy jihatlari tahlil qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ta'limning barcha turlari va toifalari ushuni amal-liyotlarni o'tkazish hamda tashkil etishda yuqorida sanab o'tilgan muammo va kamshiliklarga yechim topish kechiktirib bo'lmas masala hisoblanadi. Chunki bo'lajak informatika o'qituvchilari malakali va raqobatbardosh bo'lishi ushuni o'quv jarayoni va amaliyoti talab darajasida bo'lishi zarur [3].

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda ta'limni axborotlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan o'quv mashg'ulotlarida foydalanishdir. Ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy bosqichda elektron ta'lim resurslariga daxldor bo'lgan elektron darsliklarni, ensiklopediyalarni, o'rgatuvchi dasturlarni, ta'lim oluvchilar bilimlarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish tizimlarini, trenajrlarni, vebkvestlarni, kompyuterli ishbilarmon o'yinlarni, multimedia prezentatsiyalarni, virtual laboratoriyalarni va boshqa elektron-didaktik vositalarni ishlab chiqishning yagona pedagogik yondashuvini ishlab chiqish an'analari davom etmoqda [4].

Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, elektron ta'lim resurslari talabalarining bilish faoliyatini ratsional tashkil etish, ta'limni yanada samarali qilish, ochiq ta'lim tizimini yaratish, faol o'qitish jarayoniga o'qishga qiziqishi yuqori bo'lgan qobiliyatli talabalarni jalb qilish, yangi didaktik vositalarga murojaat qilish va ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini intensivlashtirish imkonini beradi.


**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** "Elektron ta'lim resurslari" tushunchasini tahlil etishda, biz tomonimizdan shunday xulosaga kelindiki, o'qitish vositalariga yagona klassifikatsiya bo'lmaganidek, zamonaviy pedagogikada bu tushunchaning ham yagona ta'rifi yo'q ekan.

Multimediali elektron ta'lim resurslarida axborotlar zamonaviy usulda multimedia va animatsiya vositalari yordamida to'laqonli yoritiladi. Uning asosiy e'tiborli jihati shundaki, ta'lim oluvchilarning olingan bilimlarini interaktiv usulda nazorat qilish imkoni mavjud. Multimediali elektron ta'lim resurslarini yaratish jarayoniga turli yo'nalish bo'yicha mutaxassislar jalb qilinadi, ular quyidagilardir:

– o'qituvchilar;

- psixologlar;
- testologlar;
- web-dizaynerlar;
- dasturchilar.

Bu mutaxassislarning multimediali elektron ta'lim resurslarini yaratish jarayonida o'zlariga yuklanilgan vazifalari juda muhimdir. Chunki ularning har biri chin dildan bajarsa, dastur mukammal ishlay oladilar.



1-rasm. Yaratilgan elektron platformaning ishlatish strukturasi.

Pedagogik amaliyot davrida talabalar "Malakaviy amaliyot dasturi"da ko'rsatilgan ishlarni o'z vaqtida bajarishi, pedagogik amaliyot ish jurnalini yutishi lozim bo'ladi. Bu jarayonda talabalarga malakaviy amaliyot dasturi bo'yicha tushunchalar yetishmasligi va ish jurnalini yuritishda har xil muammolarga dush kelishi, amaliyot rahbarlarining amaliyotchi talabalar bilan ishlashida turlicha fikrlar kelib chiqishi mumkin. Malakaviy amaliyot o'quv sohasini o'zlashtirish, ma'ruza, laboratoriya va izlanish ishlarining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuqur nazariy va ta'lim tayyorgarlikka ega bo'lgan, mutaxassislar ish faoliyatini tashkil qilish va boshqarishning zamonaviy uslublari bilan tanish bo'lgan kishik mutaxassislar tayyorlashning ko'r rejali ishi qiyin va mas'uliyatlidir va bunda ma'lum rol malakaviy amaliyotga to'g'ri keladi. Malakaviy amaliyotni o'tish jarayonida talabalar o'z mutaxassisligi va ixtisosliklari bo'yicha ishini tashkil qilish, hukumat qarorlari, fanga oid meyoriy hujjatlar bilan chuqur tanishadilar. Ta'lim muassasasi

tomonidan birlashtirilgan mas'ul va o'qituvchilar yordamida talabalar kundalik daftarni muntazam ravishda to'ldirib boradi. Bu jarayonda biz yaratgan talabalar amaliyotini tashkil qilish mobil elektron tizimi yaqindan yordam beradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bu tizimning ahamiyati shundaki, amaliyotga javobgar o'qituvchi talabalarning davomati, ularning o'z darslariga to'liq qatnashayotgani va hujjatlari ustida qanday ishlayotganini kiritib reyting chiqarib borishi mumkin. Bundan tashqari, talabalarga topshiriqlarni yetkazish kerak bo'lsa, ushbu elektron tizim eng optimal yechimdir. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda biz taqdim etayotgan dasturlardan foydalanish o'quv jarayonini faollashtiradi, talabalarining o'rganilayotgan fanga qiziqishini va o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quv materialini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). A.K.Raximov, B.B.Abdiraimova. Pedagogik amaliyot o'tkazish metodikasi. O'quv qo'llanma, "MALIK PRINT CO", Toshkent, 2021.

(2). R.Niyozimbetova, T.Yusupova, G.Eshchanova. Pedagogik amaliyot. O'quv-metodik qo'llanma, T., 2017.

(3). J.O'.Muxammadiyev, Z.R.Raxmonov. Matematika va informatika o'qitish metodikasi. "ZEBO PRINT", Toshkent, 2021.

(4). Maxkamov, X. "Bo'lajak informatika o'qituvchilarni o'quv amaliyoti jarayonida pedagogik faoliyatga tayyorlash yo'llari". Interpretation and Researches, № 1, 1-iyun 2023. <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/592>.

(5). Kunnazarov Amangeldi Quatbaevich. "Methodology of creating and using software tools in computer science". European Scholar Journal, vol. 4, № 1, Jan., 2023, pp. 56–59. <https://www.scholarzest.com/index.php/esj/article/view/3158>.

**Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna (Xorazm viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Pedagogika va psixologiya ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent; e-mail: sabnas1@yandex.ru)**

### **BOSHLANG'ICH SINFLAR UCHUN O'QITISH USLUBLARI VA TA'LIM TEKNOLOGIYALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalari qo'llanilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o'qitish usullarining talabalarga ta'siri va ta'lim jarayonida texnologiyalarning roli o'rganiladi. Maqola pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar asosida ta'limni yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, o'qitish usullari, ta'lim texnologiyalari, pedagogika, innovatsion texnologiyalar.*

**Махмудова Наргиз Джуманиязовна (заведующий кафедрой «Образовательные технологии педагогики и психологии», Хорезмский областной национальный центр обучения учителей новым методам, кандидат педагогических наук, доцент; e-mail: sabnas1@yandex.ru)**

### **МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

*Аннотация. В данной статье анализируется использование современных методов обучения и образовательных технологий для повышения эффективности начального образования. В ходе исследования изучено влияние методов обучения на учеников и роль технологий в образовательном процессе. Статья предлагает практические рекомендации по улучшению образования на основе педагогических методов и инновационных технологий.*

*Ключевые слова: начальное образование, методы обучения, образовательные технологии, педагогика, инновационные технологии.*

**Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna (Head of the department "Educational Technologies of Pedagogy and Psychology", Khorezm Region National Center for Training Teachers in New Methods, Candidate of Pedagogical Sciences, docent; e-mail: sabnas1@yandex.ru)**

### **TEACHING METHOD AND EDUCATIONAL TECHNOLOGIES FOR PRIMARY GRADES**

*Annotation. This article analyzes the application of modern teaching methods and educational technologies to enhance the effectiveness of primary education. The study examines the impact of teaching methods on students and the role of technology in the educational process. The article provides practical recommendations for improving education based on pedagogical methods and innovative technologies.*

*Key words: primary education, teaching methods, educational technologies, pedagogy, innovative technologies.*

**Kirish.** Boshlang'ich ta'lim bolalar uchun ta'lim olishning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar, asosan, o'qitish usullari va texnologiyalar orqali bilimlarni o'zlashtiradilar. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati, ko'pincha, o'qitish usullari va texnologiyalarning samaradorligiga bog'liq. Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining dolzarbligini va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini tahlil qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Boshlang'ich ta'limda o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Misol uchun, Smith (2020) tadqiqoti o'qitishning interaktiv usullari yordamida o'quvchilar motivatsiyasini oshirish haqida ma'lumot beradi. Yana bir misol, Johnson (2019) tadqiqotida ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati va ularning o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashdagi roli ko'rib chiqilgan. Ushbu adabiyotlar tahlili tadqiqotning muhimligi va dolzarbligini tasdiqlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi boshlang'ich sinflarda o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalari samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda kvantitativ va sifatli metodlar qo'llanilgan, jumladan, o'quvchilarning bilim darajasini baholash va o'qituvchilar bilan intervyular o'tkazish orqali ma'lumotlar to'plangan. Tadqiqotda eksperimental metod ham qo'llanilgan bo'lib, unda turli usullar va texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganilgan.

Kvantitativ ma'lumotlar yig'ish uchun o'quvchilarning bilim darajasini baholashga oid testlar va anketalar qo'llanildi. Bu testlar o'quvchilar bilimlarini oldingi va keyingi holatlarni solishtirish imkonini berdi. Sifatli ma'lumotlar yig'ish uchun esa o'qituvchilar bilan intervyular o'tkazilib, ularning ta'lim jarayonidagi usullari va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha fikrlari o'rganildi. Shuningdek, tadqiqotda eksperimental metod qo'llanilgan bo'lib, unda turli o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganildi. Eksperiment natijalari o'quvchilarning bilim darajasi va ta'lim jarayonidagi ishtiroki asosida baholandi. Bu usullar tadqiqotning keng qamrovli va ishonchli natijalarini ta'minladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalari samaradorligini o'rganishga qaratilgan tadqiqotda kvantitativ va sifatli metodlar keng qamrovda qo'llanilgan. Bu yondashuvlarning birgalikda qo'llanilishi turli ko'rsatkichlarni keng ko'lamda baholash va tahlil qilish imkonini berdi. Quyida tadqiqot metodologiyasining asosiy jihatlari batafsil ko'rib chiqiladi.

**Kvantitativ metodlar.** Kvantitativ metodlar o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining samaradorligini o'lchash va statistik ma'lumotlarni olish uchun ishlatilgan. Kvantitativ metodlar yordamida statistik ma'lumotlar to'plandi. Uning asosiy yo'nalishlar quyidagilar.

• **O'quvchilar bilimni baholash testlari.** Tadqiqotda o'quvchilar bilim darajasini baholash uchun oldindan va keyin baholash testlari o'tkazildi. Bu testlar turli o'quvchilarning bilim darajasini taqqoslash va o'zgarishlarini kuzatish imkonini berdi. Ma'lumotlar tahlili uchun statistik dasturlar (SPSS yoki R) yordamida regrezyon va ANOVA kabi statistik usullar qo'llanildi.

• **Anketalar.** O'quvchilarning ta'lim texnologiyalari va usullariga bo'lgan munosabatlarini o'rganish uchun o'quvchilar va o'qituvchilarga anketalar tarqatildi. Anketalar o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining samaradorligini baholash uchun kerakli ma'lumotlarni yig'ishga yordam berdi. Masalan, o'quvchilarning yangi o'qitish usullariga bo'lgan munosabatlari, ulardagi bilim o'zgarishlari va motivatsion ko'rsatkichlar anketalar yordamida o'rganildi.

**Statistik tahlil.** Toplangan ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, ta'lim usullari va texnologiyalarining o'quvchilarga ta'siri haqida aniq va ishonchli natijalar olish uchun statistik modellardan foydalanildi [2; 56–70-b.].

**Sifatli metodlar.** Sifatli metodlar o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalari haqidagi chuqurroq tushunchalarni olish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi.

• **O'qituvchilar bilan intervyular.** O'qituvchilar o'quvchilarning bilim olish jarayoni haqida o'z tajribalarini va fikrlarini baham ko'rishdi. O'qituvchilar bilan chuqur intervyular o'tkazilib, ulardan yangi ta'lim usullari va texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri haqida ma'lumot olindi. Bu intervyular o'qituvchilar tajribasi, qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlari haqidagi sifatli ma'lumotlarni olishga imkon berdi. Intervyularda to'plangan ma'lumotlar kontent tahlili orqali o'rganildi.

• **Kuzatuvlar.** Dars jarayonida o'quvchilarning va o'qituvchilarning qanday faoliyat ko'rsatayotganliklari kuzatildi. Bu kuzatuvlar o'quvchilarning dars jarayoniga qanday jalb qilinganliklarini va texnologiyalarni qabul qilish darajasini aniqlashga yordam berdi. Kuzatuv natijalari strukturaviy tahlil yordamida tahlil qilindi [3;102–105-b.].

**Ekspirimental metod.** Ekspirimental metod turli o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining samaradorligini aniqlash uchun ishlatilgan: Ekspirimental metod yordamida quyidagi amallar bajarildi.

**Ekspiriment dizayni.** O'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining ta'sirini o'rganish uchun ko'p fazali ekspiriment dizayni qo'llanildi. Masalan, turli sinflarga ta'lim usullari va texnologiyalar qo'llanilgan va ularning ta'siri solishtirildi. Kontrol guruh va ekspirimental guruhlar orqali usullar va texnologiyalarning ta'siri o'rganildi [4;78–89-b.].

•**Ma'lumotlar to'plami.** Ekspiriment davomida yig'ilgan ma'lumotlar o'quvchilarning darsdan oldingi va keyingi bilim darajasi, dars davomida ularning ishtiroki va qiziqishi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oldi. Bu ma'lumotlar asosida ta'lim samaradorligi baholandi.

•**Intervensiyalar.** Turli o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalari o'qituvchilar tomonidan sinab ko'rildi [7;123–135-b.].

•**Natijalar tahlil qilindi va baholandi.** Ekspiriment natijalari kvantitativ va sifatli metodlar orqali tahlil qilindi. Ekspirimentning natijalari o'quvchilarning bilim darajasi va ishtiroki orqali baholandi. Bu usullar turli o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarga ta'sirini aniq va keng qamrovda baholashga imkon berdi.

•**Metodologik chora-tadbirlar.** Tadqiqot davomida ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlash uchun turli choralar ko'rildi. Ma'lumotlar to'g'riligi, tenglik va shaffoflikni ta'minlash uchun ko'p marta tekshirildi. Shuningdek, tadqiqotda etika qoidalariga rioya qilindi, anonimlik va maxfiylik saqlangan [5;112–115-b.].

•**Neytral tahlil.** Tadqiqot natijalari neytral va obyektiv tahlil qilindi, turli o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining samaradorligini aniqlash uchun subyektiv fikrlardan voz kechilgan. Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun umumiy tavsiyalar sifatida dars jarayonida qo'llash maqsadida quyidagi usullarni ham misol qilib keltirish mumkin:

•**Innovatsion yondashuvlar.** Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni kengroq qo'llash kerak.

•**O'qituvchilarni innovativ usullar orqali o'qitish.** O'qituvchilarga yangi ta'lim usullari va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha doimiy treninglar tashkil etish zarur.

•**O'quvchilarni darsga faol jalb etish.** Darslarda o'quvchilarni faol ishtirok etishiga rag'batlantirish va ularning qiziqishini oshirish uchun interaktiv usullardan foydalanish kerak [6;414–417-b.].

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, interaktiv o'qitish usullari va zamonaviy ta'lim texnologiyalari boshlang'ich sinflarda ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoniga ko'proq jalb qilinganliklari va ularda bilimlarni o'zlashtirish darajasi oshganligi kuzatildi. Shuningdek, o'qituvchilar interaktiv usullar yordamida talabalarning qiziqishini uyg'otganliklari aniqlandi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda zamonaviy o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuning uchun o'qituvchilarni interaktiv metodlar va texnologiyalarni o'zlashtirishga o'rgatish muhimdir. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq tahlil va tajribalarni talab qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Bekzodovna, J.M., & Abdullayevna, R.N. Organization of Modern Educational Processes in The Education System.
- (2). Brown, A. (2018). Pedagogical Approaches to Primary Education. *Journal of Pedagogy*, 39(4), p. 56–70.
- (3). Davis, K. (2017). Innovative Technologies in Classroom. *Education Today*, 29(2), p. 102–115.
- (4). Johnson, L. (2019). The Role of Educational Technologies in Enhancing Learning Outcomes. *Educational Technology and Society*, 22(1), p. 78–89.
- (5). Jumayev, F.B., & Jumayev, B.N. (2023). Technology of Using of Didactic Games in English Language Lessons. *Boshqaruv va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnal*, 3(4), p. 112–115.
- (6). Mohira, J. (2023). Problematic Situations That Arise in Learning Foreign Languages and Their Solutions. *International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory*, 1(2), p. 414–417.
- (7). Smith, J. (2020). Interactive Teaching Methods in Primary Education. *Journal of Educational Research*, 45(3), p. 123–135.

Safarov Feruz Saminjon o'g'li (Termiz davlat universiteti o'qituvchisi; safarovferuz254@gmail.com)  
**BO'LAJAK "TEKNOLOGIYA" FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JIHATLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, pedagogik-metodik asoslari hamda texnologik savodxonlik, mantiqiy, tanqidiy, ijodiy, kreativ va tizimli fikrlashlarini takomillashtirish, qolaversa, muayyan bir vaqtda mustaqil qaror qabul qila olish, o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi hamda kamol topishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** texnologik savodxonlik, tanqidiy, kreativ, tizimli fikrlash, intellektual, muhandis, ishlab chiqarish, shaxs, kasbiy tayyorgarlik, ijodkorlik.*

**Сафаров Феруз Саминджон огли (преподаватель Термезского государственного университета; safarovferuz254@gmail.com)**

**НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ  
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ПРЕДМЕТА «ТЕХНОЛОГИИ»**

***Аннотация.** В статье рассмотрены научно-теоретические, педагогико-методические основы развития профессиональных компетенций будущих учителей предмета «Технологии», а также изучены особенности совершенствования их технологической грамотности, логического, критического, творческого, творческого и системного мышления, умения принимать самостоятельные решения в определенное время. Приводится информация о способности учителей проявить свои интеллектуальные способности, а также об их становлении духовно зрелой личностью.*

***Ключевые слова:** технологическая грамотность, критическое, творческое, системное мышление, интеллектуал, инженер, производство, личность, профессиональная подготовка, творчество.*

**Safarov Feruz Saminjon ugli (Teacher of Termiz State University; safarovferuz254@gmail.com)**  
**DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE "TECHNOLOGY"  
TEACHERS SOME ASPECTS**

***Annotation.** The article discusses the scientific-theoretical, pedagogical and methodological foundations for the development of professional competencies of future teachers of the subject "Technology", and also studies the features of improving their technological literacy, logical, critical, creative, creative and systematic thinking, the ability to make independent decisions at a certain time. Information is provided about the ability of teachers to demonstrate their intellectual abilities, as well as about their becoming a spiritually mature person.*

***Key words:** technological literacy, critical, creative, systematic thinking, intellectual, engineer, production, personality, professional training, creativity.*

**Kirish.** Bugun mamlakatimizda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilib, buning uchun sharoit yaratilmoqda. Bu soha davlat siyosati darajasiga ko'tarilganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ta'lim va tarbiya samaradorligini yanada oshirish, ya'ni, yetuk va komil shaxsni kamol toptirish maqsadida kelgusida qator vazifalar belgilab berildi. Shuning uchun ham dunyoviy fanlar tizimida "pedagogika" fani alohida o'rin tutadi. A.Avloniy pedagogika tushunchasini "bolalar tarbiyasi haqidagi fan" deb atagan. Pedagogik kompetensiya atamasi quyidagi ma'nolarga ega. "Kompetentlik" inglizcha "kompetentlik" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qobiliyat" degan ma'noni anglatadi. Kompetensiya deganda bo'lajak kasb egasi tomonidan egallangan va o'z ishida foydalaniladigan nazariy bilimlardan unumli foydalanish tushuniladi. Ya'ni, kasbiy malakaning yuqori darajasi malakalarning mohirona namoyon bo'lishi tushunchasi bilan izohlanadi. Kompetensiya tizimida kasbiy kompetensiya eng muhim uslubiy hodisadir, ya'ni, har bir mutaxassisning kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi va ularni yuqori darajada amaliy qo'llashi [1]. Vakolatla faoliyatning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydigan umumlashtirilgan harakat usullari. Bu insonning o'z mahoratini amalda qo'llash qobiliyatidir.

Pedagogikaga kompetensiyaga asoslangan yondashuv tushunchasi birinchi marta 1980-yillarda "Perspektivalar" jurnalida tilga olingan. V.D.Landscher ushbu mavzu bo'yicha "Minimal vakolat tushunchasi" deb nomlangan maqola yozdi va yondashuvlar haqida ma'lumot beradi. Dastlab, hech qanday yondashuvlar kiritilmagan, faqat "kompetentlik", "kasbiy kompetensiya" atamaları va ta'limning maqsadi va natijasi sifatida shaxsning kasbiy kompetensiyasi haqidagi g'oyalar. U yerda kompetensiya atamasi "chukur ekspertiza" deb tushuniladi. Keyinchalik, kompetensiya tushunchasi atroflicha tushuntirilib, uning doirasi va mazmunini oydinlashtirishga harakat qilindi. Kompetentlik nuqtayi nazaridan, pedagogik yonda-

shuvlar muayyan toifalarga bo'linadi. Ularning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida olimlarning fikrlari mavjud [2].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bo'lajak "Texnologiya" o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni, qonuniyatlari va tendensiyalari, kasbiy o'qituvchilikka tayyorlash muammolari R.X.Jo'rayev, P.T.Mag'zumov, U.N.Nishonaliyev, A.R.Xo'jaboyev, X.F.Rashidov, U.I. Inoyatov, U.Sh.Begimqulov, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Koisinov, D.N.Mamatov, N.Sh.Shodiyev, O'.G'.Tolipov, J.A.Hamidov, O.X.To'raqulov, M.X.Ikromova, F.S.To'rabekov, L.Bobomurodova, S.S.Egamov va boshqalarning tadqiqotlari N.N.Azizxo'jayeva, O'.K.Tolipov, B.Ziemuxamedov, N.Saidahmedovlar oliy o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan [5].

Bo'lajak mutaxassislarni axborotga asoslangan yondashuv asosida tayyorlash jarayonida bo'lajak o'qituvchilar bilimli yondashuvga asoslangan oliy ta'limning metodik strategiyasini bilishlari uchun kompetensiyaviy yondashuv tushunchasini qanday o'zlashtirishlari masalasi dolzarb hisoblanadi. Pedagogikada axborot deganda shaxsning ta'lim orqali egallagan bilim miqdori, yo'nalishi va darajasi tushuniladi. Ta'lim va mustaqil ta'lim jarayonida ongli faoliyat jarayonida ma'lumotlar olinadi va rivojlanadi. Tarbiyaning ham obyekt, ham subyekt bo'lgan ongli faoliyat jarayoni shaxsning aqliy qobiliyatlarini shakllantirishdan, o'ldada, so'ngra uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlarida boshlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi darajalarida individual ta'lim standartlari va ma'lumotlari ta'lim dasturlarida ko'rsatilgan hajm va yo'nalishlarda o'zlashtiriladi [3].

Kompetensiya va malaka bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Shuning uchun kompetensiya tizimi amaliy va nazariy tayyorgarlik nuqtayi nazaridan kompetensiya va malakalar majmuyini o'z ichiga oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Texnologiya" fanining umumta'lim tizimidagi o'rni va o'rnini, yangi texnologiya o'qituvchisini tayyorlashga qo'yiladigan nazariy talablarni, uni yanada rivojlantirish tendensiyalarini aniqlamasdan turib, texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirish mumkin emas.

Bo'lajak "texnik" o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish bo'yicha pedagogik resurslar tahlili asosida shuni ta'kidlash mumkinki, 1918-yilgacha mehnat pedagogikasi o'qituvchilarini tayyorlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilgan: umumiy pedagogik, uslubiy, ayniqsa, mutaxassislar tayyorlashda yagona reja va dasturlar mavjud emas edi. Mehnat pedagogikasi o'qituvchilarining umumiy pedagogik tayyorgarligi nafaqat mehnat pedagogikasining paydo bo'lish tarixini o'rganishni, balki Chet elda mehnat pedagogikasi nazariyasi va amaliyoti, chet el va boshqa mamlakatlar maktablarida ta'lim texnologiyasi mazmuni bilan tanishtirishni ham o'z ichiga oladi. Fan ta'limining o'rni va ahamiyatini baholashda metodlar va turli yondashuvlar haqidagi fikringizni tahlil qiling. U texnologiya o'qituvchilarining uslubiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning turli yondashuvlarini o'rganish, qo'l mehnati namunasini baholash, shuningdek, o'qitish tizimi va usullarini, o'quv jihozlarini tanlash va ko'rgazmalar tashkil etishdan iborat [4].

**Tahlil va natijalar.** Pedagogik kompetensiyalar o'quvchining kelajakda to'laqonli hayot kechirishi uchun faolligini oshirish bilan tavsiflanadi. Muayyan yoshga qadar odam kompetensiyani namoyon qilmasligi mumkin, ammo bu odamda kompetensiya rivojlanmasligi kerak degani emas. Bunda gap ta'lim kompetensiyalari, ya'ni, o'zaro bog'liq tushunchalar, bilim, ko'nikma, malaka, axloq va xulq-atvorda mavjud bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy voqelikka munosabat bilan bog'liq tajribada ifodalanadi. Gap ilmiy-nazariy tayyorgarlik haqida bormoqda, bu fazilatlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Qobiliyat har bir shaxsning xulq-atvori va axloqida nazariy va amaliy jihatdan namoyon bo'ladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy malakasi o'z faoliyatida o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishida namoyon bo'ladi. Bunday holda kompetensiya namoyon bo'ladigan muhitni ko'rish kerak [6].

**Xulosa.** O'zimizning munosib o'rnimizni egallaydigan va mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro andozalar darajasiga ko'taradigan, raqobat muhitini yaratadigan, shakl va usul va vositalarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan bilimli, qobiliyatli va iqtidorli bo'lajak o'qituvchilarimizning malakasini oshirish. Ta'lim, insonparvarlik, demokratiya, oshkorlik, ta'magirlik, maxfiylik, milliy-ijtimoiy qadriyatlar, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayoni, kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi bilan faxrlanamiz, jamiyat kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasida xato va kamchiliklarga boshqalar tomonidan kamsitishlarga yo'l qoymaslik, ijtimoiy jihatdan himoya qilish bugungi kun jamiyat oldida turgan sharaflil vazifa ekanligini unitmagan holda, o'qituvchilar uchun yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanish, yetuk intellektual salohiyatli kadr bo'lish kabi tavsifialarga amal qilish kerak.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining muhim omili. T., "Yoshlar tashkiloti", 2020, 52 bet.
- (2). Medetova R.M., Anarboyev A.A. Hamkorlik pedagogikasi asosida bo'lajak zahiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2023-yil 13-noyabr, T., O'zPFITI, 2023, 284–287-betlar.
- (3). Zamonaviy pedagog qiyofasi: marifat.uz
- (4). Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma, T., 2019, 72 bet.
- (5). Safarov F.S. Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash bosqichlarining nazariy tahlili. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar. ISSN: 2181-1458, Namangan, 2023, 3-son, 444–448-betlar.
- (6). Safarov F.S. Innovatsion yondashuv asosida yog'och materiallardan antikvar jihozlar tayyorlash texnologiyasi. Eurasian Journal Of Academic Research/-ISSN2181-2020.<https://doi.org/10.5281/zenodo.7493753> - Toshkent, 2022, 2-son, 1471–1474-betlar.

### Aripjanova Mahfuza Akmalovna (Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat ishtituti katta o'qituvchisi) MUTAXASSISLIK FANLARINI SAMARALI TASHKIL QILISHDA INTERFAOL TA'LIM METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada mutaxassislik fanlarini tashkil qilishda interfaol ta'lim metodlari turlari va ulardan foydalanish samadorligi yoritilgan. Shuningdek, misol tariqasida yengil sanoat yo'nalishida mavjud fan mavzulari bo'yicha metodlarni o'tkazish tartibi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol ta'lim, mutaxassislik fan, ta'lim metodlari, "Tarmoqlar" (Klaster) metodi, "3D" metodi, "Aql charxi" metodi, "Uchburchak" metodi, "Tasavvur" metodi, "Shturm" metodi, "Start" metodi.

**Aripjanova Махфуза Акмаловна (старший преподаватель Ташкентского института текстильной и легкой промышленности)**

### МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ

*Аннотация.* В данной статье описаны виды интерактивных методов обучения и эффективность их использования при организации специальных предметов. Также в качестве примера приведена методика трансфера методов по существующим темам науки в области легкой промышленности.

**Ключевые слова:** интерактивное образование, специальность, методы обучения, метод «Клстер», метод «3D», метод «Колесо ума», метод «Треугольник», метод «Воображение», метод «Штурм», метод «Старт».

**Aripjanova Mahfuza Akmalovna (Senior Lecturer at the Tashkent Institute of Textile and Light Industry)**  
METHODS OF USING INTERACTIVE TEACHING METHODS IN THE EFFECTIVE  
ORGANIZATION OF SPECIAL SUBJECTS

*Annotation.* This article describes the types of interactive teaching methods and the effectiveness of their use in organizing special subjects. Also, as an example, a method for transferring methods on existing topics of science in the field of light industry is given.

**Key words:** interactive education, specialty, teaching methods, cluster method, 3d method, wheel of mind method, triangle method, imagination method, storm method, start method.

**Kirish.** Interfaol ta'lim tushunchasi bugungi kunda yangilik emas, lekin interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish haligacha dolzarblini yo'qotmagan va unga talab bor. Chunki interfaol ta'lim metodlariga asoslangan o'quv mashg'ulotlarida o'qituvchi o'qituvchilarga yangi bilimlarni berishda va ularni mustaqil fikrlashlariga yordam beradi. Interfaol ta'limda o'qituvchining vazifasi, o'quvchilarning tashabbuslarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'lib, unda o'qituvchi o'quv jarayonida axborotni yetkazib beruvchi emas, balki yangi axborotlarni qabul qilishga ko'maklashuvchi vazifasini bajaradi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Shunga ko'ra, interfaol metodlar XXI asr ta'limida o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Manbalami o'rganish ta'lim tizimida interfaol metodlar ilk bor XX asming 20-yillarida qo'llanilganligidan dalolat beradi. V.A.Suxomlinskiy tomonidan o'tgan asming 60-yillariida yaratilgan ilmiy ishlarda ham ta'lim tizimiga interfaol metodlarni tatbiq etish tajribasini uchratish mumkin.

XX asming 70–80-yillarida esa Rossiyada Sh.A.Amonashvili, V.F.Shatalova, Y.N.Ilina va b. tomonidan ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarda o'qitishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish yo'llarini topish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham interfaol metodlarning amaliy ahamiyati, ularni samarali qo'llash shartlari to'g'risida so'z yuritilgan [2].


**Tadqiqot metodologiyasi.** Mutaxassislik fanlarini o'zlashtirish jarayoni nafaqat bilim olishni, balki amaliy vazifalarni bajarish, o'z ustida mustaqil ishlashni talab qiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarga yetarli bilim, ko'nikma va malaka berishda o'quv mashg'ulotlarini bir necha ta'lim modellari yordamida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yengil sanoat yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilarga, asosan, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ijodiy faoliyatni rivojlantirish, kreativ va mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan interfaol ta'lim metodlari tavsiya qilinadi. "Tarmoqlar" (Klaster) metodi, "3D" metodi, "Aql charxi" metodi, "Uchburchak" metodi, "Tasavvur" metodi, "Shturm" metodi, "Start" metodi va h.k. [3].

**Tahlil va natijalar.** Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshishiga, fanga bo'lgan qiziqishlari kuchayichiga erishish mumkin [4]. Quyida tajribadan o'tgan va mutaxassislik fanlarini samarali tashkil qilishda foydalanish mumkin bo'lgan interfaol ta'lim metodlarini ko'rib chiqamiz.

**"Tarmoqlar" (Klaster) metodi.** «Klaster» texnologiyasi – pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchi-o'quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchi o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchi-o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchi-o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

"Ustki kiyimlarda cho'ntaklarga ishlov berish" mavzusini olib borish jarayonida ushbu metoddan foydalanishni tavsiya qilish mumkin. Chunki ustki kiyimlarda cho'ntak turlari juda ko'p bo'lib, ularga ishlov berish usullari ham turlicha. Shuning uchun o'quvchilarda cho'ntak turlari bo'yicha kengroq ma'lumot berish maqsadida ushbu metod samarali hisoblanadi. Tarmoqlar metodidan foydalanilganda qanchalik ma'lumotlar ko'p bo'lsa, bitta tushuncha bo'yicha tarmoqlanish shuncha ko'p bo'ladi va bu o'quvchilarni qiziqishini oshirishga, fikrlashini o'stirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. "Tarmoqlar" metodi. "3D" metodi.

Bu metod 3 tomonlama o'rganish ma'nosini bildirib, qisqa va tushunarli metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metoddan foydalanish orqali o'quvchilarni eslab qolish qobiliyatini oshirishga, ziyraklikka, hamkorlikda ishlashga, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Har bir o'quvchining mavzularni mustaqil va ijodiy holda o'rganish, fikrlarni erkin, to'la bayon etishlariga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, ushbu metodni barcha fan va mavzular uchun qo'llash mumkin. Bu metodni qo'llash uchun o'quvchilarga maxsus kartochka oldindan tarqatiladi. Kartochkaga dars davomida yangi o'tiladigan mavzuda o'rgangan atamalar yoki ma'lumotlar yozib olinishi kerakligi tushuntiriladi. Dars yakunida har bir o'quvchi o'rgangan atamasi, uning foydasi qandayligi va qaysi do'stiga o'rgatmoqchi ekanligini taqratilgan kartochkaga yozadi.

Bu metod orqali o'quvchi yangi bilimlarni uch tomonlama o'zlashtiradi, bular:

1. Termin ma'nosini o'rganadi.
2. Ushbu o'rgangan ma'lumot kelajakda nima uchun kerak bo'lishini anglaydi.
3. Do'stiga o'rgatish orqali o'zining bilimlari yana ham mustahkamlaydi (1-jadval).

Bu metodni "Tikuv buyumlarini biriktirish usullari" mavzusi misolida ko'ramiz.


*1-jadval*

t/r	Nimani o'rgandim?	Menga foydasi qanday?	Kimga o'rgataman?
1	Ziy chokni tikish texnologiyasini	Kasbiy mahoratimni oshishiga	Maftunaga
2	Qotirma materiallar turlari	Kiyim assortimentiga qarab to'g'ri foydalanishimda	Muslimaga
3	.....	.....	.....

**"Aql charxi" metodi.** Bu metod mnemonika, ya'ni, raqamlar, shakllarni ketma-ketlikda eslab qolishga asoslangan bo'lib unda 6 xil rangdagi 6 xil geometrik shakl tayyorlab olinadi va har bir shaklga o'tilgan mavzuga oid faktlar yoziladi. Ushbu metoddan foydalanish orqali o'quvchilarni xotirasi mustahkamlanadi, eslab qolish qobiliyatini oshadi va aqllari charxlanadi.

Ushbu metod quyidagi tartibda olib boriladi. O'qituvchi tomonidan turli shakldagi kartochkalar o'quvchiga birma-bir ko'rsatiladi. O'quvchi o'qituvchi ko'rsatgan ketma-ketlikda doira shaklida nima yozilgani yoki to'rtburchak shaklida nima yozilganini aytib berishi lozim bo'ladi. Ham shakllarni, ham unda yozilgan ma'lumotlarni ketma-ketlikda adashmasdan aytib bergan o'quvchi eng yuqori ballga ega bo'ladi (2-rasm).

Bu metodni "Tikuv buyumlari klassifikatsiyasi" mavzusi misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, har bir shaklga mavzuga oid atamalar yozib chiqiladi va yuqoridagi keltirilgan ketma-ketlikda o'quvchilarga vazifa beriladi.



**2-rasm. "Aql charxi" metodi.**

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mutaxassislik fanlarini samarali tashkil qilishda interfaol ta'lim metodlardan foydalanish o'quvchilarda tanlagan mutaxassisligiga bo'lgan qiziqishni oshirishga, mavzuni mukammal tushunishlariga, bilimlarini mustahkamlashga va amalda qo'llashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). O'.X.Muxamedov, M.H.Usmonboyeva, S.S.Rustamov. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. Toshkent, 2016, 45-bet.

(2). O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat. Toshkent, "Innovatsiya - Ziyo", 2019, 149 bet.

(3). <https://uz.tgstat.com/channel/@Krepeduz>

(4). Sh T.Z., & Kh S.K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), p. 258–261.

**Safarova Fotima Isamiddinovna (Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti  
"Chet tillar" kafedrasida dotsenti v.b.)**

## **INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERFERENSIYA MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH USULLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada interferensiya atamasining ta'rifi hamda uning ingliz tilini o'rganishda uchraydigan asosiy turlari keltirilgan. Bundan tashqari, ingliz tilini o'qitishda interferensiya muammosi va uni bartaraf etish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** interferensiya, obyekt, bilingv, semantika, fonetika, orfografiya, morfologiya, sintaksis, nutq, grammatika.

### **ПРОБЛЕМА ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ И МЕТОДЫ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ**

**Аннотация.** В данной статье дается определение термину "интерференция", рассматриваются ее основные виды в изучении английского языка. Кроме того, обсуждается проблема интерференции в обучении английскому языку и способы ее устранения.

**Ключевые слова:** интерференция, объект, билингв, семантика, фонетика, орфография, морфология, синтаксис, речь, грамматика.

### **THE PROBLEM OF INTERFERENCE IN TEACHING ENGLISH AND METHODS OF ITS ELIMINATION**

**Annotation.** This article provides a definition of the term interference and its main types in English language learning. In addition, the problem of interference in English language teaching and ways to eliminate it are considered.

**Key words:** interference, object, bilingual, semantics, phonetics, orthography, morphology, syntax, speech, grammar.

**Kirish.** O'zbekiston bilan boshqa xorijiy davlatlar o'rtasidagi biznes va jamiyat hayotidagi aloqalarni kengaytirish hamda rivojlantirish sharoitida bugungi kunda, umuman, madaniyatlararo muloqot, xususan, nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalarini til o'rgatish muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, hozirgi vaqtda ingliz tilining xalqaro aloqa, ommaviy axborot, kompyuter texnologiyalarining tili sifatidagi ta'siri beqiyosligi tufayli ushbu tilni o'qitish doimiy ravishda takomillashtirilib borishni talab qiladi. Muloqot jarayonida ingliz tilida mukammal nutqqa ega bo'lmagan talabalar, o'z ona tiliga turli darajada "tayanish"lari tabiiy hol bo'lib, bu oxir-oqibat ikkinchi til tizimi va me'yorlarining buzilishiga, ya'ni interferensiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu yerda birlamchi tizim interferensiyaning manbai sifatida, ikkinchi darajali tizim esa interferensiyaning obyekt sifatida ko'rib chiqiladi. Avval o'rganilgan xorijiy til tizimining inson nutqi faoliyati amalga oshirilgan xususiyatlari yangi o'rganilgan tilga o'tganda, birlamchi tizim avval o'rganilgan ona tili bo'lmagan til bilan ham ifodalanishi mumkin. Natijada ona tili tizimi va boshqa ilgari o'rganilgan tillarning bir vaqtning o'zida ta'siri ostida tilning buzilish jarayoni sodir bo'ladi. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek va rusiy zabon talabalar tahsil olishadi, albatta, xorijiy til sifatida ingliz tilini o'rganishadi. Ingliz tilini o'rganishda esa ham rus, ham o'zbek tillari interferensiya hodisasining manbai bo'lishi mumkin. Ikkinchi tilni o'zlashtirishda birinchi tilning ta'siri bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Oldingi tadqiqotchilarning deyarli barchasi birinchi til ikkinchi tilni o'zlashtirishda ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblashadi. Ikkinchi tilni o'rganuvchilar o'rganilayotgan tilda yozish yoki gapirishni xohlashsa, ular birinchi til tuzilmalariga tayanadilar. Agar tuzilmalar boshqacha bo'lsa, birinchi tilda juda ko'p xatolar yuzaga keladi, shuning uchun bu birinchi tilning ikkinchi tilga aralashuvini ko'rsatadi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Interferensiya – bu ikkinchi tildan foydalanishda birinchi tilning aralashuvi natijasida kuzatilishi mumkin bo'lgan xatoliklardir [3]. Interferensiya atamasi Praga tilshunoslar maktabi vakillari tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, ushbu atamaga tilshunoslar turli xil ta'rif berishgan. Interferensiya bu ikki tillilik sharoitida til tizimlarining o'zaro ta'siri bo'lib, u til bilan aloqa qilish orqali yoki ona tili bo'lmagan tilni individual o'zlashtirish orqali rivojlanadi [4]. U.Vaynrayx o'z asarida "interferensiya – bu ikki tilli shaxsning nutqda bir nechta tillarni bilishi natijasida yuzaga keladigan har qanday til normalaridan chetga chiqish holatlari" deb ta'riflaydi. Ushbu ta'rifni aniqlashtirishga harakat qilingan

bo'lishiga qaramasdan, u hali-hanuzgacha umumiy qabul qilingandir. Interferensiya hodisasi, o'z ona tilining nutq ko'nikmalarini mukammal egallagan bilingv o'sha o'rganayotgan xorijiy til nutqida xatoliklarni keltirib chiqarishga sababchi bo'lganligi tufayli, salbiy hodisa sifatida qaraladi. Interferensiyaning asosiy manbayi o'zaro aloqa qiluvchi tillar tizimidagi, ya'ni ularning fonemik tarkibidagi, grammatik kategoriyalar va ularni ifodalash usullari va boshqalar orasidagi farqlardir. Ingliz tilining fonetik, leksik-semantik va grammatik darajadagi me'yorlaridan asosiy og'ishlar ingliz va ona tillari o'rtasidagi tipologik farqlar, ona (rus yoki o'zbek) tilining ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi (ingliz) tilini bilish darajasi, shuningdek, tabiiy ingliz tili og'zaki va yozma nutq muhitining yo'qligi bilan o'zaro bog'liq. Interferensiya birinchi tilning eski odatlarining natijasidir [2]. Shunday qilib, interferensiya hodisalarining lingvistik sabablarini o'xshashlik va o'zaro ta'sir qiluvchi tillar tizimidagi farqlar deb atash adolatli bo'ladi. Bunda, shubhasiz, o'rganilayotgan chet tilida nutq ko'nikmalarining shakllanish darajasi qo'shma omil hisoblanadi: tilni mukammal bilmaslik interferensiyaning yuzaga kelishi uchun qulay sharoit yaratadi va aksincha, ko'nikmalarni rivojlantirish interferensiya darajasini pasaytirishga yordam beradi. Shu jumladan, V.V. Alimov o'zining tadqiqot ishida interferensiyaning turlariga alohida to'xtalib o'tadi va o'ni quydagicha klassifikasiyalaydi: 1) tovush (fonetik, fonologik, tovush-reproduktiv) shovqin interferensiya; 2) orfografik interferensiya; 3) grammatik (morfologik, sintaktik, tinish belgilari) interferensiya; 4) leksik interferensiya; 5) semantik (semantik) interferensiya; 6) stilistik interferensiya; zamonaviy ilmiy adabiyotlarda interferensiya hodisasi ko'proq fonetik, grammatik, leksik va semantik til darajalarida ko'rib chiqiladi [5]. Fonetik interferensiya talaba o'rganmoqchi bo'lgan xorijiy til fonemalarini ona tilining fonemalari bilan farqlaganda yuzaga keladi va natijada xorijiy tilni "aksent" bilan talaffuz qilish, ya'ni talaffuz me'yorlaridan chetga chiqishga olib keladi. Fonetik interferensiya, psixolingvistik nuqtai nazardan, birinchi navbatda, ikki, ba'zan ko'proq tillarda so'zlovchining ongida fonetik tizim va talaffuz me'yorlarining o'zaro ta'siri natijasida ikkilamchi til tizimi va uning me'yorlarining buzilishi hisoblanadi, ya'ni, ushbu buzilish eshitish va talaffuz qobiliyatlarining aralashuvi orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, fonetik interferensiya ijobiy natija ham berishi mumkin, masalan, bu aloqa qiluvchi tillar fonemalarining artikular-akustik o'xshashligi holatida kuzatiladi [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Talabalarning ingliz tilidagi nutqidagi grammatik interferensiya rus va ingliz tillarining grammatik tuzilishidagi farqlar bilan bog'liq. Grammatik interferensiya odatda ot so'z turkumining jins kategoriyasi, ularning ko'plik shakli, fe'l so'z turkumining nisbatlari, zamoni kabi grammatik kategoriyalaridagi farqlar bilan yuzaga keladi. Grammatik interferensiya morfologik, sintaktik va punktatsion tarkibiy qismdan iborat bo'ladi. Morfologik interferensiya, ko'pincha, so'z turkumlari darajasida namoyon bo'ladi. Sintaktik interferensiya so'zlar orasidagi bog'lanishlarda (fe'llar, vaqt, makon va boshqa munosabatlarni ifodalovchi so'z birikmalarida) va gap darajasida namoyon bo'ladi. Leksik interferensiya olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, bir til tizimining lug'at tarkibining boshqa til tizimiga nisbatan bo'ladigan interferensiyaning o'z ichiga oladi. Yangi ixtisoslashgan leksikaning ya'ni neologizmlarning doimiy ravishda paydo bo'lishi leksik interferensiyaning yuzaga kelishining asosiy sabablaridandir. Semantik interferensiya turli hil zamon shakllari, realiyalar, ko'p ma'noli so'zlar, omonimlar va sinonimlar bilan uzviy bog'liq. Olimlar leksik interferensiya deganda so'zlarning o'zaro interferensiyasini, semantik interferensiya tushunchasida esa so'zlarning ma'nolari interferensiyasini nazarda tutadilar. Interferensiya ta'siri qayerda namoyon bo'lishidan, qanchalik tilning strukturasi o'zgarishiga yoki buzilishiga olib kelishidan qat'iy nazar, chet tilini o'rganuvchilarning asosiy vazifasi bunday ta'sirni zararsizlantirish, til o'qituvchilarining vazifasi esa talabalarga ushbu muammoga duch kelmaslikka imkon qadar yordam berishdir.

**Tahlil va natijalar.** Afsuski, interferensiya ta'siridan butunlay xalos bo'lish deyarli mumkin emas, ammo yangi texnikalar hamda amaliy echimlar ushbu maqsadga imkon qadar erishishga yordam beradi. Tilshunolar o'z davrida interferensiyaning bartaraf etishning tillararo taqqoslash, tillararo mashqlar, tarjima, nutq vositalari, taklif etilayotgan materialning vizualizatsiyasi, ijtimoiy-madaniy sharhlar kabi asosiy usullarini taklif qilishgan. Shuni ta'kidlash lozimki, interferensiyaning turli xil shakllarini bartaraf etish uchun biznes xatlar shakllari, o'lkashunoslik, biznes etiketi – madaniyatlararo va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantiradigan fanlarni o'rganish kerak bo'ladi. Shunga o'xshash madaniy voqeliklar va odob-axloq qoidalari interferensiya hodisasini keltirib chiqarishi mumkin, chunki ekstralingvistik omillar faqat ma'lum bir mamlakat haqiqatiga xos bo'lgan tasvirlarni ifodalaydi, masalan, "ground floor" iborasini tarjima qilganda, talaba bu iborani to'g'ridan to'g'ri tarjima qilganda "yer qavat", ya'ni, podval deb aytishi mumkin, agar Britaniyada bu ibora "birinchi qavat" ma'nosini ifodalashini bilmasa.

**Xulosa.** Xulosa qismida shuni aytish joizki, har qanday chet tilini o'rganish jarayonida interferensiyaning salbiy ko'rinishlari so'zlovchi tomonidan silliqilani ketishi mumkin degan xulosaga kelish mum-

kin. Biroq, til o'rganishning yakuniy bosqichida ham semantika va ba'zi grammatik hodisalar darajasida, bu muammolar kichik darajada bo'lsa ham, saqlanib qolmoqda. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, interferensiya hodisasi har qanday xorijiy tilni o'rganishda yuzaga keladigan hodisa bo'lib, uni bartaraf etish uchun til o'rganuvchilari ikki tilning grammatik, sintaktik, leksik xususiyatlarini hamda o'sha mamlakat tiliga, madaniyatiga xos bo'lgan jihatlarni bilishi va inobatga olishi kerak bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Bhela B. (1999). Native language interference in learning a second language: Exploratory case studies of native language interference with target language usage. *International Education Journal*, 1(1), p. 22–31.
- (2). Dulay H., Burt M., Krashen S. (1982). *Language two*: New York: Oxford University press. p. 3–10.
- (3). Lott, D.(1983). Analysing and counteracting interference errors, *ELT Journal*, vol. 37/3, p. 22–24.
- (4). Weinreich W. *Languages in Contact: Findings and Problems*, Linguistic Circle of New York, 1953.
- (5). Алимов. В.В. Теория перевода. Москва, 2005, с. 20.
- (6). Вайнрайх У. Однойзычие и многоязычие. “Новое в лингвистике”. Под ред. В.Ю.Розенцвейга. Вып. 6, М., “Прогресс”, 1972, с. 25–60.
- (7). Жуманиязова Ф.И. Корейс тилидаги фонетик интерференция (ўзлашган отлар мисолида) (PhD) дисс., Т., 2018, 242 бет.
- (8). Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. Монография, Тошкент, “Наврўз”, 2019, 300 бет.
- (9). Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Пед. фан. док. (DSc) дисс., Т., 2018, 242 бет.

**Sapayev Umidbek Abdullayevich (Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD);  
umidbek.sapayev@inbox.ru)**

#### **OLIV TA'LIM MUASSASALARI BILAN ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARINING TA'LIMY INTEGRATSIYALANISHI ASOSIDA TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish tarmoqlarining ta'limiy integratsiyalanishi asosida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari, jamiyat uchun zarur innovatsiyalarni aniqlash va ular asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda yakuniy ilmiy natijalarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlari qisqacha ilmiy tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** innovatsiya, ta'limiy hamkorlik, integratsiya, ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyatga tayyorlash.*

**Сапаев Умидбек Абдуллаевич (старший преподаватель Ургенчский государственный университет,  
д.ф.п.н. (PhD); umidbek.sapayev@inbox.ru)**

#### **ФОРМИРОВАНИЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ БИЗНЕС-СЕТИ С ВУЗАМИ**

***Аннотация.** В данной статье на основе образовательной интеграции высших учебных заведений и производственных сетей проводится краткий научный анализ возможностей подготовки студентов к инновационной деятельности, выявление необходимых обществу инноваций и проведение на их основе научных исследований, а также постановка окончательные научные результаты реализованы на практике.*

***Ключевые слова:** инновации, образовательное сотрудничество, интеграция, научные исследования, инновационная деятельность, подготовка к инновационной деятельности.*

**Sapayev Umidbek Abdullaevich (senior lecturer of Urgench State University (PhD);  
umidbek.sapayev@inbox.ru)**

#### **FORMATION OF STUDENTS' BASIS FOR INNOVATIVE ACTIVITY BASED ON EDUCATIONAL INTEGRATION OF BUSINESS NETWORKS WITH HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

***Annotation.** In this article, based on the educational integration of higher educational institutions and production networks, there is a short scientific analysis of the possibilities of preparing students for innovative activities, identifying the necessary innovations for society and conducting scientific research based on them, and putting the final scientific results into practice.*

***Key words:** innovation, educational cooperation, integration, scientific research, innovative activity, preparation for innovative activity.*

**Kirish (Introduction).** Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirish, erkin bozor munosabatlarining shakllanishi, tub aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog‘liq muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ushbu o‘zgarishlar xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida yuz berdi, jumladan, oliy ta‘lim tizimiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Bunday o‘zgarishlar oliy ta‘limni nafaqat davlatning ijtimoiy instituti sifatida, balki bir vaqtning o‘zida, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim va iqtisodiyot sohasidagi salohiyatining jadal o‘sib borishini ta‘minlaydigan bozor iqtisodiyotining tarmoqlari bilan to‘laqonli integratsiyalashgan tizim sifatida ham ko‘rish zarurligini talab etmoqda [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Hozirgi davrda har bir sohada innovatsiyalarni joriy etish kundalik ehtiyoj sifatida ko‘rilmog‘da. Shuning uchun innovatsiyalarni yaratish va uni amaliyotga joriy etish masalasi keng tushunchadir—bu nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlaridagi yangi texnika va texnologiyalarni yaratish, balki davlat va jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, ma‘muriy boshqaruv sohalaridagi yangiliklarni aytishimiz mumkin va innovatsiyalarning yangilik sifatida ilmiy asoslarini oliy ta‘lim jarayonida shakllanishini alohida ta‘kidlash zarur bo‘ladi [2].

G.J.Xasanovanning ilmiy izlanishlariga, asosan, “innovatsiya faoliyati” bu ma‘lum bir sohaga yo‘naldirilgan faoliyat bo‘lmasdan, balki istalgan sohaga tatbiq qilish mumkinligini ta‘kidlaydi [3;11–12-b.]. Demak, innovatsiyalarning chegaralangan sohasi mavjud emas, shuning uchun ham innovatsion faoliyatlarni mavjud barcha sohalarda olib borish imkoniyati mavjuddir.

Ish beruvchi korxonalar va tashkilotlar bilan oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida konstruktiv va teng huquqli muloqotni tashkillashtirish uchun zarur mexanizmlarni yaratish muhim hisoblaniladi. Bu nafaqat ta‘lim standartlarining to‘laqonli tarkibiy qismini shakllantirish bo‘yicha hamkorlikdagi ishlarni, balki ishlab chiqaruvchilar va bitiruvchilar o‘rtasida manfaatli shartnomalarni tuzish va mutaxassislar tayyorlash sifatini baholashning yangi tizimlarini yaratish, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari bilan ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasida ilmiy innovatsion ishlanmalarni yaratish va innovatsion salohiyatli mutaxassislarni yetishtirishning yangi samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni ham o‘z ichiga oladi [4].

Hozirgi dunyoda insonning ilmi va aqliy tafakkuri natijasida yaratilayotgan yangiliklarga nisbatan talab hamda ehtiyojning o‘sib borishi har qachongidan ham keskin oshib bormog‘da [5;20-b.]. Bundan kelib chiqqan holda shuni takidlash joizki, talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish va innovatsion faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari oliy ta‘lim sohasi uchun doimiy hisoblanadi.

2000-yillarning birinchi yarmida rossiyalik olim V.G.Xalin tomonidan ta‘limdagi innovatsion faoliyatning umumiy masalalarini o‘rganish zarurligi va oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish masalalariga to‘xtalib o‘tildi [6]. Bunga asosan, oliy ta‘lim muassasasi yutuqlarini tijoratlashtirish maqsadida tashkil qilingan kichik innovatsion firmalar va oliy ta‘lim tizimida yaratilgan zamonaviy texnoparklarning faoliyati tahlil qilingan bo‘lib, ular universitetlarning innovatsion faoliyatiga hissa qo‘shish darajasi va ta‘limda innovatsion muhitni yaratish uchun yetarli ishlayotganligini ta‘kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning metodologikasosini texnika oliy ta‘lim muassasasi bilan ishlab chiqarish va texnik xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini ta‘limiy integratsiyasini shakllantirish, hamkorlikda talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy muhandislarni shakllantirish hamda tarmoq muammolarini innovatsion yechimlarini bera oladigan yuqori ilmiy salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash asoslarini yaratishdan iborat hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bozor iqtisodiyoti tizimini shakllantirish, uning talablariga tezkor va samarali tarzda javob berishga qodir bo‘lgan oliy ta‘lim tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Zamonaviy bozor munosabatlariga o‘tish oliy ma‘lumotli mutaxassislar, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etishga yangi talablar qo‘yadi. Bozor munosabatlarining subyekti sifatida oliy ta‘lim tizimi o‘z tarkibini yangi funksiyaga aylantirishi, ya‘ni, yangi moliyalashtirish asoslari sifatida oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy tadqiqot natijalariga asosan, yangicha yo‘nalishdagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, ta‘lim jarayonlarini rivojlantirishning yangi innovatsion shakllarini o‘zlashtirishi, ta‘limni boshqarish usullarini yangilashi va ilmiy tadqiqot ishlarini amaliyotga joriy qilish oliy ta‘limning asosiy vazifasi sifatida ko‘rilishi zarur hisoblaniladi [7;25–26-b.]. Demak, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida va shafqatsiz raqobatlashuv mavjud dunyoda davlatimiz o‘zining munosib o‘ringa ega bo‘lishi uchun, ilmiy va kasbiy jihatdan yuqori salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirgan, har qanday ishni yuksak mahorat bilan bajara oladigan hamda ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va boshqa sohalarda o‘zining innovatsion faoliyatini yurguzadigan milliy kadrlarga muhtojligi mamlakatimizning asosiy dolzarb masalalaridan biri hisoblanmog‘da. Bu masalalarni yechish bevosita oliy ta‘lim zimmasiga katta mas‘uliyatni yuklaydi. Shunga asosan, texnika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonlarini innovatsion

tarzda tashkil qilish, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodlarni joriy qilish, talabalarining innovatsion faoliyatlarini rivojlantirishga imkoniyat beruvchi mexanizmlarni vujudga keltirish rejalashtirilgan maqsadimizga erishishimizga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ilmiy izlanishlarimiz natijasida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, hududlarimizda tashkillashtirilgan zamonaviy texnoparklarning ishga tushurilishi talabalarga ta'lim berish jarayonlarini innovatsion tarzda tashkil qilish va ularni innovatsiyalar bilan shug'ullanishlariga imkon beruvchi mexanizmlarini yaratishiga, talaba-yushlarning ilmiy salohiyatlarini oshirishga, mutaxassislik bilimlarini o'zlashtirishga, zamonaviy mehnat turlarini egallashga, zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishga, yangi zamonaviy sohalarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqishlarining yuksalishiga, shuningdek, texnika yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashish bosqichlaridan biri sifatida xizmat ko'rsata olishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- (1). U.A.Sapayev. Innovatsion ta'lim muhitini shakllantrishda texnik oily ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyasi. "Ilm sarchashmalari", 2022, 9-son, 174–176-betlar.
- (2). Латыпова М.М. Управление инновациями на горных предприятиях. Горный информационно-аналитический бюллетень № 3, 2007. <http://www.gornaya-kniga.ru/periodic/914>
- (3). Xasanova G.J. Sanoat korxonalarini innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss., Buxoro davlat universiteti, Toshkent, 2006, 11–12-betlar.
- (4). Чванова М.С. Социальное партнерство в сфере профессионального образование. Психолого-педагогический журнал "Гаудеамус", Тамбов, 2006, № 2(10), с. 47–56.
- (5). Тошпўлатова С.О. Ўқувчиларнинг мантикий фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган. дисс., Самарқанд, 2019, 198-бет.
- (6). Халин В.Г. Инновационная деятельность в университетах современной России [текст]. "Интеграция образование", 2006, № 1, с. 13–22.
- (7). Ҳақназарова Н.Қ., Олий таълим тизимида кадрлар тайёрлаш жараёнларини ижтимоий-иктисодий ривожланишнинг устувор йўналишларига мос прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. Пед. фан. док. дисс., Тошкент, 2020, 345 бет.

**Abdullayeva Nafisa Anvarovna (Andijon davlat Pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi;  
n.a.abdullaeva@mail.ru)**

### **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUV JARAYONIDA ABSTRAKT FIKRLASHGA O'RGATISHNINIG ASOSIY YO'NALISHLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik yoshidagi maktab o'quvchilarining abstrakt fikrlashlarini shakllantrishning asosiy yo'nalishining muhimligi ham nazariy, ham amaliy yoritilgan. Masalalarni yechishga o'rganishning asosiy maqsadi figuralar, ularning elementlari, figuralar va ularning elementdari orasidagi munosabatlari, ularning ba'zi xossalari haqidagi abstrakt tasavvurlarning to'la tarkib toptirishdan iborat ekanligi to'g'risidagi fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** abstrakt fikrlash, abstrakt tasavvur, modil, tekis figura, figuralar xossalari, mustaqil ish, fazoviy tasavvur, munosabat, geometrik atamalar, noto'g'ri tasavvur, aqliy rivojlanish, innovatsion yondashuv, ijodiy tashabbus.

### **ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЯ АБСТРАКТНОМУ МЫШЛЕНИЮ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация.** В данной статье как теоретически, так и практически освещено значение основного направления формирования абстрактного мышления младших школьников. Высказывались мнения, что основная цель обучения решению задач состоит в нахождении полного содержания абстрактных представлений о фигурах, их элементах, отношениях между фигурами и их элементами, некоторых их свойствах.

Ключевые слова: абстрактное мышление, абстрактное воображение, модель, плоская фигура, свойства фигур, самостоятельная работа, пространственное воображение, взаимосвязь, геометрические термины, ложное воображение, умственное развитие, инновационный подход, творческая инициатива.

### **MAIN DIRECTIONS OF TEACHING ABSTRACT THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF PRIMARY CLASSES**

Annotation. This article illuminates both theoretically and practically the importance of the main direction in the formation of abstract thinking in junior schoolchildren. Opinions have been expressed that



the main goal of teaching problem solving is to find the full content of abstract ideas about figures, their elements, the relationships between figures and their elements, and some of their properties.

Key words: abstract thinking, abstract imagination, model, flat figure, properties of figures, independent work, spatial imagination, relationship, geometric terms, false imagination, mental development, innovative approach, creative initiative.

**Kirish.** “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risida”gi nizomda ta‘kidlanganidek: “Boshlang‘ich ta‘lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, abstrakt fikrlash, ijodiy fikrlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslarining egallab olishini ta‘minlashga da‘vat etilgan. Shunday ekan, ushbu asosda boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umumadaniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim. Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning abstrakt – mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, duyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o‘ziga singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Ta‘lim dasturlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan dasturda belgilab qo‘yilgan ko‘rsatkichga erishishni talab qiladi, o‘z navbatida, bu ko‘rsatkichlarga erishish uchun zarur bo‘lgan ta‘limiy xizmatlar va vositalar bilan ta‘minlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Boshlang‘ich ta‘lim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yilgan talabda ta‘lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg‘unlik to‘la ta‘minlangan bo‘lmog‘i kerak [2]. Shu jihatdan boshlang‘ich ta‘lim dasturini belgilash ta‘lim jarayonining tarkibini xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llash imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga samarali ta‘lim berilishi uchun bo‘lajak o‘qituvchi boshlang‘ich sinflar uchun ishlab chiqilgan o‘qitish metodlarini egallab, chuqur o‘zlashtirib olmog‘i zarur [2]. O‘quvchilar abstrakt fikridagi har bir tushuncha vaqt o‘tishi bilan mazmunan boyib boradi, o‘qitishning dastlabki bosqichlarida ayrim o‘quvchilarda o‘rganilayotgan obyekt to‘g‘risida, abstrakt fikrlashida, hatto xato, noto‘g‘ri tasavvur hosil bo‘ladi, keyin bu material boshqa tushuncha va tajribalar bilan bog‘lanishi natijasida chuqurlashadi, aniqlanadi, mazmunan shakllanadi, ko‘pgina tushunchalarni o‘rganish jarayonida rivojlanib va o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham ko‘p narsa o‘qituvchiga bog‘liqdir. O‘qituvchi o‘quv materialini innovatsion yondashuv asosida bayon qilishi muhim, aks holda, o‘quvchilarning ko‘z oldida tushunarsiz, rivojlanmagan tizim bo‘lib gavdalanadi [3]. Ya‘ni, tushunchalarning barcha fakt va qoidalarini o‘quvchilar faqat tayyor holda berilishi, quruq yodlab olishlari zarur bo‘lg‘an juda ko‘p retseptlar to‘plami deb tushunadilar. Ma‘lumki, bu tarzda o‘qitish metodi o‘quvchilarning abstrakt fikrlashini, abstrakt tafakkurini rivojlantirish uchun juda kam foyda beradi. Ammo o‘qituvchi o‘qitish jarayoniga boshqacha yondoshishi, unga jamoaviy ravishdagi ijodiy jarayon deb qarashi ham mumkin. Agar o‘qitish jarayonini shu tarzda olib borilsa, o‘quvchilar o‘zlari o‘tkazayotgan tekshirishlarning sabablarini yaxshi tushunadilar, xatolar va izlanishlar, tahlil qilishlari natijasida ta‘riflar o‘ylab topadilar, o‘rganilayotgan narsa yoki hodisaning yangi xususiyatlarini aniqlaydilar va isbot qiladilar, abstrakt fikrlaydilar. O‘quvchilar narsa yoki hodisalarning bunday xususiyatlaridan amalda foydalanish haqida abstrakt fikr yuritadilar, va bu ularning o‘zlari biladigan asbob-uskunalarining bajaradigan ishini, turlicha amaliy ish uslublarining mohiyatini o‘z bilimlari asosida tushuntirishga harakat qilishlarini ta‘minlaydi [4]. O‘qitish dialektikasi o‘quvchilarga yaratuvchanlik faoliyatida tushunchalarining rivojlanishini, harakatini ko‘rsatib berishdan, turli tushunchalari va bo‘limlari o‘rtasidagi, shuningdek, shu bo‘limlari bilan o‘quvchilarning turmush tajribasi amaliy faoliyati o‘rtasidagi ichki aloqa va o‘zaro bog‘liqliklarga o‘quvchilar diqqatini jalb qilishdan iboratdir. O‘quvchilar bilan dastur materiallarini o‘z vaqtida va puxta o‘rganishning ahamiyati nihoyatda kattadir [4]. Ammo o‘quvchilarni bilimlarni mustaqil egallashga, abstrakt fikrlashga o‘rgatish barcha fanlarni o‘rganish orqali ilmiy bilish nazariyasini egallashni ko‘rsatishi bilan yanada ahamiyatlidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Boshlang‘ich sinflar o‘quv jarayonida abstrakt fikrlashga o‘rgatishning asosiy yo‘nalishlaridan biri aqliy amallarni bajarilishidir. O‘quvchilarni abstrakt fikrlashini rivojlantirishda aqliy amallarning o‘rni juda muhimdir, chunki aqliy operatsiyalarni to‘g‘ri va tez bajarilishi abstrakt tafakkurining shakllanishiga asos bo‘ladi. O‘quvchilar, imkoni boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlantirishlar qilishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak [5;111-b.]. Amaliy ishlar, aqliy amallarni bajarilishi ongli ravishda barcha savollarga javob topishga majbur qiladi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarni abstrakt

fikrlashi bilishga yo'naltirish, ularda fanga katta qiziqish uyg'otadi, mashg'ulotlarga motivatsiyasini oshiradi. Tizimli ravishda masalalar yechib borish, nazariyani ongli va puxta o'zlashtirishga yordam beradi, uning amaliy qiymatini ko'rsatadi, shu bilan birga, masala yechish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, ijodiy tashabbusini, fahm-farosatlarini tarbiyalaydi va ularga qancha zarur amaliy mahorat va malaka beradi [6;41-b.]. Masalalarni savol qo'ymasdan yechish, noaniq va aniq masalalarni yechish, o'quvchilarning o'zlari tuzgan masalalari yechish, o'rganilgan tushuncha bo'yicha yechish mumkin bo'lgan masalalarning matnini o'quvchilarning o'zlari o'ylab topishlari hamda yangi qoidani isbotlash vaqtida abstrakt fikrlashdan foydalanish barcha qoidalarni eslab o'tish, yangi materialni o'rganish va mustahkamlashga asos bo'ladi. Avval o'tilgan materiallarni muntazam ravishda takrorlash va shu kabi boshqa usullar o'quvchilarning abstrakt fikrlash rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, shu bilan bir qatorda, turli tushuncha va bo'limlar o'rtasida, avvalgi va hozirgi dars bilan keyin o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'rtasida bog'lanishlarni ta'minlaydi.

**Tahlil va natijalar.** Boshlang'ich sinf dasturida bolalarda abstrakt tasavvurlarni rivojlantirish uchun geometrik materiallarning nazariyasi hamda amaliyotiga kerakli e'tibor qaratilgan. Geometrik shakllarni yasash, ularni oldin katakli, so'ngra oq qog'ozga chizish, modellashtirish, chizmalardan va atrof-borliqdan ma'lum geometrik shakllarni tanish, xususan, bu shakl boshqa bir murakkab shaklning biror-bir elementi bo'lgan holda ham tanish kabi ishlarni muntazam olib borish maqsadga muvofiqdir. [8;34-b.]. Hozirgi vaqtda yurtimizda, ayniqsa, matematika faniga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki mutaxassislar fikricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarning tahliliy va abstrakt-mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. Natijada o'quvchilar nafaqat misol va masalalar yechishda, hayotida uchraydigan turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish ishlarini bosqichma-bosqich rejali bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Bizga ma'lumki, abstraksiya bilishda tushuncha, kategoriya shaklida namoyon bo'ladi. Abstraktlashtirish asosan tafakkurning muhim xususiyati hisoblanadi, lekin tasavvurda ham abstraksiyaning ayrim elementlarini uchratish mumkin. Abstraksiyalash jarayonida turli kategoriyalar, qonun, qonuniyat, sababiyat kabi abstrakt tushunchalar vujudga kelib, bu tushuncha va kategoriyalar olamni bilishning muhim yakunlarini, natijalarini tashkil etadi. Olamni o'rganishda, hodisalarning mohiyatini ochishda, ular haqida to'g'ri xulosalar chiqarishda abstraksiyalashning ahamiyati katta. Abstraksiyalash miyaning sof ichki mahsuli emas, u reallikdagi hodisalar xususiyatini u yoki bu tarzda aks ettirishning hosilasidir. Reallikdagi har bir predmet bevosita yoki bilvosita boshqa predmet bilan bog'liq va u bilan birga qandaydir umumiylikka ega. Abstrakt tafakkur bu kichik tafsilotlar haqida qisqacha ma'lumot berish va butun vaziyatga qarash imkonini beradigan fikrlash tarzidir. Bunday fikrlashsiz me'yor va qoidalar chegaralaridan tashqariga chiqishga va yangi kashfiyotlar qilishga imkon beradi [7;41-b.]. O'quvchilarning abstrakt fikr yuritishi takomillashgan va tushunarli bo'lish kerak, ya'ni, o'quvchi aqlini fikrlashlardan chetga qolmaydigan qilib ma'lum miqdorda tarbiyalash kerak. Ravshanki, buning uchun o'qituvchining o'zi ham bevosita takomillashib borishi, o'rganilayotgan hodisani har tomonlama ko'rsatib bera olishi kerak. O'qituvchilar masalalarning shartini o'zgartirish, masala shartining yangi variantlarini o'ylab topish yoki o'quvchilarni o'ylashga majbur etishi kerak. O'quvchilarning o'zlarini muhim bo'lmagan xossalarning o'zgaruvchanligi haqida ishonch hosil qilishlariga, bunday xossalarni boshqa muhim xossa va belgilardan farq qilishlariga abstrakt fikrlashlari imkon beradi. Masalan, to'g'ri burchakli uchburchakni o'rganishga kirishishdan avval o'quvchilarga uning har xil vaziyatdagi chizmasi ko'rsatiladi. Natijada o'quvchilar bu shaklda to'g'ri burchak hamisha ham gorizontol asosda yotmasligini bilib oladilar. Masalalar yechishda o'quvchilarni har tomonlama o'ylashga yani abstrakt fikrlashga erishish tamoyili berilgan masala shartini bir yoki bir necha so'zini o'zgartirish, qo'shimcha miqdorlarni orttirish orqali amalga oshiriladi. Chunonchi, faqat sonlar miqdorini o'zgartirish orqali ham berilgan bog'liqlikning umumiy xarakterda ekanligini o'quvchilarga tushuntirish mumkin. Masala shartini biroz o'zgartirish ham umumiy xulosalar chiqarish maqsadiga qaratilgandir.

Boshlang'ich sinflar o'quv jarayonida abstrakt fikrlashga o'rgatishning asosiy yo'nalishlari yana biri abstrakt fikrlashga o'rgatishda o'quvchilarga mumkin qadar mustaqillik berishdir. Aktivlik, qiziquvchanlik, mustaqillikka intilish o'quvchilarga xos bo'lgan xususiyatlardir. Bundan tashqari, dars mavzusi haqida mustaqil fikr yuritish, matematik nazariyalarni tatbiq etish va berilgan masalalarni mustaqil yechish o'quv materialini samarali o'zlashtirish va esda olib qolishning muhim shartlaridandir. Nazariy bilimlar o'quvchilarning asosiy o'quv faoliyatlari bilan qanchalik ko'p yaqinlashsa, yangi o'quv materialining mazmuniga tushunish shunchalik chuqur va esda olib qolish ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Abstrakt fikrlashga o'rgatish jarayonida o'quvchilarning mumkin qadar mustaqilliklarini belgilash juda qiyin vazifadir. Bu jihatdan o'qituvchiga har tomonlama xavf tug'iladi, Birinchi xavf shundan iboratki, yangi materialni o'rganish va masalalar yechishda, asosan, o'qituvchining o'zi abstrakt fikr yuritadi. O'quvchilarning mustaqil-

liklari esa faqat o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga ayrim qisqa javoblar berish bilan cheklanib qoladi. O'qituvchi kuchliroq o'quvchilardan biriga masala yechishni buyurib, doskada ishlatayotganida ham o'quvchilar aqliy faoliyatining xuddi yuqoridagidek cheklanishi sodir bo'ladi. Ko'pincha o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini bunday abstrakt fikrlashida to'xtalishi bitta o'quvchi doska oldiga chaqirilib, masalani butun sinf hal qilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Bunday hollarda masalani yechishda har bir o'quvchini aktiv izlantirish va masala yechishning har xil usullarini jamoa shaklida muhokama qilish o'rniga, o'qituvchining o'zi aytib berishi yoki birinchi bo'lib masalani yechgan kuchli o'quvchining aytib berishi bilan cheklanib qo'ya qolinadi. Masalaning yechilishi doskaga yozib qo'yilgandan so'ng, ko'pchilik o'quvchilar uni o'z daftarlariga shunchaki ko'chirib yozib oladilar. O'z-o'zidan ravshanki, bunday metod bilan masala yechishda vaqtdan yutish batamom xatodir. O'quvchilarning aql va onglarini, xuddi papkaga kitob tiqib to'ldirib tashlagandek, turli bilimlar bilan shunchaki to'ldirib bo'lmaydi.

**Xulosa va takliflar.** O'quvchilar bevosita mustaqil ijod qilganida, abstrakt fikrlaganda, o'rganilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini o'zi kuzatganda, o'zi mustaqil xulosa chiqarishga intilganda (to'g'ri xulosalarga kelish uchun), o'z fikrining to'g'ri yoki noto'g'riligiga o'zi ishonch hosil qilganida va, nihoyat, olgan bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlari ustida fikr yuritgandagina uning abstrakt tafakkuri o'sadi. O'qituvchi tushuntirgan abstrakt fikrni o'quvchi uqib oldi, deb faraz qilsak ham, baribir, o'quvchi o'z abstrakt tasavvurida mustahkamlanib qolgan farq va tafovutlarga asoslanib o'zlashtirganidek to'la va ongli o'zlashtira olmaydi va, binobarin, o'qituvchining bunday tushuntirishlari hech qachon o'quvchining xususiy bilimiga aylanmaydi. Mana, shuning uchun ham biror fanning, dastavval, o'qitilish davrida o'zlarining abstrakt fikrlarini singdirishga intiluvchi pedagoglar o'quvchilarning ongida bu fan haqida mukammal bo'lmagan, deyarli foydasiz, tez orada unutiladigan tushunchalar hosil qilib, yuzaki qarovchi insonlarni tayyorlaydilar.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarga abstrakt fikrlashlarini rivojlantirishda mumkin qadar ko'proq mustaqillik berish o'qituvchidan o'quvchilarning o'quv faoliyatlari ustidan nazoratni me'yorlashtirishini hamda bunday faoliyatning maqsadga muvofiq ekanligini chuqur tushunishini talab etadi. Abstrakt fikrlash o'qituvchi tomonidan yo'lga solinadigan bilish jarayoni ekan, darsda o'quvchilarning mustaqilligi va aktivligi muammosi, albatta, bilish jarayonining xususiyati va o'qish jarayonining abstrakt mantiqiy masalalari bilan bog'liqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т., “Ўзбекистон”, 2017, 592 бет.
- (2). М.Е.Жумайев. Математика о'qitish metodikasidan praktikum. Toshkent, “O'qituvchi”, 2004, 78-bet.
- (3). Ишмухаммедов Р. Таълимда инновация. Т., “Fan va texnologiyalar”, 2010, 144-bet.
- (4). Пишкало А.М. I–IV синфларда геометрия. “Ўқитувчи”, Тошкент, 1990.
- (5). Abdullayeva N. Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi predmeti va maqsadi academic research in educational sciences volume 2, issue, 9, 2021, 111-bet.
- (6). Abdullayeva N.A. Boshlang'ich matematika kursida beriladigan geometrik masalalarning o'rni science and innovation international scientific journal volume 1 issue 7 uif, 2022, 8.2, ISSN, 2181–3337, 41-bet.
- (7). Abdullayeva N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni abstrakt fikrlashlarini rivojlantirishda zamonaviy yondashuv “Interpretation and researches” xalqaro ilmiy jurnali 11(33)-soni.
- (8). Abdullayeva N.A. Geometrik mazmundagi masalalarni kichik yoshidagi maktab o'quvchilarining abstrakt fikrlashlarini rivojlantirishdagi o'rni. International Journal of Formal Education.

**To'raqulova Bahriniso Baxtiyorovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: bahrinisotraqulova@gmail.com)**

**OLIIY TA'LIMDA SAMARADORLIKNI YAXSHILASHDA KASBIY MOSLASHUVCHANLIK KO'NIKMALAR VA AMALIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'limda talabalarning kasbiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini hamda amaliy malakalarini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining integrativ hamkorligi asosida amalga oshirish jarayoni, amaliy malakalarni shakllantirishda ishlab chiqarish korxonalarida amaliyotlarni tashkil etish jarayonini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlillar keltirilgan hamda integrativ ta'lim muhitida oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari integrativ hamkorligini ta'minlashda amaliyot dasturlari vositasida o'qitish metodi-*

*kasini takomillashtirish asosida ta'limda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi to'g'risida bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, korxonalar, innovatsiya, tajriba-sinov, yondashuv, tizim, metod, metodika, texnologiya, stajirovka, amaliyot, integrativ.

**Туракулова Бахринисо Бахтиёрвна** (доцент Бухарского инженерно-технологического института, доктор философии по педагогическим наукам (PhD); e-mail: bahrinisotoraqulova@gmail.com)

### **СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТИВНОСТИ И ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация.** В данной статье рассмотрен вопрос о развитии навыков профессиональной гибкости и практических навыков студентов вузов в процессе реализации на основе интегративного сотрудничества высших учебных заведений и производственных предприятий, приведены результаты экспериментальной работы по совершенствованию процесса организации стажировок на производстве. Изучена роль предприятий в формировании практических навыков студентов. Констатируется, что можно достичь высокой эффективности в образовании на основе совершенствования методики преподавания посредством практических программ в обеспечении интегративного сотрудничества высших учебных заведений и производственных предприятий в интегративной образовательной среде.

**Ключевые слова:** высшее образование, предпринимательство, инновация, эксперимент, подход, система, метод, методология, технология, стажировка, практика, интегративный.

**Torakulova Bahriniso Bakhtiyorovna** (Docent of Bukhara Institute of Engineering and Technology, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD); e-mail: bahrinisotoraqulova@gmail.com)

### **THE CONTENT OF FORMING PROFESSIONAL ADAPTABILITY SKILLS AND PRACTICAL SKILLS IN IMPROVING EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION**

**Annotation.** In this article, the process of implementation based on the integrative cooperation of higher education institutions and production enterprises in the development of professional flexibility skills and practical skills of students in higher education, the results of experimental work on improving the process of organizing internships in production enterprises in the formation of practical skills and analysis are presented and it is stated that it is possible to achieve high efficiency in education based on the improvement of the teaching methodology by means of practical programs in ensuring the integrative cooperation of higher education institutions and production enterprises in the integrative educational environment.

**Key words:** Higher education, enterprise, innovation, experiment, approach, system, method, methodology, technology, internship, practice, integrative.

**Kirish.** O'zbekistonda innovatsion ta'lim muhitida oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining integratsiyalashuvi muammosi 80-yillarning ikkinchi yarmida hal etila boshlandi. Bu muammo tashkiliy jihatdan kafedralarning ishlab chiqarishdagi hamda talabalarga professional ta'lim berishga sezilarli hissa qo'shgan ilmiy tadqiqot institutlaridagi filiallarda, shuningdek, uzoq muddatli integratsiyalashgan amaliy mashg'ulotlarda o'zining samarali ifodasini topdi. Shu tariqa, integratsiyalashuv kadrlar tayyorlash darajasini ma'lum tarzda ko'tarish, ularning ishlab chiqarishga moslashuv muddatlarini qisqartirish, eng muhimi, ishlab chiqarishga malakali mutaxassislarni jalb etgan holda, zamonaviy ilmiy-texnik asosda professional tayyorgarlikni olib borish imkonini berdi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Jahon tajribasida bunday integratsiya o'quv-ilmiy ishlab chiqarish markazlari, komplekslari, texnopolislari singari omillar shaklida amalga oshiriladi. Ularda yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda bu tadqiqotlar natijasini sanoatda o'zlashtirish vazifasi mujassamlanadi. Bunday birlashmalarda jamiyat ehtiyojlari asosida tegishli tarmoq o'quv-ilmiy-texnik siyosatni amalga oshiradigan oliy ta'lim muassasalari asosiy tashkiliy bo'g'in hisoblanadi [2].

Xorijlik pedagog olim O.Y.Ujan "Integratsiyalashgan ta'lim zamonaviy ma'lumot natijasi sifatida" nomli maqolasida shunday deydi: "Ta'limni modernizatsiya qilish deganda, nafaqat uning tarkibini yangilash, balki innovatsion texnologiyalarning faol qo'llanilishi ham tushuniladi. Talabalar kognitiv ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik tadqiqotning an'anaviy obyektidir. Innovatsiyaning ushbu yo'nalishida integratsiyalashgan ta'lim ajralib turadi. Ta'limni integratsiyalashgan darslar orqali amalga oshirish natijasida voqelikni yaxlit idrok etish imkoniyatiga erishiladi" [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tahliliy yondashuv. Tahlil tarqatish, yozish, tekshirish, surishtirish, hal qilish, ochish degan ma'nolarni bildirsa-da, unga quyidagicha munosabat bildirish mumkin: tahlil, murak-

kab tafakkur operatsiyasi hisoblanib, uning yordamida predmet va jarayonlar aniq o'lchov birligiga ega bo'lgan usullar vositasida yaxlit tarzda yoki alohida qismlarining turli belgi va xususiyatlari bo'yicha aloqadorlik darajasini belgilab beradi.

Ko'rsatilishicha, tahlil tushunchasi quyidagi tasniflarga ega:

1. Narsa, hodisa va shu kabilarni mohiyat, qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish, o'rganish ishi.
2. Biror narsa, ma'lumot va shu kabilarni ma'lum nuqtayi nazardan o'rganish, baholash.
3. Biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish.

Pedagogik faoliyatni takomillashtirishda tahlil amaliy mazmun kasb etib, ta'lim-tarbiyaning sifatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Yuzaga kelgan pedagogik muammoning (masalan, pedagogik nizo) sabablarini aniqlash, uning kechishining davriyligini bilish uchun nizoning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni, bunda, avvalo, qaysi qonuniyatlarga (ular tabiiy yoki sun'iy bo'lishi mumkin) amal qilinishini bilish lozim bo'ladi.

Texnologik yondashuv. "Texnologiya" – yunoncha "techne" so'zidan olingan bo'lib, mahorat, san'at va "logos" – so'z, ta'limot ma'nosini anglatadi. Shuningdek, texnologik yondashuv bu ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson, texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv quyidagi asosiy shartlarga muvofiq tashkil etiladi :

- 1) ta'lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ijtimoiy (yoki shaxsiy) ehtiyojlarning yuzaga kelishi;
- 2) ta'lim olish, muayyan nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan rag'batning uyg'onishi;
- 3) talabaning o'quv-bilish faoliyati mazmunini belgilash;
- 4) talabaning o'quv-bilish faoliyatini boshqarishni yo'lga qo'yish omillarining mavjudligi.

Ilmiy yondashuv. Ilmiy yondashuv – har qanday fan sohasidagi yangi bilimlarni olish, faktlar va nazariyalar yig'indisini umumlashtirish va chuqur tushunish uchun muammolarni hal qilishning asosiy usullari va ular to'plami.

Ilmiy metod – yangi bilimlarni olishning asosiy usullari va har qanday fan doirasidagi muammolarni hal qilish usullari to'plami.

Obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

Kreativ yondashuv har qanday muammoga tezda javob berishga va qiyin vaziyatlardan nostandart yo'llarni topishga yordam beradi. "Bu nafaqat ijodiy kasb egalari tomonidan talab qilinadi, ijodkorlik turli xil kundalik vazifalarni hal qilishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

Har bir inson o'ziga xos mantiqiy zanjirlarni qurish imkoniyatiga ega. Uning darajasi, odatda, CQ (Creativity Quotient) deb ataladigan ijodiy intellekt koeffitsiyenti bilan belgilanadi. Bu IQ bilan bog'liq emas, deb ishoniladi, lekin u rivojlanish va o'qitish uchun ham juda mos keladi. Siz faol ravishda yangi g'oyalarni yaratishni boshlashingiz va ularni bir qator oddiy mashqlar yordamida amalga oshirishingiz mumkin [4].

1. Oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasi tamoyillari. Biz quyidagi integratsiya tamoyillaridan foydalandik.

Innovatsion tamoyil. "Innovatsiya" atamasi lotincha "novatio" so'zidan olingan bo'lib, "yangilash" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak, "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi. "Innovation" tushunchasi birinchi bo'lib XIX asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi.

Uzviylik tamoyili. Uzviylik tamoyili umumiy jarayondagi turli xil tizimlarning organik dinamikasini ta'minlab, ko'rsatilgan aloqalar xu-susiyatini, ularning ichki tabiatini ochib beradi. Uzviylik, shuningdek, innovatsiya bilan birgalikda amalga oshiriladi. Pedagogik topshiriqlarni istiqbolli davom ettirishni, joriy qilishni uzviyliksiz tasavvur qilish qiyindir.

Izchillik tamoyili. O'zbek falsafiy adabiyotida izchillik tushunchasini chuqur tahlil qilib borgan I.T. Aliyev ham quyidagicha ta'rifni keltirgan: "Izchillik – butunning tizim sifatida bir holatdan boshqa holatga o'tishidagi u yoki bu elementlar alohida tomonlarining saqlanib qolishini ifodalovchi borliqning, shuningdek, bilishning turli xil taraqqiyot bosqichlari o'rtasidagi aloqadorlikdir".

**Tahlil va natijalar.** Innovatsion ta'lim muhitida oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanayotgan innovatsion "startap" loyihalar kafedra professor-o'qituvchilari va talabalari tomonidan tayyorlanib,

amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shuningdek, 4-kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari hamda kafedra tadqiqotchilari ilmiy ish mavzulari ishlab chiqarish korxonalarini muammolari yuzasidan tanlanib, tadqiqotlarni olib borilishi yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini kengaytirish hamda talabalarining amaliy bilim va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalarida “Kafedra filiallari”ni tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan.

Bizning fikrimizcha, innovatsiya jarayoni ishlab chiqarish va oliy ta‘lim muassasasi raqobatbardoshligini ta‘minlash, jahonda o‘z mavqeyiga ega bo‘lish va uni ushlab qolish, unumdorlikni, pirovardida ham oliy o‘quv yurti, ham soha, ham yaxlit iqtisodiyot samaradorligini oshirishning asosiy va majburiy shartidir.

Oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasidagi integrativ hamkorlik bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari 546 nafar respondentlarda olib borildi hamda natijalar tahlil qilindi (1-jadval).


*1-jadval*

**Tajriba boshida va oxirida OTMLar kesimida talabalarining malaka amaliyotlarini tashkil etish metodikasiga asoslangan tajriba-sinov natijalari**

Darajalar	Tajriba guruhi (t=283 nafar talaba)				Nazorat guruhi (n=263 nafar talaba)			
	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
	Talabalar soni	%	Talabalar soni	%	Talabalar soni	%	Talabalar soni	%
“a’lo” (Professional)	42	14,8	82	28,9	34	12,9	50	19,0
“yaxshi” (Intellektual)	61	21,6	113	39,9	52	19,8	79	30,0
“qoniqarli” (Kommunikativ)	117	41,3	73	25,9	111	42,2	101	38,4
“qoniqarsiz” (Kommunikativ)	63	22,3	15	5,3	66	25,1	33	12,6

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, integrativ amaliyot dasturlari asosida o‘qitishda tajriba guruhlarida “a’lo” baho olgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan 12%ga ortgan, “yaxshi” baho 9%ga ortgan, “qoniqarli” baho olgan talabalar 15%ga, “qoniqarsiz” baho olgan talabalar esa 6%ga kamaygan.


Demak, tajriba guruhlarida “a’lo” va “yaxshi” baho olgan talabalar soni ortgan, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” baho olganlar soni nazorat guruhlariga nisbatan kamaygan(1,2-rasm).



**1-rasm. Oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini integrativ hamkorligi asosida yaratilgan metodika bo‘yicha tajriba-sinov natijalari diagrammasi (tajriba boshida).**

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba boshida malaka amaliyotlari jarayonida tajriba-sinov guruhida “a’lo” baho olgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan 1%ga ortgan va “yaxshi” baho olgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan o‘zgarmagan, “qoniqarli” baho olgan talabalar 4%ga, “qoniqarsiz” baho olgan talabalar esa 3%ga kamaygan, tajriba oxirida esa “a’lo” baho 12%ga, “yaxshi” baho 9%ga ortgan, “qoni-

qarli” baho olgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan 15%ga, “qoniqarsiz” baho olgan talabalar esa 6%ga kamaygan.



**2-rasm. Oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari integrativ hamkorligi asosida yaratilgan metodika bo’yicha tajriba-sinov natijalari diagrammasi (tajriba oxirida).**

**Xulosa.** Biz mazkur ilmiy tadqiqotlar orqali oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasini ta’minlash muammosini qisman hal qildik, deb hisoblaymiz. Chunki fan va amaliyot integratsiyasini ta’minlash ta’limning dolzarb muammosi bo’lib, uni tadqiq etishni davom ettirish va bu yo’lda izlanish hamda ilmiy, metodik, konseptual islohotlarni amalga oshirish lozim, degan fikrdamiz.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari amaliyot jarayonidan kasbiy bilim va ko’nikmalarni chuqur o’zlashtirishi, amaliy malakaga ega mutaxassis sifatida shakllanishi natijasida innovatsion va kreativ faoliyat egasi bo’lib yetishadi. Innovatsion salohiyat esa bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai bo’lib hisoblanadi va milliy boylikning eng muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ta’lim jarayonini integrativ tashkil etish asosida esa innovatsion faoliyatning shakllanishi orqali raqobatbardosh, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishni ta’minlay oladigan ke-lajak bunyodkorlari tarbiyalanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

- (1). O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Dual ta’limni tashkil etish cho-ra-tadbirlari to’g’risida”gi 163-qarori.
- (2). Sharifovna, T.Z., Khamidovna, S.K., Bakhtiyorovna, T.B., & Fakhritdinovna, M.S. (2020). Improving Higher Education Through Integrated Learning, Features of an Integrated Lesson. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(3), p. 3052–3064.
- (3). Туракулова, Б.Б. (2022). Повышение квалификации персонала на основе интеграции технических подразделений и производственных предприятий. *Universum: психология и образование*, (10 (100)), с. 8–11.
- (4). Ubaydova, V., Azimova, M., & Khudoyberdieva, S. (2024, January). Creation of a mathematical model of computeraided design of patterns and ornaments for gold embroidery. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2969, №. 1). AIP Publishing.
- (5). To’raqulova, B.B. (2024). Ta’lim samaradorligini yaxshilashda kasbiy moslashuvchanlik ko’nikmalarini shakllantirish mazmuni. *Universal Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(10), p. 28–36.
- (6). Rakhmatullaeva, D.R., & Ashurova, S.Y. (2022, January). Issues of poverty reduction through involving youth and women in entrepreneurship. In *European journal of Science Archives conferences series* (No. January).
- (7). Saidova, H., & Samadova, N. (2019). Automation of the process taking into account rational use of wastes at garment enterprises. *Eurasian Journal of Science and Technology*, 1(2).

**Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich (O’zbekiston davlat San’at va madaniyat instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD))**

#### **AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG’ULOTLARDA BO’LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo’lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar aso-sida rivojlantirishda auditoriyadan tashqari mashg’ulotlar, jumladan, mustaqil ta’lim jarayonida bo’lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan. Maqola-da talabaning kasbiy kompetentligini, asosan, ijodiy jarayonlar asosida rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

*Kalit so'zlar: san'at, sahna, rejissor, rejissura, kasbiy kompetentligik, adabiy asar, mustaqil ta'lim.*

**Маматкасимов Джахангир Абиркулович** (доцент Государственного института искусства и культуры Узбекистана, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам)

## **МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ РЕЖИССЕРОВ ВНЕ АУДИТОРИИ НА ОСНОВЕ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ**

*Аннотация. В данной статье разработаны и рекомендованы методы развития профессиональной компетентности будущих режиссеров на основе литературных произведений, в том числе обучение вне аудитории, в том числе самостоятельное образование. В статье рассматриваются вопросы развития профессиональной компетентности студента преимущественно на основе творческих процессов.*

*Ключевые слова: искусство, сцена, режиссер, режиссура, профессиональная компетентность, литературное творчество, самостоятельное образование.*

**Mamatkasimov Jahangir Abirkulovich** (Docent of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture  
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical sciences)

## **METHODS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE DIRECTORS IN OUTSIDE THE AUDITORIUM BASED ON LITERARY WORKS**

*Annotation. In this article, methods of developing the professional competence of future directors based on literary works, including training outside the audience, including independent education, are developed and recommended. The article examines the issues of developing the student's professional competence mainly based on creative processes.*

*Key words: art, stage, director, directing, professional competence, literary work, independent education.*

**Kirish.** Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirish bevosita auditoriya mashg'ulotlarida egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib, bir maqsadga qaratilgan ikki obyektidagi ta'lim jarayonini integratsiyalagan holda olib borish nazariy va amaliy bilimlarning mustahkamlanishiga asos bo'ladi.

Dunyo ta'lim tajribasida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar mustaqil ta'lim mashg'ulotlari sifatida amalga oshirilib, nazariy va amaliyotning integratsion usuli sifatida qaraladi.

Bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar orqali rivojlantirishda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar kurs badiiy rahbari nazoratida mustaqil ta'lim obekti: nazariy va ijodiy xarakterdagi jarayonlarda amalga oshirilib, o'quv jarayonining ajralmas qismidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Respublikamizda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, mashg'ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish yuzasidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, A.T.Nurmonov auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar misolida talabalarni samarali muloqat texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini [3], G.R.Sobirova talabalarda kasbiy auditiv layoqatini axborot ta'limiy resurslar vositasida rivojlantirish bo'yicha auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar dasturini [5], O.M.Jabborova auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida badiiy idrokni rivojlantirish texnologiyasini [2], D.R.Farsaxonov auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarda ijodiy ma'naviy-axloqiy munosabatlar va fazilatlar tarkib toptirish metodlarini [1] tadqiq etgan. Shuningdek, Z.T. Saliyeva tomonidan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning pedagogik imkoniyatlarini integratsiyalash asosida talabalarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlash jarayoni modellashirilgan [4].

**Muhokama.** Talabalarning chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda, tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda bosh mezondir.

Tabiiyki, rejissura fanidan talabani mustaqil ishini tashkil qilish va unga rahbarlik qilishning asosiy prinsiplarini ko'rib chiqqanda asosiy e'tiborni talabada o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, eng muhimi mustaqil rejissorlik ishlarini sahnalashtirish ustida mustaqil ishlashning mustahkam ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratish lozim.

**Natijalar.** "Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish usullari talabani akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda tashkil etildi va olib borildi. Mustaqil ta'lim quyidagi usullarda tashkil etish tavsiya etiladi.



*Mustaqil rejissorlik ishi uchun dastur tayyorlash* – 60211200 – Rejissorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi) ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar har bir semestr yakuniga ko'ra mustaqil rejissorlik ishi sahnalashtirishadi. Mazkur ijodiy jarayonlarda talabalar bo'lg'usi sahna asarini adabiy asarlar asosida sahnalashtirib, rejissorlik tahlilini amalga oshiradi, asarning badiiy-ifodaviy vositalari ustida ishlaydi. Eng muhimi, aktyorlar ansamblini shakllantirib ular bilan badiiy to'laqonli sahna asari sahnalashtiradi.

*Inssenirovka tayyorlash* – kurs badiiy rahbari topshirig'i va ko'rsatmasiga asosan, o'quv mashg'ulotlaridan tashqari hollarda mustaqil biror-bir asarni sahnalashtirish uchun inssenirovka qiladi. Talabadan adabiy asarni inssenirovka qilishda adabiy til me'yorlari, adabiyot normalarini yaxshi bilishni talab qiladi. Inssenirovka tayyorlash – kurs badiiy rahbari topshirig'i va ko'rsatmasiga asosan, o'quv mashg'ulotlaridan tashqari hollarda mustaqil biror-bir asarni sahnalashtirish uchun inssenirovka qiladi. Bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda inssenirovkalar bilan ishlash aynan adabiy asarni keng tahlil qilish, uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash kabi tahliliy jarayonlarni talab etadi. Tadqiqot jarayonidagi izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan dramatik shaklda yozilmagan adabiy asarlar asosida inssenirovka yozish usullari tavsifa etiladi.

Adabiy asarlar asosida inssenirovka yozish usullari: tanlangan asarni o'qib chiqish; tanlangan asar muallifining ijodiy faoliyatini o'rganish; tanlangan asarning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish; tanlangan asarni bo'laklarga ajratish; ajratilgan bo'laklar asosida inssenirovka yozish, ajratilgan bo'laklarni umumiy-lashtirish; inssenirovkani xulosalash.

*Ssenariy tayyorlash.* Bo'lajak rejissorlarning kasbiy kompetentligi adabiy asarlar asosida rivojlantirishda talabaning mustaqil ssenariy yozishi asosiy jarayondir. Estrada va ommaviy tomoshalar dramaturgiyasini yaratish ijodiy jarayon bo'lib, o'z o'rnida adabiyot nazariyasiga, dramaturgiya qonuniyatlariga bo'ysunadi. Shu sabab ham estrada va ommaviy tomoshalar dramaturgiyasi, ya'ni ssenariysi bu to'laqonli adabiy asardir. Ssenariy yozishni maqsad qilgan talabaning ijtimoiy-siyosiy, kasbiy bilimdonligi yuqori bo'lmog'i, adabiy normalar, dramaturgiya qonuniyatlarini egallagan bo'lmog'i, buning ta'sirida ssenariy uchun mahalliy dalillarni yig'a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo'lmog'i lozim.

Ssenariy yaratishda bo'lajak tadbirlarning g'oyaviy mavzu asosini chuqur o'ylamoq lozim. Eng muhimi shundaki, ssenariy asosida muhim ijtimoiy va mahalliy aholining hayotiga yaqin bo'lgan qiziqarli mavzu yotishi kerak. Shuni unutmaslik kerakki, ssenariy har doim ma'lum bir sana va muayyan aholi uchun mo'ljallanib yoziladi. Ssenariy yozayotganda mahalliy shart-sharoitlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

*Rejissorlik tahlili* – kurs badiiy rahbari topshirig'i va ko'rsatmasiga asosan, talaba o'quv mashg'ulotlaridan tashqari hollarda biror-bir badiiy asarning rejissorlik tahlilini amalga oshiradi. Bu jarayonda asar dramaturgiya qonuniyatlari asosida badiiy ko'rikdan o'tkaziladi. Badiiy asarning ijtimoiy ahamiyati o'rganilib, tarbiyaviy jihatlari tahlil etiladi. Asar kimlar tomonidan qaysi davrda sahnalashtirilganligi o'rganiladi. Sahnalashtirishda rejissorning o'ziga xos ijodiy uslublari tadqiq etiladi. Rejissorlik tahlili qilingan asarlar sahnalashtirilishga tavsiya etiladi. Badiiy asarning rejissorlik tahlili kafedra professor-o'qituvchilari jamoatchiligida muhokama etilib, baholanadi.

*Audio va video manbalar to'plash* – kurs badiiy rahbari topshirig'i va ko'rsatmasiga asosan, o'quv mashg'ulotlaridan tashqari hollarda biror mavzuga mos audio va video manbalar tanlanadi, tahlil qilinadi va montaj qilinadi. Qayd etish kerakki, audio va video manbalar biror madaniy tadbir uchun tanlanib, tomoshabin uchun tadbir mavzusi, g'oyasi va maqsadini yanada ta'sirli va tushunarli bo'lishidagi yordamchi badiiy vositadir.

*Bayram va tomoshalarini tahlil qilish* – o'tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida Respublika va jahon miqyosida o'tkazilayotgan bayramlar tomosha qilinadi va mavzuga mos tahlil qilinadi. Sohada kechayotgan izchil ijodiy jarayonlar o'rganiladi. Xorijiy va milliy tajribalar ta'lim jarayoniga interpretasiya qilinadi. Mustaqillik, Navro'z, Xotira va qadrlash kuni bayramlariga bag'ishlangan tomoshalar, Sharq taronalari, Boysun bahori, Xalqaro maqom anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati, Xalqaro hunarmandlar festivallarining tantanali ochilish va yopilish marosimlari, dunyo miqyosida o'tkazilib kelayotgan olimpiada va boshqa sport bayramlarining tantanali ochilish va yopilish marosimlari bo'lajak rejissorlarga tomosha va tahlil qilish uchun tavsiya etiladi.

**Xulosa.** Bo'lajak-rejissor uchun auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar bu mustaqil ta'lim mashg'ulotlari bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirishda va ularda ijodiy ishlashga qiziqishning ortishida asosiy obyektidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning shakli va metodlari. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnali, Buxoro, 2020, № 3, 71–76-betlar.
- (2). Jabbarova O.M. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari badiiy idrokini rivojlantirish. Ped. fan.fals. dok. diss. avtoref., Chirchiq, CHDPI, 2021, 43 bet.
- (3). Nurmonov A.T. Talabalarni samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari. Dis. ... p.f.d., T., TDPU, 2017, 256 bet.
- (4). Saliyeva Z.T. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. dok. diss. avtoref., Toshkent, Toshkent davlat Pedagogika universiteti, 2017, 66 bet.
- (5). Sobirova G.R. Talabalarining kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda axborot ta'limiy resurslardan foydalanish texnologiyasi (ingliz tilini o'qitish misolida). Ped. fan.fals. dok. diss., Jizzax, GDU, 2021, 166 bet.

### Ruzikulova Nigora Kudratovna (Toshkent shahar Sergeli tumani 317-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi) BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI JANRLARI ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGI FANIDA KROSSVORD METODINI QO'LLASH YO'LLARI

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi janrlarini o'qish savodxonligi darslarida online test paneli orqali krossvord metodi qo'llash yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* folklor, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, masal, hikoya, krossvord.

Рузикулова Нигора Кудратовна (учитель начальных классов СГОШ 317 Сергелийского района города Ташкента)

### ПУТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДА КРОССВОРДА НА УРОКАХ ПО ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НА ОСНОВЕ ЖАНРОВ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Аннотация.* В данной статье описано использование метода кроссвордов посредством программы онлайн-тест-панель на занятиях по читательской грамотности на основе жанров устного народного творчества среди учащихся младших классов.

*Ключевые слова:* фольклор, сказка, загадка, пословица, скороговорка, притча, рассказ, кроссворд.

Ruzikulova Nigara Kudratovna (Primary school teacher at SSCS 317, Sergeli district of Tashkent)

### WAYS OF APPLYING THE CROSSWORD METHOD IN THE SCIENCE OF READING LITERACY BASED ON GENRES OF FOLK-VERBAL CREATION IN PRIMARY CLASS PUPILS

*Annotation.* This article describes the use of the crossword method through the online test pad program in the reading literacy classes of the genres of folk art among elementary school students.

*Key words:* folklore, fairy tale, riddle, proverb, quick telling, parable, story, crossword.

**Kirish.** Ta'lim inson hayotining muhim qismi bo'lib, undan voz kechib bo'lmaydigan jarayondir. Ta'lim bu muntazam ravishda tashkil etilgan, rejalashtirilgan va o'rganilgan usullardan foydalaniladigan va qoidalarga asoslangan holda kechadigan tizimdir, u insoniyat mavjud bo'lganidan beri mavjud bo'lgan hayotning bir qismidir [1]. Bolalik ta'lim olishning eng muhim bosqichi bo'lib, u bolaning o'z salohiyatiga ega bo'lishi, hayot normalarini bilishi va o'rganishi, yaxshi yoki yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblangan narsalarni saralash va tanlashni o'rganishi mumkin bo'lgan davridir. Shuning uchun bolalik – bu shaxsning xarakterini shakllantirishning eng muhim bosqichi. Boshlang'ich maktab yoshdagi bolalarda xarakterni shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu yoshda bolalarni yo'naltirish va ularning xarakterini osongina shakllantirish mumkin. Bola shaxsini shakllantirishda barcha tarkibiy qismlarni jalb qilish juda muhimdir. Xarakterni shakllantirish, avvalo, oila muhitida, keyin, maktab va jamiyat muhitida amalga oshiriladi. Bolalarni ijobiy hayotiy qadriyatlarga o'rgatish orqali xarakterni shakllantirishda oilaviy va maktab muhiti muhim rol o'ynaydi. Shularni hisobga olgan holda, boshlang'ich ta'lim bosqichida xalq og'zaki ijodi janrlarini o'qish savodxonligi darslarida o'rganish juda muhim omillardandir.

**Adabiyotlar tahlili.** Xalq og'zaki ijodi milliy va madaniy qadriyatlar ming yillar davomida oqayotgan daryolarga o'xshaydi [2]. Bu xalq madaniyati o'zining butun shakllanishi va evolutsiyasi davomida tub aholining ma'naviy an'analari va mintaqaviy o'ziga xosligini vujudga keltirgan, shu bilan birga, shaxslarga katta madaniy ta'sir ko'rsatgan va tarbiyaviy rol o'ynagan. Xalq ijodining doimiy hayotiylik uning xalq jamoasi ichidan kelib chiqishi, kundalik hayotni sinchkovlik bilan kuzatish, milliy madaniyat bilan chuqur bog'lanishi va urf-odatlar, odatlarni ifodalashga asosiy e'tiborni qaratish mumkin [3;5-b.]. Boshlang'ich

ta'lim bolalar rivojlanishining muhim davri bo'lib, bolalarning kognitiv, hissiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga muqarrar ta'sir ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodi va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish san'at, psixologiya, bolalar rivojlanishi va pedagogika kabi ko'plab fanlar bo'yicha bilimlarni qamrab oladi. Bu fanlararoqlik har tomonlama kognitiv, hissiy, ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirishni tushunishga yordam beradi [4;5-b.].

1-rasm. Xalq og'zaki ijodi janrlari.



O'rganishda hamma o'quvchilarning ham optimal ta'lim natijalariga erisha olmasligi, ba'zi o'quvchilarning ta'lim natijalarining pasayishi odatiy holdir [8]. Ta'lim natijalarining pasayishiga bir qancha omillar sabab bo'ladi, ham ichki omillar, masalan, munosabat, vaqt, vazifalarni e'tiborsiz qoldirish, dangasalik, o'quvchilarning uyda qanday o'qiyotgani va tashqi omillar, ota-onalar va oilalar muhiti, jamiyat muhiti va maktab muhiti muhim omil sanaladi. Pedagoglar maktabning atrof-muhitdagi ta'lim natijalariga ta'sir ko'rsatadigan asosiy elementlardan biridir, shuning uchun o'qituvchi qiziqarli o'quv jarayonini tashkil etish uchun samarali ta'lim vositalarini tanlash orqali o'qitish va o'qitish jarayonini o'zgartirishi va takomillashtirishga erishishi kerak. O'qituvchilardan o'quvchilarning ehtiyojlari va ta'lim o'sishiga asoslangan o'quv vositalarini qo'llash talab qilinadi [9]. O'qitish jarayonida tegishli ta'lim vositalari o'quv maqsadlariga erishishga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'quv jarayonida qo'llaniladigan qiziqarli o'quv metodlaridan biri bu krossvordlar. Krossvord bu har bir so'z umumiy harfda kamida bitta boshqa so'zni kesib o'tishi uchun gorizont va vertikal ravishda joylashtirilgan so'zlar guruhidir [7]. Krossvord ham ko'pgina turlardan mavjud, ya'ni oddiydan murakkabgacha. Krossvordlar faol o'rganish strategiyalarining ishlanmalaridan biridir. Bu bo'sh kataklarda so'zlarni tashkil etuvchi harflar bilan to'ldirilgan jumboq va so'zlar to'liq jumlar, iboralar yoki so'zlar shaklida taqdim etishga asoslanadi. Krossvordlar – bu o'quvchilarning sabr-toqatini tarbiyalashi va aql-zakovatini oshirishi mumkin bo'lgan o'quv o'yinlari. O'quvchilarning bilim olish natijalarini yaxshilash uchun krossvordlarni mashq qilishning yana bir sababi shundaki, u "ko'rib chiqish" yoki takrorlanadi, shuning uchun krossvordlardan foydalanganda o'quvchilar o'zlari olgan material va bilimlarni eslab qolishlari va ularga katakda javob berishlari mumkin.

Shulardan kelib chiqib, hozirgi kunda xalq og'zaki ijodi janrlarini boshlang'ich sinflarda o'qitishda eng yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz o'qish savodxonligi fanlarida bunga e'tibor qaratganimizdan maqsad xalq og'zaki ijodi madaniyatimiz-

ning o'ziga xos va mashhur yo'nalishlaridan biridir. Bu esa bizga boshlang'ch sinflarda o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodi janrlari asosida izlanishlar olib borishga mativasiya bo'ldi.

**Tadqiqot materiallari va metodlari.** Krossvordlarni tayyorlashda, asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiya vositasi bo'lgan kompyuterning Microsoft Word dasturidan foydalaniladi. Ammo kompyuterning Microsoft Excell dasturi orqali tayyorlangan krossvordlar avvalgilariga qaraganda samaraliroq natija berishini ko'rish mumkin [11]. Microsoft Excell dasturi biroz murakkab hamda formulalar asosida ishga tushiriladi, biroq o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doirasidagi bilimlarni egalagan bo'lishlari davr talabidir [12]. Innovatsoin krossvordlardan boshlang'ich ta'limning har bir bosqichida, shuningdek, yuqori sinflar dars jarayonlarida ham foydalanish mumkin. Bu dasturlar o'qituvchiga qiyinchiliklar yaratishi mumkin.

Izlanishlarda krossvord metodini boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligi darslarida qo'lladik. Hozirgi kunda ma'lum ofis dasturlarida krossvordlarni tuzish mumkin, lekin biz Onlayn Test Pad – sinov va o'qitish uchun rus tilidagi interfeysga ega bepul ko'p funksiyali onlayn ta'lim xizmatidan foydalandik. Krossvordlarni o'qish savodxonligi darslarida keltirilgan o'tilgan mavzular yuzasidan xalq og'zaki ijodi janrlaridan foydalangan holda, klassik turdagi krossvord qilib tuzildi.

Toshkent shahar Sergeli tumani 317-IDUMdagi 2-A sinfdagi "O'qish savodxonligi" fanidan xalq og'zaki ijodi janrlaridan krossvord metodini qo'llab izlanishlar olib borildi. O'quvchilar krossvordga darsdan keyin ota-onalarini ko'magida onlayn kirish uchun havola orqali kirib bajardilar, havola telegram tarmog'i orqali ota va onalar guruhiga yuborildi. Onlayn Test Pad tizimida o'qituvchiga barcha olingan natijalar jadval va diagramma ko'rinib turadi. Bundan tashqari, krossvordni har bir o'quvchiga A4 formatdagi qog'ozga chop qilib dars davomida natijalar olindi, faqat bunda o'qituvchi javoblarni tekshirib chiqishi kerak bo'ladi va bu esa ma'lum vaqtni talab qiladi.

Ilmiy izlanish natijalari JAPS dasturida matematik statistik analiz qilindi va Student's t-test da statistik tahlildan o'tqazildi.

**Natijalar va munozaralar.** Natijalar shuni ko'rsatdiki dars jarayonlariga turli xildagi innovatsion dars ishlanmalar va krossvord metodidan foydalanish o'zining yuqori natijalarini berdi.

Bu ko'rinishdagi izlanishlar dars jarayoniga farzandi bilan birgalikda yuqori darajada ota-onalarni ham qiziqishini uyg'otdi, ular bolariga texnik jihatdan katta ko'mak berishdi. Olingan natijalarga e'tibor qaratilsa o'quvchilar o'tilgan darslar yuzasidan yuqori darajadagi tayyorgarlikni va xotirani charxlash uchun o'tilgan mavzularni takrorlashga to'g'ri keldi. Bu esa darslarni samaradorligini yanada oshirdi. Shularni alohida ta'kidlash kerakki, oladigan baholari past darajadagi bolalarda ham yuqori darajadagi intellektual salohiyalarini, xotirasini, qiziquvchanligini oshirdi. Shu bilan birga, ular qiyinchilik va muammolar ustida ishlab chiqish orqali o'rganish, muammolarni bartaraf va fikr yuritish orqali o'rganishadi. Quyida sinflar kesimida online kirish uchun havola keltirilgan.

1-jadval

Online kirish uchun havola

№	Sinf va darsning nomi	Online kirish uchun havola
1	Nigora Kudratovna 2-sinf "O'qish savodxonligi" fanidan xalq og'zaki ijodi janrlaridan KROSSVORD	<a href="https://onlinetestpad.com/ct2dwfhgyc4ca">https://onlinetestpad.com/ct2dwfhgyc4ca</a>

Bular esa darslarni samaradorligini yanada oshirdi. O'quvchilarni fanga qiziquvchanligi oshdi. Bu ularning fikrini bayon etish, muhokama qilish va yangi fikrlar o'rganish imkoniyatlarini rivojlantiradi va unda ular noto'g'ri fikrlarni topish, eng asosiysi ertak, maqol, topishmoqlarga qiziqish uyg'otishga imkon beradi.

2-jadval

Matematik analiz natijalari


	N	Mean	SD	SE	Coefficient of variation
2A-s until	37	3.865	0.948	0.156	0.245
2A-s after	37	4.622	0.594	0.098	0.129

Statistik testlar natijalari

Student's t-test	5,783	p < 0,01
Wilcoxon signed-rank test	8.500	p < 0,01
Test of Normality (Shapiro-Wilk)	0.848	p < 0,01

1-diagramma


Natijalarni statistik tahlili diagrammalar ko'rinishida berilishi.




Diagrammalardan ko'rinish turibdiki, krossvord metodini qo'llaganda natijalari ishonchli tarzda oshgan, ya'ni  $p < 0,01$  ni tashkil qilmoqda va baholarni 16,4% ga oshishiga olib keldi.

2-diagramma


Natijalarni gistogramma ko'rinishida berilishi





Shu bilan birga, krossvord metodini qo'llaganda natijalarini o'quvchilarda olingan baholar 5 soni sezilarli tarzda oshgan.

3-diagramma



Olingan baholardan ko'rinib turibdiki, tekshiruvgacha umumiy sinfda 4 baholar soni ko'pchilikni tashkil qilmoqda va 2 baholar ham mavjud. Tekshiruvdan keyin esa 2 baholar yo'q va 5 baholar soni sezilarli tarzda oshgan.

Shularga asoslanib aytish mumkinki, o'qituvchilar krossvord metodini qo'llagan holda o'quvchilarning ertak maqol, topishmoqlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otishga va ularni kitobxon qilib tarbiyalashga yordam berishi mumkin va o'quvchilarni dars jarayonida faol bo'lishga undaydi. O'quvchilarning xalq og'zaki ijodi janrlari negizida ichki dunyosini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ularga boshqalar bilan yanada samarali va hamkorlikda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bu darslarni bo'sh o'zlashtiradigan yoki motivatsiyasi zaif o'quvchilarga yordam beradi va u o'qituvchilarni yanada ijodkor bo'lishga olib kelishi mumkin.

Krossvord metodi o'quvchilarga o'rganilayotgan materialni tushunishni osonlashtiradi. U, asosan, o'quvchilarni mavzularga qiziqishlarini oshirishga va o'qishda faol ishtirok etishlari uchun mo'ljallangan. Bu Kharisma ning [13], ta'lim metodlari qiziqarli faoliyat ekanligi va ta'lim berishda yo'l yoki vosita sifatida ishlatilishi mumkinligi haqidagi xulosalariga mos keladi. Krossvord bo'sh kvadratlarda so'zlarni tashkil etuvchi harflar bilan to'ldirilgan boshqotirma metodi bilan mashq qilinadi va so'zlar o'qitiladigan o'qish savodxonligi fani bo'yicha to'liq jumlar, iboralar yoki so'zlarda berilgan savollarga asoslanadi. Bu o'quvchilarning sabr-toqatga o'rgatib, ongini charxlaydigan tarbiyaviy metoddir. Edriati [10]ning izlanishlariga ko'ra krossvordlar xotiralarni yangilashi mumkinligini ta'kidlaydi, chunki ulardan foydalanganda miya nervlarini ma'lim bir faoliyatiga javob beradigan qismlari faollashadi va optimal tarzda ishlashga qaytadi. Shu sababli u o'quvchilarning ta'lim natijalarini oshirishi mumkin, chunki bu vosita o'rganilgan materialni ko'rib chiqadi yoki takrorlaydi, o'quvchilarning o'zlashtirilgan material va bilimlarni eslab qolishga undaydi va mavjud kvadratlarda javob beradi. Bundan tashqari, krossvordli boshqotirmalar bo'yicha o'quv metodlari o'quvchilar krossvordni tugatgandan so'ng, o'qituvchilar tomonidan minnatdorchilik, maqtov va mukofotlarga ega bo'lishadi. Ushbu mukofotlarni olganlarida, ular o'zlarini baxtliroq his qiladilar va o'rganishda ishtirok etishdan ko'proq ishtiyomand bo'lishadi. Bu holat o'quvchilarni o'z malakalariga ishonchini oshiradi. Bu jurini [14] fikrlari bilan mos keladi, boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar o'z istaklari va qobiliyat-

larini amalga oshirish uchun o'quv jarayonida zavq va baxt hissini kuchli talab qiladilar. Bu sezgilar bajarilishi kerak bo'lgan asosiy narsalarning bir qismidir. Aks holda, o'quvchilar o'zlarini baxtsiz, noqulay his qiladilar va o'rganishda passiv ishtirok etadilar, bu esa o'qitilayotgan materialni o'zlashtirishga ta'sir qiladi. Shularni hisobga olib o'quvchilar tomonidan minnatdorchilik, maqtov va rag'bat ham o'quvchi o'quv jarayonida qondirish kerak bo'lgan asosiy ehtiyojlarning bir qismidir. Qadrlash va maqtash har bir inson uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarning bir qismidir. Har bir inson o'z qobiliyatlari va qadriyatlarini uchun boshqalarning e'tibori va shirin so'ziga muxtojdir ayniqsa boshlang'ich sinf yoshdagi bolalarda bu narsaga alohida e'tibor berilishi lozim. Boshlang'ich sinf yoshdagi bolalarni har bir ishini maqtovga loyiq bo'lishni yaxshi ko'radilar. Bolalar boshqalardan (ota-onalar, o'qituvchilar, do'stlar va boshqalar) bunday mukofotlarni olganlarida mamnun va faxrlanadilar. Bolalar jamoa orasida tan olinishini yaxshi ko'radilar. O'quvchilarni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish juda muhim sanaladi. Jumladan, sinfda bolalardan birini do'stlari oldida faol, zukko, mehnatsevar kabi yaxshi so'zlar bilan qadrlash va maqtashsa, bolaning o'ziga ishonchi ortadi. Shunday qilib, ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida sifatli ta'lim muhitini yaratish va o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli o'qituvchilar tomonidan turli xil strategiyalar, usullar va o'quv vositalari orqali turli xil faol, samarali va sifatli ta'lim innovatsiyalari yaratilishi kerak. Sejati [15] izlanishlariga ko'ra o'quv vositalari yordamida o'quvchilarning bilimlari va tushunchalari rivojlanishi va qiziqishlarini oshirishi va o'quvchilarning o'quv faoliyatida motivatsiyasini ta'minlashi kuzatiladi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra krossvordlar qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin va boshlang'ich sinf o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilashda samarali ekanligi isbotlandi. Krossvord o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilaydi, chunki bu vosita o'rganilgan materialni ko'rib chiqadi yoki takrorlaydi, o'quvchilarni o'zlashtirilgan material va bilimlarni eslab qolishga undaydi va mavjud kvadratlarida javob beradi. Bu o'quvchilarning sabr-toqatga o'rgatib, ongini charxlaydigan tarbiyaviy metoddir. Krossvord O'zbekistondagi barcha boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi fanini o'rganishda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi, bu a'lo darajadagi o'rganish sharoitlarini yaratishi mumkin, shuning uchun o'quvchilarga o'z ustida ishlashi va kitobni sevib mutola qilishga o'rgatadi. Natijada berilgan mavzularni yaxshi idrok etishlari va o'quvchilarning ta'lim natijalariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Folklarning barcha turlari shu jumladan ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoq, tez aytishlar o'quvchilarning yosh avlodni mehnatsevar, vatanparvar, ota-onaga mehribon, xalqiga millatiga sadoqatli farzand bo'lib tarbiyalashda o'rni beqiyosdir.

Darslikda berilgan maqollarni o'rganish jarayonida bu metod yordamida maqollarni yod olish, mazmunini so'zlab berish, tarbiyaviy ahamiyatlarini tushintirib berish qobiliyatlari oshdi. Maqolda ko'chma ma'nolarni tahlil qilib o'rganish, qarama-qarshi so'zlarni, takroran keluvchi so'zlarni ma'nosi yuzasidan tahlil qila olishi va ko'nikmasini shakllantirishi jarayonlari, ayniqsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda ham yaxshi natija kuzatildi.

Tekshiruvlardan shuni anglash mumkinki ertaklar shunchaki bolalik ovunchog'i emas, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv rivojlanishini tarbiyalovchi kuchli vositadir. Ular haqiqat va tasavvur o'rtasidagi ko'priklar vazifasini bajaradi, qiziqish uyg'otadi, muammolarni hal qilish qobiliyatini va hamdardlikni rivojlantiradi va dars jarayonida bolalarda fikrlash qobiliyatlarini o'sishiga olib keldigan kuchli vosita ekanligi kuzatildi.

Amaliyotimizda ko'rindiki topishmoq janri o'quvchilarning aqliy faoliyatini oshirdi, aqliy mehnatga qiziqish uyg'otdi va dunyoqarashlarini kengaytirish bilan bir vaqtda, atrof-muhitni idrok etishni rivojlantirdi.

Tez-tez so'zlash o'quvchilarning sof nutqini shakllantirish va rivojlantirishga, ravon va to'g'ri o'qish kabi fazilatlarni yaxshilashga yordam berdi. Tez-tez so'z birikmalari bilan alohida tovushlarni yoki ularning birikmalarini to'g'ri talaffuz qilish xususiyatiga ega. Ulardan savod o'rgatish davrida tovushlarni o'rganishda foydalanish yuqori natijalar beradi. Shu o'rinda aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy hissiyotlar, fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak axloqiy me'yorlarni shakllantirishda dostonlarning o'rni beqiyosdir.

**Xulosalar.** Olingan natijalar va ularni muhokamasidan so'ng quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiya mazmuni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari boyligi o'quvchilarning vatanparvarlikni shakllantirishga, tarbiyalashga, axloqiy va ma'naviy rivojlantirishga ko'maklashadi. O'quvchilarni qadriyatga ega qilish, ularning vatanga xizmat qiladigan komil inson bo'lishga o'rgatish, jamiyat bilan hamkorlik qilish, maslahatlashish va adolatli bo'lish, shuningdek, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va boshqalar bilan hamkorlik qilish muhimdir.

2. Boshlang'ich ta'limda xalq og'zaki ijodi janrlaridan krossvord metodi yordamida o'quvchilarning bilimlari va tushunchalari rivojlanishga va qiziqishlarini oshirish va o'quvchilarning o'quv faoliyatida motivatsiyasini ta'minlaydi. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, bu bolalarni baholarini 16,4%ga ko'tarilishiga olib keldi.

3. Onlayn Test Padning ijobiy tomonlari an'anaviy sinfni baholash usuli bilan solishtirganda birinchi o'rinda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bilimlarni tekshirish tezligi va mavzu katta hajmdagi sinovlarni ya'ni bir vaqtning o'zida barcha boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun materiallar mavjudligidir. Bu esa o'qish vaqtini optimallashtirish va undan samarali foydalanish oshiradi. Onlayn Test Pad testi baholashda subyektiv omilni minimal darajaga tushiradi o'quvchilarning bilimi, tez natija olish imkonini beradi va o'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Biz ushbu izlanishda muammoning barcha jihatlarini yorita oldik deya olmaymiz. Chunki bunga uning hajmi yetarli darajada imkon bermaydi. Keyingi tadqiqot ishlarimizda bu muammo ustida yanada kengroq va chuqurroq ish olib borish niyatidamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Alkaf, M., Hartanto, H., Syahrial, S., & Rokhim, N. (2024). Folk Art Teaching as the Element to Create Local-Wisdom Based Character: A Case Studi On Buto Birowo Kid Dance Group. *Asian Journal of Management, Entrepreneurship and Social Science*, 4(01), 1185–1196. <https://www.ajmesc.com/index.php/ajmesc/article/view/675>
- (2). Ma, X. (2024). The Influence of Chinese Folk Art on Modern Oil Painting. *Art and Performance Letters*, 5(1), p. 112–119. <https://www.doi.org/10.23977/artpl.2024.050116>
- (3). Chen, Q., Ismail, I., Ramli, I., Pan, W., & Hadi, H. (2024). Explore the Application of Folk Arts in Wall Painting Art. *Ideology Journal*, 9(1). <https://doi.org/10.24191/idealogy.v9i1.537>
- (4). Chen, D., Wang, B., Liu, Z., Qiao, S., & Yan, J. (2024). Research on the Application of Folk Art in the Training System of Preschool Education. *Curriculum Learning and Exploration*, 2(2).
- (5). Qo'chqarov B.A. (2024). "Devonu lug'otit turk'asarida milliy tarbiyaga oid qarashlarning o'ziga xos xusu-siyatlari. In *Konferensiyalar*, 1, № 4, pp. 658–663. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1871>
- (6). Ruzikulova N.K. (2023) Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari. "O'zbekiston milliy universiteti xabarlari", 1, № 7, 165–167-betlar.
- (7). Illiyin, Z. (2023). The Effectiveness of Crossword Puzzle in Teaching Vocabulary of Fourth Grade Elementary Students. *ELITE JOURNAL*, 5(2), 417-424. Retrieved from. <http://www.elitejournal.org/index.php/ELITE/article/view/152>
- (8). Fidrayani, F., & Purdiasih, R.D. (2022). Meta-analysis of the effect of crossword puzzle media to learning and students' social science learning outcome in elementary school. *Jip Jurnal Ilmiah PGMI*, 8(1), p. 53–60. <https://doi.org/10.19109/jip.v8i1.9911>
- (9). Wandini, R.R., Damanik, E.S.D., Daulay, S.H., & Iskandar, W. (2021). the Effect of Snake and Ladder Game on Student Learning Outcomes in Studying of Islamic History "Fathu Mecca" At the Elementary School Muhammadiyah, North Sumatera, Indonesia. *Al-Bidayah: jurnal pendidikan dasar Islam*, 13(1), p. 167–178. <https://doi.org/10.14421/albidayah.v13i1.637>
- (10). Edriati, S., Handayani, S., & Sari, N.P. (2017). Penggunaan teka-teki silang sebagai strategi pengulangan dalam meningkatkan pemahaman konsep matematika siswa SMA kelas XI IPS. *Jurnal Pelangi*, 9(2). <https://doi.org/10.22202/jp.2017.v9i2.2047>
- (11). Toshmatova U.R. (2023). Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati. *Golden brain*, 1(19), 51–57. Retrieved from. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4339>
- (12). Ochildiyeva M.M. (2022). Boshlang'ich sinflarda matematika darsini o'rgatish metodikasi va matematika fanini o'qitish metodlarida yangi innovatsion g'oyalar. *Science and innovation*, 1(B2), p. 285-289. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6624589>
- (13). Kharisma, G.I., & Arvianto, F. (2019). Pengembangan aplikasi android berbentuk education games berbasis budaya lokal untuk keterampilan membaca permulaan bagi siswa kelas 1 SD/MI. *Premiere Educandum: Jurnal Pendidikan Dasar dan Pembelajaran*, 9(2). <http://doi.org/10.25273/pe.v9i2.5234>
- (14). Bujuri, A.D. (2018). Analisis Kebutuhan Dasar dan Implikasinya dalam Penyelenggaraan Pendidikan. *JIP (Jurnal Ilmiah PGMI)*, 4(1), 82-97. <https://doi.org/10.19109/jip.v4i1.2269>
- (15). Sejati, A.K., Yuniawatika, & Sutansi. (2021). Need analysis of solid geometry material learning media with character strengthening for 5th grade elementary school. *Premiere Educandum: Jurnal Pendidikan Dasar dan Pembelajaran*, 11(2). <http://doi.org/10.25273/pe.v11i2.10040>



Shermatova Uljamol Shopulat qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi; e-mail: uljamol2193@gmail.com)  
**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA EKOLOGIK TA‘LIMNING METODIKASINI TAKOMILLSHTIRISH**

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik ta‘limning metodikasini rivojlantirishda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, o‘quvchilarni tabiatni asrab avaylashga o‘rgatish hamda tabiatga bo‘lgan mehrini oshirish tuyg‘ulari borasida so‘z yuritilgan. Dars mobaynida o‘quvchilar ekologik ta‘lim borasida tabiatni sevisish suv bebaho boylik ekanligini anglab yetishi haqida fikrlarga e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik ta‘lim-tarbiya, ta‘lim, ta‘limiy texnologiyalar, tabiiy fan, tabiat, atrof-muhit, takomillashtirish, ekologik atrof-muhit, metodikasi, foydalanish.

Шерматова Улжамол (Термезский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры «Методика начального образования»; e-mail: uljamol2193@gmail.com)  
**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос о важности заботы об окружающей среде, обучения учащихся охране природы, повышения их любви к природе в процессе разработке методики экологического образования при преподавании естественных наук в начальных классах. В ходе урока было уделено внимание идеям, благодаря которым до учащихся доводится, что вода – бесценное богатство с точки зрения экологического образования.

**Ключевые слова:** экологическое образование и воспитание, образование, образовательные технологии, естествознание, природа, окружающая среда, совершенствование, экологическая среда, методология, использование.

Shermatova Uljamol (Termiz State Pedagogical Institute, Teacher of the "Methodology of Primary Education" department; e-mail: uljamol2193@gmail.com)  
**IMPROVING THE METHODOLOGY OF ECOLOGICAL EDUCATION IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY CLASSES**

**Annotation.** This article talks about the use of modern educational technologies in the development of environmental education in the teaching of natural sciences in elementary grades. Emphasis is placed on the use of various modern methods to increase the effectiveness of the lesson, on the issue of teaching the student to think, to understand the opinion of others and to express this opinion in oral and written form.

**Key words:** interactive methods, efficiency, education, pedagogical technologies, natural science, modern methods, experience, didactic games, visual aids.

**Kirish.** Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik ta‘limning metodikasini tarbiyalash har bir insonning oldiga quygan burchi hisoblanadi. Ekologik ta‘lim-tarbiya–bu insonning tabiatga qadam qo‘ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik, axloq-odob yuzasidan, xalqimizning tabiatga nisbatan hurmat-e‘tibor bilan qaraydigan yaxshi urf-odatlarini, udumlari asosida yoshlarni tarbiyalash, ularda tabiat, uning xilma-xil boyliklariga mehr-muhabbat uyg‘otish, tejamkorlikka o‘rgatish tabiiy boyliklarni ko‘paytirish, bog‘u rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undash, ularning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir [2;25-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xususan, “Hindlarning “Mahobxarat”, Xitoyning “Konfutsiy” ta‘limoti, Markaziy Osiyoning qadimiy manbasi “Avesto”, islom olamining muqqaddas kitobi “Qur‘oni karim”da, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Yasaviy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy va boshqa qator allomalarning ilmiy ijodi va asarlarida tabiat insoniyatni eng oliy manbasi sifatida ulug‘lanib, uni qadrlash, avaylab-asrash, yashash va tiriklik asosi, sog‘lom turmush va fikr, yashnash va yosharishning manbasi sifatida e‘tirof etishgan”.

Shved olimi Karl Linney XVIII asrning birinchi yarmida hayvonlar va o‘simliklarning taksonomik tizimini yaratgan bo‘lib ushbu tamoyil bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. J.L.Byuffon “Tabiiy tarix” nomli asarida iqlimning hayvon organizmlariga ta‘siri batafsil yoritgan, J.B.Lamark tashqi sharoitlarning hayvonlar va o‘simliklar evolutsiyasidagi ahamiyatiga e‘tiborni qaratgan, Alfons De-Kandol esa “Botanika geografiyasi” nomli asarida abiotik omillarning o‘simlik organizmlariga ta‘sirini tavsiflagan. Dunyoning ekologik konsepsiyalarini rivojlantirishda rus olimlarining ham hissasi katta bo‘lib, bu borada, P.S.Pallas, I.I.Lepexin, S.P.Krashennikov, M.V.Lomonosovning tabiiy fanlar masalasida ilmiy-

nazariy prognozlarni bera olish yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlari alohida e'tiborga molikdir. Geobotanik L.G.Ramenskiyning turlarning ekologik individualligi qonuniyati va ekologik doimiylik nazariyasi, A.T.Bolotovning o'simliklarning yashash joylari bilan bog'liq konsepsiya, shuningdek, V.N.Sukachevning biogeosenozlar (ekotizimlar) haqidagi ta'limotlari fan rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Metodologiyasi.** Umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologiyaning nazariy asoslari hamda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma, malaka va shakllantirish mavjud o'quv fanlari mazmunida uzviylik asosida berilib, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari doirasida suvni tejash va asrash, atmosfera havosining ahamiyati va uni muhofaza qilish, yer resurslari va yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, chiqindilarni yig'ish va joylashtirish, o'zbekistonning go'zal va betakror tabiatini asrash, o'zi yashaydigan qishloq (yoki shahar) tabiatini asrashda faol ishtirok etishi, O'zbekistondagi qo'riqxonalar va tabiat bog'lari, shuningdek, orol dengizi fojiasi to'g'risida umumiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi nazarda tutilganki, bular boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalash muammosining dolzarbligini belgilab beradi.

**Tahlil va natija.** Ekologik ta'lim va tarbiyani insonning atrof-muhit bilan munosabatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan; hayot sifatini belgilaydigan tabiatning bir qismi sifatida o'zini anglash; uning holati uchun javobgarlikni shakllantirishdir. Bu tabiiyat olamini muhofaza qilish va himoya qilish, uning ma'naviy va moddiy qadriyatlarini o'zlashtirish majburiyatlarini chuqur anglash orqali pedagogik ta'sir subyekti-ning sezilarli darajada kengaytirish va boyitishga qaratilgan ekologik ta'limning rivojlanayotgan funksiyasidan dalolat beradi. Zamonaviy sivilizatsiyani saqlab qolish va yanada rivojlantirish sharti, bu ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ilmi hamda amaliyoti o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega [3, 12-b].

Ekologik ta'lim mazmuni tabiatning holati to'g'risida yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni yaratishga qaratilgan vositalar va usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi, pedagogik ta'sir subyekti-ning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri harakterini o'zgartirish usullari, tabiatdagi faoliyat va xatti-harakatlarni nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

Uning holati uchun shaxsiy javobgarlikni tarbiyalash usullaridan foydalanish;

– tabiatni tiklash texnologiyalari bilan tanishishning asosiy vositalar ekologik ta'lim tabiatning ma'naviy va moddiy qadriyatlaridir. Ma'naviy ta'sirlar ijobiydir, tabiat rasmlari go'zalligi bilan mukammallashtirilgan insonning psixo-emotsional va jismoniy holati;

– moddiy narsalarga manzarali va dorivor o'simliklarni o'z ichiga oladi, tabiatning turli mevalari, inson bir qismi bo'lgan, xilma-xilligi uning mohiyatini boyitib turuvchi hayvonot dunyosi va hokazo. Ekologik ta'lim usullari orasida yetakchi o'rinni egallaydi: atrof-muhit bilan aloqa tabiat;

– tabiatning aniqlanishi insonning atrof-muhit bilan birligining o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi; sifatini belgilovchi tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirish tabiatning ajralmas, organik qismi bo'lgan odamlarning hayoti; ishtirok usullari va boshqalaralar.

Shunday qilib, ekologiya bugungi kunda tabiiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o'rganilayotgan obyekt yoki tizimni atrof-muhit bilan munosabatini keng miqyosda tadqiq etadi. Tabiat olloh tomonidan insonga in'om etilgan buyuk ne'mat, boylik, uni asrash har bir insonning burchi.

Ta'lim-tarbiyaning barcha bo'g'inlarida mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv-tarbiya jarayoni mazmuni bugungi kun talablariga yaqinlashtirishga qaratilgan.

Oliyog'lar oldida faqat savodli, yuqori malakali mutaxassislarnigina emas, balki tabiat, atrof-muhitga nisbatan, madaniyatni ongli hamda demokratik qayta qurishlarda faol ishtirok eta oladigan barkamol kishilarni tarbiyalashdan ham iborat. Buni bo'lajak xodimlarning ekologik madaniyatini shakllantirishga tatbiq etadigan bo'lsak, u milliy-tarixiy asoslarga, o'zbek xalqining o'tmishdagi ekologik an'analariga tayanishi, shuningdek, respublikaning hozirgi zamon ekologik muammolari bilan aloqador bo'lishi, umuminsoniy qadriyatlarga tayangani bilan baholanadi. Ekologik qonunchilik tizimini O'zbekiston Respublikasi-ning "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni tartibga solidi [1].

Ushbu qonunning tabiiy muhit sharoitlarini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir. Atrof-muhit muhofazasi masalalari bo'yicha boshqa qonunlar me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunga zid bo'lmasligi lozim. Bugungi kunda ekologiya, tabiatdan foydalanish, atrof-muhit muhofazasi va barqaror taraqqiyot sohasidagi ta'lim-tarbiya nafaqat O'zbekistonda, balki jahonda ustuvor masalalardan biriga aylangan [1].

**Xulosa.** Ekologiya, tabiatdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari alohida maqsad - mazmunga ega hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda bolalarga tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash lozim. Maktablarda tabiat burchaklari, bog'lar tashkil qilish, ulardan oqilona foydalanish kerak, deb o'ylayman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim tizimining barcha bosqichlarida muhim ahamiyatga ega. Kognitiv faoliyatning har bir bosqichida bilimning barcha sohalarida tadqiqot va amaliy qo'llash AKT vositalari ham, bilim obyektlari funksiyalarini ham bajaradi. Binobarin, AKT innovatsiyalari na faqat bilimning ushbu sohasida inqilobiy rivojlanishni ta'minlabgina qolmay, balki jamiyat hayotining barcha sohalarida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari strategik resurslarning intellektual va iqtisodiy salohiyatini jadal jamlash, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan innovatsion texnologiyalar sinfidir. Ushbu maqolada AKT imkoniyatlari, ularni ta'lim tizimida amalga oshirish yo'llari "Chet tili" fani misolida ko'rib chiqiladi.

**Adabiyotlar va metodologiya.** Olimlar AKT tushunchalarini aniqlashga turlicha yondashuvlarga ega. Ilmiy adabiyotlarda quyidagi terminologiyani uchratish mumkin: "IT-ta'lim", "kompyuter asosidagi o'qitish texnologiyasi", "ta'limda yangi axborot texnologiyalari" yoki "NIT Education", "multimedia ta'lim texnologiyasi" va hokazo. Bu esa uning mohiyatini ko'rsatadi. Ta'limda qo'llaniladigan AKT tushunchalari hali ham yaxshi o'rnatilmagan.

Ko'rishimiz mumkinki, AKT haqida gap ketganda, ba'zi hollarda olimlar ma'lum bir tadqiqot sohasiga, boshqalarida axborot bilan ishlashning muayyan usuliga ishora qiladilar. Shu bilan birga, o'rganilayotgan muammo bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish bizga bilimlar majmuasi, axborot resurslari bilan ishlash usullari va vositalari, shuningdek, olimlar texnologik zanjir bilan bog'langan texnik resurslar haqida gapirishga, axborotni to'plash, saqlash, tasniflash, chiqarish va tarqatishga imkon beradi. Ko'pgina ishlar nemis tilini o'qitishda texnologiyadan foydalanish masalasiga bag'ishlangan ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, aniqlangan texnologiyalardan keng foydalanish chet tilini o'rganishda o'quv jarayonini tashkil etishning barcha shakllariga, xususan, amaliy, individual darslarga, mustaqil ish paytida faol o'qitish usullarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Boshqa olimlar AKTdan foydalanishni chet tilini o'rganishda tez natijalarga erishishga imkon beruvchi motivatsiyani, chet tilini tizimli o'rganishga sodiqlikni oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqdilar. O'quv jarayonida AKTdan foydalanish talabalarni til muhitiga to'liq singdirishga qaratilgan bo'lib, ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi, uning bir qismi ijtimoiy-madaniy kompetensiyadir.[2]<sup>2</sup>U o'quvchilarni raqamli yoshdagi savodxonlik, ixtirochi fikrlash, ijodiy, yuqori darajadagi fikrlash, samarali muloqot va yuqori mahsuldorlik bilan ta'minlaydi.

**Natija va muhokama.** Chet tillarni o'qitish sifatini oshirishning samarali usullaridan biri ta'limni axborotlashtirishdir. Chet tilini o'rganishda AKTdan foydalanish o'rganishni faollashtirish va shaxsiylashtirishga yordam beradi, fanga qiziqishni oshiradi, subyektiv baholashdan qochish imkonini beradi. Bundan tashqari, AKT o'quvchilarning chet tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanishidagi psixologik to'siqni yengib o'tishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, AKT ham moddiy ta'minot, ham nazorat qilish vositasidir. Yangi texnologiyalar o'quv jarayonini kurs tezligi va chuqurligi bo'yicha individuallashtirishga imkon beradi. Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv katta ijobiy natija beradi, chunki u har bir o'quvchiningning muvaffaqiyati uchun sharoit yaratadi, o'quvchilarda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi va shu bilan ularning o'quv motivatsiyasiga ta'sir qiladi.

An'anaviy usullardan farqli o'laroq, o'qitishning interfaol shakllarini qo'llashda o'quvchiningning o'zi asosiy harakatlanuvchi shaxsga aylanadi va bilimlarni o'zlashtirishga yo'l ochadi. Bunday vaziyatda o'qituvchi faol yordamchi sifatida ishlaydi va uning asosiy vazifasi o'quv jarayonini tashkil etish va rivojlantirishdir.

Shunday qilib, chet tili darslarida quyidagi raqamli resurslardan samarali foydalanish mumkin:

- Power Point taqdimoti (PP);
- testlar;
- CD-ROMdagi o'quv dasturlari;
- onlayn o'quv qo'llanmalar;
- o'quv Internet resurslari.

<sup>1</sup> Зуева Л.Ф. Формирование социолингвистической компетенции студентов вузов физической культуры (Formation of sociolinguistic competence of students of universities of physical culture). Дисс. канд. пед. наук, Малаховка, 2002, 180 с.

<sup>2</sup> Зияева С.А. Вестник науки и образования, № 25-2 (103), 2020, p. 33–37.

Bizning fikrimizcha, multimediali taqdimotlar, elektron o'quv dasturlari va o'quv internet resurslari katta ta'lim salohiyatiga ega bo'lib, ularning tavsifini batafsil muhokama qilamiz.

Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, chet tili darslarida AKTdan foydalanayotgan har bir o'qituvchi har qanday ta'lim texnologiyasi quyidagi metodik talablarga javob berishi kerakligini bilishi kerak:

- konseptuallik: ta'lim maqsadlariga erishishning psixologik va ijtimoiy-pedagogik asoslanishini o'z ichiga olgan ilmiy tushuncha;

- izchillik: tizimning barcha xususiyatlarining mavjudligi (jarayonning mantiqiyliqi, uning barcha qismlarining o'zaro aloqasi, yaxlitligi);

- samaradorlik: ta'lim standartlariga mos keladigan natijalarni ta'minlash;

- moslashuvchanlik: o'qituvchi va o'quvchilarning o'ziga xos pedagogik voqelik bilan o'zaro ta'sirining qulayligi va erkinligini ta'minlash uchun tarkibdagi o'zgarishlarning qobiliyati;

- dinamikasi: texnologiyani ishlab chiqish yoki o'zgartirish imkoniyati;

- takrorlanuvchanlik: ushbu ta'lim muassasasida yoki boshqalarda boshqa o'qituvchilar tomonidan texnologiyadan foydalanish imkoniyati.

- PP (Power Point) dasturi va uning mahsuloti (MMP) ularni an'anaviy tasvirlash ravshanligi vositalaridan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarga ega. Bularga interaktivlik (bir xil taqdimotni o'zgartirish va kerakli o'zgartirishlar kiritish qobiliyati) kiradi (3);<sup>1</sup>

- multimedia (matn, ovoz, grafik, animatsiya, video kabi ma'lumotlarni taqdim etish uchun texnik vositalardan biri bo'lgan murakkab effektlardan foydalanish);

- keng qamrovli hisobot (taqdimotni turli xil rejimlarda boshqarish qobiliyati: chiziqli, animatsiya, giperhavolalar yordamida);

- o'qilishi (alohida slaydlar yoki slaydlar guruhlarining semantik to'liqligi); dasturiy ta'minotning mosligi (boshqa dasturlardan, masalan, MS Office ilovalari obyektlaridan foydalanish qobiliyati).

**Xulosa.** O'quvchilarning chet tilini o'rganishda lingvistik kompetensiyasini shakllantirishda AKTdan foydalanishning ahamiyati isbotlangan. O'tkazilgan pedagogik tajriba AKTdan foydalanish chet tilini o'qitish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Nihoyat, tajriba shuni ko'rsatdiki, chet tilini o'qitish jarayonida AKT integratsiyasi uni yanada dinamik, axborotni talab qiladi, o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish samaradorligini oshiradi, o'rganish va o'qitishning ijobiy motivatsiyasini ta'minlaydi. O'quvchilarning bilim faolligi, ularning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, AKTdan foydalanish chet tillarini o'qitishda istiqbolli yo'nalish bo'lib, qo'shimcha o'rganishni talab qilishini ta'kidlash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Л.И.Тимофеев, С.В.Тураев. Словарь литературоведческих терминов. М., 1974.
- (2). Комлев Н.Г. Комикс. Словарь иностранных слов. М., "Эксмо", 2006, с. 461.
- (3). Махдиев С. Проблемаи жанри латифа. Душанбе, "Дониш", 1977.
- (4). Zaripova Z.R. concept of satire and humor in german. European Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2022, t. 10, c. 442–445.
- (5). T.Robins. "Maqsadga qanday erishiladi". 2003.
- (6). Z.Po'latova. "Xorijiy tillarni o'rganishdagi muammolar". Maqola.
- (7). <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-organish-nega-muhim> – Umida Xasan qizi Ahmadova.
- (8). <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-yangi-o-rganishgakirishgan-yoshlarning-yo-l-qo-yadigan-bazi-xatolari-muammoli-vaziyatlari-vaularning-tahlili> – Baxromjon Jo'raboyev.

#### **Atajonova Marxabo Ilxomovna (Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi) INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA O'RIN, HOLAT VA PAYT RAVISHLARI GRADUONIMIYASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida o'rin, holat va payt ravishlarida graduonimiyaning lisoniy xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari o'rganiladi. Qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tadqiqot ikki til o'rtasidagi strukturaviy va funksional o'xshashlik va farqlarni ajratib ko'rsatadi. Tadqiqot ushbu ravishlarning qanday kuchayganligi yoki yumshatilganini, har bir tilga xos mexanizm va iboralarni, shu jumladan, morfologik o'zgarishlar va leksik xususiyatlarni o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ikkala*

<sup>1</sup> Бобрикова О.С. Формирование социолингвистической компетенции будущих переводчиков (Formation of sociolinguistic competence of future translators): Extended abstract of candidate's thesis, Tula, 2014, 25 p.

til ham ravishlarning graduonimiyasi bo'yicha umumiy strategiyalarga ega bo'lsa-da, ularning har biri sintaktik konstruksiyalar va madaniy kontekstlardan ta'sirlangan alohida yondashuvlarga ega. Bu tadqiqot nafaqat ingliz va o'zbek tillarida ravishlar graduonimiyasini tushunishni kengaytiribgina qolmay, balki tillararo semantika va pragmatikaning kengroq sohasiga ham hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** graduonimiya, o'rin-joy ravishi, payt ravishi, holat ravishi, qiyosiy tahlil, morfologik tahlil, leksik xususiyatlar, semantik tahlil.

### ОСОБЕННОСТИ ГРАДУОНИМИИ НАРЕЧИЙ ОБРАЗА ДЕЙСТВИЯ, ВРЕМЕНИ И МЕСТА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются лингвистические особенности и специфические аспекты градуонимии наречий образа действия, времени и места в английском и узбекском языках. Путем сравнительного анализа исследования подчеркиваются структурные и функциональные сходства и различия между двумя языками. Исследование подтверждает, как эти изменения усиливаются или смягчаются, изучая механизмы и выражения, характерные для каждого языка, включая морфологические изменения и лексические особенности. Результаты показывают, что, хотя оба языка имеют общие стратегии градуонимии, в каждом из них существуют разные подходы, на которые влияют синтаксические конструкции и культурный контекст. Данное исследование не только расширяет понимание адverbальной градуонимии в английском и узбекском языках, но и вносит вклад в более широкую область межлингвистической семантики и прагматики.

**Ключевые слова:** градуонимия, наречия образа действия, наречия времени, наречия места, сравнительный анализ, морфологический анализ, лексические особенности, семантический анализ.

### SPECIFIC ASPECTS OF GRADUONYMY OF ADVERBS OF MANNER, TIME AND PLACE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Annotation.** In this article, the linguistic features and specific aspects of graduonymy in English and Uzbek languages of adverbs of manner. adverbs of time. adverbs of place are studied. Through comparative analysis, the study highlights the structural and functional similarities and differences between the two languages. The investigation explores how these developments are reinforced or mitigated, examining mechanisms and expressions specific to each language, including morphological changes and lexical features. The results show that although both languages have common strategies for graduonymy, each has distinct approaches influenced by syntactic constructions and cultural contexts. This study not only expands the understanding of adverbial graduonymy in English and Uzbek, but also contributes to the broader field of cross-linguistic semantics and pragmatics.

**Key words:** graduonymy, adverbs of manner. adverbs of time. adverbs of place, comparative analysis, morphological analysis, lexical features, semantic analysis.

**Kirish.** Tilning murakkab tuzilmalarida ravishlar harakatlarning qanday, qachon va qayerda sodir bo'lishi haqida muhim tafsilotlarni taqdim etish orqali aloqa tuzilishini kuchaytiradigan muhim vositalar bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida o'rin, holat va payt ravishlarining graduonimiyasini o'rganadi. Bu turkum ravishchalar gaplarni boyitibgina qolmay, balki bir tildan boshqa tilga o'zgarib turadigan chuqurroq lingvistik tuzilmalar va madaniy nuanslarni ham aks ettiradi. Ingliz tilida ushbu turdagi ravishlar keng qamrovli tasniflangan va tahlil qilingan bo'lib, bu so'zlarning fe'llarni, sifatlarini, hatto boshqa ravishlarni qanday o'zgartirishi haqida boy o'rganish sohasini taklif etadi. Aksincha, o'zbek tili payt, holat va o'rin-joy kontekstlarga alohida lingvistik yondashuvlarni ta'kidlaydigan o'ziga xos qoidalar va qo'llanish shakllarini taqdim etadi. Ikki tildagi ravishlarning graduonimiyasini o'rganib, ushbu maqola ulardan foydalanishni boshqaradigan asosiy tamoyillarni va ularning samarali muloqot va til o'rganishga ta'sirini ochib berishga qaratilgan. Qiyosiy tahlil orqali ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi ravishlar qo'llanishdagi o'xshashlik va farqlarni yoritib beradi.

**Metodlar va adabiyotlar sharhi.** Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida holat, payt va o'rin ravishlarining darajalanishini o'rganish uchun miqdoriy va sifat ma'lumotlarini birlashtirib, aralash usullardan foydalanadi. Tahlil qiyosiy lingvistik tizim yordamida amalga oshirildi. Birinchidan, korpus matnlari qo'shimcha qo'llanish holatlari uchun belgilandi, bunda holat, payt va o'rin-joy ravishlariga e'tibor qaratildi. Belgilash jarayoni ravishlarni intensivligi va qo'llanish chastotasiga ko'ra aniqlash va turkumlashdan iborat edi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi ravishlar qo'llanishdagi muhim qonuniyatlar va farqlarni aniqlash uchun miqdoriy ma'lumotlar statistik dasturiy ta'minot yordamida tahlil qilindi. Sifatli tahlil korpusda aniqlangan ravishlarni batafsil lingvistik tekshirishni o'z ichiga oladi. Bunga ingliz va o'zbek tillarida ravishlarning sintaktik o'rinlari, semantik rollari va kontekstual qo'llanishini o'rganish, ularning gradatsiyasi

va qiyosiy qo'llanilishini tushunish kiradi. Jim Burk aytganidek, "Ravishlar yozuvning ruhidir, ularsiz u tekis. Bu, ayniqsa, holat, paytt va o'rin ravishlari hikoyani yetkazish va tushunishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan adabiyot sohasiga to'g'ri keladi" [4]. Bondarchuk (2020) tadqiqotiga ko'ra, ingliz tilidagi o'rin ravishlari, ko'pincha, "-where" yoki "-wise" qo'shimchalari bilan tugaydi, o'zbek tilidagi o'rin ravishlari esa, odatda, otga qo'shimcha qo'shish orqali yasaladi [2]. Masalan, ingliz tilidagi "here" ravishi o'zbek tilida "bu yerda" deb tarjima qilinadi, "there" esa "u yerda" deb tarjima qilingan. Bundan tashqari, ingliz tilidagi o'rin ravishlari ham fe'lni, ham sifatni o'zgartira oladi, o'zbek tilidagi o'rin ravishlari esa, asosan, fe'lni o'zgartiradi (Otani. 2018) [3]. Qo'llanishdagi bu farq gapning tuzilishi va ma'nosiga, shuningdek, adabiy asarning uslubi va ohangiga ta'sir qilishi mumkin. Amanzholova (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek adabiyotida o'rin ravishlarining qo'llanishi muallifning dunyoqarashi va madaniy kelib chiqishini ochib berishi mumkin [1].

**Natijalar.** Ingliz va o'zbek tillarida ravishlarni darajalashdan tashqari payt ravishlari uchun daraja o'zgartiruvchi birikmalar ham qo'llaniladi. Biroq, bu usullar ikki tilda farq qiladi. Ingliz tilida payt ravishlari ravishning ma'no darajasini bildiruvchi "almost", "nearly" kabi daraja so'zlari bilan kuchaytirilishi mumkin. Masalan, "She arrived late (U kechikib keldi)" jumlasida "late" ravishi "She arrived almost late. (U deyarli kech keldi)" kabi kuchlilikning yuqori darajasini bildirish uchun o'zgartirilishi mumkin. O'zbek tilidagi payt ravishlari ham yuqoriroq kuch darajasini bildirish uchun o'zgartirilishi mumkin. Bu odatda ravish oldidan "juda" so'zini qo'shish yoki uni takrorlanish yordamida amalga oshiriladi. Masalan, "U erta ketdi" (She left early) gapidagi "erta" (early) ravishi "U juda erta ketdi" kabi kuchning yuqori darajasini bildirish uchun o'zgartirilishi mumkin. Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham payt ravishlarini o'zgartirish uchun o'xshash usullar qo'llansa, ingliz tilidagi daraja so'zlari va ravishlari diapazoni kengroq ifoda va nuanaslarga imkon beradi. Ingliz tilida payt ravishlarini o'zgartirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'proq darajali so'zlar mavjud, masalan, "barely", "scarcely", "just" va "hardly" va ular ma'ruzachiga darajani ifodalash uchun ko'proq imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillarida ravishlarning graduonimiyasi daraja o'zgartiruvchilardan foydalanishni nazarda tutadi, ingliz tilida o'zbek tiliga nisbatan daraja ravishlari kengroqdir. Ushbu qiyosiy tadqiqot til rivojlanishining nozik va murakkab tabiatini, samarali muloqot qilish va bir-birini tushunish uchun tillar o'rtasidagi farqlarni tushunish muhimligini ta'kidlaydi.

**Muhokama.** Ingliz va o'zbek tillarida payt ravishlarining qo'llanishini solishtirsak, bu ikki til o'zlarining moslashuvchanligi va bu ravishlarning graduonimiyasi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qilishini ko'rish mumkin. Ingliz tilida ravishlar "almost", "nearly", "barely" va "hardly" kabi so'zlardan foydalanib, turli vaqt davomiyligi yoki chastotasini ko'rsatish uchun darajalanishi mumkin. Masalan, "I have almost finished my homework (Men uy vazifamni deyarli tugatdim)" degani vazifa deyarli bajarilganligini bildiradi. Lekin o'zbek tilida "qolgan", "tugay deb qoldi", "oxiriga yetmagan" kabi so'zlar o'zgar-mas va ingliz tilidagi ravishlar kabi qo'llanilmaydi. "Mening uyga vazifam tugay deb qoldi" deyish mumkin bo'lsa-da, ingliz tilidagi "deyarli" so'zidan farqli o'laroq, o'zbek tilida "tugay deb qoldi"ni daraja ravishi sifatida qo'llash idiomatik emas. Bunday farqlarga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, tarjimada shunchaki so'zma-so'z yozishmalari emas, buning o'rniga, ikki til o'rtasida tarjima qilishda gapning ma'nosi va konteksti hisobga olinishi kerak. Jumlaning umumiy kontekstini hisobga olgan holda, tarjimonlar payt ravishlarini vaziyatni yakunlashdagi farqlari bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengib o'tishlari mumkin.

Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham o'rin ravishlarining qo'llanishi joylashuv fikrini bildirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq bu ikki til bu ravishlarni qanday yasashda farq qiladi. Ingliz tilida predlog va joy o'rtasidagi munosabatni tasvirlash uchun predlog va iboralardan foydalanish keng tarqalgan. Masalan, "in the room (xonada)" iborasi "the party (bazm)" predmetining gapdagi o'rnini bildiradi – "The party is in the room (Xonada bazm bo'lyapti)". O'zbek tilida esa o'zlari o'zgartirgan otdan keyin kelgan birliklar xuddi shu fikrni bildirish uchun qo'llaniladi. Masalan, "in the room" so'zining o'zbek tilidagi ekvivalenti "xona ichida" bo'ladi, bu yerda "ichida" "in" ma'nosini bildiradi. Qolaversa, masofa tushunchasi ingliz va o'zbek tillarida ham turlicha ifodalanadi. Ingliz tilida ravishni tanlash predmetning joylashuvga yaqinligiga bog'liq bo'lib, "here" va "there" masofani bildirish uchun ishlatiladi. Masalan, "The book is here (Kitob shu yerda)" gapidagi "here" ravishi kitobning so'zlovchiga yaqinligini bildiradi. O'zbek tilida farqlash ko'rsatish olmoshlari yordamida amalga oshiriladi, bunda "bu" (this) yaqinroq predmetlar uchun, "u" (that) esa uzoqroqda bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillarida o'rin ravishi graduonimiyasini taqqoslash ikki tilning joylashuv g'oyasini ifodalash usullarini ajratib ko'rsatadi. Ingliz tilida o'rin ravishlarini yasashda predlog va iboralardan foydalansa, o'zbek tilida ergash gaplar va ko'rsatuvchi olmoshlardan foydalaniladi. Har ikki tilda holat, payt va o'rin ravishlarining qo'llanishida kuzatiladigan asosiy farqlar moslashuvchanlik darajasi va holat

darajalarini o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi ravishlar ko'proq moslashuvchan va turli darajalarda baholanishi mumkin bo'lsa-da, o'zbek tilidagi ravishlar yanada qattiqroq tuzilishga ega bo'lib, o'zgartirish imkoniyati kam.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ikki til o'rtasidagi o'xshashliklarni ravishlarning umumiy vazifasi va turlarida, shuningdek, ifodalarning tugallanishining asosiy tamoyilida ko'rish mumkin. Biroq, ulardan foydalanishdagi farqlar, xususan, moslashuvchanlik va nuanslar darajasi ularni bir-biridan ajratib turadi. Shunga qaramay, ingliz va o'zbek tillarida payt ravishlarining graduonimiyasi farqlanishi bu tillar o'rtasida tarjima qilishda diqqat bilan ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Qiyinchiliklarga qaramay, ushbu farqlarni o'rganish ikkala tilning lingvistik tuzilmalari haqida qimmatli xulosalar beradi. Bu topilmalar ingliz va o'zbek tillarining lingvistik xususiyatlarini tushunishimizga yordam beradi, ularning o'ziga xos va umumiy jihatlarini ta'kidlaydi. Bu tadqiqot ravishlarning qo'llanilishining nozik jihatlariga oydinlik kiritib, til o'rganuvchilar va o'qituvchilarga lingvistik bo'shliqlarni bartaraf etishda, shuningdek, tarjima mutaxassislariga har ikki tilda ravishlarning asl ma'nosini to'g'ri yetkazishda yordam berishi mumkin. O'z navbatida, ushbu qiyosiy tadqiqot til o'rganish va tarjimashunoslikni rivojlantirish uchun lingvistik tadqiqotlarni davom ettirish muhimligini ta'kidlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Amanzholova, D. (2017). «Cultural Perspectives through Adverbs in Literature». Eurasian Linguistics Journal.
- (2). Bondarchuk, O. (2020). «Spatial Relations in English and Uzbek: A Comparative Analysis». Language Studies Press.
- (3). Otani, J. (2018). «Function and Form of Adverbs in Cross-Linguistic Perspective». University Academic Press.
- (4). Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). «A Comprehensive Grammar of the English Language». Longman Group.
- (5). <https://dictionary.cambridge.org/>

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna (Doktorant (DSc), Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, PhD;  
e-mail: shakhnozaaskarova2@mail.com)

#### “ALPOMISH” ASARIDAGI ZONIM BIRLIKLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

*Annotatsiya.* Mazkur maqola “Alpomish” dostoni tarkibida keluvchi zoonim birliklarning lingvistik jihatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan bo'lib, ular turli manbalar asosida tahlilga tortilgan. Shuningdek, asar doirasida faol ishtirok etgan ot – Boychibor va boshqa hayvonlar laqab, nomlarini lug'aviy tomondan o'rganishga oid ma'lumotlar keltirilgan. Boy so'zi ko'p ma'noli hisoblanib, “hech narsadan kamchiligi yo'q, hamma narsadan badastir, to'kis” degan ma'nolarga ega. Chibor o'zbek shevalariga xos so'z hisoblanib, odatiy tilda uning chipor, olachipor kabi fonetik variantlari mavjud, lug'aviy jihatdan “olatusli, olachipor, olabula” degan ma'nolarni anglatadi.

**Kalit so'zlar:** zoonim birliklar, doston, hayvonot olami, lug'aviy ma'no, termin.

Аскарова Шахноза Камалидиновна (докторант (DSc) Ташкентского государственного университета востоковедения, PhD; e-mail: askarovashakhnoza2@mail.com)

#### ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЕДИНИЦ-ЗООНИМОВ В ЭПОСЕ “АЛПОМИШ”.

*Аннотация.* Данная статья посвящена исследованию лингвистических аспектов зоонимических единиц эпоса «Алпомиш», которые анализируются на основе различных источников. Кроме того, представлены сведения о лексическом изучении прозвище и названий коня Байчибара и других животных, часто упоминаемых в произведении. Слово «Бой» считается многозначным и означает «без недостатка в чем-либо, изобилующий всем, полный», единица «Чибор», специфичное для узбекских диалектов, и в языке народа оно имеет фонетические варианты, такие как чипор, олачипор, и лексически означает «пёстрый, пятнистый, рябой».

**Ключевые слова:** зоонимические единицы, эпос, животный мир, лексическое значение, термин.

Asqarova Shaxnoza Kamalidinovna (Doctoral student (DSc) of Tashkent State University of Oriental Studies;  
e-mail: askarovashakhnoza2@mail.com)

#### LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF ZOONYMOUS UNITS IN “ALPAMISH”.

*Annotation.* This article is dedicated to the research of the linguistic aspects of the zoonym units in the dastan “Alpomish”, which are analyzed based on various sources. In addition, information on the



lexical study of the nicknames and names of the horses, Baychibar and other animals, which actively participated in the work, is presented. The word "bay" is considered to be multi-meaning and means "no shortage of anything, abundant in everything, full". Chibor is a word specific to Uzbek dialects, and in the common language it has phonetic variants such as chipor, olachipor and lexically means "motley".

**Key words:** zoonym units, epic, animal world, lexical meaning, term.

**Kirish (Introduction).** "Alpomish" dostonida zoonimlar juda unumdor qo'llangan bo'lib, ular atoqli otlarning bir turidir. Zoonim termini grekcha zoo – "hayvon" va onoma – nom so'zlaridan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan hayvon nomi degan ma'noni anglatadi. Hayvon va boshqa tirik mavjudotlarga qo'yilgan maxsus nomlar va laqablar zoonimlar hisoblanadi [1;45-b.]. Zoologiya fani nuqtayi nazaridan, har bir jonli tana borki, tabiat va jamiyatda o'z o'rniga hamda o'ziga xos funksiyalarga ega. Demak, hayvonot olami inson hayotida nafaqat maishiy tomonlama ko'maklashgan, balki ular insonga hamroh, do'st, yordamchi kabi funksiyalarni bajargan. Hayvonlarning transport vositasi vazifasini ado etishi esa insoniyat taraqqiyotida eng muhim omillardan biri bo'lgan. It, mushuk, ot, ba'zan qushlarga nisbatan ham maxsus nom berish o'zbek tilida keng tarqalgan [2;18-b.]. Bu nomlar nafaqat hayvonlarni o'z turi ichida alohida ajratib olish uchun, balki ularning inson uchun ahamiyatini oshirish, erkalash, o'ziga yaqin olish uchun ham keng qo'llaniladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Bir necha tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, o'zbek tilida qush va hayvonlar uchun maxsus qo'yilgan laqab-nomlar azaldan mavjud. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida ham zoonimlar keng qo'llanilgan. "Alpomish" dostonida ellikka yaqin zoonimlar qo'llanilgan bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot nomlari: Boychibor, G'irotd, Ko'kdo'nan, To'riq, Tarlon, Oqbo'z, Somon, Olachibor, Olma-ko'z, Oyshapaq, Jiyroncha, Jiyronbo'z kabi.

2. Tuya nomlari: Qoranor, Tarlon, Elchinor, Ko'galcha kabi.

3. It nomlari: Izquti, Boyqadam kabi.

4. G'oz nomlari: Qonir g'az (Qo'ng'ir g'oz), Olatumshuq kabi [3;122-b.].

Turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbeklarda ot muqaddas jonzot sanaladi. Xususan, qahramon va pahlavonlar oti o'zbek xalq og'zaki ijodidagi yetakchi mavzulardan biridir. Chunki Alpomishni Boychiborsiz, Go'ro'g'lini G'irko'ksiz tasavvur qilish mumkin emas. Demak, xalq dostonlaridagi zoonimlar badiiy timsol darajasiga ko'tarilgan bo'lib, o'zining lisoniy jihatlari bilan asar mundarijasida alohida badiiy qimmat va uslubiy vazifa kasb etib kelgan. Xalqimizda "Otd bitdi – qanot bitdi", "Otd – yigitning yo'ldoshi", "Otd – yigitning qanoti" "Otd bor yigit – haqiqiy erkak" kabi o'nlab maqollar bor. Ularda o'zbekning otga bo'lgan munosabati o'z ifodasini topgan. Otdning ajdodlarimiz hayotida naqadar muhim o'rin tutganligini afsona, rivo-yat, qo'shiq, ertak, dostonlar matnidandan ham osongina anglasa bo'ladi. Otda-bobolarimiz otga, ayniqsa, zotli va yaxshi otga hech qachon hayvondek munosabatda bo'lmaganlar, inchunun, hamisha ot bilan do'st kabi suhbatlashganlar, o'z sirlarini aytganlar, tashvishlarini ham, quvonchlarini ham ot bilan baham ko'rganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tilshunoslik va tarjimashunoslik sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil, germenevtik tahlil kabi metod va usullardan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Xalq og'zaki ijodida alohida o'rin tutgan zoonim birliklarning lingvistik jihatdan tahlillari turli tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ularning fikr-mulohazalari quyida keltirib o'tilgan.

Hayvonlar nomlari lingvistik jihatdan tahlil qilinishi lozim bo'lgan mavzulardan biridir. Tilshunoslikda nomlar, xususan, hayvon nomlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar salmoqlidir. Bu borada professor E. Begmatov o'zining ko'plab tadqiqotlarida onomastik komponentlarni tahlil qilib, izlanishlar olib borgan. Biz ham mazkur ishlarning davomi sifatida "Alpomish" dostonidagi zoonimlar tadqiqiga qo'l urdik. *Boy-chibor* – dostonidagi jangovar ot. Boychibor zoonimi "boy" otiga "chibor" so'zining birikuvidan yasalgan morfemik tarkib bo'lib, qo'shma so'z shaklida kelgan. O'zbek tilida *boy* va *chibor* so'zlari o'ziga xos lug'aviy ma'no anglatadi.

*Boy* so'zi ko'p ma'noli hisoblanib, "hech narsadan kamchiligi yo'q, hamma narsadan badastir, to'kis" degan ma'nolarga ega. Chibor o'zbek shevalariga xos so'z hisoblanib, odatiy tilda uning chipor, olachipor kabi fonetik variantlari mavjud, lug'aviy jihatdan "olatusli, olachipor, olabula" degan ma'nolarni anglatadi [4;370-b.]. Masalan, chipor tovuq, chipor ilon, chipor o'rdak kabi. Demak, Boychibor sof turkiy lug'aviy vositalar asosida shakllangan bo'lib, "har jihatdan beqam, to'kis bo'lgan olatusli ot" degani. Bu dostonidagi Boychibor tasviri bilan bog'liq o'rnlarda yaqqol ko'rinadi:

*Hayvonzodning asl bordir Boychibor,*

*Aql bordir odamzoddan ziyoda. (1;191-b.)*

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan ma'lum bo'lishicha, Chovkar Cho'ltoq afsonaviy suv ayg'irlaridandir. Bu bobo tulpor Dovon arg'umohlari haqidagi qadimgi rivoyatdagi tog'da yashovchi samoviy ayg'irlarni eslatadi. "Chipor" va "chokvor", aslida, bir so'z bo'lib, ola demakdir. Shu bois "Alpomish" dostonidagi Boychibor ba'zan "Chokvor ko'k" deya ta'riflanadi:

*O'zi shunday kelgan akam Chovkar ko'k,  
Quyrug'idan berisida kiri yo'q,  
Minganlarning bo'lar ekan ko'ngli to'q,  
Buni minsang, aka, senga dushman yo'q.*

Bundan ko'rinadiki, chibor, cholvor ot "xosiyatli, pokiza ot". Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turkiy elatlar va turklar bilan yaqindan munosabatda bo'lgan xalqlar eposida qahramonning oti, ko'pincha, ola, ya'ni chipor tusli bo'ladi.

Asarda Hakimbek tomonidan bu otning tanlanishi ham tasvirlangan: "Shuning uchun otni tanlashda bobosi Dobonbiydan qolgan qo'riqni olib: "Saman sariga tush, yo olapocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush", deb ot tanlashga kirishadi. Qo'riqqa tushgan "bir chipor ot" unga yoqmaydi va uni qo'yib yuboradi. Biroq uch martagacha qo'riqqa bitta ot tushaveradi. Aslini olganda, shu voqeaning o'zi ham Hakimbekka aynan mana shu ot nasib etganidan darak beradi. Singlisi Qaldirg'och akasining ko'nglini ko'tarib: "... buni mingan odam ko'p yerlarni ko'radi, maqsadini topib qoladi", deydi. Qaldirg'och tilidan aytilgan she'riy parchada Boychiborning ta'rifi juda mehrlil so'zlar bilan keltiriladi. Qadimgi afsona va rivoyatlarga ko'ra agar otni qiz bola yuvib-tarasa, egar-jabduq'ini taqsa, otda ijobiy o'zgarish ro'y berar ekan. Shu sababli Qaldirg'och singil ham sifatida, ham ayol kishi sifatida Boychiborni akasiga egarlab beradi. Ijodkor baxshilarimiz dostonni yaratish orqali xalqimizning sevikli hayvoni otga ham haykal o'rnatadilar. Xalq orzusiga yarashliq haykal o'rnatadilar. Xalq orzusiga yarasha qahramonlariga mos otni ravo ko'radi. G'iro't, G'irko'k, Boychibor ana shunday otlardandir [2;64-b.]. Qahramonning otini ta'riflash o'zbek xalq og'zaki ijodidagi yetakchi mavzulardan biridir. Dostonlarda afsonaviy ot timsolining mukammal ishlanganligi xalqimizning qadimiy totemistik tasavvurlari bilan bog'liq bo'lsa kerak. Deyarli ko'chmanchi hayot kechirgan turkiy qabilalar turmushida ot benihoya katta rol o'ynar ekan, o'z-o'zidan bu mo'tabar jonivorga sig'inish an'anasi kelib chiqqan. Xususan, g'arbiy xunlarda oq, sharqda bo'z, shimolda qora, janubda to'riq rangli otlar boqiladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations).** Inson va tabiat uyg'unligi folklorda ustuvor hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining alohida xususiyati ham aynan insoniyat – nabotot – hayvonot olami bilan chambarchas bog'liqligidadir. Shu boisdan hayvon va parrandalar hamda ularning timsoli xalq og'zaki ijodida faol qo'llanib, insonning eng sodiq hamkori, yordamchisi sifatida gavdalanadi. Shu jihatdan qaraganda, Boychibor timsoli ham Hakimbekka sodiq homiy – yordamchi sifatida tasvirlanadi. Dostonda faol uchraydigan zoonimlar turli hudud, turli sharoit hamda turli voqealar rivojida o'zining maxsus hissasiga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Коллектив. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент, "Фан", 1981, 45-бет.
- (2). Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, "Фан", 1985, 18-бет.
- (3). Мадаев О. Алпомиш. Тошкент, "Маънавият", 1999, 64-бет.
- (4). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва, «Рус тили», 1981, 2-ж., 370-бет.
- (5). Юнусова Б.М. "Алпомиш" дostonи ономастик бирликларининг лексик-семантик ва услубий тадқиқи. Фил. ф.ф.док. дисс., Наманган, 2022, 164 бет.

**Xodjajeva Dilafro'z Izatillojevna (PhD, dotsent Buxoro davlat universiteti "Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik" kafedrsi mudiri; d.i.xodjaeva@buxdu.uz)**

### **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI LINGVODIDAKTIK TERMINLARINING DERIVATIV XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillari lingvodidaktik terminlarining derivativ xususiyatlari tahliliga bag'ishlangan. Maqolada termin yasash usullari va omillari o'rganilib, ikki til kesimida faktik materiallar asosida tahlillar olib borilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy terminologiyada turli olimlarning termin hosil qilish usullariga ham to'xtalgan hamda semantik, morfologik va morfo-sintaktik usullar to'liq yoritilgan.

*Kalit so‘zlar: lingvodidaktik termin, derivativ xususiyat, semantik usul, morfologik usul, affiksatsiya, prefiksatsiya, abbreviatsiya, terminologik nominatsiya, sodda termin, yasama termin, murakkab termin.*

## **ДЕРИВАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**

*Аннотация. Данная статья посвящена анализу деривационных особенностей лингводидактических терминов английского и узбекского языков. В статье изучаются способы и факторы терминообразования, проводится анализ на основе фактического материала на двух языках. В статье также затрагиваются способы терминообразования различных ученых в современной терминологии, при этом полностью освещены семантический, морфологический и морфосинтаксический методы.*

*Ключевые слова: лингводидактический термин, деривационные особенности, семантический метод, морфологический метод, аффиксация, префиксация, аббревиатура, терминологическая номинация, простой термин, производный термин, сложный термин.*

## **DERIVATIVE FEATURES OF LINGUODIDACTIC TERMS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

*Annotation. This article is dedicated to the derivational features of the linguodidactic terms of the English and Uzbek languages. In the article, term creation methods and factors are studied and analysis are carried out based on factual materials of the compared two languages. The article also reveals the methods of term formation suggested by various scientists in modern terminology and the semantic, morphological and morpho-syntactic methods are fully covered.*

*Key words: linguodidactic term, derivational feature, semantic method, morphological method, affixation, prefixation, abbreviation, terminological nomination, simple term, derivative term, complex term.*

*Taqrizchi BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrası mudiri f.f.d., professor Zubaydullo Rasulov*

**Kirish.** Derivatsiya tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lib, lotincha “derivatio” – tayinlash, hosil qilish so‘zidan kelib chiqqan [11]. Derivatsiya so‘z yasalishi, uning diaxron va sinxron turlari, so‘z yasash usullari kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. So‘z yasalishi sof nutqiy hodisa bo‘lishiga qaramay, uning li-soniy asoslari ham bor. Tilda har doim yangi so‘zlarga muhtojlik seziladi. Bu, asosan, texnologiyaning jad-dal rivojlanishi va globallashuv jarayoni bilan bog‘liq. Yangi o‘zgarishlar tufayli til yangi so‘zlarni o‘zlash-tirishi yoki yaratishi kerak bo‘ladi, chunki yangi texnologiya yangi so‘zlarni talab qiladi. So‘z yasashning turli usullari mavjud bo‘lib, ular hech qanday bahs-munozaralarni keltirib chiqarmaydi va ko‘pchilik tillar-da deyarli bir xildir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Termin yasash usullari zamonaviy terminologiyada keng tadqiq etilayotganligiga qaramay, bu sohada haligacha aniq xulosalarga kelinmagan. Terminologiyada so‘z yasalishining umumiy grammatik qoidalardan uzoq bo‘lgan o‘ziga xos so‘z yasalish usullari tizimi ishlab chiqilgan, degan fikrlarga duch kelishimiz mumkin. Akademik grammatikada so‘z yasash usullari (affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya va b.) orqali ko‘rsatilgan [7;70–71-b.] bo‘lsa, terminologiyada termin ya-sash usullari til sathlariga ko‘ra shakllanadi, masalan, leksik-semantik usul, morfologik, sintaktik va bosh-qalar. S.V.Grinev tomonidan taklif qilingan mazkur termin yasash tasnifiga nazar tashlaymiz [3;128-b.].

### **Termin yasashning semantik usullari:**

- umumiste‘moldagi so‘z ma‘nosining terminlashuvi;
- umumiste‘moldagi so‘z ma‘nosining kengayishi;
- umumiste‘moldagi so‘z ma‘nosining metaforizatsiyalashuvi;
- umumiste‘moldagi so‘z ma‘nosining metonimik ko‘chishi;
- umumiste‘moldagi so‘z ma‘nosining torayishi;
- leksemalarning tizimlararo o‘zlashtirilishi.

### **Termin yasalishining morfologik usullari;**

- suffikslar qo‘shilishi orqali termin yasalishi;
- prefikslar qo‘shilishi orqali termin shakllanishi;
- prefiks-suffikslar qo‘shilishi orqali termin yasalishi;
- konversiya usuli;
- terminlarning fonetik-morfologik shakllanishi.

### **Termin yasalishining morfo-sintaktik usullari:**

- soz birikmasi;
- abbreviatsiya.

Til tizimi boshqa tillardan, shuningdek, tashqi ekstralingvistik ta'sirlardan himoyalangan bo'lib, u doimo yangi so'z yoki iboralarni qabul qilaveradi. Ulardan ba'zilari ushbu tizimga moslashadi va birlashadi. Bu jarayonning natijasi sifatida adabiy til tarkibiga maxsus leksikaning kirib kelishi bilan bir qatorda teskari jarayon, ya'ni, adabiy til leksik birliklarining maxsus tagtizimlarga ko'chish holatlari ham kuzatiladi. Bunday holatda so'z o'zining avvalgi ma'nosini yo'qotib, yangi ma'noga ega bo'ladi va ushbu semantik siljish natijasida tez-tez ishlatiladigan ma'no o'rniga yangi, maxsus ma'no paydo bo'ladi. Umumiste'moldagi so'z ma'nosining o'zgarish jarayoni natijasida termin yasashning semantik usuli hosil bo'ladi. Aslini olganda, bu leksik-semantik so'z yasash jarayonidir, chunki so'zning semantik ma'nosi to'la o'zgarib, natijada leksik-semantik xususiyatlari jihatdan asl manbadan butunlay farq qiladigan yangi leksik birlik paydo bo'ladi.

Shunday qilib, termin hosil qilishning semantik usuli bu so'z semantikasining to'liq yoki qisman o'zgartirilishi bo'lib, yangi termin yaratishning asosiy vositasi hisoblanadi. S.V.Grinev termin yasash usullarini tasniflashda semantik termin yasashini diaxron nuqtayi nazardan o'rganadi [3;133-b.]. Ushbu fan sohalari vaqtini tejash maqsadida, oddiylik tamoyilini saqlagan holda terminlar bevosita umumiste'moldagi leksikadan o'zlashtirilgan. Lingvodidaktik terminologik tizim nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bo'lib, u bi-ian bog'liq terminologik tizimlarda mavjud bo'lgan terminlar ham bu tizimga o'zlashtirilgan. Shu sababli, lingvodidaktik tizimda umumiste'moldagi so'z ma'nolarining terminologizatsiyasi ko'p kuzatilmaydi. Bu ma'nolar bir vaqtning o'zida bir yoki bir nechta terminologik tizimning terminlariga aylangan. Lingvodidaktikaning mustaqil fan va bilim sohasi sifatida ajralishi mazkur terminologik tizimning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uzoq vaqt davomida chet tili o'qitish metodikasi bir nechta fan sohalari (pedagogika, psixologiya, lingvistika) kesishmasida paydo bo'lgan deb hisoblanganligi sababli, ushbu sohaning terminologik tizimi ham unga mos ravishda, umumilmiy, sohalararo va lingvodidaktik leksikaning birlashuvidan tarkib topgan. Aytish mumkinki, S.V.Grinyov tomonidan taqdim etilgan semantik termin yasash usullarida-gi ma'no kengayishidan farqli o'laroq, lingvodidaktik terminologiyada terminlar umumiste'moldagi so'zlarning, sohalararo, hatto umumtexnik terminlarning ma'nosi torayishi orqali paydo bo'lgan [3,128-b.].

A.Reformatskiy [6;217-b.] termin yasash jarayoniga o'z munosabatini bildirib, terminlar milliy tilidan, xorijiy yoki xalqaro so'zlardan hosil bo'lishi, shuningdek, sun'iy ravishda yaratilgan so'zlar bo'lishi mumkinligini qayd etgan. U termin yasashga alohida ahamiyat berib: a) asl terminlarni yaratish; b) terminlardan hosila yasashga urg'u bergan. Ba'zi hollarda termin yaratish til leksik birliklarini hosil qilish qoidalariga bo'ysunadi, degan fikrlarga ham duch kelamiz. V.P.Danilenko [4;89-90-b.]. V.N.Shevchuk umumleksikadagi so'z yasash usullari (semantik, morfologik va sintaktik) terminologiyada ham mahsuldor ekanligini qayd etadi [8;10-11-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shunday qilib, terminologik nominatsiya va terminologik tizimning shakllanishi til leksik tarkibining shakllanishi va atrofimizdagi narsalarning birlamchi nominatsiyasi bilan taqqoslaganda, ikkinchi darajali hisoblanadi. Termin hosil qilish usullari terminologik tizimning shakllanish vaqtiga bog'liq. Termin, birinchi navbatda, ma'lum bir ilmiy sohaning elementidir. Uning mazmun plani – ma'lum ilmiy tizimda sun'iy shakllangan ekstralingvistik voqelik bo'lib, ifoda plani – o'z yoki o'zga til birliklari va sun'iy tanlab olingan terminologik birliklar hisoblanadi. Termin milliy mulk emas, balki cheklangan doiradagi mutaxassislar tomonidan qo'llaniladigan konseptual apparatning tarkibiy qismidir. Termin semantikasi tilga tegishli emas, chunki u maxsus sohada shakllanadi. Tildagi so'zning terminologik ma'nosi uni umumiste'moldan ajratib olganda, shakllanishi mumkin. Masalan, *til* so'ziini oladigan bo'l-sak: 1) *anat.* nutq organi; 2) *psixol.* nutqiy faollik qobiliyati; 3) *lingv.* aloqa tizimi.

Har qanday nominatsiyada motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Motivlangan terminlar bu o'z til va xalqaro terminologik elementlardan tashkil topgan terminlardir. Ammo ular turli motivatsiyaga ega bo'ladi. Agar termin o'z til qatlamidan shakllangan bo'lsa, unda metafora yoki metonimiya sodir bo'ladi. Ikkinchi holatda esa termin tegishli terminologik elementlar to'plamidan saralab olinishiga turtki bo'ladi. Ko'pgina tillarda, xususan, Yevropa tillarida, terminlarning asosiy qismi lotin va yunon tillaridan o'zlashtiriladi. Buning xarakterli jihati shundaki, ular o'z milliy tillaridagi so'zlar bo'lsa-da, turli xil metaforalar asosida alohida ma'no kasb etishi mumkin edi. Ammo bu holda ular hali terminologik element hisoblanmaydi. Keyinchalik, ular terminologik element toifasiga o'tib, birlamchi semantik munosabatlardan ajralib chiqadi.

**Tahlil va natijalar.** Biz qiyoslayotgan ingliz va o'zbek tillari lingvodidaktik terminologik tizimi mi-solida ham lotin va yunon tillaridan o'zlashgan ko'pgina terminlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *syllabus, adult, concept, vocabulary, hypothesis, certification, curriculum, dictation, education, examination, introvert, objective* va h.k. terminlar lotin tilidan; *autonomy, programme, kinesthetic, strategy,*

*lexical, category, measurement, mentor, method* va h.k. terminlar yunon tilidan o'zlashgan. Xuddi shu terminlardan *syllabus, konsept, gipoteza, diktant, introvert, strategiya, kategoriya, mentor, metod, metodika, pedagogika* kabi terminlar o'zbek tiliga ham kirib kelgan.

Keyingi yillarda zamonaviy tilshunoslikda terminlarni hosil qilish usullariga bag'ishlangan tadqiqotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, termin yasashda quyidagi usullar ko'p qo'llanadi: 1) semantik usul (bunda faol qo'llaniladigan so'z ma'nosi kengayib yoki torayib, so'zga yangi ma'no yuklanadi va terminologik sohaga kirib keladi); 2) morfologik usul (affiksatsiya usuli); 3) sintaktik usul (so'zga so'z qo'shish orqali yangi terminologik iboralar va birikmalar hosil qilinadi); 4) leksik birliklarni o'zlashtirish: a) boshqa terminologik tizimdan; b) o'zga tillardan; 5) abbreviatsiya usuli kabilar [5]. Umuman olganda, terminlarni shakllantirishning keng qo'llanadigan usullariga morfologik va sintaktik usullarni mahsuldor usullar deb hisoblash mumkin.

Terminning lisoniy belgi sifatidagi tabiati, ya'ni semiotik mohiyati adabiy tilning oddiy so'ziga to'liq mos kelmaydi. Bu oddiy so'zdan ko'ra murakkabroqdir. Termin maxsus tushunchani nomlaydi. Bu tushunchaning o'ziga xosligi shundaki, uning mazmuni qanday vosita va usullar orqali ifodalanmasin, u o'z yaxlitligini yo'qotmasligi kerak. Termin, xoh so'z (oddiy yoki murakkab) yoki ibora bo'lsin, bitta tushuncha mos keladigan bitta belgini ifodalaydi. Murakkab ichki semantik tuzilishga ega bo'lishiga qaramay, termin yagona, alohida, mustaqil nominativ birlik hisoblanadi.

Tilda har qanday so'z termin vazifasida ishlatilishi mumkinligini inobatga olgan holda, termini, an'anaviy ravishda, maxsus funksiyadagi oddiy so'z sifatida tavsiflash mumkin. Darhaqiqat, har qanday so'z termin bo'lishi mumkin (asosan, mustaqil so'zlar, xususan, nominativ til birliklari va h.k.). Biroq teskari holat kuzatilishi mumkin emas (har qanday termin → so'z), chunki har qanday termin ham nutqiy vositalar orqali ifodalanmaydi (yoki faqatgina sof nutqiy vositalar orqali ifodalanadi).

Termini oddiy so'zdan ajratib turadigan, ularni farqlaydigan har qanday xususiyatni, bizning fikrimizcha, ikkilamchi, terminning belgi mohiyatiga ta'sir qilmaydigan, muhim bo'lmagan xususiyat deb hisoblash mumkin emas. Oddiy so'z va termin o'rtasidagi farq quyidagi uchta asosiy xususiyatga ta'sir qiladi: belgi va ifodalanmish orasidagi aloqa; alohida belgining chegaralari; terminning eng kichik tarkibiy birligini aniqlash. Terminda belgi bilan ifodalanmish orasidagi munosabat mos kelishi kerak, ya'ni, bu munosabat belgi so'zning assimetrik tabiatidan farqli o'laroq, terminologik belgining ma'lum "simmetriyasida" ifodalanishi kerak.

Terminning rasmiy chegaralari bevosita u orqali ifodalangan tushunchaning mazmuniy chegaralariga bog'liqdir. Binobarin, terminologik nomlarning tarkibiy turlari umumiy adabiy tildagi nominatsiya birliklari bilan to'liq mos kelmaydi. Shu sababli terminologiyada eng kichik terminologik birlik sifatida o'zida o'zak, so'z yasovchi morfema (affikslar), murakkab so'z va iboralar tarkibidagi so'zni mujassamlashtiruvchi keng tushunchani inobatga olish zarur.

Terminlarni struktur jihatiga ko'ra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Sodda terminlar (o'zbek tilida: *dars, reja, maqsad, bilim* va boshqalar; ingliz tilida: *adult, aim, assess, audio, band, skill* va b. 2. Yasama terminlar (*amaliy, aqliy, artikulyatsion, audiomaterial* va boshqalar; ingliz tilida: *application, assessment, auditory, bandscales* va b.). 3. Murakkab terminlar (o'zbek tilida: *chet tili o'qitish, til ko'nikmalari, yozma nutq, tinglab tushunish, dars maqsadlari, tarqatma material* va boshqalar; ingliz tilida: *backwash effect, communication skills, basic vocabulary, instructional objective, bilingual education* va b. 4. Qisqartmalar (o'zbek tilida: *GO'M – grammatikani o'rgatish mazmuni, LO'M – leksikani o'rgatish mazmuni, AND – aralash nutq darsi*; ingliz tilida: *EFL – English as foreign language, ESL – English as second language, GTM – Grammar-translation method, CAI – Computer assisted instruction, CELTA – Certificate in English Language Teaching to Adults* va boshqalar).

Terminlarning grammatik asosi mustaqil so'z turkumidan iborat bo'ladi: ot, sifat, ravish va fe'l. Termin yadrosi, asosan, turdosh otdan iborat bo'lishiga qaramay, unda atoqli otlar ham qo'llanilishi mumkin, masalan, *Venn diagram*.

Terminlar qaysi so'z turkumi orqali ifodalanishi masalasida yagona to'xtamga kelingani yo'q. Bazi olimlar terminlar faqat ot orqali ifodalanishi mumkin, chunki ot kategoriyasi o'zining keng semantik imkoniyatlari bilan terminologik nomlarning asosiy tarkibini ifodalay oladi desa, boshqalari terminlar xohlagan mustaqil so'z turkumi orqali ifodalanishi mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Bu o'rinda O.S. Axmanova fikrini keltiramiz: Tilshunoslik terminlari qaysi so'z turkumiga mansub bo'lishi kerak, degan masala bugungi kunda juda muhim sanaladi: soha terminologiyasi faqat ot so'z turkumi bilan chegaralanishi kerakmi yoki u sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlarini ham o'z tarkibiga kirita oladimi? Bu savolga javob berar ekanmiz, avvalambor, Yevropa tillarida ot tizimining juda yaxshi rivojlanganligiga e'tibor qa-

ratish lozim, ya'ni, bu tillarda sifat yoki fe'llardan hosil bo'lgan otlashgan so'zlar va mavhum otlarni yasashda cheksiz imkoniyatlar mavjud va ushbu tillar uchun terminologik ro'yxat tarkibi faqat ot so'z turkumi bilan ham chegaralanishi mumkin [1].

Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "har qanday rivojlangan ilmiy yoki texnik terminologiya yuqori darajadagi abstraksiyani talab qiladi. Terminologiya real narsa va harakat nomlarining yig'indisi emas, balki narsa va harakat haqidagi tushuncha nomlarining ma'lum tizimidir. Demak, so'zning keng ma'noda predmet, sifat, harakat to'g'risidagi ilmiy-texnikaviy tushunchalarini terminologiyada faqat yagona leksik-grammatik vosita – otlar orqali ifodalash mumkin [9;89-b.].

Turli so'z turkumlarining termin vazifasida ishlatilishi masalasida chech olimi O.Manning fikrini keltiramiz: "Fe'ning termin sifatida qo'llanilishi masalasi ko'p jihatdan otga qaraganda murakkabroqdir". Har qanday leksik elementni xarakterlashda, deb hisoblaydi O.Man, nafaqat ushbu elementni, balki ma'lum mikrotizimga kiritilgan o'xshash elementlarning butun majmuasini ham xarakterlash, ya'ni elementni ma'lum bir fonda ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Fe'lni termin sifatida yakka o'zini emas, balki uni til mikrotizimi sifatida terminlar tizimi fonida ko'rib chiqish zarur. Fe'l terminni tizim birligi sifatida tavsiflashi kerak bo'lgan va uning vazifalarini belgilovchi talablarga, ya'ni barqarorlik, bir ma'nolilik va aniqlik talablariga javob bera oladimi? Terminologik tizim ichida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita komponent yoki bir-birini istisno qiluvchi va ayni paytda bir-birini to'ldiruvchi ikkita element, statik element – nomlar va dinamik element – fe'llar mavjud. Elementlarning o'zaro birikishi ikkala element xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan otlashgan fe'llarda amalga oshiriladi. Agar termin sifatida otni oladigan bo'lsa, ot va fe'l ma'lum semantik munosabatga kirishgan bo'lsa, fe'lni ham termin sifatida qabul qilish mumkinmi? Lingvistik ifoda vositalari buni tasdiqlaydi: agar *tahlil* so'zi lingvistik termin bo'lsa, undan yasalgan *tahlil qilmoq* ham termin bo'la oladi, chunki bu ham voqelikning ifodasidir, lekin boshqa darajada, ya'ni harakat, jarayon dinamikasi darjasida. Termin nafaqat ma'lum bir soha terminologik tizimida, balki uning vazifasini turli so'z turkumlariga tegishli so'zlar bajaradigan matnda ham mavjud bo'ladi. O.Man fe'lni terminologik tizimga grammatik kategoriya, ya'ni so'z turkumi sifatida kiritish uchun gap bo'laklarining tizimli munosabatlarini asos qilib oladi. Agar sifat termin sifatida qabul qilingan bo'lsa, u holda fe'l ham termin bo'lishi mumkin, chunki fe'l maxsus sohada sodir bo'ladigan jarayonni bildiradi. Shu bilan birga, otdan yasalgan fe'l (reja-rejalashtirmoq) ham, fe'ldan yasalgan otlashgan termin (o'rganish-o'rganmoq) ham gap bo'lagiga ko'ra terminlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsata oladi [10].

**Xulosa va takliflar.** Keyingi yillarda terminshunos olim V.P.Danilenko ham, ot so'z turkumidan tashqari, boshqa so'z turkumlari ham terminlashishi mumkin degan fikrini isbotlashga harakat qiladi. Uning ta'kidlashicha, birinchidan, ilmiy adabiyotlarda barcha mustaqil so'z turkumlariga oid terminologik ma'no anglatuvchi leksik birliklarining qo'llanilishi, ikkinchidan, umumiy abstrakt ma'noli fe'llarning terminalshuvi, uchinchidan, maxsus terminologik lug'atlarga sifat, fe'l, ravish, olmosh kabi so'z turkumiga oid leksemalar terminologik birliklar sifatida kiritilganligi uqitirib o'tilgan. I.R.Bazarov o'zining "Turli tizimli tillarda lingvota'limshunoslik sohasiga doir terminologik birliklarning qiyosiy-tipologik tadqiqi (ingliz, rus va o'zbek tillari materiallari asosida)" nomli tadqiqotida lingvota'limshunoslik terminlari orasida termin-nomlar funksiyasida qo'llaniluvchi fe'l, sifat, ravish, olmosh va son kabi so'z turkumidagi so'zlarning konversiya usuli orqali terminlashuv jarayonining sodir bo'lishini kuzatadi va shu bois, bu boradagi V.P. Danilenkoning fikrini qo'llab-quvvatlash mantiqan to'g'ri, deb o'ylaydi [2;19-b.].

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytish nunkinki, termin sifatida nafaqat ot, balki fe'l, sifat, ravish, olmosh va son turkumidagi so'zlar ham termin vazifasida kelishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Akhmanova, O.S. Dictionary of Linguistic Terms. Moscow, Soviet Encyclopedia, 1969.
- (2). I.R.Bazarov. Turli tizimli tillarda lingvota'limshunoslik sohasiga doir terminologik birliklarning qiyosiy-tipologik tadqiqi (ingliz, rus va o'zbek tillari materiallari asosida). f.f.fals. dok-ri ...avtoref., Toshkent, 2022, 57 bet.
- (3). Гринев С.В. Введение в терминоведение. М., Московский лицей, 1993, с. 128.
- (4). Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания. М., "Наука", 1977, с. 89–90.
- (5). Ивина Л.В. Лингвокогнитивные основы анализа отраслевых терминосистем. Учебно-методическое пособие, М., "Академический проект", 2003, 304 с.
- (6). Реформатский А.А. Что такое терминология? "Вопросы терминологии", М., 1961, с. 217.
- (7). Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М., 1956, с. 70–71.
- (8). Shevchuk. V.H. Derivative military term in English. 1983, p. 10–11.

(9). Щеглова Н.А. К вопросу о грамматических средствах терминологизации русских глаголов в профессиональной речи XVII –XVIII веков. Уч. зап. МГПИ им. В.И.Ленина, М., 1968, т. XXXVIII, вып. 8, с. 89.

(10). Oldřich Man. Postavení slovesa v systému terminologie (Na materiale ruskem a českem). “Acta Universitatis Carolinae – Philologica”, 2, Slavica Pragensia. VI, 1964.

(11). <https://www.etymonline.com/word/derivation>

**Kurbanova Zilola Xojinazarovna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti tayanch doktoranti;  
Zilolakurbanova0711@gmail.com)**

## **INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EPITETLARNING SEMANTIK TASNIFI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola epitetslarning ingliz va o‘zbek tillaridagi tasniflarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda mazkur mavzu bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Dunyo olimlari, shu jumladan rus, ingliz va o‘zbek tilshunoslari tomonidan epitetslarni turli asoslarda chuqur tahlil qilinganligi va ularning tasniflari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** epitet, metafora, tasnif, assotsiyalangan epitet, assotsiyalanmagan epitet, majoziy epitet, majoziy bo‘lmagan epitet, tautologik epitet, izohlovchi epitet.

### **СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЭПИТЕТОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению классификации эпитетов в английском и узбекском языках. В ней анализируются научные исследования, проведенные по данной теме. Приводится информация об углубленном анализе эпитетов по различным основаниям и их классификации мировыми учеными, в том числе российскими, английскими и узбекскими лингвистами.

**Ключевые слова:** эпитет, метафора, классификация, ассоциированный эпитет, неассоциированный эпитет, образный эпитет, необразный эпитет, тавтологический эпитет, описательный эпитет.

### **SEMANTIC CLASSIFICATION OF EPITHETS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

**Annotation.** This article is aimed at studying the classification of epithets in English and Uzbek languages, in which the scientific research works carried out on this topic are analyzed. Information on the in-depth analysis of epithets on various grounds and their classification by world scientists, including Russian, English and Uzbek linguists.

**Key words:** epithet, metaphor, classification, associated epithet, non-associated epithet, figurative epithet, non-figurative epithet, tautological epithet, descriptive epithet.

**Kirish.** Epitetlarning tadqiqi ko‘p asrlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan va ularning tasnifi yuzasidan qator tilshunos olimlarimiz ko‘plab asosli izlanishlar olib borishgan va xulosalar berib o‘tishgan. Bilamizki, epitetlar kundalik so‘zlashuv uslubida qo‘llanilishi bilan birga badiiy adabiyotimizda obrazlilikni, emotsiyanalilikni va individuallikni yaqqol ifodalab berguvchi, tilni bezovchi badiiy tasviriy vositalardan biri sanaladi [1;154-b.]. Mazkur maqolada esa epitetlarning semantik jihatdan tasniflanishi va bu tasniflarning o‘zbek va ingliz tillari tizimida qanday berilganligi, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini tadqiq qilish maqsad qilib olingan. Maqolaning birinchi qismida ingliz tilida epitetlarning semantik tahlili borasidagi ilmiy mushohadalar haqida gapirilsa, ikkinchi qismida ularning o‘zbek tilidagi tasniflari keltiriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Epitetlar ko‘p asrlardan buyon tilshunoslar e‘tibor markazidan tushmayotganligi va hozir ham ular tilshunoslikning asosiy izlanish obyekti ekanligi barchamizga ayon. Jumladan, Galperin I.R. o‘zining “English Stylistics” kitobida [1] “Epithet – obyektini tavsiflash va o‘quvchiga izohlab berish uchun ishlatiladigan atributiv so‘z, ibora yoki jumladagi hissiy va mantiqiy ma‘noning o‘zaro ta‘siriga asoslangan stilistik vosita” deydi. Bundan tashqari Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. kabi tilshunos olimlarimiz “O‘zbek tili stilistikasi”da [2] epitetlarning tarifi va bir qancha tasniflarini keltirib o‘tishadi. Ayniqsa, Karimov S. “Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari” kitobida epitet mavzusiga alohida to‘xtalib, o‘zbek tilida ularni izohlovchi, doimiy, bezak beruvchi, individual kabi turlariga to‘xtalib o‘tganini ko‘rishimiz mumkin [3]. Mamadjanova M. “O‘zbek va ingliz tillarida epitetning Chog‘ishtirma Tadqiqi. Antonamaziya epitetlar”, maqolasida antonamaziya epitetlariga chuqur to‘xtalib o‘tgan [4]. Minaya Huseynova ham ingliz tilidagi epitetlar klassifikatsiyasi yuzasidan ma‘lumotlarni o‘z maqolasida keltirib o‘tgan [5]. Unda epitetlar tasnifi uchta prinsipga asoslanadi: Fiksatsiya tamoyiliga ko‘ra; morfologik va sintaktik ifodaga ko‘ra, semantik prinsipga ko‘ra.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Epitetlar ko‘p asrlardan buyon tilshunoslar e‘tibor markazidan tushmayotganligi va hozir ham ular tilshunoslikning asosiy izlanish obyekti ekanligi barchamizga ayon. Jumladan, Arnold I.V., Galperin I.R., Potebnia O. kabi xorijlik olimlar; Qo‘ng‘urov R., Rasulov T., Karimov S., Jarimbetov A., Akhmanova O.S., Tursunova L. kabi o‘zbek tilshunoslari epitetlar yuzasidan qator izlanishlar olib borishgan va epitetlarni turlicha tasnif qilishgan.

**Tahlil va natijalar.** Tilshunoslikda epitetlar bir necha nuqtayi nazardan tasniflanadi va bularga misol qilib ularning struktur, semantik, sintaktik jihatdan klassifikatsiyalarini keltirish mumkin. Tilshunos Galperin I. epitetlarni semantik va strukturaviy jihatdan qismlarga ajratgan bo‘lib, semantik tahlilda epitetlar 2 ta guruhga ajratiladi:

1. Bog‘langan (aniqlanmish bilan).
2. Bog‘lanmagan.

Galperin I. o‘zining “Stilistika” kitobida bog‘langan epitetlarni –“tasvirlanayotgan obyektning muhim xususiyatlariga ishora qiluvchi epitetlar deya izohlab, ularda ifodalangan g‘oya ma‘lum darajada obyekt tushunchasiga xosdir,” deb yozadi. Bu fikrdan kelib chiqsak, assotsiyalangan (bog‘langan) epitetlarda o‘zidan keyingi kelgan so‘z bilan semantik bog‘liqlik boladi. Ya‘ni, aniqlovchi aniqlanmish bilan ma‘no jihatdan birika oladigan sifatlardan biri bilan keladi. Masalan: *dark forest – qorong‘u o‘rmon*, epitetli birikmasida o‘rmon so‘zi qorong‘u sifati bilan ma‘noviy jihatdan birga kela oladi. o‘rmon kun botishi bilan qorong‘u boladi va bu holatni ifodalash uchun qorong‘u o‘rmon birikmasini ishlatish mumkin. Shu bilan birga, bu birikmada emotsiya, ma‘noni kuchaytirish xususiyati ham yaqqol seziladi. Qorong‘u o‘rmon epitetli birikmasi o‘quvchida qo‘rqinchlilik emotsiyasini uyg‘otishi mumkin. Masalan: *careful attention* – bu epitetli birikmada ham *attention – e‘tibor* so‘zi *careful – ehtiyotkor* so‘zi bilan mazmunan aloqadorligini ko‘rishimiz mumkin. *Unwearying research* – bu misolni *qizg‘in izlanish* deb tarjima qilishimiz mumkin va bu aniqlovchi ham *izlanish* so‘zi bilan mazmunan aloqador.

Bog‘lanmagan (assotsiyalanmagan) epitetlar esa obyektning tavsiflash uchun ishlatiladigan atributlar deya izohlanib, bunday epitetlar aniqlanmishga unga xos bo‘lmagan xususiyatni qo‘shishi, ya‘ni, o‘quvchini o‘zining yangiligi bilan hayratga soladigan darajada kutilmagan xususiyatni nazarda tutishi bilan izohlanadi [1;158-b.]. Masalan: *heart-burning smile, bootless cries, sullen earth, voiceless sands*.

Shu o‘rinda assotsiyalanmagan epitetlarni semantik tahlil qilish ularni ikkita katta guruhga bo‘lish imkonini beradi:

- a) majoziy;
- b) majoziy bo‘lmagan.

*Majoziy (obrazli) epitetlar.* Bunday epitetlarni ular asosida yotgan semantik jarayonga ko‘ra, 4 guruhga bo‘lish mumkin [5;6-b.].

- 1) metaforik epitetlar;
- 2) qiyosiy epitetlar;
- 3) sinestetik epitetlar;
- 4) tovushga o‘xshash epitetlar.

*Majoziy bo‘lmagan epitetlar.* Ta‘riflovchi va aniqlangan ma‘nolar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir xususiyatiga qarab, turli guruhlar majoziy bo‘lmagan epitetlar orasida ham farq qilishi mumkin. Majoziy bo‘lmagan epitetlarning to‘rtta guruhi mavjud [5;7-b.]:

1) ko‘chirilgan epitetlar. Bunda aniqlovchi (odatda, sifat) o‘zi tasvirlaydigan shaxs yoki narsadan boshqa o‘tini sifatlaydi. Boshqacha qilib aytganda, attributiv yoki epitet ifodalash uchun mo‘ljallangan otdan gapdagi boshqa otga o‘tadi. Masalan: *sleepless nights, a wonderful day, wide-eyed amazement*;

2) oksimoron epitetlar. Ular aniqlangan so‘zlarning ma‘nosiga bevosita qarama-qarshi bo‘lgan ma‘noni ifodalovchi epitetlar. Masalan: *passionless passion, wise foolishness, laborious idleness*;

3) giperbolik epitetlar. Bunday epitetlar giperbolik stilistik texnika bilan bir xil jarayonga asoslanadi – aniqlangan obyektga xos bo‘lgan har qanday xususiyat darajasi haddan tashqari oshirib yuboriladi. Masalan: *deadly prices*;

4) antonomaziya epitetlari (ya‘ni, biron-bir taniqli tarixiy shaxs yoki mifologiyadagi personaj, yoki adabiy qahramon nomini bildiruvchi xos ism yoki bunday otdan yasalgan sifat bo‘lishi mumkin [4;113-b.]. Masalan: *Dickensian person, Jane Austen look, a Mona Liza silence*.

Tilshunos A.N.Veselovskiy ham epitetlarni semantik jihatdan 4 ta guruhga ajratadi: tautologik, izohli, metaforik va sinkretik:

1) tautologik epitet. Subyektning muhim belgisini ifodalab keluvchi semantik muvofiqlashtirilgan epitet deb izohlanadi. Masalan: *fair sun, wide sea, soft pillow, green wood*.



2) izohlovchi epitet. Aniqlangan subyektning(aniqlanmishning) o'zigagina tegishli bo'lgan muhim va e'tiborli jihatlarini ifodalab keladi. Bu jihatlar shu guruhga tegishli boshqa subyektlarga aloqador bo'lmaydi. Mazmunan kelib chiqishiga ko'ra bunday izohlovchi epitetlar xilma xil bo'lib odamlarning tajribalari, mahalliy aholi tarixi, madaniyat va odatiy mayllar ta'sirida yuzaga kelgan bo'ladi. Masalan: *grand style*, aslida bu birikmani Collins lug'atidan qaraydigan bo'lsak *grand – hayratlanarli darajada ulkan, style – uslub, adabiy tur*, janr deya izohlanadi. Bu misoldagi epitetimiz esa birgalikda barqarorlikni, yuksak qadr qimmatni qoyilmaqom notiqlikni ifodalovchi adabiy tur sifatida izohlanuvchi epitetli birikma holiga kelgan.

*Pale moon* bu izohlovchi epitetda ham *pale – och rang'ni, moon – oyni* bildiradi. Uilyam Shekspirning o'zining "Romeo va Juleta" pyesasida bu birikmani izohlovchi epitet sifatida ishlatgan. Ikki oshiqning fojiali taqdirini tasvirlash uchun *pale moon* iborasini epitetli metafora sifatida ishlatiladi. Oqargan oy, ko'pincha, o'lim va hayotning oxiri, shuningdek, go'zallik va hayotiylikni yo'qotish uchun ishlatilgan epitetli birikmadir. Asarda Romeo Julettani rangpar oyga qiyoslab, "U quyosh, men esa oy", deb aytadi.

*Golden hair* bu birikma esa anglo-sakson ayoli go'zalligining ideal izohi sifatida ishlatiladi va bu yerda shu yerlik aholi ayollarining sochlarini ranglaridan kelib chiqqan holda uzaga kelgan *golden hair* izohlovchi epitet hisoblanadi va *hair* so'zi boshqa so'zlar, masalan, *black* bilan kelsa oddiy o'z ma'nosida qoladi va izohlovchi epitet xususiyatini yo'qotadi. Lekin o'zbek tilida *qora sochlar* epitetli birikma sifatida tushunilishi mumkin, chunki *qora soch* azalda o'zbek ayoli obrazini ifodalovchi eng yorqin sifatlardan biri bo'lib kelgan va xuddi ingliz tilidagi *golden hair* bilan solishtirilganidek, agar u *sariq soch* yoki *malla soch*" deya ishlatilsa, bu yerda izohlovchi epitet emas, oddiy so'z birikmasiga aylanadi;

3) metaforik epitetda, albatta, o'xshashlik va o'xshashlik belgisi, ikki rejali xarakterda namoyon bo'ladi. Asos sifatida elementarning o'zaro bog'liqligi – animizm va personifikatsiya olinadi. Veselovskiyning fikriga ko'ra, bunda epitetlarning ikkita kichik turini ajratish mumkin: jonsiz obyektga tirik mavjudotning xususiyatlarini o'tkazish: Masalan: *an angry sea, howling storm, exhausted wind*. Inson xususiyatlari va harakatlariga tegishli antropomorf yoki subyektga o'tkazish. Masalan: *laughing valleys, shushing spray*.

4) sinkretik epitetlarning paydo bo'lishi bizni o'rab turgan dunyoni bilishdagi hissiy idrokimizning birligi, ajralmasligi bilan bog'liq. Masalan: *motley alarm, pink shame, green noise*.

O'zbek tilshunoslari ham epitetlar yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borishgan. Shu jumladan, S. Karimov epitet haqida o'z fikrlarini bildirib, uni badiiylikni taminlovchi tasviriy vositalar ichida markaziy o'rindaligini takidlaydi va badiiy aniqlovchi deya izohlaydi. Bundan tashqari, kitobida epitetlarning tasviriy, lirik, liro-epik, doimiy (ananaviy), metaforik, baholovchi, bezak beruvchi, kuchaytiruvchi guruhlarini keltirib o'tadi va shulardan doimiy, bezak beruvchi, metaforik, individual epitetlarni izohlab, o'zbek tilida bir nechta misollar keltiradi [3;24-b.].

*Doimiy epitetlar*. Xalq, san'atkorlar bahshilar tomonidan azaldan qo'llanib kelinayotgan, yahlit quyma holiga kelgan an'anaviy tasviriy vositadir [3;23-b.] Ular leksik jihatdan uchqur hayvonlar, qushlar, umuman, ijobiy yoki salbiy jihati yaqqol namoyon bo'lgan hayvon yoki boshqa predmetlar xususiyatini insonlar yoki boshqa hayvonlarga ko'chirilishi natijasida yuzaga keladi va xalq orasida doimiy takrorlanishi natijasida xatto aniqlanmishidan ajralmaydigan holga keladi. Masalan: *er yigit, sher yurak, arslon bilak, keskir shamshir*.

*Bezak epitetlar*. Xalq og'zaki ijodiga xos bo'lib ko'proq badiiy asarlarda uchrashi kuzatiladi. Aslida, bunday epitetlarni doimiy epitetlarni bir ko'rinishi, deyish mumkin. Masalan: o'zangisi *quyma oltin*, quyushqoni *quyma oltin*, yuragining *boshi oltin*, egarining *qoshi oltin*, kamchisining *sopi oltin*.

*Metaforik epitetlar*. Obrazlilik va baholash ottenkasi kuchli bo'lgan badiiy adabiyotga xos epitetlaridir deya izohlanadi. Masalan: Hali *lab tegmagan* kulgular oldinda.

*Individual epitetlar*. Bunday epitetlar har bir yozuvchining individual uslubini o'zida aks ettiradi, Buni ijodkorlar bilan tahlil qiladigan bo'lsak, G'.G'ulom, H.Olimjonlar ijodlarida qora va qizil so'zlari, Mirtemir ijodida *oddiy og'ir, zamharir, yashil, oq, qora* so'zlari, Oybek ijodida *mag'rur, yangi, zumrad, oltin* so'zlari epitet sifatida takrorlanib kelganini ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Epitetlar qadim davrlardan hozirgi kungacha tilshunoslikning asosiy o'rganish obyektlaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda va hanuzgacha ko'plab olimlar epitetlarning ta'rifi klasifikatsiyasi yuzasidab turlicha fikrlar va o'z nuqtayi nazarlarini bildirib kelishmoqda. Shu jumladan, o'zbek va ingliz tillarida epitetlar tasniflarida o'xshash tomonlar bor. Jumladan, ingliz tilidagi *izohlovchi epitetlar* o'zbek tilidagi *doimiy epitetlar* bilan mazmunan mos keladi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi kabi misollar o'zbek tilida ham uchraydi. Bundan ko'rinadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi epitetlar tahlili, tasnifi, tadqiqi yuzasidan yana ko'plab qiyosiy chog'ishtirma aspektida ilmiy izlanishlar olib borish mumkin

va ushbu masalaning ilm ahli e'tiboriga havola qilinishi epitet kabi stilistik vositalarning chog'ishtirma tahliliga bag'ishlangan yangi ilm yo'llarini ochib beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Galperin I.R. English Stylistics. Moscow, 1974, p. 154–158.
- (2). Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, 1983, 45-bet.
- (3). Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, SamDU, 1994, 22–25-betlar.
- (4). Mamadjanova M.U. (2022). O'zbek va ingliz tillarida epitetning chog'ishtirma tadqiqi. Antonamaziya epitetlar. Research and education, 1(5), pp. 110–115.
- (5). Hüseynova, M. (2022). Epithet and Its Classification. Literary Device: Epithet.

**Shuxratova Muxlisaxon Shuxratjon qizi (Xalqaro Nordik universiteti Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti  
“Xorijiy tillar” kafedrasida katta o'qituvchisi; m.shuhratova92@gmail.com  
TURLI TIZIMLI TILLARDA MATERIAL KATEGORIYASINING IFODALASH USUL VA  
VOSITALARI**

**Annotatsiya.** Material kategoriyasi, tilshunoslikda, biror narsaning mavjudligini, uning mavjudlik darajasini va o'zaro bog'liqligini ifodalovchi muhim tushunchadir. Har bir til o'zining material kategoriyasini ifodalash uchun turli usul va vositalardan foydalanadi. Ushbu maqolada, turli tizimli tillarda material kategoriyasining ifodalash usul va vositalarini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, material kategoriyasi, semantik tuzilish, morfologik o'zgarishlar, til, tilshunoslik.

**Шухратова Мухлисaxon Шухратжон кизи (старший преподаватель факультета экономики и педагогике Международного Северного университета, кафедра иностранных языков; m.shuhratova92@gmail.com)**

#### **МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ МАТЕРИАЛЬНОЙ КАТЕГОРИИ В РАЗНЫХ СИСТЕМАТИЧЕСКИХ ЯЗЫКАХ**

**Аннотация.** В лингвистике материальная категория является важным понятием, выражающим существование чего-либо, уровень его существования и взаимозависимости. Каждый язык использует разные методы и инструменты для выражения своей содержательной категории. В данной статье рассматриваются методы и средства выражения материальной категории в разных систематических языках.

**Ключевые слова:** английский язык, категория модальности, семантическая структура, морфологические изменения, язык, лингвистика.

**Shukhratova Mukhlisaxon Shukhratjon kizi (Senior teacher of the International Nordic University, Faculty of Economics and Pedagogy, Department of Foreign Languages; m.shuhratova92@gmail.com)**

#### **METHODS AND MEANS OF EXPRESSING THE MATERIAL CATEGORY IN DIFFERENT SYSTEMATIC LANGUAGES**

**Annotation.** In linguistics, the material category is an important concept that expresses the existence of something, its level of existence and interdependence. Each language uses different methods and tools to express its substantive category. In this article, we will consider the methods and means of expressing the material category in different systematic languages.

**Key words:** English language, modality category, semantic structure, morphological changes, language, linguistics.

**Kirish.** Material kategoriyasi, tilning semantik tuzilishida muhim rol o'ynaydi. U biror narsaning mavjudligini, uning haqiqiylikini yoki mumkinligini ifodalashda yordam beradi. Material kategoriyasi orqali, tilshunoslar va lingvistlar tilning mantiqiy va semantik jihatlarini o'rganadilar. Har bir tilning grammatikasi moddalik kategoriyasini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilida “will” yordamchi fe'li kelajak zamonini ifodalashda ishlatiladi, bu esa moddalikni ko'rsatadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Morfologik o'zgarishlar orqali moddalik kategoriyasi ifodalanadi. Masalan, rus tilida fe'ning o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelajak zamon shakllari materialni ifodalashda muhimdir. Har bir til o'zining leksik vositalari orqali moddalikni ifodalaydi. Masalan, “may”, “might” kabi so'zlar ehtimollikni ifodalashda ishlatiladi. Ingliz tilida material kategoriyasi, ko'pincha, yordamchi fe'llar va modallik so'zlari orqali ifodalanadi. Masalan, “can”, “could”, “will”, “would” kabi so'zlar moddalikni ko'rsatadi. Rus tilida material kategoriyasi fe'ning zamon shakllari va modallik so'zlari orqali ifodalanadi. Masalan, “mory” (mogu–qila olaman), “mor” (mog–qila oldim) kabi so'zlar moddalikni ifodalaydi. O'zbek

tilida moddalik kategoriyasi, ko'pincha, fe'ning zamon shakllari va modallik so'zlari orqali ifodalanadi. Masalan, "qila olaman", "qila olmadim" kabi ifodalar moddalikni ko'rsatadi. Material kategoriyasi tillar o'rtasida farq qiladi va vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Masalan, zamonaviy tillarda yangi modallik so'zlari paydo bo'lishi yoki eski so'zlarning yangi ma'nolarda ishlatilishi mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Material kategoriyasining o'zgarishi bir qator omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar, tilning material kategoriyasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, yangi ijtimoiy normativlar yoki madaniy qadriyatlar modallik ifodalarning ishlatilishiga ta'sir qilishi mumkin. Tilning tarixiy rivojlanishi va evolutsiyasi material kategoriyasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

**Tadqiqot vazifalari.** Tarixiy jarayonlar, tilning boshqa tillar bilan aloqalari va o'zaro ta'siri moddalik ifodalarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Leksik va sintaktik o'zgarishlar material kategoriyasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Yangi so'zlar, fe'llar va ularning sintaktik strukturalari modallik ifodalarning ishlatilishiga ta'sir qiladi. Odamlarning fikrlash usullari va psixologik omillar material kategoriyasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Modallik ifodalari odamlarning fikr va his-tuyg'ularini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi moddalik kategoriyasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi modallik ifodalari paydo bo'lishi mumkin. Tilshunoslik va lingvistika sohasidagi yangi nazariyalar va tadqiqotlar material kategoriyasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yangi tadqiqotlar material ifodalarning semantik va sintaktik xususiyatlarini yangilashi mumkin. Bu omillar material kategoriyasining o'zgarishini shakllantiradi va tilning dinamikasini belgilaydi.

Material kategoriyasi haqida chuqur ma'lumot olish uchun tilshunoslik va lingvistika bo'yicha akademik kitoblarni o'qish foydali bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarining tilshunoslik bo'yicha kurslari va darsliklari material kategoriyasi haqida ma'lumot beradi. Universitetlarning tilshunoslik fakultetlaridagi o'quv dasturlarini ko'rib chiqish mumkin. "Linguistic Inquiry", "Journal of Pragmatics" yoki "Language" kabi ilmiy jurnallar material kategoriyasi va uning o'zgarishi haqida tadqiqotlar va maqolalar chop etadi. JSTOR, Google Scholar yoki ResearchGate kabi onlayn ilmiy resurslardan foydalanib, material kategoriyasi bo'yicha maqolalar va tadqiqotlarni topishingiz mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida yozilgan dissertatsiyalar va tadqiqot ishlarida material kategoriyasi va uning o'zgarishi haqida keng qamrovli ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Material kategoriyasining o'zgarishi bir qator omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Jamiyatdagi sotsial va madaniy o'zgarishlar moddalik kategoriyasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, yangi ijtimoiy rollar, qadriyatlar va urf-odatlar moddalik ifodalari va ularning ishlatilishiga ta'sir qiladi. Har bir til vaqt o'tishi bilan rivojlanadi va o'zgaradi. Bu o'zgarishlar material kategoriyasining shakllanishi va o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, eski til shakllari yangi shakllarga o'zgarishi mumkin. Yangi so'zlar va iboralar paydo bo'lishi material kategoriyasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Yangi so'zlar va iboralar moddalik ifodalarning yangi shakllarini yaratishi mumkin. Moddalik ifodalari, ko'pincha, kontekstga bog'liq. Kontekst o'zgaranda, material kategoriyasi ham o'zgarishi mumkin. Masalan, biror so'zning ma'nosi yoki ishlatilishi kontekstga qarab o'zgarishi mumkin. Tilshunoslik sohasidagi yangi tadqiqotlar va nazariyalar material kategoriyasini o'rganishga yangi yondashuvlar kiritishi mumkin. Bu esa material kategoriyasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Globalizatsiya jarayonlari va madaniy almashuvlar material kategoriyasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshqa tillardan va madaniyatlardan olingan ta'sirlar material ifodalarning yangi shakllarini yaratishi mumkin. Texnologiyaning rivojlanishi va yangi kommunikatsiya vositalarining paydo bo'lishi material kategoriyasining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, internet va ijtimoiy tarmoqlar yangi material ifodalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu omillar material kategoriyasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy faktorlar hisoblanadi. Har bir til va madaniyatda bu omillar turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Xulosa:** Turli tizimli tillarda material kategoriyasining ifodalash usul va vositalari tilning semantik tuzilishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Har bir til o'zining o'ziga xos usullari va vositalari orqali moddalikni ifodalaydi, bu esa tilshunoslik va lingvistika sohasida chuqur o'rganish uchun imkoniyatlar yaratadi. Material kategoriyasini o'rganish, tilning mantiqiy va semantik jihatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. Bączkiewicz, A., Kizielewicz, B., Shekhovtsov, A., Yelmikheiev, M., Kozlov, V., & Sałabun, W. (2021). Comparative analysis of solar panels with determination of local significance levels of criteria using the MCDM methods resistant to the rank reversal phenomenon. *Energies*, 14(18), 5727. <https://doi.org/10.3390/en14185727>

[2]. Radyuk, A.V., & Kozubenko, A.V. (2021). Semantic classification of phraseological verbs in publicistic discourse of economic orientation. *Revista Amazonia Investiga*, 10(37), p. 107–115; <https://doi.org/10.34069/ai/2021.37.01.11>

[3]. Panov, V. (2021). Untangling the functions of aspectual distinctions in the Lithuanian imperative against the background of Slavonic. *Baltic Linguistics*, 12(1), p. 295–321. <https://doi.org/10.32798/bl.926>

[4]. Pérez-Sabater, C. (2021). Moments of sharing, language style and resources for solidarity on social media: A comparative analysis. *Journal of Pragmatics*, 180, p. 266–282.

[5]. Lykshosherstova, M. (2018, May 11). Sentence as Important Component of Functional Semantic Field of Temporality in the Ukrainian and Arabic Languages. *Scientific Journal of National Pedagogical Dragomanov University. Series 9. Current Trends in Language Development*, 15, p. 163–171. Retrieved from <https://sjnpu.com.ua/index.php/journal/articl e/view/88>

[6]. Radyuk, A.V., & Kozubenko, A.V. (2021). Semantic classification of phraseological verbs in publicistic discourse of economic orientation. *Revista Amazonia Investiga*, 10(37), p. 107–115. <https://doi.org/10.34069/ai/2021.37.01.11>.

**Asronova Mohigul Musaboyevna (Andijon davlat universiteti dotsenti; e-mail:mohigul.asronova@mail.ru)  
“VALUTA” KONSEPTI TERMINLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TASNIFI**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi ommaviy axborot vositalarida iqtisodiy diskursning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish tadqiq etilayotgan sohaning madaniyatlararo muloqot uchun ahamiyatli ekanligi bilan belgilanilishi ko‘rib chiqilgan. Sodda terminlar orasida o‘z qatlamga mansub terminlar: mahsulot, tannarx, narx, tushum, savdo, vositachilik, eksportchi hamda o‘zlashma terminlar: sanksiya, birja, dollar, yevro, konvertatsiya, investor kabi birliklar uchrashi va ularning qo‘llanilishi o‘rganib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** valuta bozori, dollar savdosi, sanksiya, onlayn banklar, moliya, kurs boshqaruvi, konvertatsiya, investor.

**Асронова Мохигул Мусабоевна (доцент Андижанского государственного университета;  
mohigul.asronova@mail.ru)**

**КЛАССИФИКАЦИЯ ПОНЯТИЯ «ВАЛЮТА» ПО СТРУКТУРЕ ТЕРМИНОВ**

*Аннотация.* В данной статье исследование особенностей экономического дискурса в англоязычных и узбекскоязычных СМИ определяется важностью исследуемого поля для межкультурной коммуникации. Среди простых терминов обнаруживаются термины, принадлежащие к классу: продукт, стоимость, цена, доход, торговля, посредничество, экспортер. Изучается перевод на узбекский язык терминов группы санкция, фондовая биржа, доллар, евро, конверсия, инвестор.

**Ключевые слова:** валютный рынок, долларовая торговля, санкции, онлайн-банки, финансы, управление обменным курсом, конверсия, инвестор.

**Asronova Mohigul Musaboevna (Docent of Andijan State University;  
e-mail: mohigul.asronova@mail.ru)**

**CLASSIFICATION OF THE CONCEPT OF “CURRENCY” ACCORDING TO THE  
STRUCTURE OF THE TERMS**

*Annotation.* In this article, the study of the specific features of the economic discourse in the English and Uzbek language media is determined by the importance of the researched field for intercultural communication. Among the simple terms, there are terms belonging to their own class: product, cost, price, income, trade, mediation, exporter, and appropriate terms: meeting of units such as sanction, stock exchange, dollar, euro, conversion, investor and their translation in Uzbek. application has been studied.

**Key words:** foreign exchange market, dollar trading, sanction, online banks, finance, exchange rate management, conversion, investor.

**Kirish (Introduction).** Sodda so‘z birikmasi ko‘rinishidagi terminlar qaratqich+qaralmish qolipida valuta bozori, dollar savdosi, moliya instituti, kursning barqarorlashuvi bo‘lsa-da, ayrimida tegishlilik ma‘nosi yuzaga chiqadi. Masalan, kursning barqarorlashuvi, valuta taqchilligi. Bunday qolipli terminlarning ko‘pchiligi umumdan ajralgalganlik, xoslik ma‘nosini ifodalaydi: valuta bozori, dollar savdosi, moliya instituti, pul o‘tkazmalari. Birikma terminlar orasida bitishuvli birikmalar ham katta miqdorda uchraydi: onlayn banklar, o‘rtacha qiymat, ikkilamchi sanksiya, asosiy bozor.

Murakkab birikma ko‘rinishidagi terminlar, asosan, uch so‘zdan iborat bo‘lib, moslashuvli va bitishuvli birikma ko‘rinishida bo‘ladi: valuta ayirboshlash shoxobchalari, yagona bozor kursi (moslashuvli birikma). Murakkab terminlar orasida boshqaruvli birikmalar ham kuzatiladi: valuta sotish va sotib olish

kursi. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, murakkab birikmalar *bitishuv+moslashuv* qolipida shakllanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** N.N.Bulanova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, madaniyatlararo muhitda iqtisodiy diskurs, odatda, siyosiy diskurs bilan kesishadi, bu esa soha lug‘atlari va terminologiyada o‘z ifodasini topadi [1;42-b.]. Siyosiy diskurs rasmiy (siyosatchilar o‘rtasidagi muloqot) va norasmiy/ommmaviy (siyosatchilar va nomutaxassislar o‘rtasidagi muloqot) sifatida tasniflanganidek, iqtisodiy diskursni rasmiy/maxsus va ommabop diskurs sifatida ham tasniflash mumkin.

A.K.Mixalskiy sxemasi bo‘yicha zamonaviy siyosatchilarning iqtisodiy diskursga oid nutqlarini ularning individual xususiyatlariga ko‘ra, quyidagicha tahlil qiladi:

1. Siyosatchilar, odatda, o‘zini-o‘zi, partiyasi yoki siyosiy guruhi bilan tanishtirishga undaydigan li-soniy konstruksiyalarni qo‘llashadi, bunda ular biz, bizning, bizniki olmoshlarini unumli ishlatishadi.

2. Aniq bo‘lgan (gumon va shubhaga o‘rin qolmagan holat) voqeliklar umumiy ma’noli (hissiy-bo‘yoqsiz) ifoda vositalari bilan beriladi: ma’lumki, bo‘lish tabiiy, barchamizga ma’lumki, barchamiz bilamizki, ...ga shubha yo‘qki va boshqalar [2;10-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).** “Soliq qo‘mitasi tovarlarning bozor narxini qanday aniqlamoqchi?” sarlavhali matn iqtisodiy diskursning shu ko‘rinishiga mansub ekanligini tahlil qildik va matndan qisqa parchasini misol tariqasida ko‘rsatib o‘tdik: “Tovarlar (xizmatlar)ning bozor narxlaridan kelib chiqib, soliq bazasini aniqlash orqali teng raqobat muhitini yaratish to‘g‘risida”gi hukumat qarori loyihasi e‘lon qilindi. Hujjatga “Tovarlar (xizmatlar)ning bozor narxidan kelib chiqib, soliq bazasini aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom loyihasi ilova qilingan.

Unda tovarlar (xizmatlar)ning bozor narxini aniqlashda foydalaniladigan usullar, ularni qo‘llash tartibi hamda tovarlar (xizmatlar)ning bozor narxidan kelib chiqqan holda, *qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq* bazasini aniqlash tartibi ko‘rsatilgan.

– *Nima sababdan Soliq qo‘mitasi tovar va xizmatlarning bozor narxi asosida soliq bazasini hisoblashga harakat qilyapti?*

– Bozorda bir xil tovar ikkita tadbirkor tomonidan har xil narxlarda sotilyapti. Birinchi tadbirkor uni bozor narxida, talab va taklifdan kelib chiqqan holda, 1000 so‘mdan sotyapti va shundan kelib chiqib, soliq to‘layapti. Ikkinchi tadbirkor xuddi shu tovarni 1000 so‘mdan sotyapti-da, lekin buxgalteriya hujjatlarida soliqni kamroq to‘lash maqsadida 500 so‘mga sotdim deb ko‘rsatyapti [6].

Ushbu matn “soliq” tushunchasi atrofida birlashgan. Ammo bu matnda murakkab terminlar kam uchradi.

*1-jadval*

Sodda terminlar	Murakkab terminlar	
	Oddiy birikma shaklida	Murakkab birikma shaklida
tovar	Soliq qo‘mitasi	Davlat xaridlari portali
bozor	Soliq hisoblash	Teng raqibat muhiti
narx	Birja tovarlari	Aylanmadan olinadigan soliq
xizmat	Makrirovkalanadigan tovar	Qo‘shilgan qiymat solig‘i
taklif	Soliq bazasi	
talab	Foyda solig‘i	
realizatsiya	Hisob faktura	
bojxona	Xufiyona iqtisodiyot	
import	Yashirin iqtisodiyot	
	Qurilish bozori	
	Sanoat mollari	
	Soliq organlari	
	Soliq bazasi	
	Soliq nazorati	
	Soliq kodeksi	
	Davlat xaridlari	
	Chakana do‘kon	
	Ko‘chmas mulk	
	Tadbirkorlik subyekt	
	Bojxona qiymati	

Soliq diskursi terminlarining tuzilishi. Kun. Uz saytidagi “Tadbirkorlarga eski cheklarni tahrirlash imkoni berilyapti. Asosiy savollarga javoblar” sarlavhali matnda ham “soliq” diskursiga oid matnda iqtiso-

diy, jumladan, soliqchilik diskursiga oid hamda uning individualligini ifodalovchi terminlar oldingi matndan farq qilishini ko'rish mumkin (maqoladan parcha).

***Tadbirkorlarga cheklarni tahrirlash imkoni berilishi nimani anglatadi?***

– Xaridorga xarid cheki o'sha mahsulotni sotuvchi kassir tomonidan beriladi. Xarid chekida mahsulotning nomi, identifikatsiya raqami (MXIK), tovar qiymati, o'lchov birligi, summasi yoziladi. Agar QQS to'lovchisi bo'lsa, QQS summasi alohida ko'rsatiladi. Xarid cheklari urilganda kassirlar tomonidan xarid summasi noto'g'ri kiritilish holatlari uchrashi mumkin. Masalan, ming so'm o'rniga, o'n ming so'm ko'rsatilishi mumkin. Shunaqa holatlar bor, yuz ming so'mlik tovar bir mln so'm deb urib yuborilishi mumkin. Bunday holatlar juda ko'p. Boshqa tovarning summasini boshqa tovarga urib yubordik, deyishadi. Bular, ko'pincha, texnik xatoliklar bo'ladi.

Summalarning xato urilishi eng og'ir holatda tovar aylanmasining oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Bilasiz, tovar aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshib ketsa, yuridik shaxs QQS to'lovchisiga aylanadi. Yoki summalarning ko'proq urilishi ko'proq soliq hisoblanishiga olib kelishi mumkin, sababi aylanmadan kelib chiqib 15 foiz foyda solig'ini to'laydi. [6]

Sodda terminlar	Murakkab terminlar (oddiy birikma)
Summa Keshbek Kompensatsiya	Onlayn–NKT, elektron chek, cheklar tahrirlanishi, xarid cheki, mahsulotning nomi, identifikatsiya raqami (MXIK), tovar qiymati, o'lchov birligi, QQS to'lovchisi, QQS summasi, tovar aylanmasi, yuridik shaxs, QQS to'lovchisi, imtiyozli tovar, imtiyozsiz tovar, soliqqa tortish, vositachilik xizmati, xizmat haqi, AOS to'lovchisi, ortiqcha soliq, tovar kodi

Yuqorida keltirilgan matnlarning jadvallardagi tahlillaridan ko'rish mumkinki, iqtisodiy diskursga oid matnlarning leksik individualligini ta'minlovchi vositalarning xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

**birinchidan**, publitsistik iqtisodiy diskursga oid matnlarda mazkur sohaga oid terminlar tizimi mavjud;

**ikkinchidan**, publitsistik iqtisodiy diskursga oid terminlar tuzilishiga ko'ra, sodda va tarkibli terminlarga bo'linadi;

**uchinchidan**, publitsistik iqtisodiy diskursga oid terminlarning katta qismi birikma tarzidagi terminlar bo'lib, o'zbek tiliga xos birikish usullari bilan shakllangan lisoniy birlik sifatida qaralishi lozim;

**to'rtinchidan**, birikma tarzidagi terminlar soha lug'atlarida birikma tarzida berilishi va izohlanishi lozim;

**beshinchidan**, sodda birimlar o'z va o'zlashma qatlamga mansub bo'lib, umumiste'mol leksikaning ma'nosi maxsuslashuvchi asosida shakllangan terminlar ham kuzatiladi;

**oltinchidan**, sodda terminlar, asosan, ot turkumiga mansub, shuningdek, fe'ning harakat nomi shakliga oid;

**yettinchidan**, publitsistik iqtisodiy diskursga oid terminlarning katta qismi ommaga tushunarli so'zlar bo'lib, kundalik hayotda ko'p ishlatilgani sababli alohida izoh talab qilmaydi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations).** O'zbek tilida publitsistik iqtisodiy diskursga oid matnlar tahlilidan shu ma'lum bo'ldiki, matnlarning ko'p qismidaga gaplarda kelasi zamon grammatik shakli va mazmuni ko'proq uchraydi, buning natijasida matnda iqtisodiy holatni "bashoratlash mazmuni" ustunlik qiladi. Undan keyingi o'rinda o'tgan zamon zamon grammatik shakli va mazmuni ifodalaniib, bunday ifoda usuli "iqtisodiy holat haqida xabar berish va baholash" mazmunini ifodalaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, publitsistik iqtisodiy diskursda hozirgi kesimlar nisbatan kam miqdorda uchraydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Буланова Н.Н. Лингвистическое исследование экономического дискурса (на материале англоязычной прессы). 2012, с. 42.
- (2). Карасик В.И. О типах дискурса. Текст. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Волгоград, 2000, с. 6–10.
- (3). Арутюнова Н.Д. Стратегия и тактика речевого поведения. Прагматические аспекты изучения предложения и текста: сб. научн. тр. Киев, 1983, с. 29.
- (4). Бессарабова Н.Д. Изобразительные и выразительные возможности метафор в газетно-публицистической речи. Автореф. дис. канд. филол. наук, М., 1989, с. 22; с. 17.
- (5). Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. Москва, 1990, с. 241–310.

Aqmanova Shahnoza Alimboyevna (UrDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida dotsent v.b.;  
shahnoza\_aqmanova@mail.ru; ORCID: 0000-0002-9203-1722)

## XORAZM GIDRONIMLARINING SOTSIOLINGVISTIK TADQIQI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyati gidronimlarining hududiy, ijtimoiy, vazifaviy va etnik xususiyatlari, suv obyektlari va inshootlarining nomlanishi bilan bog‘liq sotsial omillar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** onomastika, sotsiolingvistika, gidronim, gidronimika, antroponomim, toponim, sotsial omil, motiv, onomastik va sotsiolingvistik tadqiq.

### СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ГИДРОНИМОВ ХОРАЗМА

**Аннотация.** В данной статье анализируются территориальные, социальные, функциональные и этнические характеристики гидронимов Хорезмской области, социальные факторы, связанные с наименованием водных объектов и сооружений.

**Ключевые слова:** ономастика, социоллингвистика, гидроним, гидронимика, антропоним, топоним, социальный фактор, мотив, ономастическое и социоллингвистическое исследование.

### SOCIO-LINGUISTIC STUDY OF HYDRONYMS OF KHOREZM

**Annotation.** This article analyzes the territorial, social, functional and ethnic characteristics of hydronyms of the Khorezm region, social factors related to the naming of water bodies and structures.

**Key words:** onomastics, sociolinguistics, hydronym, hydronymics, anthroponym, toponym, social factor, motive, onomastic and sociolinguistic research.

**Kirish.** Har bir tilda atoqli otlarning yuzaga kelishi shu tildagi ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Atoqli otlarda qadim ajdodlarning etnik, madaniy-ma‘naviy qarashlari hamda diniy e‘tiqodlari saqlanib, bizgacha yetib kelgan. Bu hol nomlarning genetik asosi va motivida qadimgi totemistik, animistik, fitishistik tasavvurlar, e‘tiqodlar yotgan nomlarda aniq ko‘rinadi. Bu tasavvurlar markazida inson, u yashagan tarixiy davrga xos rasmu odatlar, orzu va umidlar o‘z ifodasini topgan [10;86-b.]. Ma‘lumki, sot-siolingvistik tadqiqotlarda til masalasi muammosini hal qilishda ularning hududiy, ijtimoiy, vazifaviy va etnik xususiyatlari farqlanadi. E.Begmatov ta‘kidlaganidek, “Sotsiolingvistik tadqiqotlar orasida atoqli otlarni o‘rganishga oid maxsus ishlar nihoyatda kam. Buning sababi, bizning nazaramizda, sotsiolingvistik tadqiq metodining tilning barcha sohalariga bir xilda tatbiq etilmayotganidir” [2;44-b.].

Onomastika va sotsiolingvistika o‘rtasidagi farqlarni ta‘kidlab, bu fanlarni birlashtiruvchi umumiy xususiyatlarni ko‘rsatish zarur. Ularning umumiy jihati shundaki, so‘z boyligining katta miqdori, o‘zi onomasiologik tadqiqotdan tashqari, sotsiolingvistik tahlil qilish imkonini beradi. Har bir tilda onomastikaning ham, til sotsiologiyasining ham qudrati kengayadigan sohaning mavjudligi umumiy onomastika doirasida ijtimoiy onomastikani ajratib ko‘rsatish zaruratini keltirib chiqaradi, uning predmeti onomastika va sotsiolingvistika chorrahasida joylashgan [8;24-b.]. Demak, atoqli otlarni tahlil qilishda ularning ijtimoiy omillarini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur.

**Adabiyotlar tahlili.** Toponimlarning bir turi bo‘lgan gidronimlar xalq tarixi bilan uzviy holda milliy tilning, xalq ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma‘naviyatining o‘ziga xos qirralarini ifoda etuvchi lisoniy qatlam hamda xazinadir [9;3-b.]. Gidronimika keng ma‘nodagi tabiiy suv obyektlari va suv inshootlari nomlarini tadqiq etadi. Sun‘iy va tabiiy, yirik va kichik suv obyektlari hamda suv inshootlarining atoqli otlari gidronimlar hisoblanadi [4;649-b.].

Onomastik birliklarni sotsiolingvistik tadqiq qilish, avvalo, har qanday atoqli otning paydo bo‘lishi, jamiyatning maishiy va kommunikativ ehtiyoji, sotsial omillar bilan zich bog‘liqdir [1;302-b.]. Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanidagi kichik kanallardan biri *O‘zbekiyop* ana shunday ehtiyojlar sabab mahalliy aholini suv bilan ta‘minlash maqsadida o‘zbek urug‘iga mansub kishilar tomonidan qazilgan yopni bildiradi.

Y.Avlaqulov onomastika bilan sotsiolingvistika o‘rtasidagi munosabat, ayniqsa, dokumentonimlar, geortonimlar (ijtimoiy-siyosiy, madaniy ahamiyatga molik bayram va tadbirlar nomi), gemoronimlar (matbuot organlari va ular mahsulotining atoqli oti), politonimlar (davlat ramzlari atoqli oti), faleoronimlar (ko‘krak nishonlari, orden va medallar nomi) nomida aniq ko‘rinishini ta‘kidlaydi (1;303-b.). Bizning fikrimizcha, tildagi har bir atoqli ot ijtimoiy faktorlar bilan birgalikda paydo bo‘ladi. Shu qatorda gidronimlarning yuzaga kelishi va asrlar davomida saqlanib qolishi yoki boshqa nomga almashtirilishi ham, albatta, xalq hayoti, aholi turmush tarzi va jamiyatning hukmron qoidalari bilan bog‘liqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Muayyan xalq taqdirini, uning tilini, tarixini, sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishini o'rganishda gidronimiya ma'lumotlarining ahamiyati juda katta. Chunki har qanday sivilizatsiya rivojlanishining boshlang'ich bosqichida suv havzalari katta rol o'ynagan. Bundan tashqari, etnik guruhlar ko'proq daryolar bo'yida joylashgan [5;208-b.].

Xorazm vohasi o'zining polizchiligi, dehqonchiligi bilan mashhur. Qishloq xo'jaligining mazkur sohalari sug'orma inshootlari orqali rivojlanadi. Xorazmning qo'llari mehnatda toblangan bobodehqonlari, ona zamin unumdorligi uchun ter to'kkan olovqalb o'g'lonlari suv obyektlarining ko'payishiga hissa qo'shganlar. Viloyat janubida urug', qabila nomlari, ya'ni, etnotoponimlar ko'proq bo'lsa, uning shimoliy qismida ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan joy nomlari ko'proq uchraydi [6;137-b.]. Bu xususiyat gidronimlarda ham mavjud. *Eshonyop* (Yangibozor tumani Bog'olon qishlog'i), *Karisyop* (Gurlan tumani Gurliston qishlog'i), *Qozining quyisi* (Gurlan tumani "Zarbdor" qishlog'i), *Qushchining ko'li* (Gurlan tumani Navoiy qishlog'i) kabi gidronimlarni sotsial muhit ta'sirida nomlangan deyish mumkin.

Xorazm vohasida ayrim toponimlarning vujudga kelishi ham aholining suvga bo'lgan ehtiyojlari sababli yuzaga kelgan. Xususan, Xizreli, Alieli nomi bilan ataluvchi hududlarda istiqomat qiluvchi aholi XIV–XV asrlarda O'zbo'y va Sariqamish bo'ylarida dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Biroq suv yetmaganligi sababli Xorazmga ko'chib kela boshlaganlar.

**Tahlil va natijalar.** Toponimlarning eng asosiy va salmoqli qismini gidronimlar tashkil etadi. Haqiqatan ham, barcha xalqlar, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida ham daryolar, buloqlar eng muhim hayot manbayi vazifasini bajargan. Shuning uchun ham gidronimlar xalqlarning ijtimoiy – siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, boshqa toponim turlarining hosil bo'lishi va nomlanishiga asos bo'lgan [3;264-b.]. Toponimlarning boshqa turlariga nisbatan gidronimlarda davrlar o'tishi bilan o'zgarish holatlari kam uchraydi. Buning asosiy sababi suv inshootlarining ko'pchiligi insonlar qo'li bilan, ularning katta zahmati evaziga barpo qilinadi va aksariyat holatlarda ularning nomi bilan ataladi. Eng muhim jihati shundaki, xalq uchun ezgu ishlarga kamarbast bo'lgan shaxslarning nomi asrlar osha yodlanadi. Masalan, hashar yo'li bilan bunyod etilgan *Qilichniyozboy* kanali shu ishda bosh-qosh bo'lgan el rahnamosi nomiga atab qo'yilgan. Mahalliy aholi tilida bu suv inshooti *Qilchivoy arna* tarzida ham qo'llanadi. Mazkur gidronimning yaratilishiga antroponim, ya'ni, *Qilichniyozboy* ismli shaxs nomi asos bo'lganligini ko'rish mumkin. M.Yo'ldashev ma'lumotlariga ko'ra, *Qilichniyozboy* ikki ming xonadonli qal'aga hamda qal'a atrofidagi qishloqlarga egalik qilgan [11;37-b.].

Ko'pgina joy nomlari shu hududdan oqib o'tuvchi biron suv obyekti nomi bilan ham ataladi. Sh. Majidova bu xususda fikr bildirib, "Gidronimlar, ayniqsa, yirik suv obyekti nomlari xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, "Nomlardan nomlar tug'iladi" degan xalqona naqlning amaliy isboti o'laroq, toponimlarning boshqa turlarining tug'ilishiga, yaratilishiga asos bo'lganligini ta'kidlaydi [4;649-b.]. Yuqoridagi fikrimizni *G'ozovot* gidronimi va toponimi asosida izohlashga harakat qilamiz. Ma'lumki, *G'ozovot* Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi qishloqlardan biriga berilgan nom sifatida mashhur. Mazkur toponim shu nomdagi gidronim, ya'ni, *G'ozovot* kanali oqib o'tuvchi hududga berilgan nom hisoblanadi. *G'ozovot* mahalliy xalq tilida shu shaklda ifodalanib, aslida, dastlabki holatda *G'ozibod* tarzida qo'llangan. Manbalarda mazkur kanal *Abulg'oz* nomi bilan bog'liqligi qayd qilinadi. Demak, birgina *G'ozovot* nomi ostida bir-biriga asos bo'luvchi uchta onomastik birliklar zanjirini ko'ramiz: antroponim – gidronim – toponim. Aytish joizki, bu zanjir transonimizatsiya jarayonida yana ko'plab atoqli otlarni ifodalovchi nomlar sifatida tizmalanishi mumkin.

Xorazm viloyati Xiva tumanida joylashgan *G'ovuk* ko'li bugungi kunda nafaqat Respublikamiz, balki boshqa xalqlar vakillariga ham yaxshi tanish. *G'ovuk* xorazmiy tiliga xos so'z bo'lib, kov (gov) Key xorazmiy tilida "chuqur, botiq, suvning quyilish joyi" degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur ko'l joylashgan qishloq ham shu nom bilan ataladi [7;158-b.]. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur ko'lni bugungi kunda dunyoning eng mashhur suv obyektlari va inshootlari qatorida dam olish maskaniga aylantirish maqsadida keng ko'lamlari ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 135-qarorida Xiva tumanidagi "G'ovuk" ko'li bo'ylarida aholi dam olish maskanlari, piknik zonalar tashkil qilish ishlari belgilab qo'yildi. Ko'rinadiki, tashrif buyurgan sayyohlar va boshqa dam oluvchilarning, avvalambor, bu ko'l nomlanishi, etimologiyasi va uning kishilik jamiyati bilan bog'liq aloqalari diqqat markazida turadi.

Qo'shko'pir tumanidagi *O'rtayop* gidronimining nomlanishida o'zgacha holatni kuzatamiz. Ya'ni, qishloqni teng ikkiga ajratuvchi yop – kichik kanal mavjud bo'lganligi uchun hudud nomini "qishloq o'r-



tasida yop” – O‘rtayop deya nomlashgan. Vaqt o‘tib qishloqning nomiga asos bo‘lgan mazkur birlik xalq orasida kanalning nomi sifatida ham yuritila boshlangan.

**Xulosa.** Har qanday mamlakatda daryolar, ko‘llar va boshqa tabiiy geografik obyektlarning nomlari shahar va o‘lkalarning nomlariga nisbatan qadimiyroqdir. Chunki shaharlar qurilmasdan ancha oldin ibtidoiy kishilar suv bo‘ylarida kichik-kichik guruh bo‘lib yashay boshlaganlar va mazkur suv obyektlariga o‘z tillarida nom berganlar. Joylarga berilgan nomlar, dastlab, ana shu nomlarni qo‘ygan xalq yo‘q bo‘lib ketgandan keyin ham bir necha ming yilgacha saqlanib qoladi. Zero, “Ko‘l qurisa ham, nomi qurimaydi” degan naql xalqimiz tomonidan bejizga aytilmaydi. Demak, gidronimlar ham xalq tili elementini ya‘ni sheva va xususiyatlarini o‘zida saqlagan bo‘ladi. Til xalqniki, joy nomlarini, xususan, suv inshootlari nomlarini ham xalq yaratadi. Asrlar osha yetib kelayotgan bunday nomlarni asosli tahlil qilish, maishiy turmushdagi zarurati va ijtimoiy-sotsial xususiyatlarini yoritish, ayniqsa, bularni kelajak avlodga tushunarli tarzda yetkazish soha mutaxassislarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Gidronimlarni sotsiolingvistik aspektida tahlil qilish bunday nomlarning ijtimoiy omillarini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, kommunikatsiya jarayonida aniqlikka erishishga xizmat qiladi. Til va jamiyat munosabatlari mutanosibligini namoyon qiladi. Gidronimlarni tahlil qilish jarayonida shu ma‘lum bo‘ldiki, bu turdagi atoqli otlarning tadqiqi geografiya, etnografiya, tabiatshunoslik, biologiya, geologiya fanlari uchun tayanch manba bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Avlaqulov Y. Atoqli otlarni sotsiolingvistik tadqiqi qilish xususida. “Raqaqlashtirish davrida o‘zbek tili ni davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari” nomli konf. materillari, 302-bet.
- (2). Begmatov E. Antroponimiyani tadqiq qilishning sotsiolingvistik aspekti. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2011, 4-son, 44-bet.
- (3). Mamadaliyeva R. Onomastik sathda gidronimlarning o‘rni. Since and innovation, 2022.
- (4). Majidova Sh. Gidronimlar lisoniy qimmatga ega bo‘lgan til birligi sifatida. Proceedings of International Educators Conference, 2023, 649-bet.
- (5). Nejebullah E. Taxor viloyati gidronimlarini tasniflash masalasiga doir. Scientific Journal Impact Factor. SJIF, 2022, 5, 947.
- (6). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. 1-nashr, Toshkent, 2022, 137-bet (624 b).
- (7). Дусимов З., Эгамов Х. Жой номларининг кискача изохли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1977, 158-bet (176 б).
- (8). «Общая и русская ономастика». М., “Наука”, 1988, 312 с.
- (9). Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимиясининг тарихий-лисоний тадқиқи. Тошкент, 2008, 3-bet.
- (10). Юлдашев Д. Атоқли отларнинг артропоцентриқ тадқиқи. Тошкент, “Sharq ma‘rifati”, 2020, 86-bet.
- (11). Юлдашев М. Хива хонлигида феодал ер эғалиги ва давлат тузилиши. Тошкент, 1957, 37-bet.

**Xodjayeva Gulshod Baxadirovna (Urganch davlat universiteti “Fakultetlararo chet tillari” kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD; e-mail: asalcha-80@mail.ru),**

**Salayeva Gulasal G‘ayratbek qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti Filologiya va tarix fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 221-guruh talabasi)**

#### **LUG‘AT TARKIBINING BOYISH OMILLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada lug‘at tarkibining boyish omillari yoritib berilgan. O‘zbek tili milliy istiqloldan keyin, ayniqsa, chet tillardan o‘zlashgan yangi-yangi so‘zlar, iboralar va ifoda vositalari bilan keskin boyidi. Tilimizda nafaqat miqdor o‘zgarishlari, balki sifat o‘zgarishlari ham yuz berdi. Bu obyektiv hamda subyektiv holatlar, asosan, lug‘atlarda namoyon bo‘lmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zlashma, lug‘at, imlo, talaffuz, termin, differensial analiz, leksik birliklar, manba, terminologiya.*

**Ходжаева Гульшод Бахадировна (старший преподаватель кафедры межфакультетских иностранных языков Ургенчского государственного университета, PhD; e-mail: asalcha-80@mail.ru),**

**Саласва Гуласал Гайратбековна (221 студент Ургенчского государственного педагогического института, филолого-исторического факультета, кафедры иностранного языка и литературы)**

#### **ФАКТОРЫ ОБОГАЩЕНИЯ СЛОВАРНОГО СОСТАВА**

***Аннотация.** В данной статье описаны факторы обогащения словарного состава. После обретения национальной независимости узбекский язык обогатился новыми словами, выражениями и выразительными средствами, в частности, заимствованиями из иностранных языков. В нашем*

языке произошли не только количественные, но и качественные изменения. Эти объективные и субъективные ситуации в основном находят свое отражение в словарях.

**Ключевые слова:** заимствования, словарный запас, правописание, произношение, термин, дифференциальный анализ, лексическая единица, источник, терминология.

**Khadjaeva Gulshod Bakhadirovna** (Senior lecturer of "Interfaculty foreign languages" department of Urganch State University, PhD; e-mail: asalcha-80@mail.ru),

**Salaeva Gulasal Gayratbek kizi** (a student of the Urganch State Pedagogical Institute, Faculty of Philology and History, Department of Foreign Language and Literature)

#### ENRICHMENT FACTORS OF VOCABULARY CONTENT

**Annotation.** This article describes the enrichment factors of the vocabulary. After national independence, the Uzbek language was enriched with new words, expressions and means of expression, especially from foreign languages. Not only quantitative changes, but also qualitative changes have occurred in our language. These objective and subjective situations are mainly reflected in dictionaries.

**Key words:** borrowings, vocabulary, spelling, pronunciation, term, differential analysis, lexical unit, source, terminology.

**Kirish.** Ilmiy-texnik progress, ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohalariidagi yangiliklar mislsiz darajada yangi so'z va terminlar yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilida va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay, o'zbek tili lug'at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qilib kelyapti. Ular o'zbek tilida rus tilining barakali hamkorligi va o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlariga suyangan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan o'zbek xalqi o'zining og'zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelyapti. Ma'lumki, gazeta va jurnal o'qilayotganda, ko'pincha, ayrim notanish, chet so'zlarga duch kelib qoliniladi. Bu so'zlar, asosan, turli fan yoki sohalarga oid bo'lib, ular yonida qavs ichida yoki butun bir boshli izoh sifatida ularning ma'nolari beriladi. Masalan, Ayni vaqtda texnika hamda sanoat buyumlari uchun o'ziga xos badiiy vositalar topish zarurligi haqida tasavvurlar paydo bo'ldi. Ular esa, o'z navbatida, dizayn uchun zamin tayyorlaydi (dizayn – inglizcha so'z bo'lib, badiiy loyihachilik degan ma'noni anglatadi). Dala shpatining qo'shaloq kristallari oddiy bo'lakchalarga ajralishga moyil, shu tufayli ham shpat so'zi nemischa shpaten so'zidan kelib chiqqan («bo'lishib ketmoq», «parchalanmoq» ma'nosini anglatadi). Bu yo'nalishdagi dizaynerlar, asosan, buyum shaklini muayyan darajada badiiylashtirish yo'li bilan shaklni san'atdagi mashhur uslublariga yaqinlashtirishga urinishardi. Mazkur yo'nalish «stayling», ya'ni uslublashtirish degan nom oldi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Yig'ilgan o'zlashmalarning, haqiqatan ham, german tillariga mansub ekanligiga komil ishonch hosil qilish uchun, misollar nemis va ingliz tillarining etimologik va izohli lug'atlari bilan taqqoslanildi.<sup>1</sup> Lekin qiyoslab ko'rish mobaynida ko'p so'zlarning boshqa tillarga oid ekanligi aniqlandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nemis tili so'zlari deb berilgan abonent (fransuzcha), akkredetiv (lotincha-fransuzcha), arest (lotincha), bankrot (italyancha), garnitur (fransuzcha), granata (lotincha), kansler (lotincha), klaviatura (lotincha-fransuzcha), pavian (fransuzcha), panel (fransuzcha), passat (niderlandcha), ratsial (lotincha), takt (lotincha), fanera (fransuzcha), fokus (lotincha-fransuzcha), front (fransuzcha), shtativ (lotincha) boshqa tillarga oidligi aniqlandi.

Ingliz tilidan kirib kelgan deb izohlanilgan so'zlardan albatros (arabcha), gorilla (afrikancha-grekcha), import (lotincha), kauchuk (hindcha-fransuzcha), kerosin (grekcha-lotincha), kofe (arabcha-turkcha), reportaj (fransuzcha), pamflet (lotincha-grekcha), proyektor (lotincha-fransuzcha), tayfun (xitoy) tillaridan kelib chiqqan deb izohlaniladi.

**Tahlil va natijalar.** Aysberg, blok, bufer, ring o'zlashmalari o'zbek qomuslarida ingliz yoki nemis tillariga mansubligi to'grisidagi izoh aralashtirilib berilgan. Biz ularni alohida tahlil qilib o'tirmadik, chunki mazkur ikki til ham bir-biri bilan qardosh bo'lib, german tillari oilasiga kiradi. Qizig'i shundaki, papiros so'zi bizning manbalarda nemis tiliga mansub deb, nemischa etimologik lug'atlarda esa ruscha so'z deb qayd qilingan. O'zlashmalarning o'zbek tilidagi imlo, talaffuz va ma'no o'zgarishlarini kuzatish va ularga differentsial analiz berish uchun misollarni yig'ishda badiiy adabiyot, ayniqsa, vaqtli matbuotga ko'p murojaat qildik.

<sup>1</sup> Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache von R. Klappenbach / W. Steinitz. Berlin, 1969–1977; Großes Fremdwörterbuch bearbeitet von der Dudenredaktion, Leipzig, 1977; Großes Deutsches Wörterbuch von G. Wahrig. Berlin-München-Wien, 1966; Oxford studen's dictionary of current english A.S.Hernby, 1983.

Ko'proq matbuotga qaratilganining boisi shundaki, maqolada o'zlashmalarning kontekstlarda aktuallashgan ma'nolari bilan qiziqildi. Chunki vaqtli matbuot til va davr taraqqiyoti bilan hamisha birga, doimo hamnafasdir. Tilga muayyan so'zning kirib kelishi va mustahkam o'rnatilishida gazeta asosiy rollardan birini o'ynaydi. U xalqning kundalik, moddiy ma'naviy siyosiy va madaniy hayotini aks ettirishda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Jamiyatning hamma qatlamlari bilan tushunarli tilda muomala qiladi, xalqning davr bilan birga qadam tashlashiga yordamlashadi. Gazeta tili, aslida, adabiy tildir, ammo unda so'zlashuv nutqi, maxsus leksika terminlari va adabiy til o'ziga xos ravishda mujassamlashgan bo'ladi. Xalq tilining boy lug'at fondi va mukammal grammatik qurilishiga tayanib, mamlakat hayotining barcha sohalarini aks ettirishga xizmat etadi. Gazeta badiiy adabiyot singari har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga, yuqori madaniyatli millatni kamol toptirishga xizmat qiladi. U millionlab kishilarning qalbiga yo'l topishi, ma'lumoti, qiziqishi, material mazmunini tushinishi va til bilish darajasi har xil bo'lgan odamlarga murojaat qilish va ularni ishonтира bilishi kerak.

Gazeta oddiy xalq tilida ish ko'rishi bilan bir qatorda, tilning rivojlanishiga ham ulkan hissa qo'shadi. Bu haqda V.Ruban shunday degan edi: «Sanoat va qishloq xo'jaligi, savdo va transport, fan va madaniyatning muttasil o'sib borishi hayotga ko'plab yangi so'z va iboralarni olib keladi. Bular tabiiy ravishda, birinchi navbatda, publitsistik materiallarda, ayniqsa, shu yerda tilning yangi strukturasi elementlari yig'iladi.<sup>1</sup> Nemis tilshunosi F.Erpenbek fikricha, gazeta, jurnal va radio tilga kitobga qaraganda ko'proq ta'sir qilar ekan.<sup>2</sup> Rus olimasi A.S.Okorokova rahbarligida nashr etilgan «Rabota nad slovom» kitobida, gazeta tilning so'z boyligi borasida, u badiiy adabiyotga (belletristikaga) qaraganda ancha keng va ko'p qirraliqdir, deb ta'kidlanadi.<sup>3</sup>

Binobarin, muayyan bir tilga kirib kelayotgan chet so'z yoki termini xalq birinchi marta radio, televideniya va gazetalar orqali o'rganadi. Gazeta (jurnallar) bunda asosiyroq rol o'ynaydi, chunki xalq ular orqali yangi so'z bilan yaqindan tanishadi, uni yozilishi shaklini ko'radi, o'qiydi. U shu yangi so'z kirib kelgan kontekst bilan bevosita muomalada bo'ladi. Natijada shu yangi so'z orqali til egalari yangi tushuncha, yangi tasavvurga ega bo'ladilar.

Lekin masalalar ikkinchi bir tomoni ham borki, u ham bo'lsa, gazeta va jurnallar tilini kerak bo'lmagan, ortiqcha chet so'zlar bilan to'ldiraversa bo'laverar ekan, degan gap emas. Tilning o'z lug'at tarkibi aniq va bekamu ko'st ifodalab bera oladigan narsa va hodisalarni chet so'zlar bilan ta'birlashdan saqlanmoq kerak.

**Xulosa va takliflar.** Keyingi yillarda ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohasida, asosan, Yevropa mamlakatlarida qilingan ixtiro va yangiliklar minglab yangi termin va til birliklari yaratdiki, bular o'zbek tili uchun muhim va zarur edi. Bu so'zlarning hammasi, avvalo, o'zbek tilining leksik tarkibida o'z ifodasini topdi, natijada uning leksikasi qatlami miqdor jihatdan o'zgardi, chet so'zlar hisobiga ko'paydi. Tilshunoslik (tillar) tarixidan ma'lumki, har xil tarixiy shart-sharoitlarga va sabablarga ko'ra, bir til ikkinchisidan ko'proq, narigisi esa ozroq so'z o'zlashtirgan. Goh paytlarda so'z o'zlashtirish o'rni va hajmi tillar o'rtasida almashib turgan. Ular ma'lum davrda qabul qiluvchi til rolini o'tagan bo'lsa, boshqa davrda u manba til vazifasini bajargan. Masalan, o'tmishda Yevropada so'z o'zlashuvi va yangi leksik birliklar yaratilishi lotin va grek tillari, Osiyoda (ayniqsa, musulmon mamlakatlari o'rtasida) arab va fors tillar asosida edi.

Keyinchalik esa fransuz, nemis, ayniqsa, hozirgi davrda ingliz tillarining ahamiyati oshdiki, so'z o'zlashuvi va terminologiya masalalari, ko'pincha, shu tillarga asoslanmoqda. O'zbek tili o'zining tarixiy rivojlanish bosqichlarida, avval, fors, arab tillari bilan yaqin aloqada va hamkorlikda bo'lgan bo'lsa, endi german tillari bilan muttasil, uzviy aloqa va hamkorlik qilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Jumaniyozov O. O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari. Toshkent, «Fan», 1987.
- (2). Duden Deutsches. Universalwörterbuch Dudenverlag Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich, 2007.
- (3). "Merriam Webster America's Most Trusted Dictionary" nomli elektron izohli lug'ati.
- (4). Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache von R.Klappenbach, W.Steinitz. Berlin, 1969–1977.
- (5). Großes Fremdwörterbuch bearbeitet von der Dudenredaktion, Leipzig, 1977.
- (6). Großes Deutsches Wörterbuch von G.Wahrig. Berlin-München-Wien, 1966.
- (7). Oxford student's dictionary of current English A.S.Hern by, 1983.
- (8). Ruban W. Zu einigen Fragen der Sprache und des Stils publizistischer Werke. Leipzig, 1947, s. 15.

<sup>1</sup> Ruban W. Zu einigen Fragen der Sprache und des Stils publizistischer Werke. Leipzig, 1947, s. 15.

<sup>2</sup> Erpenbeck F. Schreiben wir deutsch! In: NDP, 1954, 4, s. 7.

<sup>3</sup> Работа над словом. М., 1947, с. 30.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Olimpiya o'yinlarining kelib chiqishi, tarixda tutgan o'rni, qayta tiklanishi va bugungi kundagi ko'rinishi tahlil etiladi. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining o'tkazish tartibi, uning timsollari, ochilish va yopilish marosimlari batafsil tahlil etilgan mavzukur maqola sohaga doir tadqiqotlar uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Olimpiya o'yinlari, sport bayrami, arxeologik izlanishlar, tarix, tinchlik, taklif, tamoyil, dunyo, jismoniy tarbiya, ishtirokchilar.

### **ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ОБЛИК ОЛИМПИЙСКИХ ИГР**

**Аннотация.** В данной статье анализируется зарождение Олимпийских игр, их место в истории и современный облик. В данной статье подробно анализируется порядок проведения современных Олимпийских игр, их символы, церемонии открытия и закрытия, служит необходимой основой для исследований в данной области.

**Ключевые слова:** Олимпийские игры, спортивный праздник, археологические исследования, история, предложение, принцип, мир, физическое воспитание, участники.

### **THE HISTORY AND MODERN APPEARANCE OF THE OLYMPIC GAMES**

**Annotation.** This article analyzes the origin of the Olympic Games, its place in history, its restoration and its appearance today. This article, which analyzes the procedure of the modern Olympic Games, its symbols, opening and closing ceremonies in detail, serves as a necessary basis for research in the field.

**Key words:** Olympic Games, sports festival, archaeological research, history, peace, proposal, principle, world, physical education, participants.

**Kirish.** Qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlari diniy va sport bayrami sifatida o'tkazilgan. Ushbu o'yinlarning paydo bo'lishi borasidagi aniq ashyoviy dalil va ma'lumotlar topilmagan bo'lsa-da, ushbu voqea haqida bir necha rivoyatlar bugungi kungacha yetib kelgan. Bayramlar o'tkazilishi haqidagi eng qadimgi hujjatlarda bu tadbir miloddan avvalgi 776-yilda Gerakl tomonidan uyushtirilganligi haqidagi qaydlar bor. Ammo o'yinlar undan ham oldin bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. O'yin o'tkazish davri paytida muqaddas yarashuv e'lon qilingan. Bu paytda urush olib borish taqiqlangan. Ammo bu qoidaga hamisha ham rioya qilinavermagan. Rimliklar bosqinidan so'ng Olimpiya o'yinlari o'z mazmunini yo'qotadi. Xristian dini qabul qilinganidan keyin sport o'yinlariga o'zga din marosimi sifatida baho berilib, imperator Feodosiy I tomonidan milodiy 394-yili o'yinlarni o'tkazish taqiqlangan. Antik musobaqalar taqiqlangandan keyin ham Olimpiada g'oyasi butunlay yo'q bo'lib ketmaydi. Masalan, Angliyada XVII asrda Olimpiya musobaqalari va bellashuvlari bir necha bor o'tkazilgan. Bundan keyin bu kabi bellashuvlar Fransiya, Gretsiyada ham tashkil etilgan. Bu tadbirlar hududiy xarakterga ega. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining rivoji 1859–1880-yillarga to'g'ri keladi. Gretsiyada Olimpiya o'yinlarini tiklash haqidagi g'oya shoir Ponayotis Susosga tegishli bo'lib, uni hayotga jamoat arbobi Yevangelis Zappas tatbiq etgan.

Arxeologik qazilmalar natijasida 1766-yilda Olimpiada o'yinlari o'tkazilgan qadimgi inshootlarning qoldiqlari topilgan. 1875-yilda arxeologik izlanishlar olmon mutaxassislari tomonidan davom ettirilgan. O'sha paytlarda Yevropada antik davr haqida romantik-idealistik tushunchalar urf bo'lgan edi. "Olimpiadacha" fikrlash hamda uning o'ziga xos madaniyati Yevropa bo'ylab tez tarqaladi. "Fransuz baroni Pyer de Kuberten bu borada: "Germaniya qadimgi Olimpiyaga tegishli ma'lumotlarni qazib topganida, nima uchun Fransiya uning avvalgi buyukligini tiklay olmas ekan?" degan g'oyani olg'a suradi" [5]. U 1870–1871-yillardagi frank-pruss urushida fransuzlarning mag'lubiyatiga fransuz soldatlarning yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega emasligi sabab bo'lgan degan xulosaga keladi. Bu holatni u fransuzlarda jismoniy tarbiya madaniyatini yaxshilash orqali o'zgartirib, milliy xudbinlikni ham yenggan holda, tinchlik va hamjihatlik uchun o'z hissasini qo'shmoqchi bo'ladi. Dunyo yoshlarini jang maydonlarida emas, balki musobaqalarda jismoniy kuchda bellashish kerakligi haqidagi g'oyasini dunyo hamjamiyati oldida himoya qiladi.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** 1884-yili 16–23-iyun kunlari Pyer de Kuberten Parij universiteti Sorbonnada o'tkazilgan Kongressda o'zining fikrlarini bayon etadi. Kongressning so'nggi kunlari birinchi Olimpiya o'yinlari uning tarixiy vatani bo'lgan Gretsiyada, aniqrog'i uning poytaxti Afinada 1896-yili o'tkazishga qaror qilinadi. O'yinlarni o'tkazishni tashkillashtirish uchun Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi – XOQ ta'sis etiladi. Uning birinchi prezidenti etib grek Demetrius Vekelas tayinlanadi. U 1896-yilgacha, ya'ni, birinchi Olimpiya o'yinlari yakunlanguniga qadar prezidentlik qiladi. Mas'ul kotib etib Pyer de Kuberten tayinlanadi [8]. Birinchi Olimpiya o'yinlari katta muvafaqqiyat bilan o'tkaziladi. O'n

to'rtta davlatdan kelgan 241 ta atlet qatnashgan bo'lsa-da, bu tadbir Qadimgi Yunoniston davridan buyon o'tkazilgan eng yirik sport bellashuviga aylangan edi. Gretsiyaning mas'ul shaxslari bundan shunchalik mamnun bo'lishadiki, Olimpiya o'yinlari doimo ularning vatanida o'tkazish taklifini berishadi. Lekin XOQ turli davlatlarning haq-huquqlarini himoya qilib, har to'rt yilda o'yin o'tkazish joyini almashtirish qoidasini kiritadi.

Birinchi muvaffaqiyat ketidan birinchi inqiroz ham yuz beradi. 1900-yildagi Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan ikkinchi Olimpiya o'yinlari ham, AQSHning Missuri shtatining Sent Luis shahrida uyushtirilgan uchinchi Olimpiya o'yinlari ham xalqaro ko'rgazmalar bilan birgalikda tashkil qilingani uchun sport musobaqalari oylab davom etib, tomoshabinlarda qiziqish uyg'otmaydi. Sent Luisdagi o'yin ishtirokchilarining aksariyatini amerikalik sportchilar tashkil etardi. Chunki yevropalik sportchilar okean ortidan yetib kelishlari, texnik sabablarga ko'ra, juda mushkul edi. 1906-yilda Gretsiyaning poytaxti Afinada o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining sport bellashuvlari yana muvaffaqiyat qozonadi. 1894-yili Parijda o'tkazilgan Xalqaro sport anjumanida Olimpiya xartiyasi tomonidan Olimpiya o'yinlarining tamoyillari, qoidalar, tartiblari aniqlashtiriladi. Unda Pyer de Kuberten taklifiga binoan, musobaqalarni antik davr qoidalariga ko'ra, o'tkazish qaroriga kelingan. Xartiyaga ko'ra, Olimpiya o'yinlari "Haqqoniy va teng huquqli musobaqalarda butun dunyo havaskor sportchilarini birlashtirib, mamlakatlar, alohida shaxslarga nisbatan irqiy, diniy yoki siyosiy kamsitilishlarga yo'l qo'yilmaydi" [8].

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** O'yinlar har to'rt yilda o'tkaziladi. Olimpiya o'yinlari hisobi 1896-yildan boshlab hisoblanadi. 1913-yili Kuberten taklifiga ko'ra, XOQ tomonidan qabul qilingan Olimpiya harakatining timsoli, bayrog'i, shiori ta'asis etilgan. Olimpiya o'yinlari timsoli – dunyoning besh qit'asini anglatuvchi birlashtirilgan beshta halqalardir. Havo rang halqa Yevropani, qorasi Afrikani, qizili Amerikani, pastdagi sariq halqa Osiyoni, yashili Avstraliyani belgilab beradi. Shiori – "Citius! Altius! Fortius!", ya'ni, tezroq, balandroq, kuchliroq bo'lishga chorlovchi so'zlaridan iborat. Bayrog'i–Olimpiya halqalari tasviri tushirilgan oq matodir. Bu bayrog' 1920-yildan e'tiboran, har bir o'yinda ko'tariladi. 1932-yildan boshlab tashkilotchi shahar Olimpiya o'yinlari qishlog'ini – ishtirokchilar uchun yashash joylarini quradi. O'yin tashkilotchilari maxsus emblema va o'yinlar timsolini ishlab chiqaradilar. Emblema, odatda, takrorlanmas dizaynga ega bo'lib, mazkur davlatning o'ziga xosligini belgilab beradi. Tadbir taraddudida emblema va timsollar sovg'a sifatida sotiladi. Sovg'alardan tushadigan daromad Olimpiya o'yinlariga safarbar etiladi, ammo uning harajatlarini butkul qoplamaydi.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining ochilish va yopilish tadbirlarini o'tkazish tartibi. Har bir yirik musobaqa, albatta, betakror ochilish va yopilish marosimlari bilan boshqalaridan farqlanib turadi. To'rt yillikning muhim bellashuvlari qatorida jahon chempionatlaridan tortib, qita bellashuvlarigacha maxsus tartibda tashkil etilgan tantanalar bilan boshlanib, yakunlanadi. Ssenariynavislar bu tantanalarga o'zgacha tayyorgarlik ko'rib, avvalgi musobaqalardan ham ajralib turishini xohlashadi. Yildan yilga dunyoning eng yetakchi tadbir ssenariy mualliflari, ommaviy shou tashkilotchilari, maxsus effektlar bo'yicha mutaxassislar mazkur tadbirlarni tashkillashtirish uchun taklif etiladilar. Ko'plab mashhur qo'shiqchi, aktyor va boshqa taniqli insonlar bu tomoshada ishtirok etishga intilishadi. Bu tadbirlarning translyasiyasi har safar tomoshabinlarni jalb qilish bo'yicha barcha rekordlarni yangilaydi. Har safar tashkilotchi mamlakat avvalgi tadbirlarga nisbatan o'ziga xos bo'lishga intiladi, undan o'zib ketishni xohlaydi. Tadbirlar ssenariysi u boshlanguniga qadar sir saqlanadi. Tantanalar juda ko'p tomoshabinlarni sig'dira oladigan yengil atletikaga mo'ljallangan stadionlarda o'tkaziladi. Ochilish va yopilish marosimlari shu mamlakat va shahar qiyofasini gavdalanitiradigan, uning madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishtiradigan teatr tomoshasi bilan boshlanadi. Keyin sportchilar va delegatsiyalarning markaziy stadionga kirib kelishadi. Har bir mamlakatning sportchilari alohida guruh bo'ladilar. Odatda, birinchi bo'lib o'yinlar vatani bo'lgan – Gretsiya davlatining sportchilari saf tortishadi. Qolgan jamoalar musobaqalar o'tkazilayotgan mezbon davlatning alifbosi (Yoki XOQning qabul qilgan fransuz yoki ingliz tillari alifbosi) tartibiga binoan, ketma-ketlikda kirib kelishadi. Oldinda mezbon davlatning vakili o'z tili va XOQ qabul qilgan tilda ishtirokchi davlatning nomi yozilgan taxtachalarni ushlab turadi. Uning ketidan jamoa boshida o'z mamlakatining bayrog'ini ko'targan sportchi keladi. Sportchilar uchun vatanining bayrog'ini ko'tarib, Olimpiya o'yinlarining tadbiriga kirib kelish katta sharaf hisoblanadi. Odatda, bu martabaga hurmatga sazovor bo'lgan sportchilar ega bo'lishadi. Ochilish marosimida XOQ prezidenti hamda o'yin o'tkazilayotgan shahar yoki davlatning mas'ul shaxsi tomonidan nutq so'zlanadi. Nutq so'ngida "(tartib raqami) Olimpiya o'yinlarini ochiq deb e'lon qilaman", degan so'zlar aytiladi [7]. Shundan keyin mushakbozlik boshlanadi. So'ng, o'yinlar vatani bo'lgan Gretsiyaning bayrog'i ko'tarilib, madhiyasi yangraydi. Undan keyin o'yinga mezbonlik qilayotgan davlatning timsollariga navbat beriladi. Biron mamlakatning mashhur sportchisi tomonidan haqqoniy bahslar olib borish uchun

qasamyod qilinadi. Shu o'rinda bugungi kunda taqiqlangan dopingni qabul qilmaslik haqida ham so'z bo'radi. Bir nechta hakamlar tomonidan haqqoniy hakamlilik qilish haqida qasamyod qilinadi. Olimpiada madhiyasi kuylanib, Olimpiada bayrog'i ko'tariladi. Ba'zan tinchlik (havorang matoda zaytun shoxi ushlagan oq kabutar tasviri tushirilgan) bayrog'i ko'tariladi. Marosimni Olimpiada mash'alasini yoqish jarayoni yakunlaydi.

Olimpiada mash'alasi Gretsiyaning Olimpiya shahridagi Appolon maqbarasidagi quyosh nurlaridan alangalatiladi. Qadimgi Gretsiyada Olimpiya o'yinlari homiysi Appolon hisoblangan. "Gera ma'budasining rohibasi shunday so'zlar bilan Appolonga iltijo qiladi: "Quyosh va nur g'oyasi ma'budi Appolon! Nurlaringni bizga hadya et va Olimpiya o'yinlariga mezbonlik qiladigan ...davlatiga, ...shahri uchun muqaddas mash'alani yondirgin!" [6]. 2007-yilga qadar Olimpiada mash'alasining estafetasi butun dunyo bo'ylab o'tkazilgan. Endilikda, xavfsizlik nuqtayi nazaridan, u faqat o'yin o'tkaziladigan davlatdan olib o'tiladi. Mash'ala mezbon davlatga samolyotda olib kelinadi. Mezbon davlatda har bir sportchi o'ziga belgilangan estafeta masofasida mash'alani olib o'tadi. Estafeta jarayoni hammadada katta qiziqish uyg'otadi. Uni olib o'tish katta sharafdir. Uning birinchi qismi Gretsiya shaharlaridan o'tsa, o'yinlar mezboni bo'lgan shaharda yakun topadi. O'yinlar ochilish marosimi kunida mash'ala shu shaharga olib kelinadi. Mezbon mamlakatning sportchilari marosim so'nggida uni markaziy stadiona olib kirishadi. Stadionda mash'ala aylana bo'ylab, bir necha marta olib o'tiladi hamda o'yin uni yoqish sharafiga munosib deb topilgan sportchiga topshiriladi. Bu huquq, ayniqsa, sharafli hisoblanadi. Har bir o'yinlar uchun maxsus tayyorlanadigan idishda Olimpiada mash'alasi yoqiladi. Tashkilotchilar har safar yoqish jarayoniga o'ziga xoslik kiritishga harakat qilishadi. U musobaqa jarayonida yonib, yopilish marosimida o'chiriladi.

**Xulosa.** Olimpiya o'yinlarining tantanali yopilish marosimida ham teatrlashtirilgan tomosha – musobaqalar bilan xayrlashuv, ishtirokchilar namoyishi, XOQ prezidenti hamda mezbon davlat vakilining nutqlari tinglanadi. Ammo yopilish haqidagi e'lonni XOQ prezidenti aytadi. Madhiya yangraganidan keyin bayroq tushiriladi. Mezbon davlat vakili Olimpiada bayrog'ini XOQ prezidentiga uzatadi, u esa, o'z navbatida, keyingi o'yinlarni o'tkazadigan davlat tashkilotchisiga bu bayroqni beradi. Marosim so'ngida lirik musiqa ohanglarida mash'ala so'ndiriladi. Xartiyaga ko'ra, bahslar milliy jamoalar o'rtasida emas, balki ma'lum bir sportchilar orasida o'tkaziladi. Ammo 1908-yildan boshlab norasmiy tarzda jamoalar o'rtasida hisob yo'lga qo'yilgan (1-o'rin – 7 ochko, 2-o'rin – 5 ochko, 3-o'rin – 4 ochko va h.k. yettinchi o'ringa qadar) [6].

Olimpiya o'yinlari tarkibiga kiritilgan sport turlari bo'yicha Olimpiada chempioni bo'lish sportchi uchun nihoyatda obro'lidir. Futbol, beysbol kabi jamoaviy sport o'yinlari bundan mustasno. Ularda jamoalar orasida bahslar olib boriladi. Avvaldan Kuberten Olimpiya o'yinlarini havaskorlar bellashuvi doirasida tashkil etmoqchi bo'lgan. Sport bilan biror manfaatni ko'zlab shug'ullanish havaskorlarga nisbatan adolatsizlik bo'ladi deb hisoblagan u. Shu bilan birga, ishtirok uchun mablag' olgan, ya'ni, bundan manfaatdor bo'lgan murabbiylar ham o'yinlardan chetlashtirilgan. Asta-sekin Olimpiya o'yinlarida havaskor sportchilarning ishtiroki kamayib borgan. Bugungi kunda Olimpiya o'yinlarida boks hamda futboldan tashqari barcha sport turlarida professional sportchilar bahs olib borishadi. Navbatdagi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish joyi maxsus XOQ sessiyasida 7 yil avval aniqlanadi. Bir necha nomzodlar ichida bitta shahar tanlanadi. Tanlov HOQ a'zolarining yopiq ovoz berish jarayonida bo'lib o'tadi. 5 nafar nomzod orasida g'olib shahar ovozlarning kamida yarmiga ega bo'lishi kerak. Agar birinchi turda g'olib aniqlanmasa, ikkinchi va uchinchi tur tashkil etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Донской Д. Роль и место спортивной журналистики в системе СМИ США. Дисс. к.ф.н., М., 2008.
- (2). Мак Чесни Роберт. История спортивной журналистики в США. [http://en.wikipedia.org/wiki/Robert W Mc Chesney](http://en.wikipedia.org/wiki/Robert_W_Mc_Chesney).
- (3). Do'stmuhammad X. "Axborot–mo'jiza, joziba, falsafa". "Yangi asr avlodi", 2013.
- (4). [www.olimpic.org](http://www.olimpic.org)
- (5). [www.database.olimpics.com](http://www.database.olimpics.com)
- (6). [www.olimpic.museum](http://www.olimpic.museum)
- (7). [www.olimpic.games](http://www.olimpic.games)

Yusupova Iqbol Bahodirovna (Navoiy davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi;  
yusupovaiqbol@580gmail.com)

## INSON HUQUQLARI TAMOYILLARINING TARIXIY-TADRIJIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson huquqlari va fuqaro huquqlari tushunchalarining mazmun-mohiyati, inson huquqlari tamoyillarining tarixiy-tadrijiy rivojlanish bosqichlari va O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlar va ularning fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi asosiy tamoyillari haqida yoritilgan. Bugungi kunda fuqarolik jamiyatining asosiy munosabatlarini tartib-ga soluvchi demokratik tamoyillarning tarixiy ahamiyati haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, inson erkinliklari, fuqaro va fuqarolik jamiyati, xalqaro huquqiy hujjatlar, ratifikatsiya, demos, demokratiya, Afina, Rim, Mesopotamiya, Aristotel, Ibn Sino, Qadimgi Sharqda ilk demokratik qarashlar.

Юсупова Икбал Баходировна (преподаватель Навоийского государственного педагогического института; yusupovaiqbol@580gmail.com)

## ЭТАПЫ ИСТОРИКО-ЭВОЛЮЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРИНЦИПОВ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

**Аннотация.** В данной статье описываются сущность понятий прав человека и гражданина, этапы исторического и постепенного развития принципов прав человека и международных документов, ратифицированных Республикой Узбекистан, и их основные принципы в становлении гражданского общества, обсуждается историческое значение указанных принципов.

**Ключевые слова:** права человека, свободы человека, гражданин и гражданское общество, международно-правовые документы, ратификация, demos, демократия, Афины, Рим, Месопотамия, Аристотель, Ибн Сина, первые демократические взгляды на Древнем Востоке.

Yusupova Iqbal Bahodirovna (Teacher of Navoi State Pedagogical University;  
yusupovaiqbol@580gmail.com)

## HISTORICAL AND PROGRESSIVE STAGES OF HUMAN RIGHTS

**Annotation.** This article describes the essence of the concepts of human rights and civil rights, the stages of historical and gradual development of the principles of human rights and the international documents ratified by the Republic of Uzbekistan and their main principles in the establishment of civil society.

**Keys words:** human rights, human freedoms, citizen and civil society, international legal documents, ratification, demos, democracy, Athens, Rome, Mesopotamia, Aristotle, Ibn Sina, the first democratic views in the Ancient East.

**Taqrizchi t.f.f.d (PhD) dotsent Sh.Xoliqulova**

**Kirish.** Insoniyat tarixidan ma'lumki, XX asrda Yer sharining deyarli aksar mamlakatlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan (I va II Jahon urushi nazarda tutilmoqda) yoki uning moddiy-ma'naviy boyliklari istisnosiz urushayotgan davlatlar manfaatlariga jalb etilgan vaqtdan e'tiboran, butun insoniyat tamaddunida muhim o'zgarishlar to'liqini boshlandi. Yer yuzidagi millionlab insonlarning, hududiy va irqiy mansubligidan qat'iy nazar, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy huquqlari halokat yoqasiga kelib qolgan edi. Tarixiy voqelik shundan dalolat beradiki, gegemon davlatlarning o'zaro boyluk orttirish va siyosiy-iqtisodiy manfaatdorlikni kuchaytirish, tovar ishlab chiqarish va xomashyo bazasini yaratish, mahsulotlarni, asosan, "hech nima" evaziga yoki eng arzon stavkalar asosida jahon bozoriga olib chiqish va unga egalik qilish urushda ishtirok etayotgan har bir davlatning konkret maqsadiga aylanib ulgurgan edi. Ammo bu yo'lda deyarli barcha urushayotgan davlatlar aholisi yashash sharoitlarining minimum holatlaridanda ancha pastda turar edi. Inson-tabiati mavjudotlarining "gultoji" sifatida e'tirof etilgan mavjudot, ong va tafakkur ne'matlari bilan boyitilgan yagona fenomen bo'lib e'tirof etilayotgan bir davrda, uzoq izlanishlar, tadqiqotlar va ulkan jasorat namunasi sifatida qo'lga kiritilgan iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ijtimoiy jabhalardagi "inson huquq va erkinliklari"ni abstraklashtirishga ulgurgan edi. Zamonaviy tarix fanlari metodologiyasining bugungi kundagi vazifalari o'tmishdagi voqea-hodisalarni qiyosiy, chuqur ilmiy tahlil qilib, kelajakda sodir bo'lishi mumkin iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayot progresslarini o'rganib borish va unda fuqarolarni birlamschi fenomen sifatida saqlab qolishdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Industrial jamiyatda fuqarolik jamiyat mezonlarini adolatli tamoyillar asosida yaratish va fuqarolarning milliy o'zlikni anglash va Vatan taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish asosiy mezon ekanligi masalasi, shunigdek, inson huquqlari va ularni implementatsiyasi masalalari, inson huquq va erkinliklari masalasiga oid ilmiy xulosalar keltirilgan adabiyotlardan A.Saidov, X.Boboyev, M. Ahmad-

shoyeva, F. Baqoyevalarning asarlarini keltirishimiz mumkin. Masalan, A. Saidovning “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari” kitobida inson huquqlarining halqaro miqyosida rivojlanish bosqichlari, inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning O‘zbekiston qonunlariga implementatsiya-sida uchraydigan muammolarni tahlil qilingan.

A. Mamatqulovning “Xalqaro huquq” darsligida ham ushbu masalaga ilmiy yondashgan holda atroflicha to‘xtalgan.

G. Sirojov “Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga sharhlar” nomli tadqiqotida deklaratsiyada belgilangan har bir qoidaga izoh berib chiqqan.

X. Boboyev va M. Ahmadshoyevalar “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: inson va uning huquqlari eng oliy qadriyat” nomli risolasida inson huquqlarining implementatsiya jarayoniga atroflicha to‘xtalganlar. X. Boboyev “Inson huquqlari” darsligida ham inson huquqlari implementatsiyasi bosqichlarini atroflicha ochib berilgan.

A. Sattorov “O‘zbekiston: Inson huquqlari va qonunlari” to‘plamida umuminsoniy huquqlar majmuyini mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlar bilan taqqoslashga harakat qilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sivilizatsiya tushunchasi doirasida va uning tarixiy-tadrijiy progressida quyidagi rivojlanish omillari kuzatiladi. Birinchidan, yozuvning ixtiro qilinishi-keyingi davrlarda bu ixtiro mohiyatidan shuni anglash mumkinki, jamiyatning iqtisodiy yuksalishi, harbiy kuch-qudratga ega, siyosiy hukmronligi gegemon bo‘lgan har qanday jamiyatda dastlab, fuqarolarning ma’naviy salohiyati yetuk va sog‘lom fikrlovchi fuqarolarning mavjudligi rivojlanish katalizatori hisoblanadi. Insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki o‘chog‘i hisoblangan qadimgi Sharqda qadimgi Misrda iyerogliglar, Mesopotamiyada shumer mixxat yozuv turi, qadimgi Xitoyda iyeroglif va logografik yozuv turlari, Finikiyada ilk alifbo ko‘rinishdagi yozuvning ixtiro qilinishi, qadimgi Yunonistonda finikiy alifbosi asosida yunon yozuvining ixtiro qilinishi, rim va lotin yozuvlarining shakllanishi, O‘rta Osiyoda oromiy yozuvi, Xorazm yozuvi turlarining ixtiro qilinishi misol bo‘la oladi. Shu asosda aytishimiz mumkinki, bugungi industrial jamiyatda fuqarolarlarning ijtimoiy huquq va erkinliklarining rivojlanishi va unga e’tibor jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirishda asosiy mexanizm bo‘la olishini isbotlaydi.

Ikkinchidan, mulkiy tengsizlik va sinfiy jamiyatning shakllanishi: mel. avv. IV ming yillikda kishilik jamiyatida ilk sinfiy tabaqalanish jarayoni undan keyingi ulkan tarixiy voqea-hodisalar asnosida optimallashtirib, mukammallashtirib bordi. Hozirgi davrlarda shuni tushunish mumkinki, har qanday demokratik jamiyatning rivojlanishidagi tipik va asosiy omillaridan biri iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy erkinlikdir. Ushbu munosabatalar kishilik jamiyatida “Neolit inqilobi” kabi qadimiydir. Zero, mel. avv. VI–IV ming yillik insoniyat tarixida I ijtimoiy mehnat taqsimoti sodir bo‘lgan tarixiy davr bo‘lib, o‘zlashtirma xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish, metalning kashf etilishi, yer va hosil unumdorligi evaziga mulkiy tengsizlikning shakllanishi, jmayatda sinfiy tabaqalanishga olib keldi.

Uchinchidan, shahar-davlatlarning paydo bo‘lishi ilk demokratik va siyosiy g‘oyalarning yaratilishi. Ilk shahar davlatlar va siyosiy g‘oyalarning paydo bo‘lishiga oid dastlabki ilmiy qarashlarga tayanadigan bo‘lsak, Qadimgi Misrda mel. avv. IV–III ming yillikda, Mesopotamiyada mel. avv. IV–III ming yillikda, Qadimgi Xitoyda III–II ming yillikda, O‘rta Osiyo hududida IV–III asrda ilk Shahar-davlatlar va ularni boshqarishga oid qarashlar shakllandi. Qadimgi Yunoniston ilk demokratik va siyosiy g‘oyalarning vatani sifatida e’tirof etiladi, hozirgi kunga kelib ayrim tadqiqotchilar tomonidan Qadimgi Yunoniston ilk demokratik va siyosiy g‘oyalarning vujudga kelishi va taraqqiy etishini “Ioniya maktabi”ga bog‘lab o‘rganmoqdalar. Qadimshu Sharqda, asosan, nazariy fanlar rivojlanib, shaxslarning hayotida ulkan o‘zgarishlar olib kirgan. Aytishimiz mumkinki, I Sharq Renessansi davrida ijod etgan faylasuf olimlarimizning siyosiy va davlat boshqaruviga oid qarashlari nafaqat o‘z davri uchun, balki har bir davr uchun va bugungi “glabellashuv” va “axborot asri” uchun ham munosib natijalar bera oladi. Bu borada Forobiyning siyosiy qarashlarini eslaymiz: “Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi mukammallik erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. U bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritolmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va urning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi” [1;186-b.].

To‘rtinchidan, xalqlarning bozor va bozor munosabatlariga tortilishi. Bozor – bu xaridor va sotuvchi munosabatlari asosida faoliyat yuritadigan subyekt. Bu munosabatlarni tartibga soluvchi davlat va uning vakolatli shaxslaridir. Demak, yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayanadiga bo‘lsak, yozuvning ixtiro qilinishi, ishlab chiqaruvchi jamiyatga o‘tish orqali mulkiy tengsizlikka erishish, shahar-davlatlarning paydo bo‘li-



shi, rivojlanishi asnosida iqtisodiy-madaniy aloqlarning yo‘la qo‘yilishiga olib keldi. Endi xalqlar savdo-sotiq va bozor munosabatlari orqali sivilizatsiyalar almashuviga sabab bo‘la boshladilar. Demak, shaxslarning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarimizning tarixiy ildizlari uzoq ming yillar davomida shakllanib kelgan.

Fuqarolik jamiyatiga oid qarashlar va ularning ravnaq topishida Qadimgi Yunoniston alohida ahamiyatga ega. Mel. avv. VIII–VI asrlarda “Buyuk yunon kolonizatsiyasi” davrida ham yunon polislarida mavjud bo‘lgan “Tiraniya” hokimiyatining vujudga kelishi, uning oddiy xalq hayotiga ta’siri ulkan bo‘ldi. Aslini olganda, tiraniya hukumati mavjud tuzumni kuch ishlatish yo‘li bilan tortib olishni nazarda tutadi, shu o‘rinda qayd etish lozimki, tiranlar o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida oddiy xalqning ishonchini oqlash maqsadida hamda ularning qo‘llab-quvvatlashi uchun ularning manfaatlariga xizmat qiladigan munoasabatlarni ham yo‘lga qo‘yishgan. “Sivilizatsiya Qadimiy Yunonistonda va Rimda mavjud bo‘lsa-da, asosan feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o‘ta boshlaganda, hozirgi shaklida paydo bo‘la boshladi va ilk bor «shaharli» (franzuzcha «situayyan», inglizcha «sitezen», ruscha «gorojanin-grajdanin») degan ma’nolarni anglatgan. Mustaqillik e‘lon qilingandan so‘ng, o‘zbek tilida o‘tmishdagi «grajdanlik» so‘zi o‘rniga «fuqarolik» degan atama qabul qilindi» [2;63-b.].

Uzoq asrlar davomida nafaqat inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi, shuningdek, davlat boshqaruvi unda adolatli hukmronlik qilish g‘oyasi, fuqarolarining davlat va jamiyat oldidagi burch va majburiyatlari ham alohida o‘rganilgan. Aristotelning ta’kidlashicha, «inson – tabiatan (mohiyatan) ijtimoiy» ekanligini ta’kidlash bilan birga, «umumiy ma’noda kimda-kim hokimiyat yuritish va bo‘ysunishga taalluqli bo‘lsa, o‘sha fuqarodir, har bir davlat tuzumida fuqaroning mohiyati o‘zgaradi. Davlat tuzumining eng yaxshi turida kimda-kim ma’naviy qadriyatlar talablariga mos hayotni nazarda tutgan holda bo‘ysunish va hokimiyat yuritishni xohlasa va unga qobil bo‘lsa, ana o‘sha fuqarodir» [3;471-b.].

**Tahlil va natijalar.** Asrlar davomida insoniyatning boy ma’naviy tafakkuri asosida sayqallanib, tobora ko‘proq tadqiq qilinib kelayotgan inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi, bizning nazdimizda, tobora mukammallashib borayotgan bo‘lsa-da, asrmizning eng o‘rganilishi o‘ta muhim va dolzarb bo‘lgan asosiy muammolaridandir. Sayyoramizning turli hududlarida poymol qilinayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy huquqlar bu bir shaxs yoki bir oilaning, davlatning emas, butun insoniyat kelajagiga rahna solayotgan tahdiddir. Zero, har bir millat o‘tmishda minglab harbiy to‘qnashuvlar, irqiy-ma’naviy kamsitilishlar evaziga qo‘la kiritilgan huquq va erkinliklari nafaqat bugun balki, kelajak avlod uchun ham xavfsiz hayot olib borishda asosiy kafolat ekanligini anglash zarur. Inson huquqlari bu faqatgina bir millat yoki elatga mansub bo‘lmay, balki yer yuzida yashayotgan har bir fuqarolarga mansubdir.

Globalashuv jarayonining “milliy chegaralarning yuvilib ketish” xususiyatini inobatga olib, madaniyati va tarixi “sayoz” bo‘lgan xalqlarning gegemon madaniyat ta’siri ostida singib ketish ehtimoli yuqori. Mana shunday jarayonida, har bir xalqning milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va milliy ong tushunchalarini alohida tadqiq qilish masalasi ham e’tiborga molik.

**Xulosa va takliflar.** XXI asrda umumbashriyat oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘tgan asrlarda turli xalqlar hayotida sodir bo‘lgan va kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan diskriminatsiya va irqiy kamsitilishlar, genotsid va apartaid jinoyatlar, inson huquqlari va erkinliklariga daxl qiluvchi davlatlarning harbiy toqnashuvlari va ularning oldini olish.

Zero, bugungi “globalashuv” jarayonining ta’siri natijasida “milliy chegaralarning yuvilib ketishi” omiliga qarshi ilm-fan va iqtisodning integratsiyalashuvi orqali jamiyatda “inson omili” har narsdan ustunligi, unga amal qilishi qoidalarini qat’iylashtirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shairi. T., A.Qodiriy nomidagi «Meros» nashriyoti, 1993, 186-bet.
- (2). Аристотель. Собрание сочинений в 4-х томах. Том 4, М., “Мысль”, 1983, с. 63.
- (3). Аристотель. Собрание сочинений в 4-х томах. Том 4, М., “Мысль”, 1983, с. 471.
- (4). I.A.Karimov. Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarni izchil davom ettirish yo‘lidir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 11-chaqiriq 12-sessiyasida so‘zlagan nutqi. T., 2013.
- (5). O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2000, 10 – 14-betlar.

Namozova Maftuna Shokir qizi (Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti;  
maftunanamozova12@gmail.uz)

## YOSHLAR RADIKAL G'OYALARNING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada radikalizm, ekstremizm, terrorizm tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, radikalizmning mohiyati va kelib chiqish tarixi, buzg'unchi g'oyalarning asosi bo'lmish radikal qarashlar va uning ta'sirida kelib chiqayotgan muammolar, "islomlashtirilgan radikalizm" va diniy fundamentalizm, radikal qarashlarni faqat islom dini bilan bog'lash noto'g'ri talqin ekanligi haqida qarashlar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, radikalizm, terrorizm, ekstremizm, Qur'oni karim, hadis, islom radikalizmi, radikal qarashlar, muammolar, mediaummon.

Мафтунa Намозова Шакировна (докторант Института социально-духовных исследований;  
maftunanamozova12@gmail.uz)

## МОЛОДЕЖЬ КАК ДВИЖУЩАЯ СИЛА РАДИКАЛЬНЫХ ИДЕЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается взаимосвязь понятий радикализм, экстремизм, терроризм, сущность и история радикализма, радикальных взглядов подобных «исламизированному радикализму» и религиозному фундаментализму, лежащие в основе деструктивных идей и проблемы, возникающие из-за его влияния. Выявлены мнения о том, что ассоциировать радикальные взгляды только с исламом является ошибочным.

**Ключевые слова:** молодежь, радикализм, терроризм, экстремизм, Священный Коран, хадисы, исламский радикализм, радикальные взгляды, проблемы, медиамир.

Namozova Maftuna Shakir qizi (Doctoral student of the Institute of Social and Spiritual Studies;  
maftunanamozova12@gmail.uz)

## YOUTH AS THE MOTIVATING FORCE OF RADICAL IDEAS

**Annotation.** In this article, the interrelation of the concepts of radicalism, extremism, terrorism, the essence and history of radicalism, the radical views that are the basis of destructive ideas and the problems arising from its influence, "Islamized radicalism" and religious fundamentalism, views that it is a misinterpretation to associate radical views only with Islam have been revealed.

**Key words:** Youth, radicalism, terrorism, extremism, Holy Quran, Hadith, Islamic radicalism, radical views, problems, media world.


**Kirish.** Bizga ma'lumki, jahonning mafkuraviy manzarasida glaballashuv jadal rivojlanayotgan bir paytda yoshlarning radikallashuvi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Biz buni mediamakonda ular bildirayotgan "comment", "status", "post" va "like"lar soni va mazmuni orqali ham sezishimiz mumkin. Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy mojarolar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda islom radikalizmi bizning yoshlarimizni ham chetlab o'tayotgani yo'q.

Bugungi kunda dunyo sahnida islom dini aqidasi niqob qilib ekstremistik va terrorchilik harakatlari yoshlar ma'naviyatini izdan chiqarishga xizmat qilmoqda. Ularni milliy o'zligi, madaniy va ma'rifiy, oilaviy qadriyatlarni yoqotishga undash yo'li bilan jamiyatda zo'ravonlik va radikal qarashlarni tarqatmoqda. Bularning barchasi fuqarolarni ekstremistik va terrorchilikchilik tashkilotlari safiga jalb qilish uchun shart sharoit yaratilayotganligi ortida geosiyosiy o'yinlarning mavjudligi va ularni moliyalashtirilganligi achinarli holatlardan biridir. Bularni asosiy harakatlantiruvchi kuch manbayi esa yoshlar ekanligi fojeadir. Shu sababli radikalizm, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish masalasi mamlakatimiz kun tartibidagi asosiy dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Bunday buzg'unchi g'oyalarni oldini olish, ularni moliyalashtirish manba va kanallariga barham berishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni belgilash, bu borada milliy va xalqaro darajadagi sa'y harakatlarni birlashtirish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishidan biri bo'lsa, davlatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarni radikalizm, terrorizm, ekstremiz kabi buzg'unchi g'oyalardan asrash asosiy vazifalaridan biridir.

**Asosiy qism.** Biz radikalizm borasida izlanishlar olib boorish davrida radikalizm tushunchasi mohiyatini kengroq yoritish maqsadga muvofiq deb hisolaymiz. "Radikalizm" tushunchasi "radix (lot) – ildiz" degan ma'noni bildirib, muayyan shaxs yoki guruhning mavjud ijtimoiy, siyosiy yoki madaniy holatini tubdan va muhosasiz o'zgartirish istagidan iborat bir jarayonga aytiladi. Ya'ni, tub, qat'iy va keskin choralar, harakatlar, dasturlar tarafdorlari. Ular o'z fikrlarida qattiq turib oladilar va bu fikrni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Radikalizm, asosan, nazariya vazifasini o'taydi. Radikal g'oyalarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, diniy va siyosiy radikalizm bugungi kunda dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yangi asr boshlarida demokratiya tarafdorlarini radikalistlar deb atashgan. 1832-yil Buyuk Britaniyada “Islohotlar to‘g‘risida Bill” tarafdorlarini ham radikalizm tarafdorlari sifatida talqin etilgan, Italiyada ma‘rifatparparlar o‘z davrida radikal oqim vakillari sifatida tilga olinadi. Bu misollar orqali radikalizm tushunchasini ijobiy, mo‘tadil islohotlar uchun ham ishlatilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Bugungi kundagi radikalizm “ekstremizm” va “terrorizm”ning nazariy manbayi bo‘lib, ijtimoiy muammolarni zo‘rluk usullari va vositalari orqali hal qilmoqda. Radikal qarashlar o‘z o‘rnida buzg‘unchi g‘oyalarni amaliyotga ko‘chishi uchun kayfiyat va turtki vazifasini o‘taydi. Radikal qarashlar ikki turga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin.



Ayni paytda mediamakonda biz “islom radikalizmi”, islom fundamentalizmi”, ekstremistik va terroristik harakatlarning islom dini bilan bog‘lab tushuntirilayotganligining guvohi bo‘lyapmiz. Aslida, bu no‘tog‘ri tushunchadir. Radikal kayfiyatlar, radikal qarashlar millat tanlamaydi, din tanlamaydi, til tanlamaydi. Masalan, tarixdan, ma‘lumki, ayrim kuchlar dinni asos qilib, uni targ‘ibot va tashviqoti uchun o‘zaro qonli urushlarga da‘vat etganlar va bu jarayonda qurol emas, undan foydalangan insongina o‘q uzgan, aslida, bu urushlar va qirg‘in-barotlarni din emas “dinni niqob qilib olgan” insonlar amalga oshiradi. Bil‘aks, dinlar ayniqsa, islom dini insoniyatni tinchlik, poklik hamda taraqqiyotga chorlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kundagi radikalizm “ekstremizm” va “terrorizm” tushunchasi shakllanishiga oid olimlarning qarashlarini o‘rganish jarayonida bir qator diniy, huquqiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, tarixiy, izohli lug‘atlar hamda normativ-huquqiy adabiyotlar bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ma‘ruzalaridan foydalanildi. Jumladan, Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” kitobi, faylasuf Qiyom Nazarov “Ma‘naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati”, I.Ochilov, A.Madvaliyevning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, shuningdek, L.Bernard, Shayx Abdulaziz Mansur olim va tadqiqotchilarning qarashlari o‘rganilib, tahlil qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi kunda davlat boshqaruv tizimini izdan chiqarish kuchiga ega bo‘lgan radikalizm, terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm kabi tushuncha va atamalar – qo‘llanmalar va tegishli adabiyotlar emperik hamda tarixiylik usulidan foydalanilgan holda o‘rganildi. Jumladan, radikalizm va uning hosilasi bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalar–terrorizm, eksteremizm, fundamentalizm, millatchilik, shovinizm, irqchilik, feminizm, “islomofobiya” va uning hosilasi bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalar singari tushunchalarga doir atamalar yuzasidan turlicha yondashuvlarning diniy, falsafiy, ijtimoiy, siyosiy izohlari tahlil va mulohaza metodlari orqali sharhlandi.

Radikalizm va uning hosilasi bo‘lgan buzg‘unchi g‘oyalar–terrorizm, eksteremizm, fundamentalizm, millatchilik, shovinizm, irqchilik, feminizm va keng targ‘ib qilinayotgan oilaning nostandartlashuvi hudud tanlamaydi va chegara bilmaydi. Bularning asosida radikalizm yotadi. Radikalizmga ko‘proq diniy tus berishadi va biz aksariyat holda “islom radikalizmi” atamasiga duch kelamiz. Bir qarashda, aksariyat holda buzg‘unchilik holatlari islomdan kelib chiqyapti degan tushunchaga boramiz. Bu qarashlar esa dunyo hamjamiyatida “islomofobiya” sabab bo‘luvchi omillardan biri sifatida e‘tirof e‘tiladi.

Islom radikalizmi – siyosiy islomning zo‘ravonlik bilan siyosiy kurash usullari qo‘llangan ekstremal ko‘rinishidir [1]. Radikalizm – fundamentalizmning bir turi. Islom boshqa dinlar kabi nizolarning asosiy sababi bo‘la olmaydi. Islomning radikallashuvi uning siyosatlashuv jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Bugungi kunda islomiy radikalizm global siyosiy vaziyatni beqarorlashtiruvchi omilga aylandi. Aksariyat hollarda teologik asoslar, mafkuraviy va asosiy qadriyatlar islom radikalizmning negizida yotadi va boshqa mintaqalarga keng tarqalishi uchun xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot ishini chuqur o‘rganar ekanmiz biz yuqorida sanab o‘tgan buzg‘unchi g‘oyalar islomni o‘zgartirib ko‘rsatishga urinish oqibatlarini, albatta. Aslida, “islom radikalizmi” emas, “Islomlashtirilgan radikalizm” desak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki radikalizm, ekstremizm, terrorizm faqat islom bilan bog‘liq tushuncha emas. Uni boshqa dinlar bilan ham bog‘lash mumkin. Xususan. Islom dinining muqaddas manbasi Qur‘oni karimning Baqara surasi 256-oyatida: “Dinga majburlash yo‘q” de-

yilgan bo'lsa, Abdulloh ibn Amr (r.a)dan rivoyat qilingan hadisda "Rosululloh (s.a.v) : "Musulmon – qo'li va tilidan musulmonlar omonda bo'lgan kishidir. Muhojir–Alloh qaytargan narsalardan qaytgan kishidir" dedilar (Muttafaqun alayh) [2]. Ushbu hadis sharhida ulamolar. Bu hadisda musulmon kishi nafaqat o'zini musulmon birodariga, balki o'zini diyoridagi zimmiy va g'ayri dinga, hatto hayvonot va nabotot olamiga ham nohaq ozor bermasligini aytishgan. Bugun media ummonda ijtimoiy tarmoqlarda o'zlarining g'arazli maqsadlarini din niqobi ostida yashirib amalga oshiradigan ayrim oqim vakillari o'zlarini tillari bilan bir mo'minni takfirda ayblab unga ozor bersalar yana bir tomondan qo'llaridagi qurol bilan ozor beradilar. Bu Rasululloh (s.a.v) sifatlagan musulmon sifatlariga ziddir.

Shuningdek, Alloh taolo Nahl surasi 90-oyatida "Albatta, Alloh adolatga, ehsonga, qarindoshlarda yaxshilik qilishga amr etadir va fahsh-u munkar hamda zulmkorlikdan qaytarur". Yuqoridagi oyat haqida Abdulloh ibn Mas'ud (r.a) shunday deganlar: "Qur'ondagi eng jamlovchi oyat shu oyatdir. Ergashiladigan yaxshiliklarni ham, chetlanishi lozim bo'lgan yomonliklarni ham jamlab zikr qilingan" [3]. Yana ta'kidlab aytishimiz mumkinki, islom dini mo'tadil, tinchliksevar va ilmga targ'ib qiluvchi. yaxshilikka undovchi dindir. Zero, islom dinining muqaddas manbasi Qur'oni karimda Muhammad s.a.v.ning ummatini har bir ishda mo'tadil bo'lgan, adolatli ummat ekanligini ta'riflab shunday deyilgan: "shuningdek (ya'ni, haq yo'lga hidoyat qilganimiz kabi), sizlarni boshqa odamlar ustida guvoh bo'lishingiz va payg'ambar sizlarning ustingizda guvoh bo'lishi uchun o'rta (mo'tadil, adolatli) bir millat qildik" [4]. Manbalarda hamma narsa asoslab ko'rsatilganiga qaramasdan, bugungi kunda, har qanday dinda dogmatik qarashlar borligini inkor etib bo'lmaydi.

Diniy radikalizmni kelib chiqish sabablaridan yana biri bu shariat chizib bergan chegaradan o'tishlik va dinda chuqur ketishdir. Islom dinining Payg'ambari Muhammad (s.a.v) dinda chuqur ketishdan qaytarganlar. Islom dinining ikkinchi muqaddas manbasi hisoblangan Hadisi shariflarda Ibn Abbos (r.a) rivoyat qiladi: Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Ey odamlar! Dinda chuqur ketishdan saqlaninglar. Chunki sizdan oldingilar dinda chuqur ketishdan halok bo'lgan" dedilar (Imom Ahmad, Nasoiy va Ibn Moja rivoyati). Payg'ambarimiz s.a.v. dinda, e'tiqodda qay darajada bo'lish zarurligini ko'rsatib: "Ishlarning yaxshisi – uning o'rta-chasidir", dedilar [5]. Bundan ko'rinib turibdiki, islomning mohiyati tinchlik, siylayi rahm va imldir.

Ekstremistik radikal qarashlarni barcha diniy ta'limotlar doirasida uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. 1204-yili nasroniylar Rimning «Muqaddas zamin»ni (musulmonlardan) tozalash uchun navbatdagi (to'rtinchi) salbchilar yurishini e'lon qildi. Biroq buning oqibatida Vizantiya poytaxti va o'zlariga o'xshagan nasroniylarning shahri Konstantinopol hujumga uchradi.

XII asrda Rim Papasi bo'lgan Innokentiy III maktublarida "Yoshi, jinsi va dinlarni farq qilmay ba'zi (salbchilar) odamlar ko'z o'ngida zo'ravonliklar, fahsh va boshqa razolatlarga qo'l urishdi. Askarlarning shahvatini qondirish uchun eri bor ayollar, bevalar va o'zini Xudoga bag'ishlagan qizlar ham berib yuborildi. Bularga saltanat boylklari, boy va kamabag'al odamlarning mol-mulkleri, cherkov pullari va undagi ikona, xoch va boshqa muqaddas ashyolarni talon-toroj qilish kamlik qildi" (Iqtibos Innokentiy III markiz Monferratga yozgan maktubidan olindi) [6] deb yozilganiga guvoh bo'lamiz. Misollar shuni ko'rsatayotgani, radikalizm, ekstremizm va terrorizmni faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossizdir. Masalan, Sharq bo'yicha tadqiqotchi mutaxassis, amerikalik tarixchi Bernard Lyuis Islom an'anasida terrorizmdan foydalanganlik haqida hech qanday guvohliklar yo'q, chunki "musulmonlarga ayollar, bolalar yoki qariyalarni na o'ldirish, na qiynoqqa solish va asirlarga nomunosib munosabatda bo'lish buyurilgan" [7] deb izoh berishi ham fikrimizni dalillaydi.

Bugungi kunda radikalizm va uning ta'sirida amaliyotga ko'chayotgan buzg'unchi g'oyalar ijtimoiy hayotda quyidagi muammolarni keltirib chiqaryapti:

- Madaniyatda arablashtirish – bunda diniy libos tushunchasini to'liq tushunib yetmasdan burqa, paranjilarga burkanish diniy e'tiqotning asosiy ustuniga chiqargan holda soch, soqol, libos masalasini birinchi o'ringa chiqarish va media makonda katta auditoriyada "reels"lar orqali targ'ibot qilish;
- Ta'limda keskinlashuv – yoshlarda bir yoqlamali (diniy ta'lim olish istagi ammo yetarlicha bilimni egallamaslik) ta'limni qo'llab-quvvatlash va maktablarda davomatlarning pastlashi;
- Ijtimoiy vaziyatni beqarorlashtirish – mediamakonda dalillarsiz tagi puch g'oyalar va insoniyatni tubanlikka boshlovchi va tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'luvchi materiallarni tarqatish va yoshlarni orqasidan ergashtirish;

•Siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish – media ummonda (tik-tok, instagram, facebook, telegram, twitter, odnoklasniki), davlatimizning ijtimoiy siyosiy holati, diniy siyosat va diniy erkinlik borasidagi ig‘vo ma‘lumotlarni tarqatish va ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish maqsadi videorolik, “shorts”, “vayn”lardan foydalanish.

Fuqarolarga islom ta‘limotiga zid qarashlarni singdirish va dinlararo munosabatlarni keskinlashtirish – radikal qarashga ega bo‘lgan shaxslar va mutaassib kuchlar boshqa din vakillarining e‘tiqotini hurmat qilmasdlik va o‘zlarining qabih rejalarini amalga oshirish maqsadida dinni niqob qilib olib “shahid”, jihod”, “kofir”, “jannat”, “ayollarning diniy libosda yurishi”, “ayollarning turmushga chiqish talablari” kabi tushunchalarni notog‘ri talqin qilishi va fundamental islom bilan bog‘liq g‘oyalarni singdirishda ijtimoiy tarmoqlar va mediamakondan keng foydalanishi. Bag‘rikenglik komponentidan chekingan holda boshqa din vakillariga nisbatan keskin va salbiy munosabatda bo‘lishga undash kabi holatlar kuzatilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlar bugungi jamiyatimizning eng harakatchan zed avlodi bo‘lib, ular ma‘lumotlarning 90% oshig‘ini internet orqali oladi. Ular faol ijtimoiy kuch bo‘lib, ular insoniyatga qaratilgan tahdidlarning obyektidir. Bunda ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo‘lmagan, tashqi ta‘silarga tez beriluvchan va, ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olish lozim.

Diniy ilmlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yoshlarni aksariyat hollarda buzg‘unchi g‘oyalarga yetaklamoqda. Ular diniy ilmlarni chetdan olib kelishlari esa boshqa yoshlar uchun anchayin xavf tug‘dirmoqda. Umuman olganda, ularning aksariyati ilmlarni turlarga bo‘lgan holdagi fikrlashi na dunyoviy, na diniy ilmlarning bilmasligi, sof islom mohiyatini anglamasdan islomni ilmiy nuqtai nazardan egallamasligi asosiy sabablaridan biridir. Bizning g‘o‘r va tajribasiz yoshlarimizning o‘ziga xos energiyasi va faolligidan, ularning maksimalizmga intilishidan ustamonlik bilan g‘ayriinsoniy maqsadlar uchun foydalanish achinarli holatdir.

Qayd etilgan mulohazalar nega yoshlar diniy-ekstremistik harakatlar faoliyatining asosiy ob‘ektiga aylanganini muayyan darajada tushunish imkonini beradi. Turli diniy-ekstremistik harakatlar, terrorchilik xurujlarining asosiy ishtirokchilari yoshlar ekani esa yuqoridagi kabi e‘tiqodiy va g‘oyaviy ta‘sir va tazyiqlar qanday oqibatlariga olib kelishini, o‘ziga kelayotgan avlodga xos faollik va sotsial energiyadan g‘ayriinsoniy maqsadlar yo‘lida nechog‘lik ustalik bilan foydalanish mumkinligini yaqqol namoyish etadi. Bunday buzg‘unchi g‘oyalar va harakatlar ortida radikalizm turadi. Biz terrorizm va eksteremizmga qarshi kurashamiz, oldini olamiz ammo uning ildizi va hosilasi bo‘lgan radikal qarashlarni tog‘rilamas ekanmiz maqsadga erisha olmaymiz. Xullas, radikalizm masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Demak, bizning vazifamiz uning oldini olish, unga qarshi kurashish va bartaraf etishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Sh. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2022, <https://mirarabmadrasa.uz/uz/news/395>
- (2). Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri, “Baqara” surasining 256-oyat mazmuni.
- (3). Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri, “Nahl” surasi 90-oyat mazmuni.
- (4). Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri, “Baqara” surasi, 185-oyat mazmunidan.
- (5). Muborak ibn Muhammad al-Jazariy. “Jomi‘ ul-usul fiy ahadiys ir-rasul”. “Dor ul-bayon” nashriyoti. 1972, 10-juz, 130-bet. Mazkur hadisni Imom Bayhaqiy ham mursal holda “Shu‘b ul-iymon” asarida rivoyat qilgan.
- (6). Dokumenty/Italy/XII/Innocent\_III/register\_I.phtml?id=6017
- (7). <https://www.academia.edu/45453336> Бернад Льюис о развитии исламоведения на Западе

**Muhamadiyeva Nargiza Qudratovna (Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi;  
e-mail: nargizamuhamediyeva84@gmail.com)**

#### **XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID IJODKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING IMKONIYATLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada xalq hunarmandchiligi va uning kundalik turmushimizdagi ahamiyati, hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va takomillashtirishning shart-sharoitlari, usullari, yo‘llari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida texnologiya fani orqali o‘quvchilarga hunarmandchilikning sir-asrorlarini o‘rgatish yo‘llari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda hunarmand-ustalar bilan aloqalar o‘rnatish haqidagi ma‘lumotlar batafsil yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: hunarmandchilik, rivojlantirish, takomillashtirish, muammo, shart-sharoit, texnologiya, yechim, tarbiya, qiziqish, kashtachilik, usul, milliy, hunarmand.*

**Мухамадиева Наргиза Кудратовна (преподаватель Термезского государственного университета;  
e-mail: nargizamuhammadiyeva84@gmail.com)**

### **ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ, СВЯЗАННЫХ С НАРОДНЫМИ РЕМЕСЛАМИ**

*Аннотация. В статье рассматриваются народные промыслы и их значение в нашей повседневной жизни, условия, методы, пути дальнейшего развития и совершенствования ремесел, способы обучения учащихся секретам ремесел посредством науки технологии в общеобразовательных школах и сведения о них. Подробно освещено установление контактов с мастерами во внеклассной деятельности.*

*Ключевые слова: ремесло, развитие, совершенствование, проблема, состояние, технология, решение, образование, интерес, вышивка, метод, народный, ремесленник.*

**Muhammadiyeva Nargiza Kudratovna (Teacher of Termiz State University;  
e-mail: nargizamuhammadiyeva84@gmail.com)**

### **POSSIBILITIES OF FORMATION OF CREATIVE SKILLS RELATED TO FOLK CRAFTS**

*Annotation. In the article, folk crafts and their importance in our daily life, conditions, methods, ways of further development and improvement of handicrafts, ways to teach students the secrets of crafts through technology in general secondary schools and information about establishing relations with crafts-men-masters in extracurricular activities is covered in detail.*

*Key words: crafts, development, improvement, problem, conditions, technology, solution, education, interest, embroidery, method, national, craftsman.*

**Kirish (Introduction).** Hunarmandchilik ancha avval rivojlangan bo'lib, kundalik hayotda foydalaniladigan kerakli buyumlarni, jihozlarni bejirim qilib tayyorlash va shu orqali daromad topish. Bugungi kunda O'zbekistonda hunarmandlarga har tomonlama imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda, shuningdek, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan buyumlar va tovarlar yo'nalishlari kundan kunga ortib bormoqda. Hozirda hunarmandlar ichki bozor bilan kifoyalanmasdan eksport mahsulotlarni ham tayyorlashmoqda. Hunarmandlarning bunday bozorbop mahsulotlari, o'zining tabiiyligi, sermashqatliligi, shuningdek, har bir millatning o'zligini, qadryatlarini o'zida mujassamlashi bilan hunarmandchilik mahsulotlari qadrli, xaridorgir mahsulotga aylanmoqda.

Hunarmand ustalar mahsulot tayyorlash va uni sotish, ayriboshlash kabi ishlarni amalga oshirishlari hozirgi vaqtda bozor munosabatlari bilan chambarchas bog'liq. Chunki tadbirkor, hunarmand bozordagi vaziyatni o'rganmasdan, natijasini umumlashtirmasdan har qanday ishlab chiqarish ishlarini amalga oshira olmaydi. Hunarmandlar hunarmandchilik mahsulotlarini xalqimizga yetkazish orqali har bir xalqning madaniyatini, manaviyatini saqlab qolish va keying davom etib kelayotgan avlodlariga yetkazish kabi vazifalarni bajarib kelmoqda. Hunarmandchilik ishlari bilan shug'ullanishga bugungi kunda ishsiz aholini, yoshlarni, ayollarni va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishni kengaytirish maqsadida, hunarmandchilikni keng miqyosda qo'llab-quvvatlash maqsadida 2017-yilning 17-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida "Hunarmand uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga doir "Hunarmand" uyushmasi faoliyatining yo'nalishlari va vazifalari belgilab olingan, ushbu uyushmaning yangilanganligi, hunarmandlarga yanada kattadan katta mas'uliyatlarni yukladi. Hunarmandlar bir talay hamkorlar bilan aloqalar o'rnatishlari uchun "Xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma, tanlov, yarmarkalarda namoyish etish uchun hunarmandchilik mahsulotlarini olib chiqishning soddalashtirilgan tartibi to'g'risidagi nizom"ni ishlab chiqish belgilangan [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Hunarmandchilik, kasb-hunar egallash, ijodkorlik haqida olimlarimizdan N.A.Muslimov, P.T.Magzumov, U.N.Nishonaliyev, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov, O'.Q.Tolipov, S.S.Egamovlar va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tobora takomillashib borgan hunarmandchilik turli ixtisosliklarga ajralib ketgan va o'z yo'nalishlarini faoliyatini tashkil etib kelayapdi. Jumladan, kulolchilik, tikuvchilik, duradgorlik, taqchilik, temirchilik, quroqchilik, miskarlik, to'nychilik, binokorlik, gilamchilik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nychilik, zargarlik, zardo'zlik va hokazo. Hunarmandlar o'z sohasi bo'yicha tinimsiz ishlashlari natijasida, sifat jihatidan o'z mahsulotlarini yeng yuqori o'rinlarga olib chiqmoqda. Natijada hunarmandlar o'rt-

sida raqobat paydo bo'lib, o'z sohasiga ijodiy yondashmoqda va mahsulotlarini kundan kunga takomillash-tirib bormoqda. Hozirgi kunda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimizda qo'llanilgan ganchkor-lik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlikning bir-biri bilan ajoyib darajada uyg'unlashgani bu-ning yaqqol isbotidir [2].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Hunarmandchilikning eng qadimgi turlari Marg'ilonda matolarga ishlov berishda banoras va adraslarning yo'qolib ketayotgan usullaridan biri "ku-din" usulidagi ishlab chiqarish ancha avval rivojlangan edi. Lekin hozirgi vaqtda ishlab chiqarish kamayib qolganligi bois, qaytadan uni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydilar. Farg'onalik hunarmandlar tomonidan Amir Temur davrida sipohlarning tagiga to'shalgan gilam qaytadan to'qila boshlandi. Ipakdan to'qilgan bu gilamlar bundan 100 yil avval to'qilgan edi.

O'rta Osiyo Sharqning eng ko'hna madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi. Arxeologik tadqiqot ishlarining natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu o'lka aholisi qadimdan boy va rang-barang madaniyat ya-ratganlar. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xalq amaliy san'atining yuksak namunasi hisoblangan kashtado'zlik, ya'ni, matoga kashta tikish san'ati O'rta Osiyo xalqlari tarixida qadimgi davrlardayoq shakl-lana boshlagan. Masalan, arxeologlar tomonidan topilib o'rganilgan ayrim ashyolarda ifodalangan turli xil bezaklar shundan dalolat beradi. Bu xildagi turli bezaklar, shakllar qadimgi davrlardayoq, ajdodlarimizda go'zallikka bo'lgan tabiiy intilish yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi. O'rta asrlarga kelib, kashtachi-lik sezilarli darajada yuksaldi. Matoga kashta tikish, uni turli bezak bilan bezash aholining yuqori tabaqa qatlamida ko'proq ommalashdi [3].

Hozirgi kunga qadar saqlanib kelayotgan kashtalarning turlari muzeylar kolleksiyasida saqlanib qo-lingan. Bunday kashtalarni mahalliy aholi o'rtasida ham uchratish mumkin. Mazkur kashtalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, kashtachilik san'ati asrlar davomida avloddan avlodga madaniy meros sifatida o'tib kel-gan. Ushbu kashtalar va ularda aks ettirilgan bezak shakllarida qadimiy xalqimizning dunyoqarashi va ruhiy olami, badiiy-estetik didi ifodalangan. Boysun aholisining turmush tarzida XIX asr oxiri va XX asrning boshlariga kelib, kashtado'zlik keng tarqaldi. Boysun hunarmandlari kashtachilikda so'zana, zardevor, pa-lak, yostiqlarga kashta tikish, kiyimlarga kashta tikish bilan shug'ullangan. Yosh kelinlarni seplarini kashta-chilik ishlari bilan boyitish milliy urf-odat hisoblangan. Qizlarimizning naqadar chaqqonligini, qo'li gul ekanligini, milliy meroslarimizni ezozlashini, milliy urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qilishini uning tayyorlagan sepi orqali baho berishgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, shunday xulo-saga kelindi. Hunarmandchilik xalqimizni ish bilan ta'minlaydi, shuningdek, har bir xalqning milliy qad-riyatlarini yillar davomida saqlab qolishga yordam beradi. Hunarmandlar to'qigan gilamda integratsiya kat-ta o'rin egallaydi, masalan, gilamning xomashyosi tuya juni bo'lgan, tuya juni o'zida issiqlik saqlaydi, elektr tokini o'tkazmaydi, uzoq vaqt toza saqlanadi va o'ziga gard yuqtirmaydi. Shuningdek, inson tanasi-dan chiqadigan zararli moddalarni zararsizlantirish xususiyatiga ega. Gilam naqsh komponentlarining no-yobligi bilan ajralib turadi va bugungi kunga qadar yo'qolib, unutilishiga ulguragan naqshlar tanlangan va to'qilgan. Tabiiy xomashyo va bo'yoqlardan foydalangan.

Asrlar osha ajdodlardan avlodlarga o'tib, sayqal topib kelgan bu san'at turini asrab-avaylash va kel-gusi avlodlarimizga yetkazish kerakligi ushbu tadqiqot orqali o'quvchilarga etkazildi. Kashtachilikda so'-zanalarda odatda o'rtada oy bilan quyoshni ma'juziy aks ettiruvchi ulkan doiralar joylashadi. Bu doiralar soni turlicha-bittadan sakkiztagacha va undan ko'proq bo'ladi, go'yo bitta so'zana bir qancha quyosh ti-zimini o'z bag'riga olganday tasavvur hosil qiladi. Shunday bo'lsa-da, barcha sayyoralar nomi bitta – oy: lekin ular katta oy, panja oy va kichik oyga bo'linadi. Sayyora markazida uning yuragi bo'lib, barggul yoki dastagul shaklida joylashgan, atrofi esa qator rangin tupbarggulardan iborat halqa bilan qurshalgan. "Say-yoralar" oralig'ida esa lolagul, bodomgul kabi islmi naqshlar joy olgan, butog'larda qushlarning turli ovozdagi ohanglari joy olgan. Manzara she'riy tasvirni aks ettiradi. Hunarmandlar manzaraga qanotli jon-zotlarni kiritilishi kashtachilarga fayz beradi deb o'ylaydilar. So'zananing xoshiyalaridagi "obi", ya'ni yo'li o'tishi, bir qancha ramzlarni anglatib turadi [4].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Hunarmandchilik o'zining serqirra ekanligi bilan tubdan farq qiladi, masalan, uloq (ko'pkari)ga otlariga kashta naqshlari bilan bezatilgan egar-jabduqda chiqadi, bu bilan ular otga bo'lgan mehrini otning tashqi ko'rinishida namoyon etadi. Shuningdek, ot abzali uchun zarur bo'lgan boshqa anjomlar ham tayyorlash keng yo'lga qo'yilgan, ko'pchilar esa chavandozlar uchun maxsus poyabzal tikib beradilar. Mahalliy ustalar yasagan cholg'u asboblari: do'mbira, rubob, nay va loy qo'g'irchoq-hushpullaklar to'y, xalq marosimlari va bayramlarida foydalaniladi. Bundan ko'rinib turibdiki, boysunliklar zaruriy barcha mahsulotlarni qo'lda yaratishga harakat qiladilar. Tunukachilari uyni

isitish ushun temir pechkalar, pechka uchun karnaylar, samovarlar, tunuka idish-tovoqlar va turmush uchun zarur barcha asboblarni yasaydilar. Boysunlik hunarmand ustalar bel, ketmon, o‘roq, pichoq, bolta, arra va zaruriy barcha asboblarni yasaydilar.

Hunarmandchilik yurtimizda keng ixtisoslikarga ega bo‘lib, xilma-xil kasb-hunarlarni o‘zida jamlaydi. Hunarmandchilik hozirgi kunda kichik biznes mehnat faoliyati va oilaviy ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. O‘zbekiston hududida neolit davridayoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog‘i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to‘qimachilik sohalari vujudga kelgan edi [5].

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda qabul qilingan “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-farmoni.
- (2). N.Q.Muhamadiyeva. “Texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish”. Monografiya, Termiz, “TerDU nashr-matbaa markazi” nashriyoti, 2022, 101 bet.
- (3). N.Q.Muhamadiyeva. Tikuvchilik va pazandachilik jihozlari. Tikuvchilik va pazandachilik jihozlari. O‘quv qo‘llanma, T., “Publishing high future”, 2024, 130 bet.
- (4). N.Q.Muhamadiyeva. Milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. Uslubiy qo‘llanma, “Lesson Press”, Toshkent, 2023, 106 bet.
- (5). N.Q.Muhamadiyeva. Texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillashtirish texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma, “Lesson Press”, Toshkent, 2023, 111-bet.

**Ражабова Нодира Фаттаевна (ассистент кафедры общепрофессиональных социально-гуманитарных наук Нукусского филиала Государственной консерватории Узбекистана; saubetulla@gamil.com)**  
**АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ**  
**СОЛЬФЕДЖИО**

***Аннотация.** Сольфеджио является одним из творческих предметов, где роль и мастерство педагога играет большое значение. В этой статье предлагается три способа развития творческих навыков необходимых для полноценного профессионального развития учащихся. При этом неопределима роль теоретических знаний, полученных в процессе обучения. Сольфеджио как один из основных предметов в системе музыкального образования, способствует музыкальному развитию учащихся, помогает воспринимать и понимать музыку. Сольфеджио – это практическое усвоение таких предметов, как элементарная теория музыки, гармония, полифония, анализ музыкальных произведений.*

***Ключевые слова:** эффективность, метод, стиль, национальная особенность, слух, теоретические знания, способность, интерес и др.*

#### SOLFEDJIODA IJODIY YO‘NALISHNI METODIK FAOLLASHTIRISH USHLUBLARI

***Аннотация.** Сольфеджио – bu o‘qituvchining roli va mahorati katta ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy fanlardan biri. Ushbu maqola talabalarning to‘liq kasbiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning uchta usulini taklif qiladi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarning o‘rni beqiyosdir. Solfedjiyo musiqa ta’limi tizimidagi asosiy fanlardan biri sifatida o‘qituvchilarning musiqiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi, musiqani idrok etish va tushunishga yordam beradi. Solfedjiyo elementar musiqa nazariyasi, garmoniya, polifoniya, musiqiy asar tahlili kabi fanlarni amaliy o‘zlashtirishdir.*

***Калт so‘zlar:** effektiv, metod, stil, milliylik, eshitish qobiliyati, nazariy bilim, qobiliyat, qiziqish va h.k.*

#### TECHNOLOGY OF METHODOLOGICAL ACTIVATION OF CREATIVE DIRECTION IN SOLFEGGIO

***Annotation.** Solfeggio is one of the creative disciplines in which the role and skill of the teacher is of great importance. This article suggests three ways to develop creative skills that are necessary for the full professional development of students. At the same time, the role of theoretical knowledge acquired in the educational process is incomparable. As one of the main subjects in the system of music education, Solfeggio contributes to the musical development of students, helps to perceive and understand music. Solfeggio is a practical mastery of such subjects as elementary music theory, harmony, polyphony, analysis of a musical work.*

***Key words:** effectiveness, method, style, nationality, hearing ability, theoretical knowledge, ability, interest etc.*



**Рецензент Камалова Дельфуза Энуаровна, PhD, заместитель директора по научной работе и инновациям.**

**Введение.** Сольфеджо как один из основных предметов в системе музыкального образования, способствует музыкальному развитию учащихся, помогает воспринимать и понимать музыку. Сольфеджо – это практическое усвоение таких предметов, как элементарная теория музыки, гармония, полифония, анализ музыкальных произведений.

В то же время невозможно достижение высокого уровня слухового развития без теоретических знаний. Сольфеджо на основе воспитания слуха, закрепляет приобретённые знания, развивает аналитические способности учащихся, необходимые для профессиональной деятельности музыканта. Ключевым вопросом воспитания молодых музыкантов сегодня является развитие творческих навыков. И это не случайно. В программе по сольфеджио методического кабинета Министерства культуры Республики наряду с содержанием предмета по курсам, краткими методическими указаниями, интонационными упражнениями, огромное значение уделяется развитию творческих навыков – необходимый компонент в методике преподавания музыкально-теоретических дисциплин. Особенно наглядно и ярко, это можно проследить на предмете сольфеджо, где творчество является необходимым условием эффективного освоения музыкально-теоретических тем.

**Анализ литературы по теме (Literature review).** Семиступенная интервальная система, все звуки которой могут быть расположены по чистым квинтам. «Музыкальный словарь». Шатковский Г.И. Развитие музыкального слуха, Цыпин Г.М. Музыкальное исполнительство и педагогика., Шатковский Г.И. Развитие музыкального слуха., Оськина В.П., Парнес Д.Г. Музыкальный слух. и др.

**Методология исследования (Research Methodology).** Сольфеджо как один из основных предметов в системе музыкального образования, способствует музыкальному развитию учащихся, помогает воспринимать и понимать музыку. Сольфеджо – это практическое усвоение таких предметов, как элементарная теория музыки, гармония, полифония, анализ музыкальных произведений.

Современное творчество ученика и учителя усиливает интерес к знаниям, способствует впечатлению индивидуальности каждого учащегося.

**Анализ и результаты (Analysis and results).** На мой взгляд, занятия по развитию творчества следует систематизировать, опираясь на географическое место, историческое содержание и национальную особенность учащегося. Весь процесс развития творческих навыков условно делится на три этапа. Каждый этап имеет свою особенность, а степень сложности заданий последовательно возрастает.

На первых занятиях общих и специальных курсах можно предложить подобрать мелодию или необходимую фразу на инструменте, будь то гитара, домбра, скрипка или фортепиано. Затем играть ее в различных тональностях, или от равных звуков (секвенционно) определяя тональность. Здесь следует добиваться свободы и легкости исполнения мелодии, при которой развивается внутренний слух учащегося. Досочинить заключительную конференцию в предполагаемой преподавателем в качестве диктанта мелодии в форме периода повторной структуры. Степень сложности мелодии может быть разной в зависимости от уровня подготовки учащегося. Следующей ступенью первого этапа является игра мелодии диктанта (написанного или выученного наизусть) на выдержанной квинте с использованием неаккордовых звуков или без них.

Завершающей ступенью первого этапа творческих знаний является при сочинении к теме второго голоса на основе разрешения неустойчивых интервалов в устойчивые. Возможно исполнение мелодии под усуль – ритмический рисунок предложенный одним из учеников на ударных инструментах (или голосом на слоги «тан», «нан», «бак», «бум»).

Второй этап развития творческих навыков основан на гармонизации данной мелодии (известной или записанной в качестве диктанта) по возможности в фактурном варианте. Здесь основной задачей является развитие гармонического слуха, хотя начало было заложено уже на первом этапе (при сочинении к теме второго голоса на основе разрешения интервалов). Развитие гармонического слуха является важным компонентом в курсе сольфеджио и потому особенно важно обратить внимание учащихся на следующее:

- разрешение диссонирующих аккордов чаще звучит от слабой доли к сильной;
- смена аккордов на сильных долях, а в быстром темпе на каждую долю;
- голосоведение плавное;
- функциональная система аккордов основана на постепенном напряжении и спаде (разрешения);

•затакт не гармонизируется или гармонизируется неустойчивой гармонией с последующим решением на сильную долю такта;

- параллельные квинты и октавы нежелательны, они придают звуковую пустоту
- сохранение национальных особенностей аккордовых сочинений и ритмов;

Третьим этапом развития творческих навыков является сочинение мелодии, что тесно связано с элементами импровизации (начало было, но первом этапе при сочинении заключительной каденций к данной мелодии). Сочинение усиливает интерес учащегося к занятиям, способствует, выявлению индивидуальности каждого, утверждению своего «я». Но при этом необходима определенная цель, условия задания. Например:

Сочинить мелодию на данный размер в форме периода, где первое предложение завершается на доминанту, второе предложение на тонику. Дана тональность, распределены такты, намеченные кульминации каждого предложения – рождается музыка. Это задание рассчитано на сочинение мелодии всей группой, где учащиеся только сочиняют каждый по такту, но не следуют за единым стилем, характером темы.

Учащиеся на уроке записывают первое предложение одnogолосного диктанта с половиной каденций, а затем им предлагается дописать второе предложение с полной каденцией с сохранением ритмических особенностей первого целью объединения их в единое целое. Возможны, сочинение второго предложения периода повторной структуры, в котором каденции будут разные: 1 предложение на доминанту, 2 предложение на тонику.

**Выводы и предложения (Conclusion/Recommendations).** Предлагается подобрать мелодию в формате расширенного периода в жанре вальса, марша, польки, мазурки так, как в конкретных ладах народной музыки или учитывая особенности размера, ритма и интонаций народного мелоса.

Возможна, инструментальная импровизация на предложенную друг другу тему с использованием таких мелизмов, как нола, кашиш, безак, когирим, сайкал, бидратма и другие. Сочинение мелодии на данный учителем текст, используя технику вибрации голоса (текст может предложить и сам ученик). Возможно, сочинение текста на данную мелодию и т.д.

#### **Список использованных литератур (References):**

- (1). Семиступенная интервальная система все звуки которой могут быть расположены по чистым квинтам. «Музыкальный словарь». М., «Советская энциклопедия», 1991, с. 172.
- (2). Шатковский Г.И. Развитие музыкального слуха. Москва, 2010, с. 18.
- (3). Цыпин Г.М. Музыкальное исполнительство и педагогика. Москва, 2020–2023, с. 63.
- (4). Шатковский Г.И. Развитие музыкального слуха. Москва, 2023, с. 84.
- (5). Оськина В.П., Парнес Д.Г. Музыкальный слух. Москва, 2002, с. 97.

**Mirzakulova Xursanoy Nematjanovna (Senior Lecturer, Department of language teaching, law enforcement academy)**

#### **COMPARATIVE ANALYSIS OF TERMS RELATED TO LAW IN ENGLISH AND UZBEK**

***Annotation.** This paper presents a comparative analysis of legal terminology in English and Uzbek, exploring the similarities and differences between the two languages in terms of semantic, conceptual, and lexical equivalence. The study examines a corpus of legal texts from various legal domains, identifying key terms with potential translation difficulties. By analyzing the linguistic and cultural influences on legal terminology, the research explores the implications for legal translation, communication, and education in cross-cultural contexts. The findings highlight the challenges and strategies involved in bridging the gap between English and Uzbek legal terminology, contributing to a deeper understanding of the complexities of legal translation and communication across language barriers.*

***Key words:** legal terminology, translation, comparative law, English Language.*

#### **INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI HUQUQQA OID TERMINLARNING QIYOSIY TAHLILI**

***Annotatsiya.** Ushbu hujjatda ingliz va o'zbek tillarida yuridik terminologiyaning qiyosiy tahlili, ikki tilning semantik, konseptual va leksik ekvivalentlik jihatidan o'xshashlik va farqlari o'rganilgan. Tadqiqot turli xil huquqiy sohalaridagi huquqiy matnlarning korpusini o'rganib chiqadi va potensial tarjima qiyinchiliklari bilan asosiy atamalarni aniqlaydi. Huquqiy terminologiyaga lingvistik va madaniy ta'sirlarni tahlil qilib, tadqiqot madaniyatlararo kontekstda huquqiy tarjima, aloqa va ta'limga ta'sirini o'rganadi. Topilmalar ingliz va o'zbek yuridik terminologiyasi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, til to'siqlari bo'y-*

*lab huquqiy tarjima va muloqotning murakkabliklarini chuqurroq tushunishga yordam beradigan muam-molar va strategiyalarni ta'kidlaydi.*

**Kalit so'zlar:** *yuridik terminologiya, tarjima, qiyosiy huquq, ingliz tili.*

**Аннотация.** *В данной статье представлен сравнительный анализ юридической терминологии на английском и узбекском языках, исследуются сходства и различия между двумя языками с точки зрения семантической, концептуальной и лексической эквивалентности. В исследовании рассматривается корпус юридических текстов из различных областей права, выявляются ключевые термины, с которыми могут возникнуть трудности при переводе. Анализируя лингвистическое и культурное влияние на юридическую терминологию, авторы исследования исследуют ее значение для юридического перевода, коммуникации и образования в межкультурном контексте. Полученные результаты высвечивают проблемы и стратегии, связанные с преодолением разрыва между английской и узбекской юридической терминологией, способствуя более глубокому пониманию сложностей юридического перевода и коммуникации через языковые барьеры.*

**Ключевые слова:** *юридическая терминология, перевод, сравнительное правоведение, английский язык.*

**Introduction.** Legal terminology plays a crucial role in the accurate communication and understanding of legal concepts. However, translating legal terms between languages can be a complex process due to cultural, historical, and linguistic differences. This research aims to explore the similarities and differences in legal terminology between English and Uzbek, with a particular focus on identifying challenges and strategies for effective translation and communication in legal contexts.

The study addresses the following research question: What are the key similarities and differences in legal terminology between English and Uzbek, and what are the implications for legal translation and communication.

By comparing legal terms across these two languages, this research sheds light on the complexities of legal translation and contributes to a deeper understanding of how language and culture shape legal discourse.

The study aims to shed light on the complexities of translating legal terms between these two languages, identifying key similarities and differences, and exploring the implications for legal translation, communication, and education. By examining the semantic, conceptual, and lexical variations between English and Uzbek legal terminology, this research contributes to a deeper understanding of the challenges and strategies involved in bridging the gap between these two legal systems and fostering effective communication in cross-cultural contexts.

This research addresses the following research question: What are the key similarities and differences in legal terminology between English and Uzbek, and what are the implications for legal translation and communication?

By analyzing a corpus of legal texts from various legal domains, this research seeks to provide a comprehensive understanding of the intricacies of legal terminology and its impact on legal translation, communication, and education in a globalized world.

**Materials and methods.** This research employs a comparative analysis of legal terminology using a corpus-based approach. The methodology involves the following steps:

1. Corpus Selection:

- A corpus of legal texts in both English and Uzbek was compiled, covering a range of legal domains, including criminal law, civil law, contract law, and constitutional law.
- The texts were selected from various sources, such as legal databases, textbooks, legislation, and legal journals.

2. Term Extraction:

- Key legal terms were extracted from the selected corpora using a combination of manual and automated methods.
- Terms with potential translation difficulties were identified, considering factors such as semantic ambiguity, conceptual differences, and lexical variations.

3. Comparative Analysis:

- The extracted terms were analyzed to identify similarities and differences in:
  - Semantic Equivalence: Do the terms have equivalent meanings in both languages?
  - Conceptual Equivalence: Do the terms represent equivalent legal concepts in both legal systems?

– Lexical Differences: Are there specific lexical differences in the terms used (e.g., different words, grammatical structures, etc.)?

– Cultural Influences: Are there any cultural influences on the legal terminology in either language?

**Results and discussion.** The comparative analysis of legal terminology between English and Uzbek revealed both striking similarities and notable differences, highlighting the challenges and opportunities presented in legal translation and communication between these two languages.

*Table 1*

**Comparison of Legal Terminology in English and Uzbek**

Concept	English Term	Uzbek Term	Similarities	Differences	Implications for Translation
Ownership	Ownership	Mulkiylik huquqi	Similar concept of legal right to possess and control property	Different historical and legal frameworks for establishing and transferring ownership	Requires nuanced translation to capture the specific legal implications in each system
Negligence	Negligence	Ehtiyotsizlik	Shared concept of failing to exercise reasonable care	May differ in the scope of behaviors considered negligent	Translators must consider the specific legal definitions and context
Contract	Contract	Shartnoma	Shared concept of legally binding agreement	Differences in legal requirements for contract formation and enforcement	Requires understanding of specific legal requirements in both systems
Liability	Liability	Javobgarlik	Similar concept of legal responsibility for damages	Differences in the scope of liability and the specific types of legal remedies available	Requires careful translation to accurately convey the legal implications
Evidence	Evidence	Dalil	Shared concept of information used to support claims in legal proceedings	Differences in the admissibility of evidence and rules of evidence	Translators need to be aware of the specific rules of evidence in each system

This table provides a general overview of some key legal concepts. Specific terms and their translations may vary depending on the specific legal context and the nuances of legal terminology within each language.

- **Conceptual Equivalence:** Despite some shared legal concepts, the legal systems of English and Uzbek often exhibit variations in their application and interpretation. For example, the concept of “ownership” may hold different legal implications in the two systems, requiring a nuanced understanding of the legal frameworks.

- **Lexical Differences:** Significant lexical differences were observed between English and Uzbek legal terms. Even for similar concepts, the specific words and phrases used often differ considerably. This presents a challenge for accurate translation, as a direct word-for-word translation may not convey the intended meaning.

- **Cultural Influences:** Cultural influences on legal terminology were evident in both languages. For instance, Uzbek legal terminology reflects a history influenced by Islamic legal traditions, while English legal terminology reflects its Anglo-Saxon roots. These cultural influences can necessitate the use of specific translation strategies to ensure accurate and culturally appropriate communication.

The findings highlight the need for a deep understanding of both the linguistic and cultural contexts when translating legal terms between English and Uzbek. A literal translation may not always be sufficient, and translators must be aware of the nuances in meaning and the potential for misunderstanding.

**Conclusion.** The comparative analysis of legal terminology between English and Uzbek underscores the complexity of legal translation and communication across language barriers. While similarities exist, significant differences in semantics, legal concepts, lexicon, and cultural influences present unique challenges for achieving accurate and effective translation.

This research provides valuable insights into the intricacies of legal terminology, emphasizing the need for specialized knowledge, careful consideration of context, and a nuanced understanding of both linguistic and cultural factors. By promoting cross-cultural communication and collaboration, developing specialized resources and training programs, and fostering a shared understanding of legal concepts and terminology, we can contribute to more effective legal translation and communication between English and Uzbek legal professionals.

**References:**

[1]. Legal Translation: A Handbook for Translators and Legal Professionals by Judith Woodsworth (2013): This book offers a comprehensive overview of legal translation, including strategies for handling legal terminology and cultural considerations.

[2]. Legal Terminology: An Introduction to the Language of Law by Philip M. Taylor (2006): This textbook provides a foundational understanding of legal terminology and the principles of legal translation.

[3]. Comparative Legal Terminology. A Cross-Linguistic Study of Legal Concepts and Language by Peter Cotterell (2005). This book delves into the comparative analysis of legal terminology across different language families.

**Namazova Shakhnaza Shnazarovna (Associate Project Officer, UNESCO)**  
**INTEGRATION OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS INTO MAINSTREAM SCHOOLS  
WITH SIGHTED STUDENTS IN UZBEKISTAN**

**Annotation.** *Studies in child development, sociology, and special education have led educators to conclude that visually impaired children thrive in the least restrictive environment, achieving greater self and social fulfilment [1]. Through local education, with the support of well-prepared specialists in blind education, these children can have common everyday experiences that are essential for developing a keen awareness of the world around them. With proper technical assistance and consultation provided to regular classroom teachers, as well as a broad educational environment, visually impaired children can demonstrate their true worth and be more readily accepted socially by their sighted peers. Statistics show that in most developing countries, less than 10% of visually impaired children receive any form of education. Therefore, integrated education is considered the most practical approach. It is an economically viable, psychologically superior, and socially acceptable model for bringing all unreached visually impaired children into the mainstream of education. Taking into account all of the above, we will consider the importance of visually impaired children studying in the same class with their non-impaired peers and how this process can be implemented in the conditions of Uzbekistan.*

**Key words:** *visually impaired students, social integration, development concept, inclusive education, UNICEF-UED “Universal education design”.*

**O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZ VA KO‘RISH QOBILİYATI ZAIF O‘QUVCHILARNI  
KO‘RISH QOBILİYATIGA EGA O‘QUVCHILAR BILAN UMUMTA‘LIM MAKTABLARIGA  
INTEGRATSIYA QILISH**

